

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRSAIDOV MIRZIYOD  
DONAYEV BURXON  
XUDAYNAZAROV SHERZOD  
ALMARDONOV OYBEK**

**NAZARIY MEXANIKA**  
**I – QISM**  
**(MISOL VA MASALALAR)**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida foydalanishga  
tavsiya etilgan*

TOSHKENT  
2022

**UDK: 438.6.433.721**

**BBK: 50.466**

**M.Mirsaidov, B.Donayev, SH.Xudoynazarov, O.Almardonov**

Nazariy mexanika. I-qism (misol va masalalar). O‘quv qo‘llanma

«\_\_\_\_\_» nashriyoti, 2022. –292b.

### **Taqrizchilar:**

**K.S.Sultonov** – O‘zb.R.F.A. “Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi” instituti direktori, fizika –matematika fanlari doktori, professor.

**S.X. Yoqubov** – QMII “Umumtexnika fanlari” kafedrasi professori, texnika fanlari doktori, professor.

O‘quv qo‘llanmada “Nazariy mexanika” fanining statika va kinematika bo‘limlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan nazariy ma’lumotlar, masalalarni yechish tartibi, mustaqil yechish uchun misol va masalalar to‘liq keltirilgan. Ba’zi masalalar har xil usullar bilan echilib, masalalarning echilish tartibi batafsil tushuntirilgan va olingan natijalar solishtirilib qo‘llanilgan usullar tahlil qilingan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining mashinasozlik, sanoat, qurilish, suv xo‘jaligi va texnikaning boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha bilim oluvchi bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan magistrler, ilmiy tadqiqotchi va izlanuvchilar ham keng foydalanishlari mumkin.

The textbook contains the necessary materials for the course of "Theoretical Mechanics" for practical exercises in statics and kinematics; it discusses in detail theoretical questions, methods of solving problems and gives a sufficient number of examples of their independent implementation. It also gives a detailed solution to some problems (various options) and the solutions obtained are compared to analyze the effectiveness of the technique.

This textbook is intended for bachelor students studying in mechanical engineering, industry, construction, water management, and other technical areas. It can also be useful for masters, graduate students, and researchers.

ISBN 978-9943-7376-4-8

© M.Mirsaidov, B.Donayev, SH.Xudoynazarov, O.Almardonov, 2022

© «\_\_\_\_\_» nashriyoti, 2022

## KIRISH

Bizni juda hayratlanarli va cheksiz olam o‘rab olgan bo‘lib, ushbu olam gigant yulduzlar, planetalar, sirli va qorong‘u bo‘shliqlar, Quyosh sistemasi, jonli va jonsiz jismlardan tashkil topgan.

Harakat tabiatning ajralmas qismi bo‘lib, olamda bo‘layotgan barcha voqeа-hodisalarni o‘zida qamrab oladi. Har qanday harakat jismlarning biror bir ko‘chishlarining yig‘indisidan tashkil topadi, masalan, osmon jismlarining o‘z holatini o‘zgartirishi, yer yuzasidagi moddiy jismlarning bir-biriga nisbatan o‘z vaziyatini o‘zgartirishi.

**Nazariy mexanika moddiy jismlarning mexanik harakatining umumiy qonuniyatları va jismlarning muvozanat holatlari haqidagi fandir.**

Mexanik harakat deganda jismlarning vaqt davomida bir-biriga nisbatan o‘z vaziyatini o‘zgartirishi tushuniladi. Kundalik hayotimizda har kuni mexanik harakatning har xil ko‘rinishlarini kuzatamiz. Tabiatda Yer-ning Quyosh atrofida aylanishi, shamolda zarrachalarning harakati, suv toshqinlari harakati, yulduzlar harakati, texnikada esa samolyot, vertolyot-larning fazodagi harakatlari, kema va korabllarning suvdagi harakati, mashina, bino va inshootlarning Yer yuzasidagi tinch turgan boshqa jismlarga nisbatan harakatini misol qilishimiz mumkin.

Mexanik o‘zaro ta‘sir deganda moddiy jismlarning bir-biriga ko‘rsatadigan ta‘sirida bu jismlar harakatlarining o‘zgarishi yoki bo‘lmasa ular shakllarining o‘zgarishi (deformatsiyalanishi) tushuniladi. Bu ta‘sirlarning asosiy miqdoriy o‘lchami sifatida kuch deb ataluvchi kattalik qabul qilingan. Mexanik o‘zaro ta‘sirlarga butun olam tortilish qonuni asosida moddiy jismlarning o‘zaro tortishishi, suyuqlik va gaz zarralarining bir-biriga o‘zaro ta‘sirlari va boshqalar misol bo‘la oladi.

«Nazariy mexanika» fanining asosiy maqsadi - talabalarda moddiy nuqta va mexanik sistema harakat qonuniyatlariga oid masalalarni yechish malakasini shakllantirishdan iboratdir.

«Nazariy mexanika» fanning asosiy vazifalari bo‘lajak mutaxassisining kelgusidagi ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy faoliyati jarayonida uchraydigan turli mexanik masalalar va muammolarni mustaqil ravishda

hal qilish, ishlab chiqarish jarayoniga yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonini boshqarish hamda bo‘lajak muhan-disning dunyoqarashini, umumiylardan madaniyatini, aqliy qobiliyatini o‘stirishdan iboratdir.

Nazariy mexanikani o‘rganish jarayonida talaba mexanikaning asosiy tushunchalari, qonunlari va shu qonunlarni kelib chiqadigan asosiy teoremalar orqali moddiy nuqta hamda mexanik sistemaga ta’sir etayotgan kuchlar, ularning kinematik xarakteristikalarini aniqlash usullarini bilishi, olgan bilimini nazariy mexanikaning muhandislik va maxsus fanlarga oid masalalarini yechilishiga tatbiq eta olishi zarur.

Uzoq o‘tmishda insonlar qo‘l mehnatini soddalashtiruvchi yoki yengil-lashtiruvchi qurilmalarni «mexanik san’at» deb qaraganlar. **Mexanika** so‘zi grekcha so‘z bo‘lib, “mashina” yoki “inshoot” degan ma‘nolarni bildiradi. Qadimda «ziyraklik yoki tadbirkorlik» bilan yaratilgan barcha qurilma va jihozlar lotin tilida «machina» deb atalgan.

**Nazariy mexanika fani** - boshqa fanlar kabi insonlarning ishlab chiqarishga munosabatidan, ya’ni qo‘l mehnatini soddalashtirish, kam kuch sarflab, ko‘p ish bajarishni amalga oshirilishi natijasida yuzaga keldi va 25 asr davomida rivojlanib kelmoqda. Nazariy mexanika fizika-matematika fanlari singari umumilmiy fundamental fanlarning biri sifatida o‘rganiladi. Ushbu fanni o‘rganish uchun talabalar fizika, elementar matematika, oliy matematika, informatika va hisoblash texnikasi, chizma geometriya, muhandislik grafikasi kabi fanlardan yetarli bilimlarga ega bo‘lishlari lozim.

Ushbu o‘quv qo‘llanma texnika, mashinasizlik, sanoat va qurilish sohalari bo‘yicha bakalavriat yo‘nalishlari talabalarini uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan magistrlar, ilmiy tadqiqotchi va izlanuvchilar ham o‘z ilmiy ishlarini bajarishda keng qo‘llashlari mumkin.

# I BOB. STATIKA. STATIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI.

## 1.1 *Statikaning asosiy tushuncha va qoidalari*

Kuchlar to‘g’risida umumiylar bilim beruvchi va kuchlar ta’siridagi jismlarning muvozanat holatini o‘rganuvchi “Nazariy mexanika” fanining bo‘limi **statika** deyiladi.

Jismlarning muvozanati deganda ularning boshqa harakatdagi jismlarga nisbatan tinch holati tushuniladi.

Mexanik harakat fazoda vaqt mobaynida sodir bo‘ladi. Nazariy mexanikada haqiqiy fazo va vaqt modeli sifatida ularning oddiy modellari – absolyut fazo va absolyut vaqt qabul qilinadi. Absolyut fazo va vaqt bir-biriga bog’liq emas deb hisoblanadi. Nisbiylik nazariyasidagi fazo va vaqt modelida ular bir-biriga bog’liq bo‘ladi. Absolyut fazo uch o‘lchamli, bir jinsli va izotrop qo‘zg’almas Yevklid fazosi deb tushuniladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, real fizik fazoning o‘lchamlari katta bo‘ligan sohalari uchun Yevklid geometriyasi to‘g’ri. Nazariy mexanikada absolyut vaqt to‘xtovsiz o‘zgaradigan kattalik deb hisoblanadi, u o‘tmishdan kelajakka qarab oqadi. Vaqt bir jinsli, fazoning barcha nuqtalarida bir xil va materiya harakatiga bog’liq bo‘lmaydi deb qaraladi.

Jismlarning bir-biriga nisbatan fazodagi o‘rnini o‘zgartirishi, muvozanat holatida qolishi yoki qolmasligi bu jismlarga ta’sir etuvchi kuchlarga bog’liq bo‘ladi.

Demak, Nazariy mexanika fanining asosiy tushunchalari — fazo, vaqt, kuch, moddiy nuqta, absolyut qattiq jism tushunchalaridan iborat. Shu sababli bu tushunchalarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

**Fazo** - *bir vaqtida mavjud bo‘lgan ob’ektlarning joylashish tartibini ifodalaydi.*

**Vaqt** - *sodir bo‘layotgan hodisalarning (harakatning) ketma-ket o‘zgarish tartibini ifodalaydi.*

**Kuch** - *bir jismning ikkinchi jismga ta’sirining miqdoriy o‘lchovini xarakterlovchi kattalikni bildiradi.*

**Moddiy nuqta** – *qaralayotgan sanoq sistemasiga nisbatan o‘lchamlari e’tiborga olinmaydigan darajada kichik, massasi bir nuqtada to‘plangan jismadir.*

**Absolyut qattiq jism** - *istalgan ikki nuqtasi orasidagi masofa doimo o'zgarishsiz qoladigan jismdir.*

Nazariy mexanika fanida bu tushunchalarning qanday qabul qilinishini aniqlash uchun Nyutonning «*abstraksiya usuli*»dan foydalanamiz. Chunki Nazariy mexanika tabiiy fanlardan hisoblanib, u ko‘plab o‘tkazilgan kuzatish va tajriba natijalari asosida turli harakat jarayonlarining borishini matematik tahlil yordamida aniqlab beruvchi Nyuton qonunlariga asoslangan.

I.Nyuton jismning harakatini o‘rganishda ko‘p sonli bog’lanishlar mavjudligi tufayli asosiy bog’lanishlar va qonuniyatlarni kuzatish orqali ularni birinchi va ikkinchi darajali turlarga ajratib oladi. U jismning harakatiga unchalik katta ta’sir qilmaydigan omillarni hisobga olmaslikni taklif etadi. Sodir bo‘layotgan hodisani tahlil qilayotganda eng muhimi va asosiysini ajratib oladi, ikkinchi darajali ahamiyatsizlaridan esa voz kechadi. I.Nyuton ilmiy abstraksiya usulidan foydalanib, tekshiralayotgan hodisaning shartli sxemasini yaratdi.

Jismlarning fazoviy xossalari aniqlashda asosiy kattalik birligi sifatida ***kesma uzunligi*** qabul qilingan. Nazariy mexanikada uzunlik birligi sifatida etalon-sterjenning ikkita tangasi orasidagi masofa – metr (***m***) olinadi, yuza va hajm mos ravishda kvadrat metr (***kv.m***) va kub metrlar (***kub.m.***)da o‘lchanadi.

Har bir harakatda kamida ikkita jism ishtirok etadi, shu sababli harakatni tavsiyflash uchun jismlardan birini sanoq jism sifatida qabul qilish mumkin. Sanoq jism sifatida ixtiyoriy jismni olish mumkin. Agar shu jismga koordinatalar sistemasi va soatni o‘rnatsak, ular birgalikda ***sanoq sistemasini*** tashkil qiladi.

I. Nyuton qonunlari doimo barcha koordinatalar sistemasi uchun ham o‘rinli bo‘lavermaydi. Shu sababli Nazariy mexanikada – hech bo‘lma-ganda bitta inertsial sanoq sistemasi (qo‘zg’almas sanoq sistemasi) mavjud bo‘ladiki, bu sanoq sistemasi uchun Nyuton qonunlari o‘rinli bo‘ladi deb qabul qilinadi. Ko‘plab o‘tkazilgan tajribalar, o‘lchashlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday inertsial sanoq sistemasi uchun markazi Qu-yoshda bo‘lgan va o‘qlari uzoq „qo‘zg’almas“ yulduzlar tomon yo‘nal-gan geliosentrik yoki asosiy inertsial sanoq sistemasini qabul qilish mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, Nazariy mexanika fanida qaraladigan harakatlarda fazoning xossalari vaqtning o'zgarishiga va sodir bo'layotgan harakatning o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tishda sanoq sistemasi bilan bog'langan jismlarning fizikaviy xossalarini emas, balki faqat sanoq sistemasining geometrik xossalarinigina e'tiborga olish kerak. Ma'lumki, bunday xossalarga bo'ysunuvchi absolyut fazo – uch o'lchovli Evklid fazosini bildiradi. Demak, Nazariy mexanikada fazo uchun **uch o'lchovli Evklid fazosi** qabul qilinadi.

Nazariy mexanikada **vaqt** fazoning har qanday qismida ham bir me'yorda o'tadi va u fazo kabi uzlucksiz hamda bir jinsli deb qaraladi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, jismlarning yorug'lik tezligi ( $3 \cdot 10^{10}$  m/s)ga nisbatan juda kichik tezlik bilan harakatlanishida vaqt jismlarning xossalari va ularning harakatiga bog'liq emas, ya'ni vaqt ni absolyut vaqt deb qarash mumkin. Vaqt jarayonning davomiyligi o'lchovidir. Shuning uchun o'tgan vaqt kattalikni biror jarayon davomiyligi bilan o'lhash yoki solishtirish orqali aniqlanadi. Vaqt o'lchov birligi sifatida Quyosh sutkasining, ya'ni Yerning o'z o'qi atrofida bir marta to'la aylanish vaqtining 1/86400 qismi – sekund (s) qabul qilingan.

Nazariy mexanikaning asosiy tushunchalaridan yana biri **moddiy nuqta** tushunchasidir. Jismlarni moddiy nuqta deb qarashdan asosiy maqsad uning harakat qonuni va asosiy kinematik xarakteristikalarini katta aniqlikda aniqlashdan iboratdir. Moddiy nuqta deb qarashda uning o'lchamlari qabul qilingan sanoq sistemasida biror kattalikka solishtirish orqali belgilanadi. Masalan, Toshkent shahridan London shahriga uchayotgan samolyotning harakatini urganishda shu shaharlar orasidagi masofaga nisbatan samolyotning o'lchamlarini juda kichik deb qaraladi. Albatta moddiy nuqta deb qarash nisbiy bo'lib, birinchi bosqichdagina moddiy nuqta deb qarab, hisoblashning keyingi bosqichlarida ob'ektning real o'lchamlariga ketma-ket yaqinlashish usulidan foydalanib masalaning aniq echimi topiladi. Har qanday jismni moddiy nuqtalar to'plamidan tashkil topgan deb qarash mumkin.


Tabiatda uchraydigan barcha qattiq jismlar tashqi ta'sirlar natijasida katta yoki kichik miqdorda o'z shaklini va o'lchamlarini o'zgartiradi, ya'ni

deformasiyalanadi. Deformasiyaning qanday darajada ko‘rinishi jismlarning materiali, ularning geometrik shakli, o‘lchamlari va ta’sir etuvchi kuchlarga bog’liq. Turli xil inshoot va konstruksiyalar mustahkamligini ta’minlash uchun ularning materiali va o‘lchamlari shunday tanlanadiki, ularda tashqi kuchlar ta’siridan hosil bo‘ladigan deformasiya juda ham kichik bo‘lishi kerak. Shu sababli qattiq jismlarning muvozanat shartlarini o‘rganishda ularning juda kichik deformasiyalarini e’tiborga olmasa ham bo‘ladi, ya’ni ularni **absolyut qattiq jism** deb qaraladi. Bundan keyin statika masalalarini echishda barcha jismlarni absolyut qattiq jism deb qaraladi yoki qisqa qilib qattiq jismlar deb ataladi.

Berilgan jismning muvozanat holati yoki harakati uning boshqa jismlar bilan mexanik o‘zaro ta’sir xarakteriga bog’liq bo‘ladi. Moddiy jismlar o‘zaro ta’sirining miqdoriy o‘lchoviga **kuch** deyiladi.

Kuch – vektor kattalik. Kuchning jismga ko‘rsatadigan ta’siri uchta faktor orqali xarakterlanadi (1.1 –rasm):

- 1) kuch qo‘yilgan nuqta;
- 2) kuchning yo‘nalishi;
- 3) kuchning miqdori (moduli).



**1.1 – rasm**

Kuchning moduli kuchni tanlangan o‘lchov birligi bilan solishtirish orqali topiladi. Kuchning asosiy o‘lchov birligi Halqaro o‘lchov birliklar sistemasida (SI) N’yuton (N) деб qabul qilingan. Kuch texnik sistemada ( $\text{kg} \cdot \text{k}$ ,  $\text{t} \cdot \text{k}$ ) larda ham o‘lchanishi mumkin:  $1 \text{ N}=1\text{kg} \cdot 1\text{m}/\text{s}^2$ ; Kuch dinamometr asbobi yordamida o‘lchanadi. Kuchlar boshqa vektor kattaliklar kabi ustida chiziqcha chizilgan, masalan  $\bar{F}$ ,  $\bar{P}$ ,  $\bar{Q}$  harflar bilan belgilanadi. Kuch modulini esa -  $|\bar{F}|$ ,  $|\bar{P}|$ ,  $|\bar{Q}|$  yoki ustida chizig'i bo‘lmagan o‘scha F, P, Q harflari bilan belgilash qabul qilingan. Kuch

chizmada kuchning qo‘yilish nuqtasi, yo‘nalishi ba moduli yo‘naltirilgan kesma bilan ifodalanadi (1.1– rasm).

Kesmaning uzunligi belgilangan masshtabda kuchning modulini, kesmaning yo‘nalishi kuchning yo‘nalishini ifodalaydi.  $A$  nuqta kuchning quyilish nuqtasi (boshi),  $B$  nuqta kuchning uchi deyiladi. Kuch yo‘nalgan  $SD$  chiziqliga kuchning ta’sir chizig‘i deyiladi (1.1– rasm).

Agar jismga bir nechta  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlar ta’sir etsa, bunday kuchlar to‘plamiga kuchlar sistemasi deyiladi va  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n)$  deb belgilanadi.

Ta’sir etayotgan  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n)$  kuchlar sistemasini boshqa biror  $(\bar{P}_1, \bar{P}_2, \dots, \bar{P}_n)$  kuchlar sistemasi bilan almashtirilganda jismning muvozanat holati o‘zgarmasa, bunday kuchlar sistemasiga ekvivalent kuchlar sistemasi deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n) \propto (\bar{P}_1, \bar{P}_2, \dots, \bar{P}_n), \quad (1.1)$$

Agar kuchlar sistemasi bitta kuch bilan almashtirilganda jism holati o‘zgarmasa, bu kuch berilgan kuchlar sistemasining teng ta’sir etuvchisi deyiladi va quyidagicha belgilanadi.  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n) \propto \bar{R}$ .


Kuchlar sistemasi ta’sirida jism muvozanatda (tinch holatda) bo‘lsa, bunday kuchlar sistemasiga muvozanatlashuvchi kuchlar sistemasi deyiladi:

$$(\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n) \propto O, \quad (1.2)$$

Statika masalalari geometrik shakllar yasash yo‘li bilan (geometrik usul) va sonli hisoblash (analitik usul) yordamida yechiladi.

## 1.2 Statika aksiomalari

**1-aksioma.** Erkin absolyut qattiq jismga qo‘yilgan ikkita kuch ta’sirida jism muvozanatda bo‘lishi uchun faqat va faqat, bu kuchlar miqdor jihatidan teng, yo‘nalish jihatdan kuchlar qo‘yilgan nuqtalardan o‘tuvchi to‘gri chiziq bo‘ylab qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan bo‘lishlari lozim.




1.2–rasm

Bu aksioma inersiya aksiomasi deb yuritiladi. Unga ko‘ra – o‘zaro muvozanatlashgan kuchlar ta’siidagi jism muvozanatda yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatda bo‘ladi. Erkin jismning istalgan ikki nuqtasiga miqdorlari teng, yo‘nalishi esa shu nuqtalardan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq bo‘yicha qarama – qarshi tomonga yo‘nalgan ikkita kuch ta‘sir etsa, bunday kuchlar o‘zaro muvozanatlashadi (1.2-rasm).


**2-aksioma.** Absolyut qattiq jismga qo‘yilgan kuchlar sistemasiga muvozanatlashgan sistema qo‘silsa yoki undan ayrilsa, sistemaning jismga ko‘rsatadigan ta‘siri o‘zgarmaydi.

Ushbu aksiomada jismga bir nechta kuchlardan iborat kuchlar sistemasi ta‘sir etayotgan bo‘lsa, shu sistema tarkibiga boshqa ikkita kuchdan iborat muvozanatlashgan sistema olib kelib qo‘yilsa yoki shu sistema tarkibidan muvozanatlashgan sistemani tashkil qiluvchi ikki kuch olib tashlansa jismning avvalgi holati o‘zgarmasligi keltirilgan.



**1.3-rasm**

1.3-rasmda keltirilgan qattiq jismga 8 ta kuchdan iborat kuchlar sistemasi ta‘sir qilyapti. Kuchlar sistemasi tarkibida miqdorlari bir-biriga teng, yo‘nalishlari qarama-qarshi bo‘lgan  $\bar{F}_3$  va  $\bar{F}_8$  kuchlar mavjud bo‘lib, bu ikki kuch birgalikda muvozanatlashgan kuchlar sistemasini tashkil qiladi. Jismga qo‘yilgan kuchlar sistemasi tarkibidan shu ikkala kuchni olib tashlansa, jismning hozirgi holati umuman o‘zgarmaydi.



### 1.4-rasm


Shu jismga boshqa ikkita kuchdan iborat ( $\bar{P}_1, \bar{P}_2$ ) muvozanatlashgan kuchlar sistemasi olib kelib qo‘yilsa ham jismning hozirgi holati umuman o‘zgarmaydi (1.4-rasm.). Chunki biz yuqorida muvozanatlashgan yoki nolli sistema miqdorlari bir-biriga teng, yo‘nalishlari esa bir to‘g‘ri chiziq bo‘ylab qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan ikki kuchdan tashkil topishini aytib o‘tgan edik.

Ushbu aksiomadan kelib chiqadigan va kelgusida statika masalalarini echishda qo‘llaniladigan asosiy xulosalarni ko‘rib chiqamiz.

**Natija.** Absolyut qattiq jismga qo‘yilgan kuchni o‘zining ta‘sir chizig‘i bo‘ylab, jismning istalgan nuqtasiga ko‘chirilganda kuchning qattiq jismga ko‘rsatadigan ta‘siri o‘zgarmaydi.

a)

b)




### 1.5-rasm

**Isboti.** Qattiq jismning biror A nuqtasiga  $\bar{F}$  kuch qo‘yilgan bo‘lsin (1.5-rasm, a). Bu kuchning ta‘sir chizig‘idan ixtiyoriy B nuqta olamiz. Bu nuqtaga muvozanatlashgan ( $\bar{F}_1, \bar{F}_2$ ) sistemani keltirib qo‘yamiz (1.5-rasm,

b). Bunda  $\bar{F}_1 = \bar{F}$  va  $\bar{F}_2 = -\bar{F}$  shart bajarilsin. Hosil bo‘lgan kuchlar sistemasi ta‘sirida jismning holati o‘zgarmaydi. Chunki  $\bar{F}$  va  $\bar{F}_2$  kuchlar muvozanatlashgan sistemani tashkil etadi. Muvozanatlashgan sistemani tashlab yuboramiz. Natijada jism B nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{F}_1$  kuch ta‘sirida qoladi. Shartga ko‘ra esa  $\bar{F}_1 = \bar{F}$  tenglik o‘rinli. Demak, jismning holati o‘zgarmaydi. Absolyut qattiq jismga qo‘yilgan kuch sirpanuvchi vektorni ifodalaydi.

**3-aksioma** (parallelogramm aksiomasi). Jismning biror nuqtasiga qo‘yilgan ikkita kuchning teng ta‘sir etuvchisi shu kuchlarga qurilgan parallelogrammning kuchlar qo‘yilgan nuqtasidan o‘tuvchi dioganaliga teng.  $\bar{F}_1, \bar{F}_2$  vektorlar asosida qurilgan parallelogrammning dioganaliga teng  $\bar{R}$  vektor  $\bar{F}_1, \bar{F}_2$  vektorlarning geometrik yig’indisiga teng bo‘ladi (1.17-rasm).



1.6-rasm



1.7-rasm

Kuchlar sistemasining teng ta‘sir etuvchisi bilan kuchlar sistemasining geometrik yig’indisi alohida–alohida tushunchalar bo‘lib hisoblanadi. Ularni bir-biri bilan almashtirib yubormaslik kerak. Kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchiga ega bo‘lmasiligi mumkin, lekin geometrik yig’indiga ega bo‘ladi.

Ushbu vektor -  $\bar{R}$  teng ta‘sir etuvchi vektor deyiladi, ya’ni uning shu jismga ta’siri, yuqoridaq ikkita kuchning ta’siriga teng bo‘ladi, vektor va skalyar tenglamalar quyidagicha yoziladi:


$$\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2 , \quad (1.3)$$

1.7-rasmda ikkita zanjir vositasida yuk ko'tarish kranining ishlash jarayoni keltirilgan bo'lib, zanjirlarda hosil bo'ladigan taranglik kuchlarining teng ta'sir etuvchisi ular asosida qurilgan parallelogramning dioganali bo'y lab yo'nalishi ko'rsatilgan.

**4-aksioma** (Nyutonnitng uchinchi qonuni). Har qanday muvozanatdagi ikkita jism bir – biri bilan miqdor jihatidan teng, bir to'g'ri chiziq bo'y lab qarama-qarshi tomonga yo'nalgan kuchlar bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Bu qonun mexanikaning asosiy qonunlaridan biri hisoblanadi.

A jism B jismga qandaydir  $\bar{F}_A$  kuch bilan ta'sir etsa, B jism ham A jismga shu kuchga miqdor jihatdan teng, bir to'g'ri chiziq bo'y lab qarama-qarshi yo'nalgan  $\bar{F}_B$  kuch bilan ta'sir etadi (1.8-rasm).



**1.8-rasm**

Shuni e'tirof etish kerakki,  $\bar{F}_A$  va  $\bar{F}_B$  kuchlar turli jismlarga qo'yilgan bo'lganligi uchun ular o'zaro muvozanatlashgan kuchlar sistemasini tashkil etmaydi.

**5-aksioma.** Kuchlar sistemasi ta'siridagi deformatsiyalanadigan jism muvozanat holatida absolyut qattiq jismga aylansa, uning avvalgi muvozanat holati o'zgarmaydi.

Bu qonun jismlarning qotish prinsipi deyiladi. Zanjirning zvenolari bir-biriga payvandlanganda uning muvozanati buzilmaydi. Chunki, muvozanatda bo'lган jism qotishdan oldin ham, qotgandan keyin ham bir xil kuchlar sistemasi ta'sirida bo'ladi.

### 1.3 Bog'lanish va bog'lanish reaksiyalari

Tabiatdagi barcha jismlarni ikkiga ajratish mumkin: erkin jismlar va bog'langan (erksiz) jismlar.


Agar jism fazoda istalgan yo‘nalishda harakatlana olsa, bunday jismga erkin jism deyiladi. Masalan, fazodagi havo shari.

Jismning harakati biror sabab bilan cheklangan yoki chegaralangan bo‘lsa, bu jism bog’langan (erksiz) jism deyiladi. Bog’langan jismlarga misol qilib, stol ustiga qo‘yilgan yuk, shipga osilgan qandil va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin. Yuk uchun bog’lanish vazifasini stol, qandil uchun bog’lanish vazifasini zanjir bajaradi.

Jismning harakatini cheklovchi barcha jismlar (to‘siqlar) bog’lanishlar deyiladi. Bog’lanishning jismga ko‘rsatadigan ta’siriga bog’lanish reaksiya kuchi yoki qisqacha bog’lanish reaksiyasi deyiladi. Bog’lanishdagi jismlarning harakati qaysi yo‘nalishda cheklangan bo‘lsa, bog’lanish reaksiya kuchi shu yo‘nalishga teskari yo‘nalgan bo‘ladi.

Mexanika masalalarida har qanday jismning muvozanatini tekshirish uchun uni erkin holatga keltirib olish kerak. Erkin holatga keltirish degani esa bog’langan jismning bog’lanishlari (tayanchlari) ni bog’lanish (tayanch) reaksiya kuchlari bilan almashtirish demakdir. Bog’lanish reaksiya kuchlarining miqdori, yo‘nalishi jismga ta’sir etayotgan tashqi kuchlarning miqdorlari va yo‘nalishlariga chambarchas bog’liqdir. Mexanika masalalarini echishda bog’lanish reaksiya kuchlarining miqdori va yo‘nalishini to‘g’ri aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, tinch holatda turgan samolyot o‘z tayanch g‘ildiraklari orqali muvozanat holatini saqlab turadi (1.9-rasm). Samolyotning umumiy og‘irligini samolyot turgan maydon ko‘tara olishi uchun asosda samolyot og‘irliklariga qarama-qarshi yo‘nalishda reaksiya kuchlari bo‘lishi kerak.




1.9 - rasm

Har qanday jismni erkin holatga keltirish uchun avvalo bog'lanishlarning turlari, shu bog'lanishlarda hosil bo'ladigan bog'lanish reaksiya kuchlarining soni va yo'nalishini bilish zarur. Shuning uchun avvalo bog'lanishlarning asosiy turlari bilan tanishamiz.

### **1. Silliq sirt yoki tayanch.**

Ishqalanish e'tiborga olinmaydigan sirtga silliq sirt deyiladi. Sirt bilan jism orasida ishqalanish bo'lmaganda jism sirt bilan biror nuqtada tayanib turgan bo'lsa, silliq sirt jismning shu sirtga o'tkazilgan normal bo'yicha harakatini cheklaydi. Shu sababli silliq sirtning reaksiya kuchi  $\bar{N}$  sirtga o'tkazilgan normal bo'yicha yo'naladi (1.10-rasm a, b).



**1.10-rasm**

Agar to'sin A nuqtada polga, B nuqtada vertikal devorga tayangan bo'lsa (1.10-rasm, c), tayanchning  $\bar{N}_A$  reaksiya kuchi pol tekisligiga perpendikulyar va vertikal devorning  $\bar{N}_B$  reaksiya kuchi esa B nuqtadan to'sin tekisligiga perpendikulyar ko'rinishda yo'naladi.


### **2.Arqon, ip, zanjir, tros vositasidagi bog'lanishlar.**

Agar jism egiluvchan, cho'zilmaydigan arqon, ip, zanjir yoki trosga osib qo'yilgan bo'lsa, u holda bog'lanish reaksiyasi kuchi arqon bo'ylab osilish nuqtasi tomonga yo'nalgan bo'ladi (1.11 - rasm).

a)




б)



**1.11 – rasm**

### 3.Silindrik sharnirli bog'lanishlar.

Muhandislik konstruktsiyalarida eng ko‘p foydalilaniladigan bog'lanishlar sharnirli bog'lanishlar hisoblanadi. Umumiyoq yoki nuqta atrofida aylana oladigan ikkita jism orasidagi bog'lanishga sharnir deyiladi.




**1.12 – rasm**


AB sterjenning A uchi sharnir yordamida qo‘zg’almas D tayanchga mahkamlangan bo‘lsin (1.12–rasm). U holda jismning A uchi sharnir o‘qiga perpendikulyar biror–bir yo‘nalishda siljiy olmaydi. Demak, silindrik sharnirning  $\bar{R}$  reaksiya kuchi sharnir o‘qiga perpendikulyar tekislikda istalgan yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Silindrik sharnirli bog'lanishlarning asosiy turlari bilan tanishamiz.

#### a) sharnirli qo‘zg’aluvchan tayanch.

Bu tayanch konstruksiysi ikkita qoplama (biri balkaga, ikkinchisi silliq sirtga mahkamlangan) va tsilindrik sharnirlardan tashkil topgan (1.13–rasm).



**1.13- rasm**




**1.14 - rasm**

Uchta kichik tsilindrik sharnirlar qo‘zg’almas tekislikka qo‘yilgan bo‘lib, balka tayanchining shu tekislikda erkin harakatlanishiga imkoniyat yaratadi. Katta tsilindrik sharnir esa ikkita qoplama o‘rtasiga o‘rnatilgan bo‘lib, u balkaning sharnir o‘qi bo‘ylab erkin aylanishiga imkoniyat yaratadi.


Ushbu tayanchda balkaning harakati faqat bitta yo‘nalishda cheklanganligi uchun bu tayanchning reaksiya kuchi sharnir markaziga qo‘yilgan qo‘zalmas tekislikka perpendikulyar yo‘nalgan bitta kuchdan iborat bo‘ladi (1.14–rasm).

### b) Sharnirli qo‘zg’almas tayanch.

Bu tayanch konstruksiyasi ikkita qoplama (biri balkaga, ikkinchisi qo‘zg’almas tekislikka mahkamlangan) va bitta tsilindrik sharnirdan tashkil topgan (1.15-rasm).



**1.15 – rasm**



**1.16 – rasm**

Silindrik sharnir ikkita qoplama o‘rtasiga qo‘yilgan bo‘lib, u qoplama malarni birlashtirib balkaning sharnir o‘qi bo‘ylab erkin aylanishiga imkoniyat yaratadi, qolgan yo‘nalishlar bo‘yicha balkaning harakati cheklan-


gan. Bundan bu tayanch reaksiya kuchi noma'lum yo'nalishga va miqdorga ega bo'lgan bitta kuchdan iborat ekanligi kelib chiqadi (1.16-rasm).

Bu reaksiya kuchini aniqlashda aksariyat hollarda uni X va Y o'qlari bo'yicha yo'naligan tashkil etuvchilarga ajratish orqali topiladi:


$$R_A = \sqrt{X_A^2 + Y_A^2} \quad (1.4)$$

### c) qistirib mahkamlangan tayanch.

Bu tayanch konstruksiyasi devorga qistirish orqali konstruksiya elementlarini tayanchga biriktirishdan hosil bo'ladi (1.17-rasm).



**1.17 – rasm**



**1.18 – rasm**


Bu tayanchda balkaning harakati barcha yo'nalishlar bo'yicha cheklangan, ya'ni balka mutlaq qo'zg'almas. Shuning uchun bu kabi tayanchlarda ikkita reaksiya: yo'nalishi va miqdori noma'lum bo'lgan bitta reaksiya kuchi hamda juft kuch momenti paydo bo'ladi (1.18-rasm).

### 4.Sferik sharnir va tovon tegi (podpyatnik).


AO sterjen O nuqtada sferik sharnir vositasida biriktirilgan bo'lsa, bu sterjen O nuqtadan o'tuvchi har qanday o'q atrofida faqat aylanma harakat qila oladi (1.19-rasm, a). Sferik sharnirning  $\bar{R}$  reaksiya kuchi O nuqtadan o'tadi, lekin qaysi tomonga yo'nalishini oldindan aytib bo'lmaydi. Sferik sharnirning reaksiya kuchini tanlab olingan koordinata o'qlariga parallel

yo‘nalgan  $R_x$ ,  $R_y$ ,  $R_z$  tashkil etuvchilarga ajratib, ularning yo‘nalishi va qiymatlari jismning muvozanat shartlaridan aniqlanadi. Tovon tegining  $\bar{R}$  bog‘lanish reaksiya kuchi ham fazoda istalgan tomonga yo‘nalgan bo‘lishi mumkin (1.19–rasm, b).

a)



b)




**1.19-rasm**


### 5. Vaznsiz sterjen vositasidagi sharnirli bog‘lanishlar.

O‘z og‘irligi hisobga olinmaydigan, uchlaridan boshqa nuqtalariga hech qanday kuch qo‘yilmagan sterjenlarga vaznsiz sterjenlar deyiladi.

a)



b)



**1.20-rasm**

1.20 a) rasmida ko‘cha chirog‘i ikkita vaznsiz sterjenlar vositasida mahkamlangan holatda tasvirlangan. Ushbu holatda bog‘lanish reaksiya kuchlari vaznsiz sterjenlar o‘qlari bo‘ylab yo‘nalgan bo‘ladi.


## II BOB. KESISHUVCHI KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI

### 2.1. Kuchlar sistemasi va ularning turlari

Agar jismga bir vaqtning o‘zida bir nechta kuchlar ta’sir etayotgan bo‘lsa, ta’sir etayotgan kuchlar to‘plamiga *kuchlar sistemasi* deb ataladi.

Kuchning jismga ta’siri kuchning moduli, kuchning yo‘nalishi va kuchning qo‘yilish nuqtasi orqali belgilanishini yuqorida ko‘rib o‘tgan edik. Ushbu uch faktordan tashqari kuchning jismga ta’siri jismga ta’sir etayotgan kuchlar soniga ham bog‘liq. Kuchlar soni qancha katta bo‘lsa o‘sha jismning harakat yo‘nalishini belgilash, muvozanatga keltirish shartlarini ishlab chiqish shunchalik murakkab bo‘ladi. Statikada kuchlar sistemasini uchta turga bo‘lamiz:

1. Kesishuvchi kuchlar sistemasi;
2. Tekislikdagi kuchlar sistemasi;
3. Fazoviy kuchlar sistemasi.




2.1 - rasm

Agarda jismga ta’sir etayotgan barcha kuchlarning ta’sir chiziqlari bir nuqtadan o‘tsa, bunday kuchlar to‘plamiga *kesishuvchi kuchlar sistemasi* deyiladi (2.1-rasm, a,b).


Agar jismga ta'sir etayotgan kuchlarning ta'sir chiziqlari bitta tekislikda yotsa, bunday kuchlar to'plamiga *tekislikdagi kuchlar sistemasi* deyiladi (2.2-rasm, a).

Agar jismga ta'sir etayotgan kuchlarning ta'sir chiziqlari bir nechta tekisliklarda yotgan bo'lsa, bunday kuchlar to'plamiga *fazoviy kuchlar sistemasi* deb ataladi (2.2-rasm, b).

a)




b)



## 2.2-rasm

Agarda jismga ta'sir etayotgan kuchlar sistemasi tarkibidagi kuchlarning ta'sir chiziqlari bir-biriga o'zaro parallel holda joylashgan bo'lsa, bunday kuchlar to'plamiga *parallel kuchlar sistemasi* deb ataladi (2.3-rasm).




## 2.3-rasm

## 2.2 Kesishuvchi kuchlar sistemasini geometrik usulda qo'shish

Agar jismga kesishuvchi kuchlar sistemasi ta'sir etayotgan bo'lsa, bu kabi masalalarini yechish vektorlarni qo'shish usullariga bog'liq holda hal etiladi. Qattiq jismga ta'sir etayotgan kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi jismga ta'sir etayotgan kuchlar soniga qarab har xil usullarda aniqlanadi. Har bir usulni alohida ko'rib chiqamiz.

**Ikkita kuchni qo'shish.** Qattiq jismga qo'yilgan ikkita kuchni ikki xil usul bilan, ya'ni paralellogramm qoidasi yoki kuchlar uchburchagini qurish usullari bilan qo'shish mumkin.

Qattiq jismga qo'yilgan ikki kuch asosida parallelogramm qurish uchun birinchi kuch ikkinchi kuchning, ikkinchi kuchni esa birinchi kuchning uchiga parallel ravishda ko'chiriladi. Natijada parallelogramm hosil bo'ladi (2.4-rasm, a).



2.4 - rasm

Kuchlar uchburchagini qurish uchun esa ixtiyoriy a nuqtani tanlab kuchlardan birinchisining vektorini shu nuqtaga ko'chirish lozim. Bu vektoring uchiga esa ikkinchi kuchning vektori keltirib qo'yiladi. Birinchi vektoring boshi bilan ikkinchi vektoring uchini tutashtirib  $\bar{R}$  ni, ya'ni shu ikki kuch bosh vektorini ifodalovchi vektorni hosil qilamiz (2.4-rasm, b). Agar kuchlar orasidagi burchak  $\alpha$  ga teng bo'lsa,  $\bar{R}$  kuchning moduli kosinuslar teoremasidan topiladi:

$$R = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1 \cdot F_2 \cos \alpha}, \quad (2.1)$$


bu yerda:  $\cos(180^\circ - \alpha) = -\cos \alpha$ .

Qo'shiluvchi vektorlar bilan  $\bar{R}$  orasidagi  $\alpha, \beta, \gamma$  burchaklar sinuslar teoremasidan topiladi:

$$\frac{F_1}{\sin \gamma} = \frac{F_2}{\sin \beta} = \frac{R}{\sin \alpha}, \quad (2.2)$$

Bu yerda  $\sin(180 - \alpha) = \sin \alpha$ .

**Uchta kuchni qo'shish.** Agar qattiq jismga uchta kuch ta'sir etayotgan bo'lsa, ushbu kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi parallelogramm qoidasini ketma-ket ikki marotaba qo'llash yordamida aniqlanadi (2.5 - rasm).




### 2.5-rasm

**Kuchlar sistemasini qo'shish.** Agar qattiq jismga kuchlar soni uchtadan ortiq bo'lgan kesishuvchi kuchlar sistemasi ta'sir etayotgan bo'lsa, ushbu kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi  $\bar{R}$  parallelogramm qoidasi asosida kuchlarni ketma-ket qo'shish yoki **kuchlar ko'pburchagini** qurish usullari bilan amalga oshiriladi.

Parallelogramm qoidasini biz oldingi holatlarda qo'llab, undan qanday foydalanishni bilamiz. Shuning uchun hozir kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisini kuchlar ko'pburchagini qurish bilan aniqlash usuliga to'xtalib o'tamiz.

Kuchlar ko'pburchagini qurish usuli bir muncha oson va qulay hisoblanadi. Absolyut qattiq jismga ( $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$ ) kuchlar sistemasi ta'sir etayotgan bo'lsin (2.6-rasm, a). Bu usul bilan ( $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$ ) kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisini aniqlash uchun ixtiyoriy O nuqta tanlab, bu nuqtaga  $\bar{F}_1$  kuchni yo'nalishi bo'yicha keltirib qo'yamiz.  $\bar{F}_1$  kuchining uchiga  $\bar{F}_2$  kuchni,  $\bar{F}_2$  kuchni uchiga  $\bar{F}_3$  kuchni keltirib qo'yamiz va hokazo.



**2.6-rasm**

$\bar{F}_1$  kuchning boshi bilan  $\bar{F}_n$  kuchning uchini tutashtirib, kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi  $\bar{R}$  vektorni hosil qilamiz (2.6-rasm, b):

$$\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2 + \dots + \bar{F}_n, \text{ yoki } \bar{R} = \sum \bar{F}_k , \quad (2.3)$$


Bunda kuchlarni ko'chirishda ularning uzunligini va yo'nalishini katta aniqlikda ko'chirish talab qilinadi. Aks holda kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisining moduli va yo'nalishini aniqlashda xatolikka yo'l qo'yiladi.

(2.3) ga ko‘ra kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta‘sir etuvchisi kuchlarning geometrik yig’indisiga teng va shu kuchlar ta‘sir chiziqlarning kesishgan nuqtasiga qo‘yilgan bo‘ladi.

### 2.3 Kuchning o‘qdagi va tekislikdagi proeksiyasi

Analitik usulda statika masalalarini hisoblash uchun kuchning o‘qdagi va tekislikdagi proeksiyasi tushunchalaridan foydalanamiz.

Kuchning o‘qdagi preksiyasi deb kuch modulini kuch bilan o‘qning musbat yo‘nalishi bilan tashkil qilgan burchak kosinusiga bo‘lgan ko‘paytmaga teng algebraik kattalikka aytiladi.



### 2.7 - rasm

Agar kuch bilan o‘qning musbat yo‘nalishi orasidagi burchak o‘tkir bo‘lsa, proeksiya musbat, agar o‘tmas burchak bo‘lsa, proeksiya manfiy ishorada bo‘ladi. Kuch o‘qqa perpendikulyar bo‘lsa, kuchning o‘qdagi proeksiyasi nolga teng.


$F$  kuchning o‘qdagi proeksiyasini  $F_x$  bilan belgilaymiz. U holda 2.7-rasmga ko‘ra quyidagini yozamiz:

$$F_x = AB_1 = a\alpha, \quad Q_x = -CD_1 = -cd, \quad F_x = F \cos \alpha \quad , \quad (2.4)$$

$$Q_x = -Q \cos \varphi = Q \cos \alpha_1, \quad P_x = O \quad , \quad (2.5)$$

$\bar{F}$  kuchning  $Oxy$  tekislikdagi proeksiyasi deb  $\bar{F}$  kuchning boshi va uchinining shu tekislikdagi proeksiyalarini tutashtiruvchi yo‘nalishli  $\bar{F}_{xy} = \overline{OB_1}$  kesmaga aytiladi.

$\bar{F}$  kuchning tekislikdagi proeksiyasi o‘qdagi proeksiyasidan farq qiladi. Kuchning tekislikdagi proeksiyasi vektor kattalik bo‘lib, u miqdorga ega bo‘lishdan tashqari yo‘nalishga ham ega.



## 2.8-rasm

$\bar{F}$  kuchning tekislikdagi proeksiyasining moduli quyidagicha aniqlanadi:

$$\overline{F_{xy}} = F \cos \theta , \quad (2.6)$$

Bu yerda:  $\theta$  -  $\bar{F}$  kuch bilan o‘qning tekislikdagi proeksiyasi orasidagi burchak.

Ko‘pgina hollarda kuchning o‘qdagi proeksiyasini topish uchun avval uning tekislikdagi proeksiyasini aniqlab, keyin kuchning tekislikdagi proeksiyasi shu tekislikda yotgan o‘qlarga proeksiyalash kerak. 2.8-rasmga ko‘ra kuchning o‘qdagi proeksiyasi bilan kuchning tekislikdagi proeksiyasi orasidagi bog’lanishni quyidagicha yozish mumkin:


$$F_x = F_{xy} \cos \varphi = F \cos \theta \cdot \cos \varphi , \quad (2.7)$$

$$F_y = F_{xy} \sin \varphi = F \cos \theta \cdot \sin \varphi , \quad (2.8)$$

## 2.4 Kuchni analitik usulda aniqlash

Kuchni analitik usulda aniqlash uchun avvalo kuchning fazodagi yo‘nalishini aniqlash maqsadida Oxyz koordinatalar sistemasini tanlash lozim. Agar  $\bar{F}$  kuchning moduli va koordinata o‘qlari bilan tashkil qilgan  $\alpha, \beta$  va  $\gamma$  burchaklar ma‘lum bo‘lsa,  $\bar{F}$  kuchni ifodalovchi vektorni yasash mumkin (2.9-rasm). Mexanika masalalarini yechishda

kuchni uning koordinata o‘qlaridagi  $F_x, F_y, F_z$  proeksiyalari orqali aniqlash qulayroqdir.



**2.9 - rasm**

Kuchning o‘qdagi proeksiyalari berilgan bo‘lsa, kuchning moduli va o‘qlar bilan tashkil qilgan burchaklari quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$F = \sqrt{F_x^2 + F_y^2 + F_z^2}, \quad (2.9)$$

$$\cos \alpha = \frac{F_x}{F}, \quad \cos \beta = \frac{F_y}{F}, \quad \cos \gamma = \frac{F_z}{F}, \quad (2.10)$$

Kuchlarni analitik usulda qo‘shish uchun quyidagi teoremani ko‘rib chiqamiz.

**Teorema.** *Kesishuvchi kuchlar sistemasi teng ta’sir etuvchisining biror o‘qdagi proeksiyasi sistema tarkibidagi barcha kuchlarning shu o‘qdagi proeksiyalarining algebraik yig’indisiga teng.*

Bu teoremaga ko‘ra  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlarning geometrik yig’indisi  $\bar{R}$  bo‘lsa, u holda

$$\bar{R} = \sum \bar{F}_k \text{ yoki}$$

$$R_x = \sum F_{kx}, R_y = \sum F_{ky}, R_z = \sum F_{kz}, \quad (2.11)$$

$R_x, R_y, R_z$  larni bilgan holda (2.9) formulaga ko‘ra

$$R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2}, \quad (2.12)$$


$$\cos \alpha = \frac{R_x}{R}, \cos \beta = \frac{R_y}{R}, \cos \gamma = \frac{R_z}{R}, \quad (2.13)$$

## 2.5 Uch kuchning muvozanati haqida teorema


**Teorema:** bir tekislikda yotuvchi va o‘zaro parallel bo‘lmagan uchta kuch ta‘sirida jism muvozanatda bo‘lsa, bu kuchlarning ta‘sir chiziqlari bir nuqtada kesishadi.

«Uch kuchning muvozanati haqida»gi teoremadan statika masalalarini yechishda keng foydalaniladi.

**Isboti.** Teoremani isbotlash uchun  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlar ta‘sirida bo‘lgan qattiq jismni ko‘rib chiqamiz (2.10-rasm).  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}$  ni aniqlaymiz. Natijada jism bitta  $\bar{R}$  kuch ta‘sirida qoladi. Shartga ko‘ra jism muvozanat holatida va barcha kuchlar bir tekislikda yotadi hamda o‘zaro parallel emas.



2.10 - rasm



2.11 - rasm

Statikaning 1-aksiomasiga asosan jism muvozanat holatida bo‘lishi uchun jism ikkita kuch ta‘sirida bo‘lishi, bu kuchlar miqdor jihatidan teng,

yo‘nalish jihatdan kuchlar qo‘yilgan nuqtalardan o‘tuvchi to‘gri chiziq bo‘ylab qarama–qarshi tomonga yo‘nalan bo‘lishlari lozim. Shuning uchun jismning B nuqtasiga moduli  $\bar{F}_1$  ga teng va yo‘nalishi qarama–qarshi tomonga yo‘nalan  $\bar{F}_3$  kuchni qo‘yamiz (2.11-rasm). Ularning ta‘sir chiziqlari A nuqtada kesishadi.

Agar  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlar jismning har xil nuqtalariga qo‘yilgan bo‘lsa ularni statikaning 2-aksiomasiga ko‘ra o‘zlarining ta‘sir chiziqlari bo‘ylab A nuqtaga ko‘chiramiz va ularni teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}$  bilan almashtiramiz. Natijada parallelogram aksiomasiga ko‘ra jism ikkita: A nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{R}$  va B nuqtada qo‘yilgan  $\bar{F}_3$  kuch ta‘sirida qoladi. 1-aksiomaga ko‘ra  $\bar{R}$  va  $\bar{F}_3$  kuchlarning miqdorlari teng, yo‘nalishi esa bir to‘g’ri chiziq bo‘ylab qarama – qarshi tomonga yo‘nalgandagina ular muvozanatlashadi. Demak,  $\bar{F}_3$  kuchning ta‘sir chizig‘i ham A nuqtadan o‘tadi (2.11-rasm). Teorema isbotlandi.

## **2.6 Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari**


Kesishuvchi kuchlar sistemasiga eng oddiy misol sifatida yuk ko‘tarish kranlarida foydalaniladigan troslar, osma ko‘prikkar sim arqonlarini keltirishimiz mumkin. Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanati deganda sistemani tashkil qiluvchi troslar va jismlarning qo‘yilgan kesishuvchi kuchlar sistemasi ta‘sirida tinch muvozanat holatida ekanligi tushuniladi.

**Qattiq jismga qo‘yilgan kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun bu kuchlar sistemasining bosh vektori nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir.**

Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari geometrik va analitik ko‘rinishda ifodalanadi.

**Muvozanatning geometrik sharti.** Bizga ma‘lumki kuchlar sistemasining bosh vektori  $\bar{R}$  shu kuchlar sistemasi asosida qurilgan kuchlar ko‘p burchagining yopuvchi tomonidir (2.12–rasm, b).

Demak,  $\bar{R}$  nolga teng bo‘lishi uchun kuchlar ko‘pburchagida oxirgi kuchning uchi birinchi kuchning boshi bilan ustma-ust tushishi lozim.



### 2.12-rasm

Demak, muvozanatning geometrik sharti quyidagicha ifodalanadi:  
**Kesishuvchi kuchlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun sistema tarkibidagi kuchlar asosida qurilgan ko‘pburchak yopiq bo‘lishi zarur va yetarlidir.**

**Muvozanatning analitik sharti.** Kesishuvchi kuchlar sistemasining bosh vektori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2}, \quad (2.14)$$

$R = 0$  bo‘lishi uchun  $R_x = 0$ ,  $R_y = 0$ ,  $R_z = 0$  bo‘lishi lozim yoki

$$R_x = \sum F_{kx} = 0, R_y = \sum F_{ky} = 0, R_z = \sum F_{kz} = 0$$

$$\sum F_{kx} = 0, \sum F_{ky} = 0, \sum F_{kz} = 0, \quad (2.15)$$

Bu ifodalar kesishuvchi kuchlar sistemasi muvozanat shartlarining analitik ifodalaridir.

Demak, muvozanatning analitik sharti quyidagicha ifodalanadi:

**Kesishuvchi kuchlar sistemasi ta'siridagi jism muvozanatda bo'lishi uchun sistema tarkibidagi kuchlarning har bir koordinata o'qlaridagi proeksiyalarining yig'indisi alohida – alohida nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir.**

Agar jismga ta'sir etuvchi kesishuvchi kuchlar sistemasi bir tekislikda yotsa (2.15) tenglik quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\sum F_{kx} = 0, \sum F_{ky} = 0, \quad (2.16)$$

## **2.7 Statika masalalarini yechish tartibi**

Nazariy mexanikaning statika bo'limida asosan quyidagi turdag'i masalalarни echish ko'rib chiqiladi:

1. Kuchlar sistemasini sodda holga keltirish (ta'sir etayotgan kuchlar sistemasini unga teng kuchli (ekvivalent) bo'lgan boshqa sistema bilan almashtirish);
2. Qattiq jismning muvozanat holatini baholash;
3. Qattiq jismning tayanch reaksiyalarini aniqlash;
4. Qattiq jismning og'irlik markazini aniqlash;

Statika masalalarini yechishning ikki xil usuli mavjud:

**1. Geometrik usul.** Bu usul vektorlar algebrasi qoidalari asosida olib boriladi.

**2. Analitik usul.** Bu usul kuchning o'qdagi va tekislikdagi proeksiyasi tushunchalariga asoslanadi.

Bu kabi masalalarni echish jarayoni quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Muvozanati ko'rib chiqiladigan jism (yoki jismlar) tanlanadi.
2. Jism (yoki jismlar) orqali koordinata o'qlari o'tkaziladi.
3. Aniqlangan jism erkin holatga keltiriladi. Bunda jismga ta'sir etuvchi barcha kuchlar va bog'lanish reaksiyalari chizmada ko'rsatiladi.
4. Jismga ta'sir etayotgan kuchlar qanday kuchlar sistemasini tashkil etishiga qarab ularga mos muvozanat tenglamalari tuziladi. Bunda tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanat shartlarining birortasidan foydalaniladi.

Muvozanat tenglamalarini tanlashda tenglamalari oson hisoblanadigan tenglamalar sistemasini tanlash lozim, har bir tenglamada bittadan no'ma'lum qatnashadigan tenglamalar sistemasini echish osonroq bo'ladi. Bundan tashqari soddaroq tenglamalar sistemasiga ega bo'lish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- a) koordinata o'qlarini noma'lum reaksiya kuchlariga perpendikulyar qilib o'tkazish lozim;
- b) moment olinadigan nuqtani tanlashda noma'lumlar ko'proq joylashgan nuqtani tanlash maqsadga muvofiq, chunki bunda momentlar tenglamasidagi noma'lumlar sonini kamaytirishga erishiladi.
- c) agar jismga ta'sir etayotgan kuchlardan birortasi ma'lum burchak ostida ta'sir etayotgan bo'lsa, bunda u kuchni tashkil etuvchilarga ajratish kerak.
- d) masalani echish jarayonida masalaga tegishli chizma juda aniq chizilishi lozim.

5. Tenglamalarni echib, noma'lum bog'lanish (tayanch) reaksiya kuchlari aniqlanadi.
6. Masalaning to'g'ri yoki noto'g'ri echilgani tekshirib ko'rildi.

## ***2.8 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar***

**1-masala.** Poyezd to'g'ri chiziqli gorizontal yo'lda o'zgarmas tezlik bilan harakatlanadi; poyezdning elektrovozdan tashqari og'irligi  $12 \cdot 10^3 \text{ kN}$ . Agar poyezdning harakatiga bo'lgan qarshilik uning relsga ko'rsatadigan bosimining 0,005 qismiga teng bo'lsa, elektrovozning tortish kuchi qancha?

***Yechilishi:*** Bu masalani yechishda statikaning 4-aksiomasidan foydalanamiz (2.13-rasm). (Nyutonning uchinchi qonuni).

Unga ko‘ra:


$$\mathbf{N} - \mathbf{P} = \mathbf{0}$$

$$\mathbf{R} - \mathbf{F} = \mathbf{0}$$

$$\mathbf{R} = \mathbf{P} \cdot \mu$$


$$N = P = 12 \cdot 10^3 \text{ kN},$$

$$F = R = 12 \cdot 10^3 \text{ kN} \cdot 0,005 = 60 \text{ kN}$$




**2.13-rasm**

**2-masala.** Ikkita absolyut qattiq  $AB$  va  $AC$  sterjenlar uchlari A nuqtada bir-biriga sharnir vositasida mahkamlangan. Sterjenlarning ikkinchi uchlari polning  $B$  va  $C$  nuqtalariga sharnir yordamida biriktirilgan. Bunda sterjenlar pol bilan tegishlichcha  $45^\circ$  va  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. A sharnirga og’irligi  $P=100 \text{ N}$  bo‘lgan  $D$  yuk cho‘zilmaydigan ip yordamida osib qo‘yilgan.  $AC$  va  $BC$  sterjenlardagi zo‘riqishlar aniqlansin. Sterjenlarning og’irligi e‘tiborga olinmasin (2.14-rasm).



**2.14-rasm**



**2.15-rasm**

**Yechilishi:**  $D$  yukning og’irlilik kuchi  $P$  ni vertikal pastga qaratib yo‘naltiramiz. Yukning  $P$  og’irlilik kuchi ta’sirida  $AB$  va  $AC$  sterjenlarda hosil bo‘lgan zo‘riqishlarni tegishlichha  $T_B$  va  $T_C$  deb belgilaymiz. Natijada

A sharnirga sterjenlarda hosil bo‘ladigan  $T_B$ ,  $T_C$  zo‘riqishlar va  $D$  yukning  $P$  og’irlik kuchi qo‘yilgan. Noma‘lum bo‘lgan zo‘riqishlarni topish uchun geometrik va analitik usullardan foydalanamiz:

1). Geometrik usul. A sharnir muvozanatda bo‘lishi uchun sharnirga ta‘sir etuvchi kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi nolga teng bo‘lishi lozim. Demak,  $A$  sharnirga  $P$ ,  $T_B$  va  $T_C$  kuchlar qo‘yilgan.

Kuchlar uchburchagini yasash uchun ixtiyoriy  $O$  nuqta tanlaymiz.  $O$  nuqtaga  $D$  yukning  $P$  og’irlik kuchini o‘z-o‘ziga parallel ko‘chiramiz.  $P$  kuchning uchiga  $AB$  sterjening zo‘riqishi  $T_B$ , uning uchiga esa  $AC$  sterjening zo‘riqishi  $T_C$  ni o‘ziga parallel qilib ko‘chiramiz (2.15-rasm).

$$\angle CAD = 30^\circ \quad \text{va} \quad \angle BAD = 45^\circ$$

$$\text{bunda } \angle bco = 105^\circ$$


Sinuslar teoremasiga ko‘ra quyidagini yozamiz:

$$\frac{T_B}{\sin 30^\circ} = \frac{T_C}{\sin 45^\circ} = \frac{P}{\sin 105^\circ}$$

$$\sin 105^\circ = \sin(90^\circ + 15^\circ) = \cos 15^\circ$$

$$T_B = P \frac{\sin 30^\circ}{\cos 15^\circ} = 100 \frac{0,5}{0,9659} = 51,8 N, \quad T_C = P \frac{\sin 45^\circ}{\cos 15^\circ} = 100 \frac{\frac{\sqrt{2}}{2}}{0,9659} = 73,2 N$$

2) Analitik usul. Ta‘sir etuvchi kuchlar bir tekislikda yotganligi uchun tekislikdagi kesishuvchi kuchlar muvozanat tenglamalaridan foydalanamiz. Avvalo koordinata o‘qlarini o‘tkazamiz.  $x$  o‘qini gorizontal qilib,  $y$  o‘qini esa unga perpendikulyar qilib yo‘naltiramiz (2.16-rasm).



**2.16-rasm**

Masalani analitik usulda yechamiz:

$$\sum F_{KX} = 0; \quad T_B \cos 45^\circ - T_C \cos 30^\circ = 0 \quad (1)$$

$$\sum F_{KY} = 0 \quad T_B \sin 45^\circ + T_C \sin 30^\circ - P = 0 \quad (2)$$

tenglikdan  $T_B = T_C \frac{\cos 30^\circ}{\cos 45^\circ}$

Bu tenglikni (2) ga qo'yamiz.

$$T_C \frac{\cos 30^\circ}{\cos 45^\circ} \cdot \sin 45^\circ + T_C \sin 30^\circ - P = 0$$


yoki

$$T_C \cos 30^\circ + T_C \sin 30^\circ - P = 0$$

$$T_C = \frac{P}{\cos 30^\circ + \sin 30^\circ} = \frac{100}{0,866 + 0,5} = 73,2 N;$$

$$T_B = 73,2 \frac{0,866}{0,7} = 51,8 N;$$

**3-masala.** Muntazam oltiburchak markaziga miqdorlari  $1,3,5,7,9$  va  $11N$  bo'lgan va ko'pburchakning uchlariga qarab yo'nalgan kuchlar qo'yilgan (2.17-rasm). Teng ta'sir etuvchi va muvozanatlovchi kuchning miqdori va yo'nalishi topilsin.



**2.17-rasm**

**Yechilishi:** Masala shartiga binoan kuchlar rasmida ko'rsatilgan kabi yo'nalgan. Kuchlar yo'nalishiga ko'ra ularning koordinata o'qlardagi proyeksiyalar yig'indisini olamiz (kuch yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda).

Unga ko'ra:

$$F_1 + F_2 \cos 60^0 - F_3 \cos 60^0 - F_4 - F_5 \cos 60^0 + F_6 \cos 60^0 = F_x$$

$$F_2 \sin 60^0 + F_3 \sin 60^0 - F_5 \sin 60^0 - F_6 \sin 60^0 = F_y$$

Har ikkala tenglamani yechib  $F_x$  va  $F_y$  larning qiymatlarini hisoblaymiz:  $F_x = -6N$ ,  $F_y = -6\sqrt{3}N$ , Topilgan qiymatlardan foydalanib ta'sir etuvchi kuchni miqdorini aniqlaymiz.

$$F = \sqrt{F_x^2 + F_y^2} = \sqrt{144} = 12N.$$

Uning yo'nalishini esa quyidagicha aniqlaymiz:

$$\cos(\bar{F}^\wedge x) = \frac{-6N}{12N} = -1/2, \quad \cos(\bar{F}^\wedge y) = \frac{-6\sqrt{3}N}{12N} = -\sqrt{3}/2,$$


$$(\bar{F}^\wedge x) = 120^0; \quad (\bar{F}^\wedge y) = 150^0.$$

Demak, teng ta'sir etuvchi kuch  $F_5$  kuch 12 N ga teng bo'lib, muvozanatlovchi kuch unga miqdor jihatdan teng va bir to'g'ri chiziq bo'yab qarama-qarshi tomonga yo'nalgan.


**4-masala.** Og'irliklari e'tiborga olinmaydigan  $AC$  va  $BC$  sterjenlar bir-biri va vertikal devor bilan, sharnirlar vositasida biriktirilgan. Sharnirli  $C$  boltga  $P=1000N$  vertikal kuch ta'sir qiladi. Agar sterjenlar bilan devor orasidagi burchaklar  $\alpha=30^0$ ,  $\beta=60^0$  bo'lsa, sharnirli  $C$  boltga sterjenlarning ko'rsatadigan reaksiyalarini aniqlansin (2.18-rasm).

**Yechilishi:** Kuchlarning ta'sir yo'nalishlarini belgilaymiz (2.19-rasm, a) va ularni ta'sir yo'nalishlarini o'zgartirmagan holda bog'lanishlardan ozod qilib, uchburchak shaklida tasvirlaymiz (2.19-rasm, b).

Masala shartiga binoan ushbu uchburchagimiz to‘g’ri burchakli uchburchakdan iborat ekan. Negaki  $\alpha + \beta = 90^\circ$ . Bundan ko‘rinadiki, biz uchun noma’lum bo‘lgan uchinchi burchak  $90^\circ$  ga teng. Bunda  $S_B$  va  $S_A$  - katetlar.  $P$  - gipotenuza.



**2.18-rasm**




**2.19-rasm**

$$S_B = P \cos \beta = 1000 \cdot 0,5 = 500N$$


$$S_A = P \cos \alpha = 866N$$

**5-masala.** Machta krani  $AB$  strela va  $CB$  zanjirdan iborat.  $AB$  strela machtaga  $A$  sharnir vositasida biriktirilgan. Strelaning  $B$  uchiga  $P = 2kN$  yuk osilgan. Burchaklar  $BAC = 15^\circ$ ,  $ACB = 135^\circ$ .  $CB$  zanjirdagi  $T$  taranglik kuchi va  $AB$  streladagi  $Q$  zo'riqish aniqlansin (2.20-rasm).

**Yechilishi:** Bu masalani yechish uchun ham analitik usuldan foydalanamiz. Dastlab kuch yo'nalişlarini belgilab, so'ngra koordinata o'qlarini kiritib, kuchlar tutashgan nuqtani koordinata boshi sifatida qabul qilamiz.



2.20-rasm



2.21-rasm

Barcha kuchlarning yo'nalişlarini inobatga olgan holda, kuchlarning o'qlardagi proyeksiyalar yig'indisini hisoblaymiz (2.21-rasm):

$$\begin{aligned} -T \cos 45^\circ - Q \sin 15^\circ &= 0, \\ -T \sin 45^\circ - Q \cos 15^\circ - P &= 0 \end{aligned}$$


Ikkala tenglamani birgalikda yechib javoblarni aniqlaymiz:

$$T = 1,04kN;$$

$$Q = -2,83kN.$$

**6-masala.** Uchta ip  $C$  tugunda bog'langan. Ulardan ikkitasi  $A$  va  $B$  bloklar orqali o'tkazilib uchlariga  $P_1 = 3N$  va  $P_2 = 5N$  yuklar osilgan. Uchinchi ipning uchiga esa og'irligi  $P_3$  bo'lgan yuk osilgan, bunda  $\angle ACB = 60^\circ$ . Agar sistema muvozanatda bo'lsa  $P_3$  yukning og'irligi topilsin (2.22-rasm).

**Yechilishi:**  $C$  tugunda uchta kuch ta'sir qiladi:  $CA$  yo'nalish bo'yicha  $P_1$  kuch,  $CB$  yo'nalish bo'yicha  $P_2$ , kuch va vertikal pastga yo'nalagan  $P_3$  kuch.  $P_1$  va  $P_2$  kuchlarni qo'shamiz.



### 2.22-rasm

$P_1$  va  $P_2$  kuchlarning teng ta'sir etuvchisi  $R$  quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R = \sqrt{P_1^2 + P_2^2 + 2P_1P_2 \cos 60^\circ}$$


$$R = \sqrt{3^2 + 5^2 + 2 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 0,5} = \sqrt{9 + 25 + 15} = \sqrt{49} = 7N$$

$R$  kuch  $P_3$  kuch bilan muvozanatlashgani uchun

$$P_3 = R = 7N$$

### 7-masala.

Jismning  $A$  nuqtasiga bir tekislikda yotuvchi va bir-biri bilan  $105^\circ$ ,  $135^\circ$  va  $120^\circ$  burchak ostida uchta kuch qo'yilgan bo'lib, ularning modullari  $F_1=18N$ ,  $F_2=24N$ ,  $F_3=30N$  ga teng. Bu kuchlar ning teng ta'sir etuvchisining kattaligi va yo'nalishini aniqlang (2.23-rasm).



### 2.23-rasm

**Yechilishi:**

1. Berilgan kuchlarning koordinata o'qlaridagi proeksiyalarini aniqlaymiz:

$$F_{1x} = F_1 \cos 30^0 = 18 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 9\sqrt{3}$$

$$F_{2x} = -F_2 \cos 45^0 = -24 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = -12\sqrt{2}$$

$$F_{3x} = 0 \quad F_{1y} = F_1 \sin 30^0 = 18 \cdot 0,5 = 9$$

$$F_{2y} = F_2 \sin 45^0 = 24 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = 12\sqrt{2} \quad F_{3y} = -F_3 = -30$$

2. (2.11) formulaga ko‘ra teng ta‘sir etuvchi kuchning koordinata o‘qlaridagi proeksiyalarini aniqlaymiz:

$$R_x = F_{1X} + F_{2X} + F_{3X} = 9\sqrt{3} - 12\sqrt{2} = 15,588 - 16,968 = -1,380$$

$$R_y = F_{1y} + F_{2y} + F_{3y} = 9 + 12\sqrt{2} - 30 = 9 + 16,968 - 30 = -4,032$$

3. (2.18) va (2.19) formulalarga ko‘ra teng ta‘sir etuvchi kuchning moduli va yo‘nalishini aniqlaymiz:

$$R = \sqrt{R_X^2 + R_Y^2} = \sqrt{(-1,38)^2 + (-4,032)^2} = 4,262 N$$

$$\cos \alpha = \frac{R_x}{R} = \frac{-1,38}{4,262} = -0,323, \quad \cos \beta = \frac{R_y}{R} = \frac{-4,032}{4,262} = -0,946$$


4. Aniqlangan  $\alpha$  va  $\beta$  burchaklarga ko‘ra rasmda teng ta‘sir etuvchini ko‘rsatamiz:

$$\arccos(-0,323) = \alpha, \quad \alpha = 71^0$$


$$\arccos(-0,946) = \beta, \quad \beta = 19^0$$

**8-masala.**  $P = 20kN$  yuk A va D bloklar orqali o‘tkazilgan zanjir vositasida BAC magazinli kran bilan ko‘tariladi. D blok devorga shunday mahkamlanganki, burchak  $CAD = 30^0$ . Kranning sterjenlari orasidagi burchaklar:  $ABC = 60^0$ ,  $ACB = 30^0$ . AB va AC sterjenlardagi  $Q_1$  va  $Q_2$  zo‘riqishlar aniqlansin (2.24-rasm, a).

a)



b)



## 2.24-rasm


**Yechilishi:** Bu masalani ham oldingi masaladagi kabi shartlarni inobatga olgan holda, A blok markazini koordinata boshi sifatida qabul qilamiz (2.24-rasm, b) va kuchlarning o'qlardagi proyeksiyalari yig'indisini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} -P \cos 30^\circ - Q_1 \cos 30^\circ - Q_2 \cos 60^\circ &= 0, \\ -P \cos 60^\circ + Q_1 \cos 60^\circ - Q_2 \cos 30^\circ - P &= 0 \end{aligned}$$


Javob:  $Q_1 = 0$ ,  $Q_2 = -34,6\text{kN}$

**9-masala.** Har biri  $P$  og'irlilikdagi ikkita bir xil I silindrlar  $O$  nuqtaga iplar bilan osib qo'yilgan. Ular orasiga  $Q$  og'irlilikdagi II silindr erkin tashlab qo'yilgan. Silindrlar sistemasi muvozanatda. I silindrlar bir-biriga tegmaydi. Iplarning vertikal bilan hosil qilgan  $\alpha$  burchak hamda I va II silindrlar markazi orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqning vertikal bilan  $\beta$  burchagi orasidagi bog'lanish aniqlansin (2.25-rasm, a).

a)



b)



## 2.25-rasm

**Yechilishi:** Bizga ma'lumki II silindr I silindrлarga bir xil kuch bilan ta'sir etadi. Shu bois 0 nuqtaga nisbatan bir xil  $\alpha$  burchaklar ajraladi va I silindrлar ham II silindргa nisbatan  $\beta$  burchaklar hosil qiladi.

Bu holda I silindrлardagi taranglik kuchlari va normal reaksiya kuchlari o'zaro teng bo'ladi. Ular (2.25-rasm, b) da ko'rsatilgandek yo'nalgan. Koordinatalar sistemasini kiritib, kuchlarning o'qlardagi proyeksiyalarini olib ularni birgalikda yechamiz :

$$\begin{aligned} N \sin \beta - T \sin \alpha &= 0, \\ -N \cos \beta + T \cos \alpha - P &= 0, \\ 2N \cos \beta - Q &= 0. \\ \operatorname{tg} \beta &= \left( \frac{2P}{Q} + 1 \right) \operatorname{tg} \alpha. \end{aligned}$$

**10-masala.** Og'irligi  $P$  bo'lgan  $B$  sharcha qo'zg'almas  $A$  nuqtaga AB ip bilan osilgan bo'lib,  $r$  radiusli silliq sfera airtida turadi. A nuqtadan sfera sirtigacha bo'lgan masofa,  $AC = d$ . Ipning uzunligi  $AB = l$ ,  $OA$  to'g'ri chiziq-vertikal. Ipdagi taranglik kuchi  $T$  va sferaning reaksiyasi  $Q$  topilsin (2.21-rasm).

### **Yechilishi:**

1. Ushbu masalani ham oldingi masalalardagi kabi ta'sir kuchlarini belgilab olishdan boshlaymiz.
2. Kuchning ta'sir chiziqlari yordamida uchburchak hosil bo'lishini ko'ramiz va masala yechimini geometrik usulda qidiramiz.
3. Shartga binoan 3 ta kuch har xil masofalarga ta'sir ko'rsatmoqda va bu kuchlarning ta'sir masofalariga nisbatlari o'zaro teng kattalikdir (2.27 (a),(b) - rasm).


Shunday ekan:

$$\frac{T}{l} = \frac{P}{d+r},$$

$$T = P \frac{l}{d+r};$$


$$\frac{Q}{r} = \frac{P}{d+r},$$

$$Q = P \frac{r}{d+r}.$$




**2.26-rasm**

a)



b)



**2.27-rasm**

**11-masala.** Og'irliga  $10N$  bo'lgan bir jinsli shar ikkita  $AB$  va  $DC$  tross vositasida muvozanatda ushlab turiladi. Bu trosslar bitta vertikal tekislikda joylashgan bo'lib, bir-biri bilan  $150^\circ$  burchak tashkil qiladi.  $AB$  tross gorizont bilan  $45^\circ$  burchak tashkil qiladi. Trosslardagi taranglik kuchlari topilsin (2.28-rasm, a ).

**Yechilishi:** Masalani yechimini topishda shar markazini koordinatalar boshi sifatida tasvirlab, kuchlarning o'qlardagi proyeksiyalari yig'indisini hisoblaymiz

(2.28-rasm, b ):


$$T_B \cos 45^\circ - T_C \cos 15^\circ = 0,$$

$$T_B \sin 45^\circ - T_C \sin 15^\circ - P = 0$$


$$T_B = 19,3\text{N},$$

*javob:*  $T_C = 14,1\text{N}$

a)




b)



**2.28-rasm**

**12-masala.** Og‘irligi  $P$  bo‘lgan silindr gorizontal tekislikda joylashgan bo‘lib, uning bir tomonidan siquvchi  $Q$ - kuch ta’sir etmoqda, ikkinchi tomonidan esa u B nuqtadagi o’tkir qirraga qadalib qolgan holda muvozanat holatda turmoqda.



**2.29-rasm**

Agar  $BD=h=R/2$  ( $R$ -silindrning radiusi) bo‘lsa, A va B nuqtalardagi reaksiya kuchlari aniqlansin (2.29-rasm).

**Yechilishi:** Avvalo berilgan  $P$ ,  $Q$ - kuchlar hamda  $N_A$  va  $N_B$  lardan iborat reaksiya kuchlari ta'siridagi silindrning muvozanat shartini ko'rib chiqamiz. Shakldan ko'rinish turibdiki, barcha kuchlar bitta tekislikda joylashgan bo'lib, ular silindrning markazi C nuqtada kesishmoqdalar. Silindrga ta'sir etayotgan kuchlar soni 4 ta bo'lganligi uchun masalani analitik usulda yechish lozim bo'ladi. Shu sababli  $\sum F_{kx} = 0$ ;  $\sum F_{ky} = 0$ . Natijada 2 ta tenglamadan iborat tenglamalar sistemasini tuzamiz. Buning uchun koordinata o'qlarini shaklda ko'rsatilganday tanlab olamiz, u holda:

$$Q - N_B \cos \alpha = 0; \quad N_A - P + N_B \sin \alpha = 0;$$

Agar  $h=0,5R$  ga teng bo'lsa  $\sin \alpha = (R-h)/R = 0,5$  va  $\alpha = 30^\circ$  bo'ladi. U holda birinchi tenglamadan

$$N_B = Q / \cos \alpha = 2Q \frac{\sqrt{3}}{3}$$

$N_B$  - ning aniqlangan bu qiymatini ikkinchi tenglamaga qo'ysak,

$$N_A = P - Q \tan \alpha = P - \frac{Q\sqrt{3}}{3}$$


Agar  $Q = P\sqrt{3}$  bo'lsa  $N_A = 0$  bo'ladi, agar  $Q > P\sqrt{3}$  bo'lsa tsilindr yerdan ko'tarilib B nuqta atrofida aylanma harakat qila boshlaydi.

### 2.9 Mustaqil yechish uchun masalalar

**1-masala.**  $8N$  li kuch har biri  $5N$  dan bo'lgan ikkita kuchga ajratilsin. Shu kuchni har biri  $10N$ , yoki  $15N$ , yoki  $20N$  dan va hokazodan iborat ikkita kuchga ajratish mumkinmi?  $100N$  dan bo'lgan ikkita kuchgachi?

**(Javob:** Agar tashkil etuvchilar yo'naliishlari berilmagan bo'lsa, ajratish mumkin).

**2-masala.** Gorizontga  $\alpha = 45^\circ$  burchak ostida og'gan stropila oyog'i bo'ylab  $Q = 2,5kN$  kuch ta'sir qiladi. Bu holda gorizontal to'sin bo'ylab qanday  $S$  zo'riqish paydo bo'ladi va vertikal yo'nalishda devorga qanday  $N$  kuch ta'sir qiladi?




(**Javob:**  $S = N = 1,77kN$ )

**3-masala.** To'g'ri kanalning qirg'oqlari bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan yuruvchi ikki traktor kanaldagi qayiqni ikki arqon bilan tortib boradi. Arqonlarning tortilish kuchlari  $0,8kN$  va  $0,96kN$ ga va ular orasidagi burchak  $60^\circ$  ga teng. Agar qayiq kanalning qirg'oqlariga parallel ravishda harakatlansa, qayiqning harakati vaqtida unga suvning ko'rsatadigan qarshiligi  $P$  va arqonlar bilan qirg'oqlar orasida hosil bo'luvchi  $\alpha$  va  $\beta$  burchaklar topilsin?


(**Javob:**  $P = 1,53kN, \alpha = 33^\circ, \beta = 27^\circ$ ).

**4-masala.** Prujinali uchta tarozining  $A$ ,  $B$ , va  $C$  xalqalari gorizontal taxtaga qo'zg'almas qilib o'rnatilgan. Tarozining ilmoqlariga uchta arqon bog'langan va ular tortilib, bir D tugunga biriktirilgan. Tarozilar  $8, 7$  va  $13N$  ni ko'rsatadi. Rasmda ko'rsatilgani kabi, arqonlarning yo'nalishlari orasida hosil bo'lgan  $\alpha$  va  $\beta$  burchaklar topilsin.



(**Javob:**  $\alpha = 27,8^\circ; \beta = 32,2^\circ$ )


**5-masala.** Rasmlarda ko'rsatilgandek bir-biri, shift va devorlar bilan sharnirlar vositasida biriktirilgan sterjenlar sxema tarzida tasvirlangan. B, F va K sharnirlar boltlarga  $Q=1000N$  yuk osilgan. Sterjenlar og'irliklarini hisobga olmay, quyidagi hollar uchun ulardagi zo'riqishlar aniqlansin.



- a)  $\alpha = \beta = 45^\circ$ ;
- b)  $\alpha = 30^\circ$ ;  $\beta = 60^\circ$ ;
- c)  $\alpha = 60^\circ$ ;  $\beta = 30^\circ$ ;

**Javoblar:**

- a)  $S_1 = S_2 = 707N$
- b)  $S_1 = 577N$ ;  $S_2 = -1154N$ ;
- c)  $S_1 = -577N$ ;  $S_2 = 1154N$ ;




(minus ishora sterjenning siqilib turganini bildiradi)

**6-masala.** Ko'cha fonari ABC trossning o'rtasidagi B nuqtaga osilgan, bu trossning uchlari bir gorizontalda turuvchi A va C ilmoqlarga ilingan. Agar fonarning og'irligi 150N, butun ABC trossning uzunligi 20m va fonar osilgan nuqtaning gorizontaldan pasayishi  $BD = 0,1m$  ga teng bo'lsa, trossning AB va BC qismlaridagi  $T_1$  va  $T_2$  taranglik kuchlari topilsin? Trossning og'irligi hisobga olinmasin.

(**Javob:**  $T_1 = T_2 = 7,5kN$ ).

**7-masala.** Og'irligi 300N bo'lgan ko'cha fonari AC gorizontal sterjen va BC tirkak yordami bilan vertikal ustunga osilgan.  $AC = 1,2m$ ,  $BC = 1,5m$ . AC va BC sterjenlar A, B va C nuqtalarda sharnirlar bilan biriktirilgan.




Sterjenlarning og'irliliklarini hisobga olmay, ulardagi  $S_1$  va  $S_2$  zo'riqishlar topilsin.

**(Javob:**  $S_1 = 400N$ ,  $S_2 = 400N$ )


**8-masala.** Og'irligi  $20N$  bo'lgan elektr lampa AB shnurda shiftga osilgan va keyin BC arqon bilan devorga tortilgan. Burchak  $\alpha = 60^\circ$  va  $\beta = 135^\circ$  deb olib, AB shnurning  $T_A$  va BC arqonning  $T_C$  taranglik kuchlari aniqlansin.

**(Javob:**  $T_A = 14,6N$ ;  $T_C = 10,4N$ .)




**9-masala.** Tog'larda qurilgan temir yo'lda yo'lning dara ichidagi bir qismi rasmida ko'rsatilgandek osilgan. AB osmaga  $P = 500kN$  kuch ta'sir qiladi deb hisoblab, AC va AD sterjenlardagi zo'riqishlar aniqlansin.

**(Javob:** AC va AD sterjenlarning har biri  $P = 539kN$  ga teng kuch bilan qisilgan).



**10-masala.**  $AB = l$  gorizontal to'g'ri chiziqda joylashgan ikkita A va B bloklar orqali CAEBD arqon o'tkazilgan. Arqonning C va D uchlariga har qaysisining og'irligi  $p$  bo'lgan toshlar, E nuqtasiga esa og'irligi  $P$  bo'lgan tosh osilgan. Yuklar muvozanatlashganda E nuqtaning AB to'g'ri chiziqdan pasayishi  $x$  aniqlansin? Bloklarning o'lchamlari va ulardagi ishqalanish, hamda arqonning og'irligi hisobga olinmasin.


**(Javob:**  $x = \frac{Pl}{2\sqrt{4p^2 - P^2}}$ ).



**11-masala.** Og'irligi  $25N$  yukni bloklardan o'tkazilib, yuklar bilan tortib qo'yilgan ikkita arqon yordamida muvozanatda ushlab turiladi. Yuklardan birining og'irligi  $20N$ , shu yuk osilgan arqon bilan vertikal orasidagi burchakning sinusi  $0,6$  ga teng. Ikkinchi yukning og'irligi  $p$  va ikkinchi arqon bilan vertikal orasidagi  $\alpha$  burchak topilsin? Bloklardagi ishqalanish va arqonlarning og'irligi hisobga olinmasin.


(Javob:  $p = 15N$ ,  $\sin \alpha = 0,8$ ).

**12-masala.** Bir uchi A nuqtaga biriktirilgan AB arqonning B nuqtasiga  $P$  yuk va blokdan o'tkazilgan BCD arqon bog'langan. Arqonning D uchiga og'irligi  $100N$  bo'lgan  $Q$  yuk ulangan. Agar muvozanat holatida arqonlar bilan BE vertikal orasidagi burchaklar  $\alpha = 45^\circ$ ;  $\beta = 60^\circ$  bo'lsa, AB arqondagi  $T$  taranglik kuchi va  $P$  yukning kattaligi aniqlansin? Blokdagi ishqalanish hisobga olinmasin.



(Javob:  $T = 122N$ ,  $P = 137N$ )

**13-masala.** Bir-biriga tik bo'lgan ikkita silliq AB va BC og'ma tekisliklarda og'irligi  $60N$  bo'lgan bir jinsli O shar turibdi. BC tekislik bilan gorizontal orasidagi burchak  $60^\circ$ . Sharning har qaysi tekislikka ko'rsatadigan bosimi aniqlansin.




(Javob:  $N_D = 52N$ ,  $N_E = 30N$ ).

**14-masala.** Silliq vertikal AB devorga AC arqon vositasida bir jinsli O shar osilgan. Arqon devor bilan  $\alpha$  burchak hosil qiladi. Sharning og'irligi  $P$ . Arqonning taranglik kuchi  $T$  va sharning devorga bosimi  $Q$  aniqlansin.

(Javob:  $T = \frac{P}{\cos \alpha}$ ;  $Q = Pt g \alpha$ ).

**15-masala.** Og'irligi  $20N$  bo'lgan bir jinsli shar




silliq og'ma tekislik ustida tross yordamida ushlab turiladi. Bu tross tekislikdan yuqoriroqqa mahkamlangan prujinali taroziga bog'langan. Prujinali tarozining ko'rsatishi  $10N$  ga teng. Go-rizontal bilan tekislik orasidagi burchak  $30^\circ$ . Tross bilan vertikal orasidagi  $\alpha$  burchak va sharning tekislikka ko'rsatadigan  $Q$  bosimi aniqlansin? Prujinali tarozining og'irligi hisobga olinmasin.

**(Javob:**  $\alpha = 60^\circ$ ;  $Q = 17,3N$ ).

**16-masala.** Radiusi  $R=1m$ , uzunligi bo'yicha tekis taralgan og'irligi  $P=40kN$  bo'lgan qozon g'isht devorning chiqqlarida turadi. Devorlar orasidagi masofa  $l=1,6m$ . Ishqalanishni hisobga olmay, A va B nuqtalarga qozondan tushadigan bosim topilsin.

**(Javob:**  $N_A = N_B = 33,3 \text{ kN}$ )



### III BOB. TEKISLIKDAGI KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI


#### 3.1 Kuchning markaz (nuqta) ga nisbatan momenti

Tajribalar ko'rsatadiki, kuch ta'sirida qattiq jism faqat ilgarilanma harakatlanib qolmasdan, qandaydir markaz (nuqta) atrofida aylanma harakat qilish ham mumkin. Kuchning aylantirish effektini uning momenti harakterlaydi.

Qattiq jismning A nuqtasiga  $\bar{F}$  kuch qo'yilgan bo'lsin.  $\bar{F}$  kuch qattiq jismni qandaydir O markaz atrofida aylantiradi. O markazdan  $\bar{F}$  kuchning ta'sir chizig'iga tushirilgan perpendikulyarga kuch yelkasi deyiladi va h harfi bilan belgilanadi. (3.1-rasm, a). Kuch jismni O markaz atrofida aylantirish effekti quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- 1)  $\bar{F}$  kuchning moduli va kuch yelkasi h ning uzunligiga;
- 2) O markaz va  $\bar{F}$  kuch orqali o'tuvchi OAB aylanish tekisligining egallagan holatiga;
- 3) tekislikdagi aylanish yo'nalishiga;

Jismga ta'sir etuvchi barcha kuchlar bir tekislikda yotadi deb olamiz. U holda jismga ta'sir etuvchi kuchlarning aylantirish tekisligi umumiy bo'ladi.



3.1-rasm

Tekislikda aylanish yo'nalishini biror belgi orqali aniqlab olish mumkin. Kuch momenti haqidagi tushunchani kiritamiz. Kuchning O markazga nisbatan momenti deb, mos ishorada olingan kuch modulini kuch yelkasiga bo'lgan ko'paytmasiga aytildi.  $\bar{F}$  kuchning O markazga

nisbatan momenti (bundan keyin qisqagina kuch momenti deb ataymiz) ni  $m_o(\bar{F})$  yoki  $M_o(\bar{F})$  bilan belgilaymiz.

Demak,

$$m_0(\bar{F}) = \pm F \cdot h, \quad (3.1)$$

Kuch momenti Nyuton metr (1Nm) da, shuningdek, kilogramm metr (1Kgm) larda o‘lchanadi. Kuch momenti quyidagi xossalarga ega:

- 1) Jismga qo‘yilgan kuchni o‘zining ta‘sir chizig’i bo‘ylab jismning istalgan nuqtasiga ko‘chirilsa, kuch momenti o‘zgarmaydi;
- 2) agar jismga kuch ta‘sir etmasa (kuch nolga teng), yoki moment markazi kuchning ta‘sir chizig’ida yotgan bo‘lsa (elka nolga teng) kuch momenti nolga teng bo‘ladi (18-rasm, c);
- 3) kuch momenti son jihatdan OAB uchburchak yuzasining ikkilanganiga teng (3.1-rasm, a), ya‘ni:

$$m_0(\bar{F}) = 2S_{\Delta OAB}, \quad (3.2)$$

Haqiqatdan ham uchburchak OAB ning yuzasi.

$$S_{\Delta OAB} = \frac{1}{2} AB \cdot h \text{ bundan } 2S_{\Delta OAB} = AB \cdot h, \quad (3.3)$$

AB asos bo‘ylab  $\bar{F}$  kuch qo‘yilgan, shunga ko‘ra

$$2S_{\Delta OAB} = F \cdot h, \quad (3.4)$$

(11) formula bilan solishtirsak

$$m_0(\bar{F}) = 2S_{\Delta OAB}, \quad (3.5)$$

kelib chiqadi.

### 3.2 Teng ta'sir etuvchining momenti haqida Varin'on teoremasi

**Teorema:** Tekislikdagi kesishuvchi kuchlar sistemasi teng ta'sir etuvchisining biror nuqtaga nisbatan momenti, qo'shiluvchi kuchlarning shu nuqtaga nisbatan momentlarining algebraik yig'indisiga teng.

**Isbot:** Ta'sir chiziqlari A nuqtada kesishuvchi  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlar sistemasini qarab chiqamiz (3.2-rasm).

Tekislikdan ixtiyoriy O nuqta olib, bu nuqtadan OA ga perpendikulyar qilib  $Ox$  o'qini o'tkazamiz. Kuchlar sistemasining O nuqtaga nisbatan momentlari tegishlichcha  $m_0(\bar{F}_1), m_0(\bar{F}_2)$  va h.k. bilan belgilanadi.(3.2) formulaga ko'ra

$$m_0(\bar{F}_1) = 2S_{\Delta OAB} \quad (3.6)$$

Rasmga ko'ra  $2S_{\Delta OAB} = OA \cdot F_{1X}$ ,

$$m_0(F_1) = OA \cdot F_{1X}, \quad (3.7)$$


Shu usul yordamida qolgan kuchlarning momentlarini ham aniqlash mumkin.  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisini  $\bar{R}$  bilan belgilaymiz:  $\bar{R} = \sum \bar{F}_K$  Uning x o'qdagi proyeksiyasi  $R_x = \sum F_{KX}$ . Tenglikning har ikkala tomonini OA ga ko'paytiramiz:

$$OA \cdot R_x = \sum(OA \cdot F_{KX}), \quad (3.8)$$

(3.2) formulaga ko'ra

$$m_0(\bar{R}) = \sum m_0(\bar{F}_K), \quad (3.9)$$

Bu Varin'on teoremasining matematik ifodasi.



3.2-rasm

### 3.3 Juft kuch. Juft kuch momenti

Miqdorlari teng, parallel va qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan ikkita kuchdan iborat sistemaga juft kuch deyiladi. (3.3-rasm, a) Juft kuch  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  ko‘rinishida belgilanadi.  $\bar{F}_1, \bar{F}_2$  kuchlarga juftning tashkil etuvchilari deyiladi. Juftni tashkil etuvchilarining ta‘sir chiziqlari orasidagi eng qisqa masofaga juftining yelkasi deyiladi va  $d$  harfi bilan belgilanadi. Juftning ta‘sir chiziqlari orqali o‘tuvchi tekislikka, juftning ta‘sir tekisligi deyiladi.

Juftni tashkil etuvchi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘la olmaydi. Juft kuch teng ta‘sir etuvchiga ega emas.


Haqiqatdan ham  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  juft qandaydir  $\bar{Q}$  teng ta‘sir etuvchiga ega bo‘lsin. Teng ta‘sir etuvchi  $\bar{Q} \neq 0$  bo‘lsin. U holda qattiq jism  $\bar{F}_1 \bar{F}_2$  va  $\bar{Q}$  kuchlar ta‘sirida muvozanatda bo‘lishi kerak. Lekin bu mumkin emas, chunki  $\bar{F}_1 + \bar{F}_2 = 0$ ,  $Q \neq 0$  bo‘lgani uchun  $\bar{F}_1 + \bar{F}_2 + \bar{Q} \neq 0$ . Ushbu holatda juftni bitta kuch bilan almashtirib bo‘lmaydi. Demak, juft kuch teng ta‘sir etuvchiga ega emas.

Jismga qo‘yilgan juftning aylantirish effekti: 1) juft kuchning moduli va yelkasining uzunligiga, 2) juft ta‘sir tekisligining holatiga, 3) shu tekislikdagi aylanish yo‘nalishiga bog’liq bo‘ladi. Bu effektni xarakterlash uchun juft kuch momenti tushunchasi kiritiladi.

Juft kuch momenti deb mos ishora bilan olingan juftni tashkil etuvchi kuchlardan birining miqdorini juft yelkasi uzunligiga ko‘paytmasiga teng kattalikka aytildi. Juft momenti m yoki  $M$  bilan belgilanadi.

$$m = \pm F_1 d = \pm F_2 \cdot d , \quad (3.10)$$

Agar juft jismni soat mili harakati yo‘nalishiga teskari yo‘nalishda aylantirsa, juft momenti musbat, agar soat mili yo‘nalishi bo‘ylab aylantirsa juft momenti manfiy ishorada olinadi. Juft momenti ham xuddi kuch momenti kabi bir xil o‘lchov birliklarda o‘lchanadi.



**3.3-rasm**

**Teorema:** Juftni tashkil etuvchi kuchlarning juft tekisligida ixtiyoriy nuqtaga nisbatan momentlarining algebraik yig'indisi juft momentiga teng.

Isbot.  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  juftning ta'sir tekisligidan ixtiyoriy O nuqtani olamiz (3.3-rasm,b). Natijada quyidagini aniqlaymiz:

$$m_0(\bar{F}_1) = -F_1 \cdot Oa, \quad m_0(\bar{F}_2) = F_2 \cdot Ob, \quad (3.11)$$

Bu tengliklarni qo'shamiz va  $\bar{F}_1 = \bar{F}_2$ ,  $Ob - Oa = d$  ekanligini e'tiborga olamiz. Natijada

$$m_0(\bar{F}_1) + m_0(F_2) = -F_1 Oa + F_2 Ob = -F_1 Oa + F_2(d + Oa), \quad (3.12)$$

$$m_0(\bar{F}_1) + m_0(F_2) = -F_1 Oa + F_2 d + F_2 Oa = F_2 d = m, \quad (3.13)$$

$$\text{Demak, } m_0(\bar{F}_1) + m_0(\bar{F}_2) = m, \quad (3.14)$$


### **3.4 Ekvivalent juftlar haqida teorema**

**Teorema:** Qattiq jismga qo'yilgan juftning ta'sirini o'zgartirmay, shu juftning ta'sir tekisligida yotuvchi, momenti berilgan juftning momentiga teng istalgan juft bilan almashtirish mumkin.

**Isbot.** Qattiq jismga yelkasi  $d_1$  bo‘lgan  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  juft qo‘yilgan bo‘lsin. Bu juftning ta‘sir tekisligidan ikkita ixtiyoriy C,D nuqtalar olamiz. C va D nuqtalardan to‘g’ri chiziqlar chiqaramiz. Bu to‘g’ri chiziqlar  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlarning ta‘sir chiziqlari bilan kesishadi. Kesishishda hosil bo‘lgan nuqtalarni tegishlichcha A va B deb belgilaymiz va  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  juftlarni shu nuqtalarga keltirib qo‘yamiz (3.4-rasm).

AC va BD to‘g’ri chiziqlar orasidagi masofani  $d_2$  bilan belgilaymiz.  $\bar{F}_1$  kuchni AB va AC yo‘nalishlarda  $\bar{P}_1$  va  $\bar{Q}_1$ ,  $\bar{F}_2$  kuchni AB va BD yo‘nalishlarda  $\bar{P}_2$  va  $\bar{Q}_2$  tashkil etuvchilarga ajratamiz. Bunda quyidagi shart bajarilsin:  $\bar{P}_1 = -\bar{P}_2$  va  $\bar{Q}_1 = -\bar{Q}_2$ .

Rasmdan ko‘rinadiki,  $\bar{Q}_1$  va  $\bar{Q}_2$  kuchlar miqdor jihatdan teng, bir



**3.4-rasm**

to‘g’ri chiziq bo‘ylab qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan:

$$(\bar{Q}_1, \bar{Q}_2) \propto O, \quad (3.15)$$

Ushbu kuchlar nolga ekvivalent sistemani tashkil etgani uchun ularni tashlab yuboramiz. Natijada qattiq jism yelkasi  $d_2$  bo‘lgan  $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$  juft ta‘sirida qoladi.

Demak,  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  juft  $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$  juft bilan almashtirildi.  $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$  juftni o‘zining ta‘sir tekislikdagi C va D nuqtalarga ko‘chirish mumkin.

Endi biz  $(\bar{F}_1, \bar{F}_2)$  va  $(\bar{P}_1, \bar{P}_2)$  juftlarining momentlari tengligini isbotlaymiz:

$\bar{F}_1$  kuch  $\bar{P}_1$  va  $\bar{Q}_1$  kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi, shunga ko‘ra

$$\bar{F}_1 = \bar{P}_1 + \bar{Q}_1, \quad (3.16)$$

Varin’on teoremasiga ko‘ra, bu kuchlarning B nuqtaga nisbatan momentlari quyidagiga teng:

$$m_B(\bar{F}_1) = m_B(\bar{P}_1) + m_B(\bar{Q}_1) \quad (3.17)$$

$$m_B(\bar{F}_1) = F_1 \cdot d_1, \quad m_B(\bar{P}_1) = P_1 \cdot d_2, \quad m_B(\bar{Q}_1) = O; \quad (3.18)$$

Bularni o‘rniga qo‘ysak

$$F_1 d_1 = P_1 d_2, \quad (3.19)$$

Demak, juftlarning momentlari o‘zaro teng ekan. Teorema isbotlandi.


Yuqorida isbotlangan teoremadan juftlarning quyidagi xossalari kelib chiqadi:

- 1) juftning jismga ta‘sirini o‘zgartirmay, o‘zining ta‘sir tekisligida istalgan joyga ko‘chirish mumkin.
- 2) juftning momentini o‘zgartirmay, uning tashkil etuvchilari va yelkasi o‘zgartirilsa, juftning jismga ta‘siri o‘zgarmaydi.

Texnik chizmalarda juft kuch ko‘rsatilmaydi, balki uning aylanish yo‘nalishi ko‘rsatiladi.

Masalan, 3.5-rasmda, qattiq jismning A nuqtasiga  $\bar{F}$  kuch momenti  $m$  ga teng bo‘lgan juft qo‘yilganligi ko‘rsatilgan.


3) Juft kuchni qattiq jismga ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘zgartirmay, bir tekislikdan unga parallel bo‘lgan istalgan boshqa bir tekislikka ko‘chirish mumkin.



### 3.5 Tekislikdagi juftlarni qo'shish. Tekislikdagi juft kuchlar sistemasining muvozanat shartlari

**Teorema:** Bir tekislikda yotuvchi juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent bo'lib, uning momenti berilgan juftlar momentlarining algebraik yig'indisiga teng.

**Isbot:** Absolyut qattiq jismga bir tekislikda yotuvchi bir nechta, aniq-roq bo'lishi uchun uchta juft qo'yilgan bo'lsin (ular rasmida ko'rsatilmagan). Ularning momentlari tegishlich m<sub>1</sub>, m<sub>2</sub> va m<sub>3</sub> ga teng bo'lsin.



3.6-rasm

Juftlarning ekvivalentligi haqidagi teoremaga asosan, uchta juftni momentlarini o'zgartirmay ularni umumiy AB=d yelkaga keltiramiz (3.6-rasm). A va B nuqtalarga qo'yilgan kuchlarni alohida-alohida qo'shib, A nuqtada  $\bar{R}$  va B nuqtada  $\bar{R}^1$  kuchlarni hosil qilamiz.

$$\text{Bunda } \bar{R} = \bar{F}_1 - \bar{F}_2 + \bar{F}_3, \quad \bar{R}^1 = \bar{F}_1^1 - \bar{F}_2^1 + \bar{F}_3^1, \quad (3.20)$$

Natijada juftlar sistemasi yelkasi AB=d bo'lgan  $(\bar{R}, \bar{R}^1)$  teng ta'sir etuvchi juftga keltiriladi. Uning momenti

$$M = Rd = F_1d - F_2d + F_3d = m_1 - m_2 + m_3, \quad (3.21)$$

Uchta juft uchun teorema isbotlandi.

Agar juftlar sistemasi momentlari  $m_1, m_2, \dots, m_n$  bo‘lgan n ta juftlardan iborat bo‘lsa, ular momenti.

$$M = \sum m_k, \quad (3.22)$$

bo‘lgan bitta juftga ekvivalent bo‘ladi.

Isbotlangan teoremadan tekislikdagi juft kuchlar sistemasi muvozanat shartlari kelib chiqadi:

Tekislikdagi juftlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun berilgan juftlar momentlarining algebraik yig’indisi nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir:

$$\sum m_k = O, \quad (3.23)$$


### **3.6 Kuchni o‘ziga parallel ko‘chirishga oid lemma**

Qattiq jism biror kuch ta’sirida muvozanatda bo‘lganda shu kuchni o‘zining ta’sir chizig’i bo‘ylab jismning istalgan nuqtasiga ko‘chirilsa, jismning muvozanati o‘zgarmaydi. Kuch jismning boshqa bir nuqtasiga ko‘chirilsa, jismning muvozanati albatta o‘zgaradi.

**Lemma.** Absolyut qattiq jismga qo‘yilgan kuchni jismga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘zgartirmay jismning istalgan boshqa nuqtasiga ko‘chirilganda, momenti ko‘chirilayotgan kuchni ko‘chirish markaziga nisbatan momentiga teng bo‘lgan juft kuchni qo‘shib olish lozim.

**Isbot.** Qattiq jismning biror A nuqtasiga  $\bar{F}$  kuch qo‘yilgan bo‘lsin (3.7-rasm). Agar qattiq jismning istalgan biror B nuqtasiga muvozanatlashuvchi  $(\bar{F}', \bar{F}'')$  sistemani qo‘ysak,  $\bar{F}$  kuchining ta’siri o‘zgarmaydi. Bunda:  $\bar{F}' = \bar{F}, \bar{F}'' = -\bar{F}$  bo‘lsin.

Natijada qattiq jism  $\bar{F}, \bar{F}'$  va  $\bar{F}''$  kuchlar sistemasi ta’sirida qoladi. Bu kuchlar sistemasi B nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{F}'$  kuchga va  $(\bar{F}, \bar{F}'')$  juftga



**3.7-rasm**

ekvivalent bo‘ladi.  $(\bar{F}, \bar{F}')$  juftning momenti,  $\bar{F}$  kuchning B nuqtaga nisbatan momentiga tengligi juftlar nazariyasidan ma‘lum ya‘ni,

$$m = m_B(\bar{F}), \quad (3.24)$$

Shunday qilib, A nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{F}$  kuchni B nuqtaga keltirishda  $(\bar{F}, \bar{F}')$  juftni qo‘shib olish kerak ekan.  $(\bar{F}, \bar{F}')$  juftga qo‘shilgan juft deyiladi.

### **3.7 Tekislikdagi kuchlar sistemasini berilgan markazga keltirish**

Qattiq jismga bir tekislikda yotuvchi  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlar sistemasi ta‘sir etayotgan bo‘lsin. Shu tekislikdan ixtiyoriy O nuqta tanlab, bu nuqtani keltirish markazi deb ataymiz va berilgan kuchlar sistemasini O nuqtaga keltiramiz. Kuchlarni keltirishda bittadan juft qo‘shib olinadi, (3.8-rasm, a). Natijada jismga uning O nuqtasiga qo‘yilgan

$$\bar{F}_1^1 = \bar{F}_1, \bar{F}_2^1 = \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n^1 = \bar{F}_n, \quad (3.25)$$

kuchlar sistemasi va momentlari:

$$m_1 = m_0(\bar{F}_1), m_2 = m_0(\bar{F}_2), \dots, m_n = m_0(\bar{F}_n), \quad (3.26)$$

bo‘lgan juftlar ta‘sir qila boshlaydi.

O nuqtaga keltirilgan kuchlar ularni geometrik yig’indisi bo‘lgan bitta  $\bar{R} = \sum \bar{F}_k$  kuch bilan almashtiriladi (3.8-rasm,b), (17) ga ko‘ra:


$$\bar{R} = \sum \bar{F}_k, \quad (3.27)$$

Juftlarni qo‘shish teoremasiga ko‘ra, barcha juftlar ham bitta juft bilan almashtiriladi. Bu juftning momenti  $M_0 = \sum m_k$  yoki (3.26) ga ko‘ra

$$M_0 = \sum m_0(\bar{F}_k), \quad (3.28)$$

Kuchlar sistemasining geometrik yig’indisiga teng kattalik  $\bar{R}$  - kuchlar sistemasining bosh vektori, juftlar momentlarining algebraik yig’indisi  $M_0$  - kuchlar sistemasining keltirish markaziga nisbatan bosh momenti deyiladi.

Shunday qilib, quyidagi teorema isbotlandi: tekislikdagi ixtiyoriy kuchlar sistemasini biror O markazga keltirish natijasida, bu kuchlar sistemasi keltirish markaziga qo‘yilgan bosh vektor  $\bar{R}$  ga teng bitta kuchga hamda momenti bosh momenti  $M_0$  ga teng bitta juftga ekvivalent bo‘ladi (3.8-rasm, c).



3.8-rasm

Shuni qayd qilish kerakki, bu yerda  $\bar{R}$  kuchlar sistemasining teng ta‘sir etuvchisi bo‘la olmaydi, chunki u kuchlar sistemasini juft bilan birgalikda almashtirayapti. Endi ikkita xususiy holni ko‘rib chiqamiz:

- 1) agar  $\bar{R} = 0$ ;  $M_0 \neq 0$  bo‘lsa, berilgan kuchlar sistemasi momenti  $M_0$  ga teng bo‘lgan bitta juftga keltiriladi. Bu holda  $M_0$  O markazni tanlanishiga bog’liq bo‘lmaydi.
- 2) agar  $\bar{R} \neq 0$ ,  $M_0 = 0$  bo‘lsa, berilgan kuchlar sistemasi O markazga qo‘yilgan teng ta‘sir etuvchisiga teng bo‘lgan bitta  $\bar{R}$  kuchga keltiriladi.

### 3.8 Tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari

Tekislikdagi kuchlar sistemasi ta‘sirida jism muvozanatda bo‘lsa, bu kuchlarning bosh vektori  $\bar{R}$  va bosh momenti  $M_0$  alohida- alohida nolga teng bo‘lishi shart va etarli:

$$\bar{R} = 0; \quad M_0 = 0, \quad (3.29)$$

(3.29) tenglik muvozanatning zaruriy sharti bo‘lib hisoblanadi. Chunki, agar ulardan biri bajarilmasa, jismga ta‘sir etuvchi kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchiga ( $\bar{R} \neq 0$ ) yoki bo‘lmasa juftga ( $M_0 \neq 0$ ) keltiriladi, lekin muvozanatda bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda (3.29) muvozanatning yetarli sharti bo‘lib ham hisoblanadi. Chunki,  $\bar{R} = 0$  bo‘lsa, kuchlar sistemasi bosh moment  $M_0$  ga teng juftga keltiriladi, lekin  $M_0 = 0$  bo‘lgani uchun kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘ladi.

Endi biz (3.29) tenglikdan kelib chiqadigan tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanatning analitik shartlarini aniqlaymiz. Ular quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

**1. Muvozanatning asosiy formasi.** (3.29) tenglikda  $\bar{R} = 0$  bo‘lishi uchun uning  $x$  va  $y$  o‘qlardagi proyeksiyalari alohida–alohida nolga teng bo‘lishi lozim:

$$R_x = 0; R_y = 0; \text{ va } M_0 = 0, \quad (3.30)$$

O’z navbatida  $R_x = \sum F_{\kappa x}$ ;  $R_y = \sum F_{\kappa y}$ . Demak tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun bir vaqtning o‘zida

$$\sum F_{\kappa x} = 0; \quad \sum F_{\kappa y} = 0; \quad \sum m_0(\bar{F}_\kappa) = 0, \quad (3.31)$$

shart bajarilishi lozim.

**Tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun kuchlarning shu tekislikda yotuvchi ikkita koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalarining yig’indilari va shu tekislikdagi ixtiyoriy nuqtaga nisbatan momentlarining yig’indisi alohida-alohida nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir.**

**2. Muvozanat shartining ikkinchi formasi.** Tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun barcha kuchlarning shu tekislikdagi ikkita nuqtasining har biriga nisbatan momentlarining yig’indisi va mazkur nuqtalardan o‘tuvchi to‘g’ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lмаган о‘qdagi proyeksiyalarining yig’indisi alohida-alohida nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir:

$$\sum m_A(\bar{F}_\kappa) = 0; \quad \sum m_B(\bar{F}_\kappa) = 0; \quad \sum F_{kx} = 0; \quad (3.32)$$

Kuchlar sistemasi muvozanatining zarurligi bevosita (3.32) dan kelib chiqadi. Chunki (3.32) dan birortasi bajarilmasa,


$\bar{R} \neq 0$  yoki  $m_A \neq 0$  ( $m_B \neq 0$ ) bo'lsa muvozanat bo'lmaydi. Tekislik-dagi kuchlar sistemasi muvozanatining yetarlisini isbotlaymiz. Tekislik-dagi kuchlar sistemasi uchun (3.32) da faqat birinchi ikkita sharti bajarilsa, ya'ni

$m_A = 0$  va  $m_B = 0$  bo'lsa, kuchlar sistemasi muvozanatda bo'lmay A va B nuqtalardan o'tuvchi teng ta'sir etuvchi  $\bar{R}$  ga keltiriladi (3.9-rasm). (3.32) ning uchinchi shartiga ko'ra  $R_x = \sum F_{kx} = 0$ . x o'q AB ga perpendikulyar bo'lмагани учун oxirgi teng-lik faqat  $\bar{R} = 0$  bo'lgандагина бajarila-di, ya'ni kuchlar sistemasi muvozanatda bo'ladi.


**3. Muvozanat shartining uchinchi formasи** (uchta momentlar tenglamasi). Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasi muvozanatda bo'lishi учун barcha kuchlarning shu tekislikdagi bir to'g'ri chiziqda yotmagan uchta nuqtasining har biriga nisbatan momentlarning yig'indisi alohida-alohida nolga teng bo'lishi zarur va yetarlidir:

$$\sum m_A(\bar{F}_\kappa) = 0, \quad \sum m_B(\bar{F}_\kappa) = 0, \quad \sum m_C(\bar{F}_\kappa) = 0, \quad (3.33)$$

Bu shartlarning zarurligi xuddi oldingi holdagidek isbotlanadi. (3.33) shartlar sistema muvozanatda bo'lishining yetarli ekanligini teskarisini faraz qilish bilan isbotlanadi. (3.33) shartlar bajarilishiga qaramay, kuchlar sistemasi muvozanatda bo'lmasligi учун berilgan sistemaning teng ta'sir etuvchisi bir vaqtning o'zida A, B, C nuqtalardan o'tishi lozim. Bunday bo'lishi



3.9-rasm



3.10-rasm

mumkin emas, chunki A, B, C nuqtalar bir to‘g’ri chiziqda yotmaydi. (3.33) shartlar bajarilsa, kuchlar sistemasi muvozanatda bo‘ladi.

### **3.9 Tekislikdagi parallel kuchlarning muvozanat shartlari**

Jismga ta‘sir etuvchi kuchlar sistemasi o‘zaro parallel kuchlardan iborat bo‘lsa, Ox o‘qini kuchlar sistemasiga perpendikulyar qilib, Oy o‘qini esa kuchlar sistemasiga parallel qilib yo‘naltiramiz (3.10-rasm). U holda har bitta kuchning  $x$  o‘qidagi proyeksiyasi nolga teng bo‘lganligi uchun shartning birinchi tenglamasi ayniyatga  $0=0$  aylanadi va tekislikdagi parallel kuchlarning muvozanat shartlari quyidagicha bo‘ladi.


$$\sum F_{ky} = 0, \quad \sum m_0(\bar{F}_k) = 0, \quad (3.34)$$

(3.31) muvozanat shartidan parallel kuchlar muvozanatining boshqa formasi hosil bo‘ladi.

$$\sum m_A(\bar{F}_k) = 0, \quad \sum m_B(\bar{F}_k) = 0 \quad (3.35)$$

### **3.10 Statik aniq va statik aniqmas masalalar**

Berilgan masalada noma‘lumlar soni muvozanat tenglamalar soniga teng bo‘lsa, statik aniq masala deyiladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan masalalar statik aniq masalalar edi.



**3.11-rasm**

Noma‘lumlar soni muvozanat tenglamalar sonidan ortiqcha bo‘lsa, bunday masala statik aniqmas masala deyiladi.

Ikkala uchi qo‘zg’almas silindrik sharnirli tayanchga biriktirilgan AB to‘sini berilgan bo‘lsin (3.11-rasm, a). To‘sinni C nuqtasiga  $\alpha$  burchak ostida  $\bar{F}_1$  va D nuqtasiga perpendikulyar yo‘nalgan  $\bar{F}_2$  kuchlar ta‘sir etayotgan bo‘lsin. A va B tayanchlar silindrik sharnirli qo‘zg’almas tayanchlar bo‘lgani uchun ularning reaksiya kuchlarini  $\bar{x}_A, \bar{y}_A$  va  $\bar{x}_B, \bar{y}_B$  tashkil etuvchilarga ajratamiz. Bu kuchlar tekislikdagi kuchlarni tashkil etadi. Demak muvozanat tenglamalari uchta bo‘ladi. Shu sababli masala statik aniqmas masala.

Masalani statik aniq bo‘lishi uchun tayanchlardan birini (masalan, B tayanchni) qo‘zg’aluvchan silindrik sharnirli tayanch bilan almashtirish mumkin (3.11-rasm,b).

B tayanchning reaksiya kuchi bitta  $\bar{y}_B$  dan iborat bo‘ladi. Endi tenglamalar soni noma‘lumlar soniga teng bo‘ladi. Masala statik aniq masalaga aylandi.


Nazariy mexanikada statik aniq masalalar yechiladi. Statik aniqmas masalalar materiallar qarshiligi va qurilish mexanikasi fanlarida yechiladi.

### ***3.11 Taqsimlangan kuchlar***

Muhandislik hisoblashlarida u yoki bu qonuniyat asosida sirt bo‘ylab taqsimlangan kuchlar ko‘plab uchraydi. Bir tekislikda taqsimlangan kuchlar qo‘yilgan eng sodda misollarni ko‘rib chiqamiz.

Bir tekis taqsimlangan kuchlarni xarakterlovchi kattalik, uning intensivligi, ya‘ni uzunlik birligiga to‘g’ri kelgan taqsimlangan kuch bo‘lib hisoblanadi. Intensivlik  $\frac{\text{Nyuton}}{\text{metr}} \left( 1 \frac{N}{m} \right)$  larda o‘lchanadi va q harfi bilan belgilanadi.

**1) To‘g’ri chiziq kesmasi bo‘yicha tekis taqsimlangan kuchlar**  
(3.12-rasm, a)



3.12-rasm

Bunday kuchlarning intensivligi qo‘zg’almas kattalik bo‘ladi. Masa-lalar yechishda bunday kuchlar sistemasi teng ta’sir etuvchisi  $\bar{Q}$  bilan almashtiriladi. Uning moduli quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q = aq, \quad (3.36)$$

bu yerda:  $a$  – kuch taqsimlangan masofa;

Teng ta’sir etuvchi  $\bar{Q}$  AB kesmaning o‘rtasiga qo‘yiladi.

### 2) To‘g’ri chiziq kesmasi bo‘yicha chiziqli qonun bo‘yicha tekis taqsimlangan kuchlar (3.12-rasm,b).

Bunday kuchlarga misol tariqasida to‘g’onga beradigan suvning bosim kuchini ko‘rsatish mumkin. Suvning bosim kuchi to‘g’on balandligi bo‘yicha: eng pastda maksimal qiymatga, suv sirtida esa nolga teng bo‘ladi. Bunday kuchlar uchun tekis taqsimlangan kuchlarning intensivligi o‘zgaruvchan kattalik bo‘lib noldan maksimal qiymatga  $q_m$  gacha o‘zgaradi. Bunday kuchlarning teng ta’sir etuvchisi  $\bar{Q}$  bir jinsli uchburchak shakldagi plastinkaning og’irlilik kuchi kabi topiladi. Bir jinsli uchburchak plastinkaning og’irligi uning yuzasiga proporsional bo‘lib, moduli quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = 0,5 \cdot a \cdot q_m, \quad (3.37)$$

Teng ta’sir etuvchi  $\bar{Q}$  kuch ABC uchburchakning BC tomonidan  $\frac{a}{3}$  masofada qo‘yilgan bo‘ladi.


### 3) To‘g’ri chiziq kesmasi bo‘yicha ixtiyoriy qonun asosida taqsimlangan kuchlar (3.12-rasm, c).

Bunday kuchlarning teng ta'sir etuvchisi  $\bar{Q}$  miqdor jixatidan mos masshtabda o'lchanan ABCD shakl yuzasiga teng hamda berilgan yuzaning og'irlik markaziga qo'yiladi. Bu holga metro va boshqa yer osti inshootlariga tuproqning ta'sir kuchi misol bo'la oladi.

**4) Aylana yoyi bo'yicha tekis taqsimlangan kuchlar** (3.13-rasm). Bunday kuchlarga silindrik shakldagi idish ichidagi suyuqlikning idish devoriga beradigan gidrostatik bosimi misol bo'la oladi.

Yoyning radiusi  $R$ ,  $\angle BOD = \angle AOD = \alpha$ , bu yerda OD – simmetriya o'qi bo'lib x o'qini shu o'q bo'ylab yo'naltiramiz.

Yoga ta'sir etuvchi kesishuvchi kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi  $\bar{Q}$  simmetriya ya'ni  $Ox$  o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi. Bunda  $Q_x = Q$ .  $Q$  ning modulini aniqlash uchun yoydan  $dS$  yoy elementini ajratib olamiz, uning holati  $\varphi$  burchak orqali uzunligi esa  $dS = Rd\varphi$  yordamida aniqlanadi. Elementar  $ds$  yoga ta'sir etuvchi kuch  $dQ = qdS = qRd\varphi$ ,  $Ox$  o'qdagi proyeksiyasi  $dQ_x = dQ \cdot \cos \varphi = qR \cos \varphi \cdot d\varphi$  ga teng.



3.13-rasm

$$\text{U holda } Q_x = \int_{-\alpha}^{\alpha} dQ_x = qR \int_{-\alpha}^{\alpha} \cos \varphi \cdot d\varphi = 2qR \sin \alpha \quad \text{3.13-rasmdan}$$

ko'rinaridiki,  $R \sin \alpha = \frac{AB}{2}$ , shuningdek  $Q_x = Q$  bo'lgani uchun

$$Q = q \cdot h, \quad (3.38)$$

bu yerda:  $h = AB$  yoyni tortib turuvchi vatar.


**5) Devorga qistirib mahkamlangan balkaga ta'sir etuvchi taqsimlangan kuchlar.**

AB to'sinning AC qismi devorga qistirib mahkamlangan bo'lsin (3.14-rasm,a). Bino balkonlarining asosi devorga xuddi shunday biriktiriladi. To'sinning devorga kirib turgan qismiga ta'sir etuvchi taqsimlangan

reaksiya kuchlarini  $A$  nuqtaga keltirish natijasida bu kuchlarni shu nuqtaga qo‘yilgan bitta  $R_A$  kuch va momenti  $m_A$  noma‘lum juft bilan almashtirish mumkin.

$R_A$  ning yo‘nalishi aniq bo‘lmagani uchun uni  $x_A, y_A$  tashkil etuvchilarga ajratiladi.

Shunday qilib, devorga qistirib mahkamlangan to‘sining devorga qisilgan qismidagi reaksiya kuchi oldindan noma‘lum uchta  $x_A, y_A, m_A$  lardan iborat bo‘ladi (3.14 – rasm, b).




3.14-rasm

### 3.12 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** Uzunligi  $2a$ , og’irligi  $P$  ga teng AB zinapoya silliq gorizontal pol va silliq vertikal devorga tayanib turadi; Uning E nuqtasida og’irligi  $Q$  bo‘lgan odam turibdi. Zinapoya sirg’anib ketmasligi uchun OD ip yordamida bog’lab qo‘yilgan. Zinapoya va ipning pol bilan tashkil qilgan bur-chaklari tegishlicha  $\alpha, \beta$ . BE=b bo‘lsa, A va B tayanchlardagi reaksiyalarni aniqlang.

Zinapoyaning og’irlik markazi uning o‘rta-sidagi C nuqtada deb oling.



3.15-rasm

**Yechilishi:** Tayanch reaksiyalarini tegishli  $N_1$  va  $N_2$  deb belgi-lab, ularni tayanch nuqtalariga perpendikulyar qilib yo‘naltira-miz (3.15-rasm). Ipda hosil bo‘l-gan reaksiya kuchi  $T$  taranglik kuchidan iborat bo‘lib, u ip bo‘y-lab yo‘nalgan bo‘ladi. Odam va zinapoyaning og’irlik

kuchlari  $Q$  va  $P$  larni vertikal pastga tomon, koordinata o‘qla-rini OA va OB to‘g’ri chiziq bo‘yicha yo‘naltiramiz. Endi muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$\sum F_{\kappa x} = 0; \quad N_2 - T \cos \beta = 0 \quad (1')$$

$$\sum F_{\kappa y} = 0; \quad -Q - P - T \sin \beta + N_1 = 0 \quad (2')$$

$$\sum m_0(\bar{F}_\kappa) = 0; \quad -N_2 \cdot OB - Q \cdot OH - P \cdot OF + N_1 \cdot OA = 0 \quad (3')$$

Avval quyidagi hisoblashlarni bajaramiz:

$$OB = AB \sin \alpha = 2a \sin \alpha; \quad OH = b \cos \alpha$$

$$OF = AB/2 \cdot \cos \alpha = \frac{2a}{2} \cos \alpha = a \cos \alpha, \quad OA = AB \cos \alpha = 2a \cos \alpha$$

bularni o‘rniga qo‘yamiz.

$$\sum F_{\kappa x} = 0; \quad N_2 - T \cos \beta = 0 \quad (1)$$

$$\sum F_{\kappa y} = 0; \quad -Q - P - T \sin \beta + N_1 = 0 \quad (2)$$

$$\sum m_0(\bar{F}_\kappa) = 0; \quad -N_2 \cdot 2a \sin \alpha - Qb \cos \alpha - Pa \cos \alpha + N_1 \cdot 2a \cos \alpha = 0 \quad (3)$$

(1) tenglikdan

$$N_2 = T \cos \beta$$

(2) tenglikdan  $N_1 = T \sin \beta + P + Q$

$N_1$  va  $N_2$  larning qiymatlarini (3) tenglikka keltirib qo‘yamiz.

$$-T \cos \beta \cdot 2a \sin \alpha - Qb \cos \alpha - Pa \cos \alpha + (T \sin \beta + P + Q) \cdot 2a \cos \alpha = 0 \text{ yoki}$$

$$T \cdot 2a \sin \beta \cos \alpha + P \cdot 2a \cos \alpha + Q \cdot 2a \cos \alpha - T \cdot 2a \sin \alpha \cos \beta - Qb \cos \alpha - Pa \cos \alpha = 0$$

$$2a \cos \alpha (T \sin \beta + P + Q) - T \cdot 2a \cos \beta \sin \alpha - \cos \alpha (Qb + Pa) = 0$$

$$\text{bundan } -2aT \sin(\alpha - \beta) + Pa \cos \alpha + Q(2a - b) \cos \alpha = 0$$

$$\text{yoki: } -2aT \sin(\alpha - \beta) + [Pa + Q(2a - b)] \cos \alpha = 0$$

$$T = \frac{[Pa + (2a - b)Q] \cos \alpha}{2a \sin(\alpha - \beta)} = \left[ \frac{Pa + (2a - b)}{2a} Q \right] \frac{\cos \alpha}{\sin(\alpha - \beta)} = \left( \frac{P}{2} + \frac{2a - b}{2a} Q \right) \frac{\cos \alpha}{\sin(\alpha - \beta)};$$

Endi  $N_1$  va  $N_2$  larni aniqlaymiz.

$$N_1 = T \sin \beta + P + Q = P + Q + \left( \frac{P}{2} + \frac{2a - b}{2a} Q \right) \frac{\cos \alpha \cdot \sin \beta}{\sin(\alpha - \beta)}$$

$$N_2 = \left( \frac{P}{2} + \frac{2a-b}{2a} Q \right) \frac{\cos \alpha \cdot \cos \beta}{\sin(\alpha - \beta)};$$

**2-masala.** A sharnir atrofida aylana oladigan, uzunligi  $2a$  va og'irligi  $P$  ga teng bo'lgan ko'tarish kranining AB tirsagi BC zanjir yordamida gorizontal holatda muvozanat holatida ushlab turiladi. Tirkakning B uchiga og'irligi  $Q$  bo'lgan yuk osilgan. Agar tirkak bilan vertikal orasidagi burchak  $\alpha$  ga teng bo'lsa, zanjirning taranglik kuchi va A sharnirning reaksiyalarini aniqlang.

**Yechilishi:** Koordinata boshi qilib A nuqtani olamiz va  $Ax$ ,  $Ay$  o'qlarini o'tkazamiz (3.16-rasm). Zanjirda hosil bo'ladigan bog'lanish reaksiya kuchi, zanjirning taranglik kuchiga teng bo'lib zanjir bo'y lab yo'nalgan bo'ladi. A

sharnirning reaksiya kuchining yo'nalishi bizga ma'lum bo'lmasani uchun, uni  $x_A$  va  $y_A$  tashkil etuvchilarga ajratib topamiz. Muvozanat tenglamalarini tuzamiz.

$$\sum F_{KX} = 0 \quad x_A - T = 0 \quad (1)$$

$$\sum F_{KY} = 0 \quad Y_A - P - Q = 0 \quad (2)$$

$$\sum m_A(F_K) = 0 \quad -aP\sin\alpha - 2aaQ\sin\alpha + 2aT\cos\alpha = 0 \quad (3)$$


$R_A$  ni Pifagor teoremasiga ko'ra aniqlaymiz.

$$(1)-dan \quad x_A = T \quad (2) dan \quad y_A = P + Q$$

$$(3)-dan \quad T = \frac{aP\sin\alpha + 2aQ\sin\alpha}{2a\cos\alpha} = \frac{(P+2Q)\cdot a\sin\alpha}{2a\cos\alpha} = \left( \frac{P}{2} + Q \right) \operatorname{tg}\alpha$$

$$T = \left( \frac{P}{2} + Q \right) \cdot \operatorname{tg}\alpha; \quad x_A = \left( \frac{P}{2} + Q \right) \cdot \operatorname{tg}\alpha; \quad y_A = P + Q$$


$$R_A = \sqrt{x_A^2 + y_A^2} = \sqrt{\left[ \left( \frac{P}{2} + Q \right) \cdot \operatorname{tg}\alpha \right]^2 + (P+Q)^2} = \sqrt{\left( \frac{P}{2} + Q \right)^2 \cdot \operatorname{tg}^2\alpha + (P+Q)^2}$$



3.16-rasm

**3-masala.** Simmetrik arkani D nuqtasiga qo‘yilgan  $Q = 40 \text{ kN}$  va momenti  $m_D = 120 \text{ kNm}$  m ga teng bo‘lgan juftga keltiriladigan kuchlar sistemasi qo‘yilgan. Arkaning og’irligi  $P=80 \text{ kN}$ . Arkaning A va B tayanch reaksiyalarini aniqlang.

$AB=Q=10\text{M}$ ,  $b=2\text{M}$ ,  $h=3\text{M}$ ,  $\alpha=60^\circ$ , deb oling.



3.17-rasm

**Yechilishi:**

Arkaning muvozanatini yaxlit holda qarab chiqamiz. Unga aktiv kuchlar  $P$  va  $Q$  shuningdek reaksiya kuchlari  $N_A$ ,  $X_B$ ,  $Y_B$  ta’sir qiladi (B sharnirli tayanch ikkita A qo‘zg’aluvchan tayanchning bitta reaksiya kuchlari) (3.17-rasm).  $Q$  kuchdan moment olish uchun uni ikkita  $Q_1$  va  $Q_2$  tashkil etuvchilarga ajratamiz, ularning moduli

$$Q_1 = Q \cos \alpha, Q_2 = Q \sin \alpha$$

$$\sum m_A(F_K) = 0; -Q \cos \alpha \cdot h - Q \sin \alpha \cdot b + m_D - P \frac{a}{2} + Y_B \cdot a = 0 \quad (1)$$

$$\sum m_B(F_K) = 0; P \frac{a}{2} + m_D - Q \cos \alpha \cdot h + Q \sin \alpha (a - b) - N_A \cdot a = 0 \quad (2)$$

$$\sum F_{KX} = 0; Q \cos \alpha + X_B = 0 \quad (3)$$

Tenglamalarni hisoblaymiz.

$$X_B = -Q \cos 60^\circ = -40 \cdot \frac{1}{2} = -20 \text{ kN}$$

$$N_A = \frac{P \frac{a}{2} + m_D - Q \cos 60^\circ \cdot h + Q \sin 60^\circ (a - b)}{a} = \frac{400 + 120 - 60 + 27,68}{10} = 73,7 \text{ kN}$$

$$Y_B = \frac{h \cdot Q \cos 60^\circ + b \cdot Q \sin 60^\circ - m_D + P \frac{a}{2}}{a} = \frac{60 + 69,2 - 120 + 400}{10} = 40,9 \text{ kN}$$

$x_B$  ning qiymati manfiy ishorada kelib chiqdi. Demak,  $x_B$  reaksiya kuchi chizmada ko‘rsatilgan tomonga teskari yo‘nalgan ekan. B tayanchning to‘la reaksiyasining moduli

$$R_B = \sqrt{x_B^2 + y_B^2}$$

formuladan aniqlanadi

$$R_B = \sqrt{(-20)^2 + (40,9)^2} \approx 45,5 \text{ kN}$$

Masalani to‘g’ri yoki noto‘g’ri yechilganini tekshirib ko‘rish kerak. Buning uchun Ay o‘qidagi proyeksiya tenglamasini tuzamiz:

$$\sum F_{K_Y} = 0; N_A + y_B - P - Q \sin \alpha = 0 \quad (4)$$

hisoblaymiz.


$$73,7 + 40,9 - 80 - 40 \frac{\sqrt{3}}{2} = 0; 114,6 - 114,6 = 0; 0 = 0$$

Demak masala to‘g’ri yechilgan.

Shuni qayd qilish kerakki, bunday usulda tekshirishda kuchlarning o‘qlardagi proyeksiyalari yoki kuchlarning momentlarini aniqlashda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlab bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, qo‘sishimcha ravishda D markazga nisbatan momentlar tenglamasini tuzish kerak.

**4-masala.** AB to‘sin A nuqtada devorga qisib mahkamlangan (3.18-rasm, a). Agar  $F=4$  kN,  $M=2$  kNm,  $q=1,5$  kN/m bo‘lsa, A tayanchdagi reaksiya kuchlari aniqlansin.

**Yechilishi:** Birinchi navbatda A nuqtani koordinata boshi qilib koordinata o‘qlarini o‘tkazamiz.



3.18-rasm

To‘singa ta‘sir etuvchi kuchlarni rasmida ko‘rsatamiz (3.18-rasm, b). To‘sinning AC qismiga qo‘yilgan bir tekis taqsimlangan kuchni teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{Q}$  bilan almashtiramiz.  $\bar{Q}$  kuch AC kesmaning o‘rtasiga

qo‘yiladi. To‘sinning B uchiga qo‘yilgan  $\bar{F}$  kuchni  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  tashkil etuvchilarga ajratamiz va momenti M bo‘lgan juftni qo‘yamiz. To‘sin devorga qisib mahkamlangani uchun bog’lanish reaksiya kuchlari  $\bar{x}_A, \bar{y}_A$  va momenti  $m_A$  bo‘lgan reaksiya jufti bilan almashtiriladi.

To‘singa ta‘sir etuvchi kuchlar tekislikdagi kuchlar sistemasidan iborat bo‘lgani uchun, tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanatining asosiy formasidan foydalanamiz:

$$\sum F_{KX} = 0; \quad x_A - F_1 = 0 \quad (1)$$

$$\sum F_{KY} = 0; \quad y_A - Q + F_2 = 0 \quad (2)$$

$$\sum m_A(F_K) = 0; \quad m_A - Q \cdot 1,5 - M + F_2 \cdot 5 = 0 \quad (3)$$

bu yerda  $F_1 = F \cos 45^\circ$ ,  $F_2 = F \sin 45^\circ$ :  $Q = q \cdot 3 = 1,5 \cdot 3 = 4,5 \text{ kN}$

$$x_A = F \cos 45^\circ = 4 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = 2 \cdot 1,41 = 2,82 \quad (1)$$

$$y_A = Q - F \sin 45^\circ = 4,5 - 4 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = 4,5 - 2,82 = 1,68 \text{ kN} \quad (2)$$

$$m_A = Q \cdot 1,5 + M - F \sin 45^\circ \cdot 5 = 4,5 \cdot 1,5 + 2 - 4 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot 5 = 6,75 + 2 - 4,5 = -5,35 \text{ kNm} \quad (3)$$

$m_A$  rasmida ko‘rsatilgan yo‘nalishga teskari yo‘nalgan ekan.

Ikkinchi usul:  $y_A$  va  $F$  kuchlarning ta‘sir chiziqlarini davom ettiramiz. Ular qandaydir D nuqtada kesishadi :

$$\sum m_A(F_K) = 0; \quad m_A - Q \cdot 1,5 - M + F_2 \cdot 5 = 0 \quad (4)$$

$$\sum m_B(F_K) = 0; \quad -M + Q \cdot 3,5 + m_A - y_A \cdot 5 = 0 \quad (5)$$

$$\sum m_D(F_K) = 0; \quad +m_A - Q \cdot 1,5 - M + x_A \cdot AD = 0 \quad (6)$$

(3.18-rasm, b) rasmdan ko‘rinadiki  $\angle ABD$  teng yonli uchburchak, chunki  $\alpha = 45^\circ$ . Shunga ko‘ra  $AB = AD = 5\text{m}$

$$M_A = Q \cdot 1,5 + M - F \sin 45^\circ \cdot 5 = 4,5 \cdot 1,5 + 2 - 4 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot 5 = -5,35 \text{ kNm}$$

$$y_A = \frac{-m = Q \cdot 3,5 + m_A}{5} = \frac{-2 - 4,5 \cdot 3,5 + (-5,35)}{5} = \frac{-2 + 15,75 - 5,35}{5} = 1,68 \text{ kNm}$$

$$x_A = \frac{M + Q \cdot 1,5 - m_A}{AD} = \frac{2 + 4,5 \cdot 1,5 + 5,35}{5} = 2,82 \text{ kN}$$

Aniqlangan natijalarning to‘g’riligiga ikkala usulda ham bir xil natija olinganligidan ham ishonch hosil qilish mumkin.

**5-masala.** Agar  $P = 30 \text{ N}$ ,  $F_1 = F_2 = F_3 = 20 \text{ N}$ ,  $a = 0,3 \text{ m}$ ,  $b = 0,5 \text{ m}$ ,  $\alpha = 60^\circ$  bo'lsa, ko'rsatilgan  $P$ ,  $F_1$ ,  $F_2$ ,  $F_3$  kuchlar sistemasi O markazga keltirilsin.

**Yechilishi:** Ushbu masala berilgan kuchlar sistemasining  $R_x$  va  $R_y$  - proyeksiyalar orqali bosh vektor  $R$ -ni hamda O markazga nisbatan hisoblangan bosh moment  $M_0$ ni aniqlashdan iborat bo'ladi.  $Oxy$  koordinata o'qlarni (3.19-rasm) da ko'rsatilgandek qilib o'tkazamiz va quyidagi tenglamalar sistemasini yozamiz:

$$R_x = \sum R_{kx} = -F_1 \cos \alpha - F_2 \cos \alpha - F_3$$

$$R_y = \sum R_{ky} = -P - F_1 \sin \alpha + F_2 \sin \alpha$$

$$M_0 = \sum m_0 (F_k) = -bP + aF_1 \cos \alpha + 2bF_2 \sin \alpha + aF_3$$


Ushbu tenglamalar sistemasiga tegishli qiymatlarni qo'yib,

$R_x = -40 \text{ N}$ ,  $R_y = -30 \text{ N}$ ,  $M_0 = 11,3 \text{ N} \cdot \text{m}$  ekanligini aniqlaymiz.


Bosh vektoring moduli  $R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2} = 50 \text{ N} \cdot \text{m}$  - ga teng bo'ladi. Shunday qilib, berilgan kuchlar sistemasining koordinata o'qlardagi proyeksiyalari  $R_x = -40 \text{ N}$ ,  $R_y = -30 \text{ N}$  dan iborat bo'lib, O markazga qo'yilgan bosh vektor -  $R = 50 \text{ N} \cdot \text{m}$  va momenti  $M_0 = 11,3 \text{ N} \cdot \text{m}$  ga teng bo'lgan bitta juft kuchga keltirilar ekan.

**6-masala.** Agar  $R_1 = R_2 = R_3 = P$  - ga teng bo'lsa, AB balkaga qo'yilgan  $P_1$ ,  $P_2$ ,  $P_3$  kuchlar sistemasi sodda holga keltirilsin, hamda A va B tayanchlarga ko'rsatilayotgan bosim kuchlari aniqlansin?

**Yechilishi:**  $P_1$ ,  $P_2$ ,  $P_3$  - kuchlardan tuzilgan kuch ko'pburchagi yopiq, demak, bosh vector  $R = 0$ . Barcha kuchlarning ixtiyoriy olingan nuqtaga (masalan, C nuqtaga) nisbatan momentlarining yig'indisi  $-P \cdot a$  - ga teng bo'ladi (3.20-rasm). Demak berilgan kuchlar sistemasi momenti



3.19-rasm



3.20-rasm


$-P \cdot a$  ga teng bo'lgan, bitta juftga keltirilar ekan. Shu aniqlangan juftni A va B tayanchlarga ko'rsatilganidek punktirlar orqali tasvirlasak, berilgan  $P_1, P_2, P_3$  kuchlar sistemasi har bir tayanchga  $Q_A=Q_B=R_a/b$  miqdordagi kuchlar bilan bosim kuchi ko'rsatar ekan. Lekin bosim kuchlarining yo'nalishlari o'zaro teskari bo'lar ekan.

---

**7-masala:** Qattiq jismga o'zaro perpendikulyar bo'lgan tekisliklarda joylashgan  $\bar{F}_1, \bar{F}_1'$  va  $\bar{F}_2, \bar{F}_2'$  - kuchlardan tashkil topgan ikkita juft kuch ta'sir etmoqda. Har bir juft momentining moduli 30 N·m ga teng. Shu juftlarning yig'indisi aniqlansin.

**Yechilishi:** Juftlar joylashgan tekisliklarning kesishgan chizig'ida joylashgan ixtiyoriy A nuqtaga


$\bar{m}_1$  va  $\bar{m}_2$  vektorlarni tegishli yo'nalishlarda qo'yamiz (3.21-rasm). So'ngra ularni geometrik usulda qo'shib, yig'indi vektorni aniqlaymiz, ya'ni  $\bar{m} = \bar{m}_1 + \bar{m}_2$ . Demak shu ikki juftga ekvivalent bo'lgan bitta juft, shu  $\bar{m}$ -vektorga perpendikulyar bo'lgan ABCD tekislikda joylashib, momentining moduli  $m = 30\sqrt{2} \text{ H} \cdot \text{m}$  ga teng bo'lar ekan.



3.21-rasm

**8-masala.** Rasmda tasvirlangan romda B nuqtaga qo'yilgan  $P$  gorizontal kuch ta'siridan hosil bo'ladigan  $R_A$  va  $R_D$  tayanch reaksiyalari aniqlansin? Romning og'irligi hisobga olinmasin (3.22-rasm).

**Yechilishi:** A va D nuqtalardagi reaksiya kuchlarini yo'nalishlari orqali




3.22-rasm

belgilab olamiz va A nuqtaga nisbatan moment olamiz. Chizmadan ma'lumki A nuqtadagi reaksiya kuchi ABCD romning diagonalidan iborat (3.22-rasm).

$$R_D 2a - Pa = 0, \quad R_D = P/2;$$

$$R_A = \sqrt{R_D^2 + P^2} = \frac{\sqrt{5}}{2} P.$$

**9-masala.** Uzunligi 10m va og'irligi 2 kN bo'lgan AB balka ikkita C va D tayanchda yotadi. C tayanch balkaning A uchidan 2 m, D tayanch balkaning B uchidan 3 m masofada turadi. Balkaning chetki A nuqtasi bir uchiga 3 kN li Q yuk osilgan va blokdan o'tkazilgan arqon yordamida yuqoriga tortiladi. A uchidan 3 m masofada balkaga og'irligi 8 kN bo'lgan P yuk osilgan (3.23-rasm, a). Blokdagi ishqalanishni e'tiborga olmay, tayanchlardagi reaksiya kuchlari topilsin?



3.23-rasm

**Yechilishi:** Masalani kuch yo'nalishlarini belgilashdan boshlaymiz. Bizga ma'lumki, balkaning og'irligini uning o'rtaidan tushadi deb hisoblab, uni  $P_1$  orqali belgilaymiz.


$$AB = 10m, \quad AC = 2m,$$

$$AE = 3m, \quad AF = 5m,$$

$$DF = 3m, \quad Q = 3kN,$$

$$P = 8kN, \quad P_1 = 2kN$$

$$R_D = ? \quad R_C = ?$$



**3.23-rasm**

A nuqtani koordinata boshi deb hisoblab, kuchlarni y o'qdagi proyeksiyalarini aniqlaymiz (3.23-rasm, b).

$$R_C + R_D + Q - P - P_1 = 0 \quad \text{Unga ko'ra : } R_C + R_D = 7kN$$


Endi A nuqtaga nisbatan moment hisoblaymiz:

$$5R_D - 3P_1 - 1P - 2Q = 0 \quad R_D = 4kN, \quad \text{topilgan qiymatni o'rniga qo'yib } R_C \text{ ni aniqlaymiz. } R_C = 3kN.$$

### **10-masala.**

To'plangan kuch, tekis taqsimlangan yuk va juft kuch ta'siridagi rasmda tasvirlangan konsol balkaning devorga qistirib mahkamlangan uchining reaksiya kuchlari aniqlansin

(3.24-rasm, a).



**3.24-rasm**

**Yechilishi:** Chizmadan ma'lumki, konsol balkaning devorga qistirib mahkamlangan joyida reaksiya kuchlarini aynan tashkil etuvchilarga ajratib ishlash muvofiqdir. Bu tashkil etuvchilar koordinata o'qlarining musbat tomonida yo'nalган. Shuningdek bu qismda tutib turuvchi moment ham mavjud (3.24-rasm, b).


Berilgan:

$$F = 2kN, \quad M_0 = 3kNm, \quad \alpha = 60^\circ,$$

$$AB = 2m$$

$$X = ? \quad Y = ?$$

$$M = ?$$



3.24-rasm

Dasttavval kuchlarning o'qlardagi proyeksiyalarini hisoblaymiz.

$$X_A - 2\cos 60^\circ = 0, \quad \text{bu ifodalardan} \quad X_A = 1kN$$

$$Y_A - 2\sin 60^\circ = 0 \quad Y_A = 1,73kN \quad \text{ekanligini aniqlaymiz.}$$

Endi A nuqtaga nisbatan momentlarni hisoblaymiz

$$M + M_0 - 2\sin 60^\circ \cdot 2 = 0 \quad \text{Bundan moment } M = 0,47kN \cdot m \text{ ga teng bo'lar ekan.}$$

**11-masala.** Rasmda ko'rsatilgan  $\bar{P}, \bar{F}_1, \bar{F}_2$  va  $\bar{F}_3$  kuchlar sistemasini O markazga keltiring (3.25-rasm).

$$P = 30H, \quad F_1 = F_2 = F_3 = F = 20H, \quad a = 0,3 \text{ m}, \quad b = 0,5 \text{ m}, \quad \alpha = 60^\circ$$

deb oling.


**Yechilishi:** Bizning vazifamiz berilgan kuchlar sistemasining bosh vektori  $\bar{R}$  ni aniqlashdan iborat. Buning uchun uning x va y o'qlaridagi proyeksiyalarini va O markazga nisbatan  $M_0$  bosh momentini aniqlaymiz.

U holda R ning x va y o'qlaridagi

proyeksiyalari va O markazga nisbatan bosh momenti quyidagicha aniqlanadi:

$$R_X = \sum F_{KX} = -F_1 \cos 60^\circ - F_2 \cos 60^\circ - F_3 = -20 \cdot \frac{1}{2} - 20 \cdot \frac{1}{2} - 20 = -40H$$

$$R_Y = \sum F_{KY} = -F_1 \sin 60^\circ + F_2 \sin 60^\circ - P = -20 \frac{\sqrt{3}}{2} + 20 \frac{\sqrt{3}}{2} - 30 = 10\sqrt{3} + 10\sqrt{3} - 30 = -30H$$



3.25-rasm

$$R = \sqrt{R_X^2 + R_y^2} = \sqrt{(-40)^2 + (-30)^2} = \sqrt{1600 + 900} = 50H$$

$$M_0 = \sum m_o(\bar{F}_K) = F_1 \cos 60^0 \cdot a - P \cdot b + F_2 \sin 60^0 \cdot 2b + F_3 \cdot a$$

$$M_0 = 20 \frac{1}{2} \cdot 0,3 - 30 \cdot 0,5 + 20 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot 2 \cdot 0,5 = 3 - 15 + 17,3 + 6 = 11,3 H \cdot m$$

Shunday qilib, berilgan kuchlar sistemasini O markazga keltirilganda, O markazga qo'yilgan  $\bar{R} = 50H$  kuchga va momenti  $M_o = 11,3 \text{Nm}$  bo'lgan juftga keltirilar ekan.

### 3.13 Mustaqil yechish uchun masalalar:

**1-masala.** Gorizontal ikki tomonlama AB balkaga ( $P, P$ ) juft kuch, chap konsolga intensivligi  $q$  bo‘lgan tekis taqsimlangan yuk, o‘ng konsolning D nuqtasiga esa vertikal  $Q$  kuch ta’sir qiladi. Agar  $P = 1kN$ ,  $Q = 2kN$ ,  $q = 2kN/m$ ,  $a = 0,8m$  bo‘lsa, tayanchlardagi reaksiyalar qancha bo‘ladi.




(javob:  $R_A = 1,5kN$   $R_B = 2,1kN$ )

**2-masala.** AB balkani CD sterjen gorizontal holatda tutib turadi. A, C va D bog’lanishlar sharnirlidir. Agar balkanining uchiga  $F = 5kN$  vertikal kuch ta’sir qilayotgan bo‘lsa, A va D tayanchlar reaksiyalari qancha bo‘ladi. O’lchovlar rasmda ko‘rsatilgan. Balka va sterjenning og’irligi hisobga olinmasin.

(javob:  $R_A = 7,9kN$   $R_D = 10,6kN$ )



**3-masala.** Rasmda ko‘rsatilgan uch sharnirli arka uchun gorizontal  $\bar{P}$  kuch ta’sirida hosil bo‘ladigan A va B tayanch reaksiyalari aniqlansin? Arkaning og’irligi hisobga olinmasin.

(javob:  $R_A = R_B = \frac{\sqrt{2}}{2} P$ )





**4-masala.** AB balka A tayanchga sharnir bilan biriktirilgan. Uning B uchi katokka qo‘yilgan. Balkanining o‘rtasiga uning o‘qiga  $45^\circ$  burchak ostida  $P = 2kN$  kuch qo‘yilgan. Bakkanning og’irligini hisobga olmay, a)

va b) chizmalar uchun tayanch reaksiyalari aniqlansin? O'lchovlar rasmdan olinsin.



$$(javob: a) R_A = 1,58kN \quad R_B = 0,71kN \quad b) R_A = 2,24kN \quad R_B = 1kN )$$


**5-masala.** Rasmlarda vertikal CD sterjenlar bilan, gorizontal holatda tutib turiluvchi AB balkalar ko'rsatilgan. Balkalarning uchiga gorizontga  $60^\circ$  qiyalangan  $F = 30kN$  kuchlar ta'sir qiladi. O'lchamlarni rasmdan olib, CD sterjenlardagi S zo'riqishlar va balkalarning devorga ko'rsatadigan Q bosimi aniqlansin? A, C va D birikish nuqtalarida sharnirlar bor. Sterjen va balkalarning og'irligi hisobga olinmasin.



$$(javob: S=39kN \quad Q=19,8kN)$$

**6-masala.** ACB elektr simi ikkita simyog'och orasida shunday tortilganki, u solqish strelasi  $CD = f = 1m$  bo'lgan tekis egri chiziq hosil qiladi. Simyog'ochlar orasidagi masofa  $AB = l = 40m$ . Simning har qaysi yarmining og'irligi eng yaqindagi simyog'ochdan  $l/4$  masofada bo'lgan joyga tushadi deb hisoblab, simning o'rtaсидаги  $T_c$ , uchlarидаги  $T_A$  va  $T_B$  taranglik kuchlari topilsin.

$$(\text{javob: } T_c = \frac{Ql}{8f} = 2kN; T_A = T_B = 2,01kN.)$$





bunda simyog'och asoslari qo'zg'almas qattiq tayanch orqali mahkamlangan.

**7-masala.** O'lchovlari rasmida ko'rsatilgan to'rtta arkadan iborat sistema berilgan. Gorizontal  $P$  kuch ta'sirida  $A$ ,  $B$ ,  $C$  va  $D$  tayanchlarda hosil bo'ladigan reaksiyalar aniqlansin.

$$(\text{javob: } R_A = \frac{\sqrt{2}}{2} P, R_B = P, R_C = P, R_D = \frac{\sqrt{2}}{2} P.)$$

**8-masala.** Oxirgi uchiga  $P$  kuch qo'yilgan AB qiya balka o'rtaсидаги  $B_1$  nuqtasi bilan CD konsol balkanining qirrasiga tayanib turadi. Balkalarning og'irligini hisobga olmay, tayanch reaksiyalarini aniqlansin.

$$(\text{javob: } R_A = P, R_C = \frac{4P}{\sqrt{3}}, R_D = \frac{\sqrt{2}P}{2}).$$




**9-masala.** Tayanchlarining oralig'i 1 bo'lgan gorizontal balkaning birinchi tayanchidan x masofada P yuk qo'yilgan. Tayanchlarning vertikal reaksiyalari topilsin?

$$(javob: R_1 = P \frac{l-x}{l}, R_2 = P \frac{x}{l})$$

**10-masala.** Uzunligi 1m, og'irligi 20N bo'lgan bir jinsli AB sterjen parallel AC va BD arqonlarga gorizontal ravishda osilgan.


Sterjenning E nuqtasiga  $AE = \frac{1}{4} m$  masofada  $P = 120N$  yuk osilgan. Arqonlardagi  $T_c$  va  $T_d$  taranglik kuchlari topilsin.

$$(javob: T_c = 100N, T_d = 40N.)$$




**11-masala.** Ikkita tayanchda turgan gorizontal balkaga og'irligi 2kN bo'lgan C yuk va og'irligi 1 kN bo'lgan D yuk qo'yilgan. Balka tayanchlari oralig'i 4 m. Balka og'irligi hisobga olinmaga ganda, A tayanchning reaksiyasi B tayanch reaksiyasidan ikki marta katta. Yuklar orasidagi CD masofa 1 m ga teng. C yukdan A tayanchgacha bo'lgan x masofa qancha.

$$(javob: x=1m)$$



**12-masala.** Og'irligi 100N bo'lgan gorizontal AB sterjen A sharnirning qo'zg'almas o'qi atrofida aylanishi mumkin. Sterjenning B uchi blokdan o'tkazilgan arqonga ulangan, og'irligi  $P=150N$  bo'lgan tosh yordami bilan




yuqoriga tortiladi. Sterjenning B uchidan 20sm narida turgan nuqtasiga og'irligi 500N bo'lgan Q yuk osilgan. AB sterjen muvozanatda turgan bo'lsa, uning uzunligi x qancha bo'lishi kerak?

(javob:  $x=25\text{sm}$ )


**13-masala.** Bir jinsli gorizontall balka devorga sharnir bilan biriktirilgan bo'lib, devordan 160 sm narida turgan nuqtada tirab qo'yilgan. Balkaning uzunligi 400 sm, og'irligi 320 N. Devordan 120 sm va 180 sm masofada balkaga mos ravishda og'irligi 160 N va 240 N bo'lgan yuklar qo'yilgan. Tayanchlardagi reaksiyalar topilsin?

(javob: 790 N-yuqoriga, 70 N-pastga).




**14-masala.** Uzunligi 4 m, og'irligi 5 kN bo'lgan bir jinsli gorizontall balka qalinligi 0,5 m bo'lgan devorga shunday qilib o'rnatilganki, u A va B nuqtalarda devorga tiralib turadi. Balkaning erkin uchiga og'irligi 40 kN bo'lgan P yuk osilgan. A va B nuqtalardagi reaksiya kuchlari topilsin.

(javob:  $R_A = 340\text{kN}$ -yuqoriga;  $R_B = 295\text{kN}$ -pastga)




**15-masala.** Balkonni ushlab turadigan gorizontall balkaga intensivligi  $q = 2\text{kN/m}$  bo'lgan tekis taqsimlangan yuk ta'sir etadi. Balkaning erkin uchiga ustundan  $P = 2\text{kN}$  og'irlik tushadi. Ustun o'qidan devorgacha bo'lgan masofa  $l = 1,5\text{m}$ . Balka biriktirilgan reaksiyalar topilsin.




(javob:  $R_A = 5kN$ ,  $M = 5,25kN \cdot m$ )

**16-masala.** Gorizontal konsol balkaga momenti  $M = 6kN \cdot m$  bo‘lgan juft kuch, uning C nuqtasiga esa vertikal  $P = 2kN$  yuk ta’sir qiladi. Balkanening AB oralig’i  $3,5m$ , konsolning chiqib turgan qismi BC =  $0,5m$ . Tayanchlardagi reaksiyalar topilsin.



(javob:  $R_A = 2kN$ -pastga,  $R_B = 4kN$ -yuqoriga.)


**17-masala.** Uzunligi  $10\text{ m}$  bo‘lgan AB balka ustiga yuk ko‘taradigan kran uchun yo‘l solingan. Kranning og’irligi  $50\text{ kN}$  bo‘lib, uning og’irlik markazi CD o‘qda yotadi. P yukning og’irligi  $10\text{ kN}$ , AB balkanening og’irligi  $30\text{ kN}$ . Kranning KL qulochi uzunligi  $4\text{ m}$ , AC =  $3\text{ m}$ . Kranning DL strelasi balka bilan bir vertikal tekislikda bo‘lgan hol uchun A va B nuqtalardagi tayanch reaksiyalari topilsin.




(javob:  $R_A = 53kN$ ,  $R_B = 37kN$ .)

**18-masala.**  $l$  uzunlikdagi AB balkaga rasmda tasvirlangandek taqsimlangan yuk qo‘yilgan. Yukning intensivligi balkanening A va B uchlarida  $q N/m$  ga, balkanening o‘rtasida  $2q N/m$  ga teng. Balkanening og’irligini hisobga olmay, D va B tayanchlar reaksiyalari topilsin. (javob:

$$R_D = ql \text{ N}, R_B = 0,5ql \text{ N})$$




**19-masala.** Uzunligi  $2l$  ga teng bo‘lgan bir xil va bir jinsli plitalarning bir nechta shunday taxlanganki, har qaysi plitaning bir qismi uning tagidagi plitadan chiqib turadi. Plitalar muvozanat holatida bo‘lganda ularning eng ko‘p chiqib turgan qismlarining uzunligi qancha bo‘ladi. (*Javob:*  $l, l/2, l/3, l/4, l/5$ , va hokazo.) [masalani yechishda plitalarning og’irliliklari eng yuqoridagi plitadan boshlab ketma-ket qo‘shiladi ]




**20-masala.** Og’irligi  $600 \text{ N}$ , uzunligi  $4 \text{ m}$  bo‘lgan bir jinsli balka bir uchi bilan silliq polga va oraliqdagi B nuqtada balandligi  $3 \text{ m}$  bo‘lgan devorga tiralgan. Balka vertikal bilan  $30^\circ$  burchak tashkil etadi. Balkani pol bo‘ylab tortilgan AC arqon shu holatda ushlab turadi. Ishqalanishni hisobga olmay arqonning tortilish kuchi  $T$ , devorning reaksiyasi  $R_B$ , pol reaksiyasi  $R_C$  topilsin. (*Javob:*  $T = 150 \text{ N}$ ,  $R_B = 173 \text{ N}$ ,  $R_C = 513 \text{ N}$ .)

**21-masala.** Og’irligi  $200 \text{ N}$  bo‘lgan bir jinsli AB balka gorizontal silliq polga B nuqtada  $60^\circ$  burchak ostida tiralib turadi. Bundan tashqari uni ikkita C va D tayanchlar ushlab turadi. B, C va D tayanchlardagi reaksiyalar topilsin.  $AB=3\text{m}$ ,  $CB=0,5\text{m}$ ,  $BD=1\text{m}$ .




(*Javob:*  $R_B = 200 \text{ N}$ ,  $R_C = 300 \text{ N}$ ,  $R_D = 300 \text{ N}$ .)

**22-masala.** Bitta to‘plangan kuch va juft kuch ta’siridagi balkaning A va B tayanchlari reaksiyalari aniqlansin? Kuchlar va masofalar rasmida ko‘rsatilgan.



(*Javob:*  $X_A = 2 \text{ kN}$ ,  $Y_A = -4,32 \text{ kN}$ ,  $Y_B = 7,78 \text{ kN}$ .)

**23-masala.** Ikkita to‘plangan kuch va bir tekis taqsimlangan yuk ta’siridagi




balkaning A va B tayanchlaridagi reaksiyalar aniqlansin? Tekis taqsimlangan yukning intensivligi, kuchlar-ning kattaliklari va masofalar rasmda ko'rsatilgan.

(javob:  $X_A = 2,6kN$ ,  $Y_A = 4,2kN$ ,  $X_B = 15,6kN$ .)

---


**24-masala.** To'plangan kuch va juft kuch ta'siridagi rasmida tasvirlangan konsol balkaning devorga qistirib mahkamlangan uchining reaksiya kuchlari topilsin.



(javob:  $X = 1kN$ ,  $Y = 1,73kN$ ,  $M = 0,47kN \cdot m$ .)


---

**25-masala.** To'plangan kuch, tekis taqsimlangan yuk va juft kuch ta'siridagi rasmida tasvirlangan konsol balkaning devorga qistirib mahkamlangan uchining reaksiya kuchlari topilsin.



(javob:  $X = 2,8kN$ ,  $Y = 1,7kN$ ,  $M = -5,35kN \cdot m$ .)


**26-masala.** Tekis taralgan yuk, bitta to'plangan kuch va ikkita juft kuch ta'siridagi rasmida tasvirlangan konsol balkaning qistirib mahkamlangan uchidagi reaksiya kuchlari aniqlansin.



(javob:  $X = 11,8kN$ ,  $Y = -2,8kN$ ,  $M = -86,8kN \cdot m$ .)

---

**27-masala.** Rasmida tasvirlangan juft kuch va uchburchak qonuniyati bilan taqsimlangan yuk ta'sirida bo'lган konsol balka ko'milgan uchining reaksiya kuchlari aniqlansin.




(javob:  $X = -9kN$ ,  $Y = 0$ ,  $M = 40kN \cdot m$ .)

---


**28-masala.** Rasmda tasvirlangan to‘plangan kuch, juft kuch hamda uchburchak va trapetsiya hosil qilib taqsimlangan yuk ta’siri ostidagi konsol balkaning qistirib mahkamlangan uchidagi reaksiya kuchlari aniqlansin.

(javob:  $X = 137\text{kN}$ ,  $Y = 25\text{kN}$ ,  $M = -270\text{kN}\cdot\text{m}$ )



**29-masala.** Rasmda yig’ma balkalar hamda unga qo‘yilgan yuk va kuch tasvirlangan. A, B va C tayanchlardagi hamda D sharnirdagi reaksiyalar aniqlansin.

(javob:  $X_A = -2,8\text{kN}$ ,  $Y_A = -4,4\text{kN}$ ,  
 $Y_B = 22,2\text{kN}$ ,  $X_D = 0\text{kN}$ ,  $Y_C = 5\text{kN}$ ,  
 $Y_D = \pm 5\text{kN}$ .)



## **IV BOB. FERMA. FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISH KUCHLARINI ANIQLASH.**


### ***4.1 Ferma haqida tushuncha. Fermalarni hisoblash.***

Fermalar sanoat, qurilish, suv xo'jaligi, mashinasozlik va xalq xo'jaligining boshqa ko'p sohalarida keng qo'llanilib kelayotgan konstruksiyalardan biridir. Fermalardan qurilishda har xil sport inshootlari, qishloq va suv xo'jaligi ob'ektlarining tom qismini yopishda, temir yo'l va daryo ko'priklarini qurishda, mashinasozlikda qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarishda, mashina-mexanizmlar konstruksiyalarida, ko'tarma yuk kranlari konstruksiyalarida, suv bosim minoralarida (4.2-rasm) keng foydalanilmoqda.

**To'g'ri chiziqli sterjenlarning uchlarini sharnirlar yordamida biriktirishdan hosil bo'lgan konstruksiyaga ferma deb ataladi.**

Amalda, fermalarni sterjenlari o'zaro bikr biriktirilgan bo'ladi (4.1-rasm). Lekin, fermalarni hisoblashda bikr tugunlar ideal sharnirlar bilan almashtiriladi (4.2-rasm). Masalan, metall ferma sterjenlari o'zaro payvandlangan yoki boltlar yordamida biriktirilgan holda tayyorlanadi. Temir beton fermalar esa butunligicha quyma tayyorlangan bo'ladi. Yog'och fermalar sterjenlari o'zaro elimlanadi yoki boltlar orqali biriktirilib tayyorlanadi.

Fermalarni hisoblashda sterjenlar to'g'ri chiziqli, tashqi yuklar faqat tugunlarga qo'yilgan deb qaraladi. Shuning uchun ferma sterjenlari faqat cho'zilish yoki siqilish deformatsiyasiga ishlaydi. Fermada sterjenlar sharnirlar yordamida o'zaro biriktirilgan bo'lib, unga ko'ngdalang kuchlar ta'sir etmasa, bunday sterjenlarda eguvchi moment nolga teng bo'ladi. Biroq amalda, ferma elementlarida eguvchi moment ham hosil bo'ladi. Bu moment miqdori bo'ylama kuchlarga nisbatan juda kichik bo'lgani uchun hisobga olinmaydi. SHuning uchun ham fermaning bikr tugunlari sharnirlarga almashtiriladi.




**4.1-rasm.**

Bu yerda:

1-pastki belbog'; 2-yuqori belbog'; 3, 4-hovonlar; 5-ustun; 6- tugun; 7-tayanchlar; 8-panel.

Ferma sterjenlarining uchlarini tutashtiruvchi sharnir **tugun** deb ataladi. Ferma konturining yuqorigi qismini tashkil etuvchi sterjenlar birikmasi **yuqori belbog'**, uning pastki elementlari birikmasi esa **pastki belbog'** deyiladi. Yuqorigi va pastki belbog'larni tutashtiruvchi vertikal va og'ma elementlar fermaning **panjarasini** hosil qiladi. Panjaraning vertikal elementlari **ustun** va og'ma joylashgan elementlari **hovonlar** deyiladi. Fermaning ikki tuguni orasidagi gorizontal masofa **panel** deyiladi. Panel oraligi a bilan belgilanadi. Fermaning tayanchlari orasidagi masofa **oraliq yoki prolet** deb ataladi va  $\ell$  bilan belgilanadi.

a)



b)



c)



d)



e)



f)




## 4.2-rasm

Fermalar umumiy tuzilishiga, qo‘llanilishiga, foydalanishiga ko‘ra har xil turlarga bo‘linadi.

Fermalar sterjenlarining fazoda joylashish holatiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) Yassi fermalar; b) Fazoviy fermalar.

Agar ferma tarkibidagi barcha sterjenlar bitta tekislikda joylashgan bo‘lsa, bunday fermalar **yassi fermalar deyiladi** (4.3-rasm).



**4.3-rasm**

Agar ferma tarkibidagi sterjenlar ikki yoki undan ortiq tekisliklarda joylashgan bo‘lsa, bunday fermalar **fazoviy fermalar deyiladi** (4.2-rasm).


Fermalar panjaralarining tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: uchburchak panjaralari (4.3-rasm, a); oddiy hovon panjaralari (4.3-rasm, a, b, c); yarim hovon panjaralari (4.3-rasm, e); ikki hovon panjaralari (4.3-rasm, f) va ko‘p panjaralari (4.3-rasm, h, j) fermalar.

Fermalar tayanchlarining joylashishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: balkasimon fermalar (4.3-rasm); konsolli balkasimon fermalar (4.3-rasm, j); konsol fermalar (4.3-rasm, k) va arkasimon fermalar (4.4-rasm, a).


Fermalar sanoat, qurilish, suv xo‘jaligi, mashinasozlik va xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida foydalanilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: tomlarni yopishda ishlataladigan stropila fermalari (4.3-rasm, a,b,c); ko‘prik fermalari (4.2-rasm); kran fermalar va minorasimon fermalar (4.4-rasm b).

Ko‘prik fermalarda konstruksiyalarining talabiga ko‘ra harakat yuqoridan, pastdan yoki o‘rtadan bo‘lishi mumkin (4.2-rasm, b, e, f).

a)



b)



#### 4.4-rasm

Fermalarni hisoblashda tugunlardagi ishqalanishlar va sterjenlarning og’irliliklari tugunlarga taqsimlab chiqiladi. U holda fermaning har bir sterjeni uchiga qo‘yilgan va sterjen bo‘ylab yo‘nalgan 2 tadan kuch ta‘sir etadi. Sharnirlarga qo‘yilgan kuchlar ta‘siridan fermaning sterjenlari faqat cho‘zilishi yoki siqilishi mumkin. Sterjenlar soni  $k$  bilan, tugunlar soni  $n$  orasida quyidagi bog’lanish bor:

$$\kappa = 2n - 3 \quad (4.1)$$

Haqiqatdan ham 3 ta sterjenden tashkil topgan qo‘zg’almas ABD uchburchakda 3 ta tugun mavjud. Navbatdagi tugun bilan tutashtirish uchun 2 ta sterjen zarur. Demak qolgan barcha  $(n-3)$  tugunlar uchun  $2(n-3)$  sterjenlar zarur bo‘ladi. Natijada fermada sterjenlar soni  $\kappa = 3 + 2(n-3) = 2n - 3$  bo‘lishi zarur.

Sterjenlar soni bundan kam bo‘lsa ferma mustahkam bo‘lmaydi, aksincha sterjenlar soni bundan ko‘p bo‘lsa ferma statik noaniq bo‘ladi.

Nazariy mexanikada biz barcha qaralayotgan jismlarni absolyut qattiq jism deb qaraganligimiz sababli fermaga ta’sir etayotgan tashqi kuchlar ta’sirida uning sterjenlarida zo‘riqish kuchlari hosil bo‘ladi.

Fermani hisoblash deganda ferma tayanchlarida hosil bo‘ladigan reaksiya kuchlari va sterjenlardagi zo‘riqishlarni aniqlash tushuniladi. Ferma tayanch nuqtalaridagi tayanch reaksiyalari bizga ma‘lum bo‘lgan statikaning muvozanat tenglamalari yordamida aniqlanadi. Ferma sterjenlaridagi zo‘riqishlarni hisoblashning quyidagi usullari mavjud:

1. Tugunlarni kesish usuli;
2. Ritter usuli;
3. Matritsalar usuli;
4. Grafik usuli;
5. EHM dasturlari yordamida hisoblash.

## ***4.2 Tugunlarni kesish usuli***


Ushbu bo‘limda biz yassi fermalarning sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarini tugunlarni kesish usuli yordamida aniqlashni ko‘rib chiqamiz.

Fermaning barcha sterjenlaridagi zo‘riqishlarni aniqlash zarur bo‘lsa, tugunlarni kesish usulidan foydalanish eng qulay hisoblanadi. Fermani hisoblashda tugunlardagi ishqalanishlar va sterjenlarning og’irliliklari tugunlarga taqsimlab chiqiladi, shuning uchun asosiy hisob-kitoblarda ularni hisobga olmaymiz.

Bu usuldagি hisoblashni quyidagi misol yordamida tushuntiramiz.

Teng yonli to‘g’ri burchakli uchburchakdan iborat fermaga  $x$  o‘qiga parallel yo‘nalgan  $F_1, F_2, F_3$  kuchlar qo‘yilgan:

$$F_1 = F_2 = F_3 = 20\text{kN}$$



#### 4.5-rasm

Sterjenlardagi zo‘riqishni aniqlashdan avval berilgan ferma statik aniq ferma ekanligini tekshirib ko‘ramiz. Ushbu fermada sterjenlar soni  $k=9$  ga, tugunlar soni  $n=6$  ga teng.

$$\kappa = 2n - 3$$

$$9 = 2 \cdot 6 - 3$$

$$9 = 9$$

Demak, 4.5-rasmda keltirilgan ferma statik aniq ferma ekan.

Fermaning tugunlarini rim raqamlari bilan, sterjenlarni esa arab raqami bilan belgilab olamiz.

Ferma uchun muvozanat tenglamalarini tuzib tayanch reaksiya kuchlarini aniqlaymiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad F_1 + F_2 + F_3 - x_A = 0 \quad (4.2)$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad N - y_A = 0 \quad (4.3)$$

$$\sum m_B(F_k) = 0; \quad -F_2a - F_3 \cdot 2a - y_A \cdot 2a + x_A \cdot 2a = 0 \quad (4.4)$$

$$(4.2)-dan \quad x_A = F_1 + F_2 + F_3 = 20 + 20 + 20 = 60\text{kN}$$

$$(4.3)-dan \quad y_A = N$$

$$(4.4)-dan \quad -F_2 - 2F_3 + 2x_A = 2y_A$$

$$y_A = \frac{2x_A - 3F}{2} = \frac{2 \cdot 60 - 3 \cdot 20}{2} = 30 \text{ kN}$$

$$\text{Demak; } x_A = 60 \text{ kN}, \quad y_A = N = 30 \text{ kN}$$

Sterjenlardagi zo'riqishlarni aniqlashga o'tamiz. 1-sterjendagi zo'riqishni  $S_1$ , ikkinchidagisini  $S_2$  va h.k. deb belgilaymiz. Kesishni shunday tugundan boshlash kerakki, bu tugunda noma'lum zo'riqishlar soni ikkitadan ortiq bo'lmasin.

1-tugunni kesamiz. 1 tugunga  $\bar{F}_1, \bar{N}$ - kuchlar ta'sir qilib, 1-2-sterjenlarda  $\bar{S}_1, \bar{S}_2$  zo'riqish kuchlari hosil bo'ladi.  $\bar{S}_1, \bar{S}_2$ - zo'riqish kuchlarini aniqlash uchun statikaning muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad F_1 + S_2 \cos 45^\circ = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad N + S_1 + S_2 \sin 45^\circ = 0$$

$$S_2 = -F \sqrt{2} = -28,2 \text{ kN};$$

$$S_1 = -N - S_2 \frac{3\sqrt{2}}{2} = -\frac{F}{2} = -10 \text{ kN}$$

Endi  $S_1$  zo'riqishni bilgan holda II tugunga o'tamiz. II tugunga  $\bar{F}_2$  kuch, 1, 3, 4- sterjenlardagi  $\bar{S}_1, \bar{S}_3, \bar{S}_4$  zo'riqishlar ta'sir qiladi.

Ushbu tugun uchun statikaning muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad S_3 + F_2 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad N + S_1 + S_2 \sin 45^\circ = 0$$


$$S_3 = -F_2 = -20 \text{ kN}$$

$$S_4 = S_1 = -10 \text{ kN}$$

$S_4$  zo'riqish aniqlangandan so'ng shu usul bilan avval III tugun uchun, keyin IV tugun uchun muvozanat tenglamalarini tuzamiz. Bu tenglamalardan quyidagilarni aniqlaymiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad F_3 + S_5 \cos 45^\circ + S_6 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad -S_4 - S_5 \sin 45^\circ = 0$$



$$S_6 = -F_3 - S_5 \cos 45^\circ$$

$$S_5 = \frac{-S_4}{\sin 45^\circ}$$

$$S_5 = -S_4 \sqrt{2} = 14,1 \text{ kN} \quad S_6 = -30 \text{ kN}$$

$$\sum F_{kx} = 0; \quad -S_6 + S_8 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad S_7 = 0$$

$$S_8 = -30 \text{ kN}, \quad S_7 = 0$$

$S_9$  zo‘riqishni aniqlash uchun A tugundagi kesishuvchi kuchlar sistemasi uchun statikaning muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad -X_A - S_9 \cos 45^0 - S_8 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad -Y_A - S_9 \sin 45^0 = 0$$

$$S_9 = -3\sqrt{2} = -42,3\text{N}$$

Fermaning barcha sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarining to‘g‘ri aniqlanganligini tekshirish uchun V tugun uchun X o‘qiga nisbatan barcha kuchlarning proeksiyalari yig‘indisi tenglamasini va VI tugun uchun esa ikkita muvozanat tenglamalarini tuzamiz va tuzilgan tenglamalarga kuchlarning qiymatlarini qo‘yib ko‘ramiz:

$$-X_A - S_9 \cos 45^0 - S_8 = 0;$$

$$-60 + 42,3 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} + 30 = 0;$$

$$0 = 0;$$

$$\sum F_{kx} = 0; \quad -S_3 - S_2 \cos 45^0 - S_5 \cos 45^0 + S_9 \cos 45^0 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad S_5 \sin 45^0 - S_2 \sin 45^0 + S_7 + S_9 \sin 45^0 = 0$$

Oxirgi tuzilgan ikkala tengamlarga kuchlarning qiymatlarini qo‘yib ko‘rsak, ferma sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarining to‘g‘ri aniqlanganliga ishonch hosil qilamiz:

$$\sum F_{kx} = 0; \quad 20 + 28,2 \cos 45^0 - 14,1 \cos 45^0 - 42,3 \cos 45^0 = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0; \quad 14,1 \sin 45^0 + 28,2 \sin 45^0 + 0 - 42,3 \sin 45^0 = 0;$$

Fermaning barcha sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarining qiymatlarini bitta jadvalga kiritamiz:

$S_1$	$S_2$	$S_3$	$S_4$	$S_5$	$S_6$	$S_7$	$S_8$	$S_9$
-10	-28,2	-20	-10	14,1	-30	0	-30	-42,3

Odatda ferma sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarining qiymatlari «musbat» ishorali bo‘lsa sterjenning cho‘zilishga, «manfiy» ishorali bo‘lsa sterjenning siqilishga ishlayotganini ko‘rsatadi.


Jadvalda keltirilgan zo‘riqishlarning ishoralaridan ko‘rinadiki, 7-sterjenda zo‘riqish kuchi nolga teng, 5-sterjen cho‘zilishga, qolgan sterjenlar esa siqilishga ishlayotganini ko‘ramiz.

### **4.3 Ritter usuli**

Fermaning ayrim sterjenlaridagi zo‘riqishlarini aniqlash lozim bo‘lsa, u holda Ritter (1826-1906) tomonidan kashf qilingan analitik usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ritter usulining mohiyati shundan iboratki, fermani biror  $a-b$  kontur bilan fikran qirqib, ikki qismga ajratiladi va ajratilgan biror qismning muvozanati tekshiriladi (4.7-rasm).

Fermaning kesilgan bir qismini fikran tashlab yuborib, ikkinchi qismga ko‘rsatadigan ta‘sirini sterjenlar bo‘ylab tashlab yuborilgan tomonga yo‘nalgan kuchlar bilan almashtiramiz. Fermaning ajratilgan qismi uchun tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat tenglamalari tuzilib, ferma sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlari aniqlanadi. Ushbu usuldan foydalanishda fermaning ajratib olinlgan qismi uchun tekislikdagi kuchlar sistemasi muvozanat tenglamalaridan birortasi tuzib olinadi. Tuzib olingan muvozanat tenglamalarida noma'lumlar soni bittadan oshmasligini ta'minlash, ya’ni bir noma'lumli tenglamaga erishish shart. Shuning uchun ajratib olinlgan qismdan shunday nuqtani tanlash kerakki, ushbu nuqtaga nisbatan tuzilgan muvozanat tenglamasida noma'lumlar soni bittadan oshmasin. Tanlangan shu nuqtaga Ritter nuqtasi deyiladi.

Ritter usulidan foydalanib 4.7-rasmdagi fermaning 6-sterjendagi zo‘riqish kuchini aniqlaymiz. Fermaga ta‘sir etuvchi vertikal kuchlar  $\bar{P}_1 = \bar{P}_2 = \bar{P}_3 = \bar{P}_4 = 20\kappa N$ , tayanch reaksiyalari  $\bar{N}_1 = \bar{N}_2 = 40\kappa N$  ga teng.



#### 4.7-rasm

Fermaning 4, 5, 6, sterjenlarini  $a, b$  tekislik bilan kesib, chap qismining muvozanatini ko'rib chiqamiz. Chap qismdagi sterjenlarga ta'sir etuvchi kuchlarni o'ng qismdagi kuchlarga almashtiramiz. 6-sterjendagi  $S_6$  zo'riqishini aniqlash uchun, 4 va 5 sterjenlar kesishuvchi C nuqtaga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz. Shuningdek  $AD = DC = a$  va  $CF \perp AE$  ekanligini e'tirof etamiz:

$$\sum m_C(\bar{F}_K) = -N_1 \cdot 2a + P_1 \cdot a + S_6 \cdot CF = 0, \quad (4.5)$$

Shartda ko'rsatilishicha,  $\angle AFC = 90^\circ$  va  $CF = a\sqrt{2}$  u holda

$$S_6 = 30\sqrt{2} = 42,3\kappa N$$


Ritter usulining afzallik tomoni shundaki, bu usuldan foydalanib istalgan sterjendagi zo'riqish kuchini aniqlash imkoniyatining mavjudligidadir. Ritter usulida har bir zo'riqishi kuchi alohida tenglamalar orqali aniqlanishi zarur, bunda zo'riqish kuchi boshqa sterjenlardagi kuchlar orqali ifodalanmasligi kerak.

#### 4.4 Maksvell-Kremon diagrammasi

Ferma sterjenlaridagi zo'riqishlarini aniqlashning yana bir usuli Maksvell-Kremon diagrammasidan foydalanib aniqlash usulidir. Tugunlarni kesish usulida har bir sterjenning reaksiya kuchini kuch ko'pburchaklarida ikki martadan tasvirlashga to'g'ri keladi. Bu kamchilik D.K.Mak-

svell (1831-1879) va L.Kremon (1831-1879) diagrammasida bartaraf qilinadi. Bu diagrammani quyidagicha yasaymiz (4.8-rasm, a).

Tugunlarga ta'sir etuvchi kuchlarni ferma konturining tashqarisida tasvirlaymiz va bu kuchlar bilan chegaralangan ichki sohalarini S,D,E, ferma sterjenlari bilan chegaralangan sohalarni F, G bilan belgilaymiz.



**4.8-rasm**

Kuch ko'pburchagini qurishda fermani yoki tugunni soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanib o'tish qoidasiga amal qilamiz. Bunday aylanib o'tishda kuchning boshi va uchini kuch chegaralab turgan sohalarda mos kichik harflar bilan belgilaymiz. Masalan,  $\bar{P}$  kuchni  $\bar{cd}$ ,  $\bar{R}_B$  ni  $\bar{de}$ ,  $\bar{R}_A$  ni  $\bar{ec}$ ; III tugunga qo'yilgan kuchlarni  $\bar{cd}$ ,  $\bar{dg}$ ,  $\bar{gf}$ ,  $\bar{fc}$  bilan belgilaymiz.

Dastlab tashqi kuchlar ko'pburchagini quramiz. Ko'rildigani kuch ko'pburchaklarida kuchlarning uchiga yo'nalish qo'ymasak ham bo'ladi, chunki sohalarni soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanib o'tish qoidasi kuchning boshi va uchini bir qiymatli aniqlaydi. Tashqi kuchlarni ularni yo'nalishiga mos ravishda ma'lum masshtabda fermani soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanib o'tishda uchraydigan tartibda qo'ya boramiz va  $cdec$  ni olamiz; tashqi kuchlar parallel bo'lgani uchun kuchlar ko'pburchagi bir chiziqda yotadi (4.8-rasm,b). Bu kuchlar ta'siri-da ferma muvozanatda bo'lgani uchun mazkur ko'pburchak yopiq bo'ladi.

Endi tugunni kesish usulidan foydalanamiz. 1 tugunni ma'lum kuch dan boshlab soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanib o'tamiz,  $\overline{ec}$  kuch shaklida tasvirlangan, shu sababli kuch ko'pburchagida 1 tugunga ta'sir etuvchi  $\overline{cf}$  va  $\overline{f}e$  kuchlarni qurish kifoya. Buning uchun e nuqtadan 1 sterjenga va C nuqtadan 2 sterjenga parallel chiziqlar o'tkazamiz; bu chiziqlarning kesishgan nuqtasi  $f$  nuqtani ifodalaydi.  $\overline{cf}$  kuch 1 tugundan sterjen o'qi bo'ylab yo'nalgan, shu sababli 2 sterjen cho'ziladi;  $\overline{f}e$  kuch I tugun tomon yo'nalgan shu sababli I sterjen siqiladi.

II tugunni EFGE tartibda soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanib o'tamiz.  $f$  nuqtada 3 sterjenga parallel, e nuqtada 4 sterjenga parallel chiziqlar o'tkazamiz: ularning kesishgan nuqtasi  $g$  nuqtani ifodalaydi;  $\overline{fg}$  kuch II tugundan sterjen o'qi bo'ylab yo'nalgani uchun 3 sterjen cho'ziladi;  $\overline{ge}$  kuch II tugunga yo'nalgani tufayli 4 sterjen siqiladi.

III tugunni CDGFC tartibda aylanib o'tib, 5 sterjenga mos  $\overline{dg}$  reaksiya kuchini aniqlaymiz. Buning uchun d va g nuqtalarni birlashtiramiz.  $\overline{dg}$  kuch III tugundan sterjen o'qi bo'ylab yo'nalgani uchun 5 sterjen cho'ziladi. Shu tartibda yasalgan (4.8-rasm,b) dagi figura Maksvell-Kremon diagrammasi deyiladi. Kuch uchun qabul qilingan masshtabdandan foydalanib, sterjenlarning reaksiya kuchlarini topish mumkin.

#### **4.5 Matritsalar usuli**


Ferma sterjenlaridagi zo'riqishlarini aniqlashning yana bir usuli MATRITSALAR USULI deb nomlanadi.

Yassi ferma sterjenlaridagi zo'riqishlarini matritsalar usuli yordamida hisoblash tartibini bir masalaning echilishi davomida ko'rib chiqamiz.

**MASALA SHARTI:** Berilgan yuklanishlar ta'siridagi yassi ferma sterjenlarida hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlari aniqlansin. Fermalarning sxemalari chizmada keltirilgan bo'lib, masalani yechish uchun kerakli ma'lumotlar jadvalda keltirilgan. Chizmada ferma sterjenlariga ta'sir qila-

yotgan tashqi kuchlar, oraliqlar uzunliklari va sterjenlarning o'q bilan tashkil qilgan burchaklari ko'rsatilgan.


$P_1=20 \text{ kN}$ ,  $P_2=10 \text{ kN}$  (4.9-rasm)



4.9 – rasm

### YECHISH:

1. Ferma sterjenlaridagi birlik vektorlarning yo'nalishlarini tanlaymiz (4.10 – rasm.).
2. Ferma tuzilishini ifodalovchi I-matritsani tuzamiz. I - Matritsa  $n \times m$  o'lchamda bo'ladi, bunda  $n$  – tugunlar soni (tayanchlar hisobga olinmagan holda),  $m$  – ferma sterjenlari soni. Ushbu matritsa elementlari  $+1$ ,  $0$ ,  $-1$  bo'lishi mumkin. Agar birlik zo'riqish kuchining yo'nalishi tugundan chiqqan bo'lsa  $+1$  ni, birlik zo'riqish kuchining yo'nalishi tugun tomon yo'nalgan bo'lsa  $-1$  ni, birlik zo'riqish kuchi ushbu tugunga taaluqli bo'lmasa  $0$  dan foydalanamiz.



**4.10 – rasm**

Ushbu masalada ferma konstruksiyasi 7 ta tugun ( $n=7$ ) va 14 ta sterjenden tashkil topgan ( $m=14$ ), shuning uchun matritsa 7 qator va 14 ustundan iborat bo‘ladi. Matritsaning 1-qatorini to‘ldiramiz. 2- chizmaga 1-tugunda 3 ta zo‘riqish kuchlari joylashgan bo‘lib, uchalasi ham ushbu tugundan chiqish yo‘nalishida ekanligi ko‘rinadi. Shuning uchun matritsamizning 3 ta hadiga 1 ni yozamiz va qolgan zo‘riqish kuchlari 1-tugunga taalluqli bo‘lmaganligi sababli qolgan barcha matritsa hadlari 0 dan iborat bo‘ladi.

2-tugunga qaraydigan bo‘lsak, ushbu tugundan 4-6 –tugunlarga 2 ta chiquvchi zo‘riqish kuchlari va bitta 2-sterjenden chiquvchi zo‘riqish kuchlari mavjud. Shuning uchun ikkinchi ustunga -1, 4 – va ustunlarga 1 ni yozamiz va qolgan ustunlarga 0 yoziladi.

3-tugunga qaraymiz. Ushbu tugunga 3- va 4 – sterjenlar orqali 2 ta kiruvchi va 5-7 sterjenlar orqali 2 ta chiquvchi zo‘riqish kuchlari mavjud.

Shuning uchun 3-4 ustunlarga -1 , 5-7 ustunlarga esa 1 ni yozamiz, qolgan barcha ustunlarga 0 yoziladi:

$$I_1 = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 1 & -1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \end{bmatrix}$$

4-tugundan 9–10 sterjenlar orqali 2 ta chiquvchi va 6- sterjen orqali bitta kiruvchi zo‘riqish kuchi ta’sir qiladi. Shuning uchun matritsaning 6- ustuniga -1 , 9-10 ustunlariga esa 1 niyo zamiz , qolgan barcha ustunlarga 0 yoziladi.

5-tugunda 4 ta zo‘riqish kuchi bo‘lib, 7-9 sterjenlar orqali 2 ta kiruvchi va 8-11 sterjenlardan 2 ta chiquvchi zo‘riqish kuchlari ta’sir qiladi. Shuning uchun matritsaning 5- qator 7-9 ustunlariga -1 , 8-11 ustunlariga ega 1 ni yozamiz. Qolgan barcha ustunlarga 0 yoziladi.

6-tugunga 10-11 sterjenlar orqali 2 ta kiruvchi, 12- sterjen orqali bitta chiquvchi zo‘riqish kuchi ta’sir qiladi. Shuning uchun matritsaning 6-qator 10-11 ustunlariga -1, 12–ustuniga esa 1 ni yozib, qolgan barcha ustunlariga 0 ni yozamiz.

$$I_1 = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 1 & -1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \end{bmatrix}$$

7- tugunda 5-8 sterjenlar orqali 2 ta kiruvchi, 13-14 sterjenlar orqali 2 ta chiquvchi zo‘riqish kuchlari ta’sir qiladi. Shuning uchun matritsaning 7-qatori 5-8 ustunlariga -1, 13-14- ustunlariga esa 1 , qolgan barcha ustunlarga 0 ni yozamiz.

Mana shu yo‘l bilan istalgan ko‘rinishdagi fermalar uchun yuqoridagi ko‘rinishdagi matritsalarni tuzib olishimiz mumkin.

3.  $V_X$  vektor ustuni, ya'ni barcha sterjenlardagi birlik zo'riqish kuchlarining X o'qiga proeksiyalarining vektor ustunlarini tuzamiz. Ushbu ustunning o'lchami  $m \times 1$ , ya'ni  $14 \times 1$  ga teng.

$$V_X^T = [ 0 \ \frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ 1 \ 0 \ 0 \ 1 \ 1 - \frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ 0 \ \frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ 1 - 0.5 \ 0 - 1 ]$$

4.  $V_Y$  vektor ustuni, ya'ni barcha sterjenlardagi birlik zo'riqish kuchlarining Y o'qiga proeksiyalarining  $m \times 1$  o'lchamidagi vektor ustunlarini tuzamiz:

$$V_Y^T = [ 1 \ \frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ 0 \ -1 \ -1 \ 0 \ 0 \ -\frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ -1 \ -\frac{\sqrt[2]{2}}{2} \ 0 \ \frac{\sqrt{3}}{2} \ -1 \ 0 ]$$

Yuqorida tuzilgan  $V_X$  va  $V_Y$  vektor-ustunlaridan foydalanib kelgusida  $D_X$  va  $D_Y$   $m \times m$  matritsalar tuziladi (bizning holatimizda  $14 \times 14$ ).

5. Ferma tugunlariga qo'yilgan tashqi kuchlarning P vektor ustunlarini tuzamiz. Vektor-ustun o'lchami  $2n \times 1$ , ya'ni  $2 \cdot 7 \times 1$ . Bunda 1 - n ta qator ferma tugunlariga qo'yilgan tashqi kuchlarining X o'qidagi proeksiyalari, qolgan qatorlar esa barcha tashqi kuchlarning Y o'qidagi proeksiyalari yoziladi:

$$P^T = [ 0 \ 10 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 0 \ 20 \ 0 ]$$

6. Chiziqli muvozanat tenglamalar sistemasi koeffisientlari A matritsani shakllantiramiz:

$$A_{2nxm} = \begin{bmatrix} I_{nxm} & O_{nxm} \\ O_{nxm} & I_{nxm} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} D_{x,mxm} \\ D_{y,mxm} \end{bmatrix}$$

Bu yerda :  $O_{nxm}$  -  $n \times m$  o'lchamidagi ( $7 \times 14$ ) nolli elementlardan tashkil topgan matritsa.

7. Matritsa ko'rinishidagi muvozanat tenglamalar sistemasini yozamiz:

$$AS + P = 0$$

Bu yerda : S -  $2n \times 1$ , ya'ni  $2 \cdot 7 \times 1$  o'lchamidagi ferma sterjenlaridagi noma'lum zo'riqish kuchlaridan tashkil topgan vektor-ustun.

8. Ushbu tenglamalar sistemasining yechimi quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$S = -A^{-1} * P$$

Ushbu masalani Mathcad dasturida hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz:

1. Fermani ushbu dastur bo'yicha hisoblash uchun 4.9-rasmida keltirilgan konstruksiyaga asoslanamiz.

2. Berilgan ma'lumotlarni dasturga kiritamiz:

$$P_1 = 20 \text{ kN}, P_2 = 10 \text{ kN}$$

3. Ferma konstruksiyasidagi  $V^T$ - tugunlar va sterjenlar sonini dasturga kiritamiz :  $n_{uzlov} := 7$ ,  $n_{stergney} := 14$ .

4.  $I_1$  hisoblash matritsasini tuzamiz:

$$I_1 = \begin{bmatrix} 1 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -1 & 0 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 1 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 1 & -1 & 0 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & -1 & 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & -1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 1 & 1 & 1 \end{bmatrix}$$

$$I_2 = \begin{bmatrix} 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 \\ 1 & 0 & 0 & 0 \\ -1 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 1 \end{bmatrix} I := \text{augment}(I_1, I_2).$$

5.  $V_x$ ,  $V_y$  va  $P$  matritsalarini shakllantiramiz:

$$V_x = [0 \frac{\sqrt{2}}{2} 1 0 0 1 1 - \frac{\sqrt{2}}{2} 0 \frac{\sqrt{2}}{2} 1 -0.5 0 -1]$$

$$V_y = [1 \frac{\sqrt{2}}{2} 0 -1 -1 0 0 -\frac{\sqrt{2}}{2} -1 -\frac{\sqrt{2}}{2} 0 -\frac{\sqrt{3}}{2} -1 0]$$

$$P = [0 P2 0 0 0 0 0 0 0 0 P1 0]$$

6.  $V_x$  va  $V_y$  matritsalarini diogonal  $D_x$ ,  $D_y$  matritsalarga aylantiramiz:

$$\mathbf{DX} = \text{diag}(YX^T) \quad \mathbf{DY} = \text{diag}(YY^T)$$

7.  $n \times m$  (bizning holat uchun  $(7 \times 14)$ ) deb olinadi)  
o'lchamdagи  $O_{n \times m}$  hisoblash matritsasini tuzamiz:

$$i = 1 \dots n \text{ uzlov}, j = 1 \dots N \text{ stergnej} \quad O_{ij} = 0$$

8. Chiziqli muvozanat tenglamalar sistemasi koeffitsientlari A hisoblash matritsasini shakllantiramiz:

$$\mathbf{XY} := \text{stack}(\mathbf{DX}, \mathbf{DY})$$

$$\mathbf{A} := \text{stack}(\text{augment}(\mathbf{t}, \mathbf{0}), \text{augment}(\mathbf{0}, \mathbf{I})) * \mathbf{XY}$$

9. Muvozanat tenglamalar sistemasini yozamiz va yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib ushbu sistemani yechamiz:

$$\mathbf{S} := -\mathbf{A}^{-1} * \mathbf{P}^T$$

Muvozanat tenglamalar sistemasini yechish natijalari jadvalda keltirilgan.

Hisob kitob natijalari shuni ko'rsatadi, 2, 6, 10 va 12 sterjenlar cho'zilgan (chunki ishoralar musbat), qolgan sterjenlar esa siqilgan. Olingan natijalar sterjenlarda hosil bo'ladigan zo'riqishlarni matritsalar usuli yordamida aniqlashda qabul qilingan ishoralari boshqa tugunlarni kesish, Ritter usullari bilan bir xil ekanligini ko'rsatadi.

Masalani Mathcad dasturida hisoblash natijalari jadvali.

Sterjen №	Sterjenda hosil bo'lgan zo'riqish miqdori, kN	Sterjen №	Sterjenda hosil bo'lgan zo'riqish miqdori, kN
1.	-13,660	8.	-5,176
2.	19,319	9.	-3,660
3.	-13,660	10.	5,176
4.	-13,660	11.	-17,321
5.	-13,660	12.	27,321
6.	3,660	13.	-17,321
7.	-13,660	14.	-3,660

#### 4.6 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi fermaning tayanch nuqtalaridagi tayanch reaksiyalari va sterjenlarida hosil bo'luvchi zo'riqish kuchlari aniqlansin

(4.11-rasm, a).

Berilgan:  $P_1 = 2 \text{ kN}, P_2 = 4 \text{ kN}, P_3 = 6 \text{ kN}, a = 4m, h = 3m$

## YECHISH:

- Berilgan yassi fermani erkin holatga keltiramiz. Buning uchun qo‘yilgan tayanchlarni tashlab yuborib ularni tayanch reaksiya kuchlari bilan almashtiramiz. Barcha tashqi kuchlar va reaksiya kuchlarini chizmada ko‘rsatamiz (4.11-rasm, b).
- Erkin holatga keltirilgan yassi ferma uchun statika bo‘limida ko‘rib o‘tilgan tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat tenlamalarini tuzamiz hamda nomalum tayanch reaksiya kuchlarini aniqlaymiz:

$$\sum F_{kx} = 0;$$

$$\sum F_{ky} = 0;$$

$$\sum m_0(\bar{F}_k) = 0;$$

$$X_A - P_2 - P_1 = 0 \quad (4.6)$$

$$Y_A - R_B - P_3 = 0 \quad (4.7)$$

$$R_B \cdot 4 + P_2 \cdot 6 + P_1 \cdot 9 = 0 \quad (4.8)$$

1-tenglamadan foydalanib  $X_A$  ni aniqlaymiz:

$$X_A = P_1 + P_2 = 2 + 4 = 6\text{kN}$$


3-tenglamadan foydalanib  $R_B$  ni aniqlaymiz:

$$R_B = \frac{-4 \cdot 6 - 2 \cdot 9}{4} = \frac{-42}{4} = -10,5\text{kN}$$


2-tenglamadan foydalanib  $Y_A$  ni aniqlaymiz:

$$Y_A = P_3 - R_B = 6 + 10,5 = 16,5\text{kN}$$

a)



b)



4.11-rasm


$R_B$  reaksiya kuchining miqdori manfiy ishorada chiqqanligi uchun chizmada uning yo‘nalishini teskari yo‘nalishga o‘zgartiramiz.

Demak, ferma tayanchlaridagi reaksiya kuchlari  $X_A=6$  kH,  $Y_A=16,5$  kH,  $R_B=10,5$  kN ga teng ekanligi aniqlandi.

3.Sterjenlar yassi fermadagi asosiy konstruksiyalar bo‘lib, ular bog‘lanishlar vazifasini o‘taydi. Bog‘lanishlarni xayolan tashlab yuborib chizmada ularning o‘rniga zo‘riqish kuchlarini ko‘rsatamiz. Sterjenlardagi zo‘riqish kuchlarini uning nomeri bilan belgilab har bir tugunni harflar bilan belgilab chiqamiz (4.12-rasm).

Zo‘riqish kuchlarining yo‘nalishi tugundan chiqishiga qarab yo‘naltirilgan va 1-holatda sterjenlar cho‘zilgan deb qaraymiz. Masalan, yechish davomida agar zo‘riqish kuchlarining qiymatlari manfiy ishora bilan chiqsa, demak shu sterjen siqilishiga ishlayotganini bildiradi:

$$\bar{S}_{iM} = \bar{S}_{iN}, \quad (4.9)$$



4.12-rasm.

Har bir tugun uchun ikkitadan muvozanat tenglamalarini tuzamiz va sterjenlardagi zo‘riqish kuchlarini aniqlaymiz:

$$\sin \alpha = \frac{3}{5}, \quad (4.10)$$

$$\cos \alpha = \frac{4}{5}, \quad (4.11)$$

**H tugun uchun:**

$$\sum F_{kx} = 0 - P_1 - S_{1H} \cdot \cos \alpha = 0, \quad (4.12)$$

$$\sum F_{ky} = 0 - S_{2H} - S_{1H} \cdot \sin \alpha = 0, \quad (4.13)$$

$$(4.12) \text{dan } S_{1H} = -\frac{P_1}{\cos \alpha} = -\frac{2}{\frac{4}{5}} = -2.5kN$$

$$(4.13) \text{dan } S_{2H} = -S_{1N} \cdot \sin \alpha = 2.5 \cdot \frac{3}{5} = 1.5kN$$

**E tugun uchun:**

$$\sum F_{kx} = 0 S_{1E} \cdot \cos \alpha + S_{3E} = 0, \quad (4.14)$$

$$S_{1E} = S_{1H} = -2.5kN$$

$$\sum F_{ky} = 0 - P_3 + S_{1E} \cdot \sin \alpha - S_{4E} = 0, \quad (4.15)$$

$$(4.14) \text{dan } S_{3E} = -S_{1E} \cdot \cos \alpha = -(-2.5) \cdot \frac{4}{5} = 2.0kN$$

$$(4.15) \text{dan } S_{4E} = -P_3 + S_{1E} \cdot \sin \alpha = -6 - 2.5 \cdot \frac{3}{5} = -7.5kN$$

**F tugun uchun:**

$$\sum F_{kx} = 0 - P_2 - S_{3F} - S_{5F} \cdot \cos \alpha = 0, \quad (4.16)$$

$$\sum F_{ky} = 0 S_{2F} - S_{6F} - S_{5F} \cdot \sin \alpha = 0, \quad (4.17)$$

$$(4.16) \text{dan } S_{5F} = \frac{-P_2 - S_{3F}}{\cos \alpha} = \frac{-4 - 2}{\frac{4}{5}} = -\frac{6}{\frac{4}{5}} = -7.5kN$$

$$(4.17) \text{dan: } S_{6F} = S_{2F} - S_{5F} \cdot \sin \alpha = 1.5 + 7.5 \cdot \frac{3}{5} = 6kN$$

**C tugun uchun:**


$$\sum F_{kx} = 0 S_{7C} + S_{5C} \cdot \cos \alpha = 0, \quad (4.18)$$

$$\sum F_{ky} = 0 S_{4C} - S_{8C} + S_{5C} \cdot \sin \alpha = 0, \quad (4.19)$$

$$(4.18) \text{ dan } S_{7C} = -S_{5C} \cdot \cos \alpha = 7,5 \cdot \frac{4}{5} = 60kN$$

$$(4.19) \text{ dan } S_{8C} = S_{4C} + S_{5C} \cdot \sin \alpha = -7,5 - 7,5 \cdot \frac{3}{5} = -12kN$$

<b>E tugun</b>	<b>H tugun</b>
<p>Diagram of point E showing force <math>\bar{P}_3</math> acting vertically upwards, force <math>S_{1E}</math> at an angle, force <math>S_{3E}</math> acting horizontally to the right, and force <math>S_{4E}</math> acting vertically downwards.</p>	<p>Diagram of point H showing force <math>H</math> acting vertically upwards, force <math>S_{1H}</math> at an angle, force <math>S_{2H}</math> acting vertically downwards, and force <math>\bar{P}_1</math> acting horizontally to the right.</p>
<b>C tugun</b>	<b>F tugun</b>
<p>Diagram of point C showing force <math>S_{4C}</math> acting vertically upwards, force <math>S_{5C}</math> at an angle, force <math>S_{7C}</math> acting horizontally to the right, and force <math>S_{8C}</math> acting vertically downwards.</p>	<p>Diagram of point F showing force <math>S_{2F}</math> acting vertically upwards, force <math>S_{3F}</math> at an angle, force <math>S_{5F}</math> at an angle, force <math>S_{6F}</math> acting vertically downwards, and force <math>\bar{P}_2</math> acting horizontally to the right.</p>
<b>D tugun</b>	<b>B tugun</b>



*D tugun uchun:*

$$\sum F_{kx} = 0 - S_{7D} - S_{9D} \cdot \cos \alpha = 0 \quad (4.20)$$

$$\sum F_{ky} = 0 S_{6D} - S_{10D} - S_{9D} \cdot \sin \alpha = 0 \quad (4.21)$$

$$(4.20) \text{ dan } S_{9D} = -\frac{S_{7D}}{\cos \alpha} = -\frac{6}{\frac{4}{5}} = -7.5kN$$

$$(4.21) \text{ dan } S_{10D} = S_{6D} - S_{9D} \cdot \sin \alpha = 6 + 7,5 \cdot \frac{3}{5} = 10,5kN$$

$$\sum F_{kx} = 0 \quad S_{11B} = 0 \quad (4.22)$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{10B} - R_B = 0 \quad (4.23)$$

$$S_{10B} = R_B = 10.5kN$$

$$S_{11} = 0$$

Aniqlangan barcha zo‘riqish kuchlarini jadval ko‘rinishida yoki umumiyl holatda keltirish mumkin.

**2-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi fermaning 4, 5 va 8-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin (4.14-rasm, a).

Berilgan:  $P_1 = 2 \text{ kN}, P_2 = 4 \text{ kN}, P_3 = 6 \text{ kN}, a = 4m, h = 3m$

$S_4$  va  $S_5$  zo‘riqish kuchlarini aniqlash uchun yassi fermani I-I kesim bilan xayolan kesamiz (4.14-rasm,b). Tashlab yuborilgan qismining ta’sirini  $S_4$ ,  $S_5$  va  $S_6$  kuchlar kuchlar orqali almashtiramiz. Bu yerda ham sterjenlarni cho‘zilgan deb hisoblaymiz, agar natija manfiy ishora bilan chiqsa sterjen siqilgan hisoblanadi.


$S_4$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun  $F$  nuqtaga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz:

$$S_4 \cdot a + P_1 \cdot h + P_3 \cdot \alpha = 0, \quad (4.24)$$


(4.24) dan foydalabib  $S_4$  ni aniqlaymiz:

$$S_4 = \frac{-P_1 \cdot h - P_3 \cdot \alpha}{a} = \frac{-2 \cdot 3 - 6 \cdot 4}{4} = -7.5 \text{ kN}$$


a)



b)



c)



4.14-rasm

$S_5$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun esa X o‘qiga nisbatan proeksiya olamiz:

$$\sum F_{kx} = 0 - P_1 - S_5 \cdot \cos \alpha - P_2 = 0, \quad (4.25)$$

(4.25) dan foydalabib  $S_5$  ni aniqlaymiz:

$$S_5 = \frac{-P_1 - P_2}{\cos \alpha} = \frac{-2 - 4}{4/5} = -7.5 kN$$

$S_8$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun yassi fermani 8, 9, 10- sterjenlar bo‘ylab II-II kesim bilan xayolan kesamiz (4.14-rasm, c).

Ushbu holatda noma’lumlardan qutulish uchun D nuqtaga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz:


$$\sum \overline{m}_D(F_k) = 0 \quad X_A \cdot h - Y_A \cdot a - S_8 \cdot a = 0, \quad (4.26)$$

(4.26) dan foydalabib  $S_8$  ni aniqlaymiz:

$$S_8 = \frac{X_A \cdot h - Y_A \cdot a}{a} = \frac{6 \cdot 3 - 16.5 \cdot 4}{4} = \frac{18 - 66}{4} = \frac{-48}{4} = -12 kN$$

Biz yuqorida keltirilgan ikkala masalada bitta fermaning sterjenlaridagi zo‘riqish kuchlarini ikki usul yordamida aniqladik. Ikkala usulda ham zo‘riqish kuchlarining miqdorlari bir xil natijani berdi. Demak, zo‘riqish kuchlari to‘g‘ri aniqlangan.

**3-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma sterjenlarida hosil bo‘luvchi tayanch reaksiyalari va zo‘riqish kuchlari aniqlansin. (4.15-rasm). Berilgan:  $\bar{P}_1 = 12 kN$ ,  $\bar{P}_2 = 8 kN$ ,  $\bar{P}_3 = 2 kN$ ,  $a = 6 m$ ,  $\alpha = 45^\circ$




4.15-rasm

## YECHISH:

1. Berilgan yassi fermani erkin holatga keltiramiz. Yassi fermaning A nuqtasiga sharnirli qo‘zg‘almas tayanch, B nuqtasiga esa sharnirli qo‘zg‘aluvchan tayanch o‘rnatilgan. A nuqtaga ikkita  $X_A$  va  $Y_A$  reaksiya kuchlarini B nuqtaga esa bitta  $\bar{R}_B$  reaksiya kuchini qo‘yamiz.

Yassi ferma 14 ta sterjenden tashkil topgan bo‘lib, 8 ta tugundan iborat. Har bir tugunni alohida harflar bilan belgilab olamiz (4.16-rasm).

2. Erkin holatga keltirilgan yassi ferma uchun tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat tenglamalarini tuzamiz:



**4.16-rasm**

$$\sum F_{kx} = 0 \quad P_3 + X_A = 0, \quad (4.28)$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad R_B - P_1 - P_2 + Y_A = 0, \quad (4.29)$$

$$\sum \overline{m_B}(F_k) = 0 \quad P_3 \cdot \alpha + P_2 \cdot 2\alpha + P_1 \cdot 3\alpha - X_A \cdot \alpha - Y_A \cdot 4\alpha = 0, \quad (4.30)$$

(4.28)-tenglamadan  $X_A$  noma'lum reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$X_A = -P_3$$

$$X_A = -2kN$$

(4.29)-tenglamadan  $Y_A$  nomalum reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$Y_A = \frac{P_3 \cdot \alpha + P_2 \cdot 2\alpha + P_1 \cdot 3\alpha - X_A \cdot \alpha}{4\alpha}$$

$$Y_A = \frac{2 \cdot 6 + 8 \cdot 12 + 12 \cdot 18 + 2 \cdot 6}{24} = \frac{12 + 96 + 216 + 12}{24}$$


$$Y_A = \frac{336}{24} = 14kN$$

(4.30)-tenglamadan  $R_B$  nomalum reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$R_B = P_1 + P_2 - Y_A$$

$$R_B = 12 + 8 - 14 = 6kN$$

Yuqorida yechib ko'rsatilgan masalalarda reaksiya kuchlarining ishoralariga alohida ahamiyat berish lozim. Muvozanat tenglamalaridan foydalanilib ishora manfiy ekanligi aniqlansa, masalani yechishda chizmada ushbu reaksiya kuchining yo'naliшини o'zgartirish zarur.



**4.17-rasm**

3. Tugunlarni kesish usulidan foydalanib barcha tugunlardagi zo'riqish kuchlarini aniqlaymiz. Har bir sterjenda hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlarini chizmada ko'rsatamiz (4.17-rasm).

4. Ma'lum ketma-ketlikda noma'lumlar sonini hisobga olib har bir tugunni alohida chizib olamiz (4.18-rasm) va tugunlardagi zo'riqish kuchlarini statikaning muvozanat tenglamalari yordamida aniqlaymiz :

1.B tugun uchun

$$\sum F_{ky} = 0 - S_{13B} - S_{14B} \cdot \cos 45^0 = 0 \quad (4.31)$$

$$\sum F_{ky} = 0 R_B - S_{14B} \cdot \sin 45^0 = 0 \quad (4.32)$$

(4.31)-tenglamadan

$$S_{14B} = \frac{R_B}{\sin 45^0} = \frac{6}{\sqrt{2}/2} = 8.5kN$$

(4.32) - tenglamadan

$$S_{13B} = -S_{14B} \cdot \cos 45^0 = -8.5 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = -6kN$$

2.K tugun uchun:  $\sum F_{kx} = 0 \quad S_{13K} - S_{9K} = 0 \quad (4.33)$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{12K} = 0 \quad (4.34)$$

(4.33) - tenglamadan  $S_{9K} = S_{13K} = -6kN$

$S_{13B} = S_{13K}$  bo‘lgani uchun;

3. M tugun uchun:

$$\sum F_{ky} = 0 P_3 - S_{11M} + S_{14M} \cdot \cos 45^0 - S_{10M} \cdot \cos 45^0 = 0 \quad (4.35)$$

$$\sum F_{ky} = 0 S_{12M} + S_{10M} \cdot \sin 45^0 + S_{14M} \cdot \sin 45^0 = 0 \quad (4.36)$$

(4.36) - tenglamadan

$$S_{10M} = \frac{-S_{12M} + S_{14M} \cdot \sin 45^0}{\sin 45^0} = -S_{14M} = -8.5kN$$

$$S_{12M} = S_{12K} = 0 \quad S_{10M} = -8.5kN$$

(4.35)-tenglamadan

$$S_{11M} = P_3 - S_{14M} \cdot \cos 45^0 - S_{10M} \cdot \cos 45^0$$

$$S_{11M} = 2 - 8.5 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} + 8.5 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2}$$

$$S_{11M} = 2kN$$

<p>B tugun</p>	<p>H tugun</p>
<p>M tugun</p>	<p>K tugun</p>
<p>F tugun</p>	<p>D tugun</p>
<p>E tugun</p>	<p>C tugun</p>
<p><b>4.18-rasm</b></p>	

$$4.H \text{ tugun uchun: } \sum F_{kx} = 0 \quad S_{11M} - S_{7H} = 0 \quad (4.37)$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{8H} - P_2 = 0 \quad (4.38)$$

$$\sum F_{kx} = 0 \quad S_{11M} - S_{7H} = 0 \quad (4.37) \quad \begin{aligned} & (4.37)\text{-tenglamadan} \\ & S_{7H} = S_{11M} = 2kN \end{aligned}$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{8H} - P_2 = 0 \quad (4.38) \quad \begin{aligned} & (4.38)\text{-tenglamadan} \\ & S_{8H} = P_2 = 8kN \end{aligned}$$

5. F tugun uchun:

$$\sum F_{kx} = 0 \quad S_{9F} - S_{5F} + S_{10F} \cdot \cos 45^0 - S_{6F} \cdot \cos 45^0 = 0 \quad (4.39)$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad -S_{8F} - S_{6F} \cdot \sin 45^0 - S_{10F} \cdot \sin 45^0 = 0 \quad (4.40)$$

(4.40)-tenglamadan

$$S_{6F} = \frac{-S_{8F} - S_{10F} \cdot \sin 45^0}{\sin 45^0} = \frac{-8 + 8.5 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2}}{\sqrt{2}/2} = -2.8kN$$

(4.39)-tenglamadan

$$S_{5F} = S_{9F} + S_{10F} \cdot \cos 45^0 - S_{6F} \cdot \cos 45^0$$

$$S_{5F} = -6 + 8.5 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} + 2.8 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2}$$

$$S_{5F} = -10kN$$

$$6. E \text{ tugunuchun: } \quad (4.41)\text{-tenglamadan}$$

$$\sum F_{kx} = 0 \quad S_{5E} - S_{2E} = 0 \quad (4.41) \quad S_{2E} = S_{5E} = -10kN$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad -S_{4E} - P_1 = 0 \quad (4.42) \quad S_{5E} = S_{5F} = -10kN$$

(4.42)-tenglamadan

$$S_{4E} = -P_1$$

$$S_{4E} = -12kN$$

7. D tugun uchun:

$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{4D} + S_{3D} \cdot \sin 45^\circ + S_{6D} \cdot \sin 45^\circ = 0, \quad (4.43)$$

(4.43)-tenglamadan

$$S_{3D} = \frac{-S_{4D} - S_{6D} \cdot \sin 45^\circ}{\sin 45^\circ} = \frac{12 + 2.8 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2}}{\sqrt{2}/2} = 19.8 \text{ kN}$$

8. C tugun uchun:


$$\sum F_{ky} = 0 \quad S_{1C} - S_{3C} \cdot \sin 45^\circ = 0, \quad (4.44)$$

(4.44)-tenglamadan

$$S_{1C} = S_{3C} \cdot \sin 45^\circ = 14 \text{ kN}$$

**4-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma 5, 6, 11-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin (**4.19-rasm**).

Berilgan:  $\bar{P}_1 = 12 \text{ kN}$ ,  $\bar{P}_2 = 8 \text{ kN}$ ,  $\bar{P}_3 = 2 \text{ kN}$ ,  $a = 6 \text{ m}$ ,  $\alpha = 45^\circ$



**4.19-rasm**

Masala shartiga ko‘ra Ritter usuli yordamida 5,6,11-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlarini aniqlaymiz.

YECHISH:

1. Berilgan yassi fermani erkin holatga keltiramiz. Yassi fermaning A nuqtasiga sharnirli qo‘zg‘almas tayanch, B nuqtasiga esa sharnirli qo‘zg‘aluvchan tayanch o‘rnatilgan. A nuqtaga ikkita  $X_A$  va  $Y_A$  reaksiya kuchlarini B nuqtaga esa bitta  $\bar{R}_B$  reaksiya kuchini qo‘yamiz.

Yassi ferma 14 ta sterjenden tashkil topgan bo‘lib, 8 ta tugundan iborat. Har bir tugunni alohida harflar bilan belgilab olamiz (4.19-rasm).

2. Erkin holatga keltirilgan yassi ferma uchun tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat tenglamalarini tuzamiz. C nuqtadan x,y o‘qlarini o‘tqazamiz:

$$\sum F_{kx} = 0 \quad P_3 + X_A = 0, \quad (4.45)$$

$$\sum F_{ky} = 0 \quad R_B - P_1 - P_2 + Y_A = 0, \quad (4.46)$$

$$\sum \overline{m_B(F_k)} = 0 \quad P_3 \cdot \alpha + P_2 \cdot 2\alpha + P_1 \cdot 3\alpha - X_A \cdot \alpha - Y_A \cdot 4\alpha = 0, \quad (4.47)$$

(4.45)-tenglamadan  $X_A$  noma’lum reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$X_A = -P_3$$

$$X_A = -2kN$$

(4.47)-tenglamadan  $Y_A$  nomalum reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$Y_A = \frac{P_3 \cdot \alpha + P_2 \cdot 2\alpha + P_1 \cdot 3\alpha - X_A \cdot \alpha}{4\alpha}$$

$$Y_A = \frac{2 \cdot 6 + 8 \cdot 12 + 12 \cdot 18 + 2 \cdot 6}{24} = \frac{12 + 96 + 216 + 12}{24}$$

$$Y_A = \frac{336}{24} = 14kN$$

(4.46)-tenglamadan  $R_B$  nomalum reaksiya kuchini aniqlaymiz:


$$R_B = P_1 + P_2 - Y_A$$

$$R_B = 12 + 8 - 14 = 6kN$$

Yuqorida yechib ko‘rsatilgan masalalarda reaksiya kuchlarining ishoralariga alohida ahamiyat berish lozim. Agar ishora manfiy ekanligi

aniqlansa, masalani yechishda chizmada ushbu reaksiya kuchining yo‘nalishini o‘zgartirish zarur.

3. Yassi fermani I-I va II-II kesimlar bilan xayolan kesib har bir qismning muvozanatini alohida ko‘rib chiqamiz.  $S_5$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun 4.20-rasmdan foydalanib D nuqtaga nisbatan momentlar tenlamasini tuzamiz:



$$\sum \overline{m}_D(F_k) = 0$$

$$-S_{SE} \cdot a - x_A \cdot 2a - Y_A \cdot a = 0, \quad (4.48)$$

$$S_{SE} = -x_A \cdot 2 - Y_A$$

$$S_{SE} = 2 \cdot 2 - 14 = -10 \text{ kH}$$

$\overline{S}_6$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun esa Y o‘qiga nisbatan barcha kuchlarning proeksyalari yig‘indisi hisoblaymiz (4.20-rasm):

$$\sum F_{ky} = 0;$$

$$Y_A - P_1 + S_{6D} \cdot \cos 45^0 = 0, \quad (4.49)$$

#### 4.20-rasm

$$S_{6D} = \frac{P_1 - Y_A}{\cos 45^0} = \frac{12 - 14}{\frac{\sqrt{2}}{2}} = -2,8 \text{ kN}$$

$S_{11}$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun yassi fermani F-H va K-M tugunlar orasidagi sterjenlar o‘rtasidan xayolan kesamiz (4.21-rasm).

$S_{11}$  zo‘riqish kuchini aniqlash uchun 4.21-rasmdagi fermaning chap qismi uchun F nuqtaga nisbatan barcha kuchlardan moment olamiz :


$$\sum \overline{m}_F(F_k) = 0$$

$$S_{11N} \cdot a + P_1 \cdot a - X_A \cdot a - Y_A \cdot 2a = 0, \quad (6.46)$$

$$S_{11N} = \frac{X_A \cdot a + Y_A \cdot 2a - P_1 \cdot a}{a}$$

$$S_{11N} = X_A + 2Y_A - P_1 = -2 + 2 \cdot 14 - 12$$

$$S_{11N} = 14kN$$



#### 4.21-rasm

Zo‘riqish kuchlarining to‘g‘ri aniqlanganligini tekshirish uchun 4.21-rasmdagi fermaning o‘ng qismi uchun Y o‘qiga nisbatan barcha kuchlarning proeksyalari yig‘indisini hisoblaymiz:

$$\sum F_{ky} = 0 R_B + S_{10M} \cdot \sin 45^\circ = 0, \quad (6.47)$$

$$S_{10M} = -\frac{R_B}{\sqrt{2}/2} = -\frac{6}{0.707}$$

$$S_{10M} = -8,5kN$$

$$\sum m_k(F_k) = 0 R_B \cdot a + P_3 \cdot a - S_{11M} \cdot a - S_{10M} \cdot a \cdot \cos 45^\circ = 0, \quad (6.48)$$

$$S_{11M} = \frac{R_B \cdot a + P_3 \cdot a - S_{10M} \cdot a \cdot \cos 45^\circ}{a}$$

$$S_{11M} = 6 + 2 + 8,5 \cdot \sqrt{2}/2 = 14kN$$

$$S_{11M} = S_{11N} = 14kN$$


Biz yuqorida keltirilgan ikkala masalada bitta fermaning sterjeneridagi zo‘riqish kuchlarini ikki usul yordamida aniqladik. Aniqlangan

zo‘riqish kuchlarining qiymatlari har ikkala usulda ham bir xil miqdorga ega ekanligi yassi ferma sterjenlarida hosil bo‘ladigan zo‘riqish kuchlarining to‘g‘ri aniqlanganligini bildiradi.


#### **4.7 Mustaqil yechish uchun masalalar**

**1-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma sterjenlarida hosil bo‘luvchi tayanch reaksiyalari va zo‘riqish kuchlari aniqlansin. Tugunlarni kesish usuli bilan barcha sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari hamda 6, 7-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin.


$$\bar{P}_1 = 8kN, \bar{P}_2 = 12kN, \bar{P}_3 = 9kN, a = 3m, h = 4m$$



**2-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma tayanch reaksiyalari va 6, 7-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin.  $\bar{P}_1 = 4kN, \bar{P}_2 = 8kN, \bar{P}_3 = 12kN, \bar{P}_4 = 2kN, a = 2m, h = 4m$




**3-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma sterjenlarida hosil bo‘luvchi tayanch reaksiyalari va zo‘riqish kuchlari aniqlansin. Tugunlarni kesish usuli bilan barcha sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari hamda 6, 8-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin.  $\bar{P}_1 = 10kN$ ,  $\bar{P}_2 = 15kN$ ,  $\bar{P}_3 = 5kN$ ,  $a = 3m$ ,  $h = 5m$




**4-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma uchun tugunlarni kesish usuli bilan barcha sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari hamda 6, 8, 10-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin.

$$\bar{P}_1 = 12kN, \bar{P}_2 = 8kN, \bar{P}_3 = 4kN, \bar{P}_4 = 6kN, a = 6m, h = 4m$$




**5-masala.** Berilgan yassi ferma uchun tugunlarni kesish usuli bilan barcha sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari aniqlansin.

$$\bar{P}_1 = 6kN, \bar{P}_2 = 8kN, \bar{P}_3 = 4kN, a = 4m, \alpha = 30^0$$




**6-masala.** Berilgan kuchlar tasiridagi yassi ferma sterjenlarida hosil bo‘luvchi tayanch reaksiyalari va zo‘riqish kuchlari aniqlansin. Tugunlarni kesish usuli bilan barcha sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari hamda 8, 10, 12, 14-sterjenlardagi zo‘riqish kuchlari Ritter usulidan foydalanib aniqlansin.

$$\bar{P}_1 = 2kN, \bar{P}_2 = 8kN, \bar{P}_3 = 4kN, \bar{P}_4 = 6kN, a = 4m, h = 3m$$



**7-masala.** Rasmda ta'sir qiluvchi kuchlar bilan birga ko'rsatilgan stropila firmasining tayanchlaridagi reaksiyalar va sterjenlardagi zo'riqishlar aniqlansin.


(javob:  $R_A = 3,4kN$ ,  $R_B = 2,6kN$ .)



Sterjenning nomeri.	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Zo'riqishlar, kN.	-7,3	+5,8	-	-4,7	-4,7	+3,9	-0,81	-5,5	+4,4

**8-masala.** Rasmda ta'sir qiluvchi kuchlar bilan birga ko'rsatilgan suyri firmaning tayanchlaridagi reaksiyalar va sterjenlardagi zo'riqishlar aniqlansin.

(javob:  $R_A = 3,25\text{kN}$ ,  $R_B = 2,75\text{kN}$ )



Sterjenning nomeri.	1	2	3	4	5	6	7
Zo'riqishlar, kN.	+1,3	+3,03	-3,5	-2,5	-2,6	+1,73	-1,73

### NAZORAT SAVOLLARI:


1. Ferma deb nimaga aytildi?
2. Tugun deb nimaga aytildi?
3. Geometrik o'zgarmas ferma deganda nimani tushunasiz?
4. Ferma sterjenlaridagi zo'riqishlarni hisoblashning qanday usullarini bilasiz?
5. Qachon tugunlarni kesish usulidan foydalaniladi?
6. Ritter usulidan qachon foydalaniladi?
7. Maksvell – Kremon diagrammasidan qachon foydalaniladi?
8. Sterjenlar soni bilan tugunlar soni orasida qanday bog'lanish bor?

## V BOB. FAZOVIY KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI.

### 5.1 Kuchning markazga nisbatan moment-vektori

$\bar{F}$  kuchning O markaz atrofida aylantirish effekti: 1) moment moduliga, ya‘ni kuchning yelkaga bo‘lgan ko‘paytma  $F \cdot h$  ning kattaligiga, 2) O markaz va  $\bar{F}$  kuchning ta‘sir chizig’i orqali o‘tgan OAB aylanish tekisligiga; 3) shu tekislikda aylanish yo‘nalishi bilan xarakterlanadi. Jismga ta‘sir etuvchi barcha kuchlar va O markaz bitta tekislikda yotgan bo‘lsa, har gal OAB aylanish tekisligini aniqlashga ehtiyoj qolmaydi. Bu holda kuch momenti  $\pm F \cdot h$  ga teng skalyar kattalik bilan aniqlanadi. Ko‘paytma oldidagi  $\pm$  ishora jismning markaz atrofida aylanishini ko‘rsatadi.

Jismga fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar ta‘sir etayotgan bo‘lsa, har bir kuchning aylantirish tekisligini alohida ko‘rsatishga to‘g’ri keladi. Aylanish tekisligining fazodagi holatini va aylanish yo‘nalishini mazkur tekislikka o‘tkazilgan perpendikulyar vektor bilan aniqlash mumkin.



5.1-rasm

Agar bu vektoring modulini kuchning momenti moduliga teng va uning yo‘nalishini kuchning aylantirish yo‘nalishini ifodalaydigan tarzda tanlab olsak, bunday vektor yordamida kuchning O nuqtaga nisbatan momentini xarakterlovchi har uchala faktorni ham aniqlash mumkin. Shu sababli  $\bar{F}$  kuchning O markazga nisbatan moment-vektorini O markazga qo‘yilgan va bu markaz hamda kuchning ta‘sir chizig’i orqali o‘tgan tekislikka perpendikulyar yo‘nalgan  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektor bilan tasvirlaymiz.  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektoring yo‘nalishini shunday tanlaymizki, uning uchidan qara-

ganimizda kuch jismni O markaz atrofida soat mili harakati yo‘nalishiga teskari yo‘nalishda aylantirishga intilsin.

Shunday qilib  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektor bir vaqtning o‘zida, moment modulini, turli kuchlar uchun OAB aylantirish tekisligini va shu tekislikda aylanish yo‘nalishini xarakterlaydi.  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektor moment markaziga qo‘yiladi.

$\bar{OA}$  va  $\bar{F}$  vektorlarning  $\bar{OA} \times \bar{F}$  vektorial ko‘paytmasini ko‘rib chiqamiz (5.1-rasm). Ta‘rifga ko‘ra\*

$$|\bar{OA} \cdot \bar{F}| = 2S_{\Delta OAB}, \quad (5.1)$$

$\bar{m}_0(\bar{F})$  vektoring moduli ham  $2S_{\Delta OAB}$  ga teng.

Shunga ko‘ra

$$|\bar{OA} \cdot \bar{F}| = 2S_{\Delta OAB} = |\bar{m}_0(\bar{F})|, \quad (5.2)$$

OAB tekislikka perpendikulyar  $\bar{OA} \times \bar{F}$  vektor shunday yo‘nalganki uning uchidan qaralganda  $\bar{OA}$  vektorni  $\bar{F}$  vektor ustiga (ular bir nuqtada qo‘yilganda) tushirish uchun soat mili aylanishiga teskari yo‘nalishda eng qisqa burchakka burish kerak. Demak,  $\bar{OA} \times \bar{F}$  va  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektorlar miqdorlari teng va bir to‘g’ri chiziq bo‘ylab bir tomonga yo‘nalan ekan. Shu bilan birga ularning o‘lchov birliklari ham bir xil ekanligi ko‘rinib turibdi. Bundan

$$\bar{m}_0(\bar{F}) = \bar{OA} \times \bar{F}, \quad (5.3)$$

$$\bar{m}_0(\bar{F}) = \bar{r} \times \bar{F}, \quad (5.4)$$

bu yerda  $\bar{r} = \bar{OA}$  A nuqtaning O markazga nisbatan radius - vektori.

Demak, kuchning markazga nisbatan momenti vektor kattalik bo‘lib, kuch qo‘yilgan nuqtaning moment markaziga nisbatan radius vektori bilan shu kuchning vektorial ko‘paytmasiga teng.


## 5.2 Kuchning o‘qqa nisbatan momenti

---

\*  $\bar{a}$  va  $\bar{e}$  vektorlarning  $\bar{a} \times \bar{e}$  vektorial ko‘paytmasi deb,  $\bar{c}$  vektorga aytildi, uning moduli  $\bar{a}$  va  $\bar{e}$  vektorlar asosida qurilgan parallelogrammning yuzasiga teng va shu yuzaga perpendikulyar, uning uchidan qaralganda  $\bar{a}$  vektorni  $\bar{e}$  vektor ustiga eng qisqa burchakka burib tushirish uchun soat mili aylanishiga teskari yo‘nalishda burish lozim.

Fazodagi kuchlar sistemasining jismga ta'sirini o'rganishda kuchning markazga nisbatan momenti bilan birga kuchning o'qqa nisbatan momenti tushunchasi kiritiladi.

Kuchning o'qqa nisbatan momenti, kuch ta'sirida jismni berilgan o'q atrofida aylantirish effektini harakterlaydi. Vertikal yo'naligan  $z$  o'q atrofida aylana oladigan qattiq jism berilgan bo'lsin (5.2-rasm).



**5.2-rasm.**

Qattiq jismni  $A$  nuqtasiga  $\bar{F}$  kuch qo'yilgan.  $A$  nuqta orqali o'tuvchi  $z$  o'qqa perpendikulyar  $xy$  tekisligini o'tkazamiz va  $\bar{F}$  kuchni  $z$  o'qqa parallel bo'lgan  $\bar{F}_z$  va  $xy$  tekisligida yotuvchi  $\bar{F}_{xy}$  ( $\bar{F}_{xy}$  bir vaqtning o'zida  $\bar{F}$  kuchning  $xy$  tekisligidagi proyeksiyasini hisoblanadi) tashkil etuvchilarga ajratamiz.  $z$  o'qqa parallel yo'naligan  $\bar{F}_z$  tashkil etuvchi jismni o'q atrofida aylantira olmaydi (u jismni  $z$  o'qi bo'yab siljитishi mumkin).  $\bar{F}$  kuchning  $z$  o'q atrofida aylantirish effekti shu o'q atrofida  $\bar{F}_{xy}$  tashkil etuvchining aylantirish effekti bilan bir xil bo'ladi.

Kuchning o'qqa nisbatan momenti deb uning shu o'qqa perpendikulyar tekislikdagi proyeksiyasining o'q bilan mazkur tekislik kesishgan nuqtasiga nisbatan momentiga aytildi.  $\bar{F}$  kuchning  $z$  o'qqa nisbatan momenti  $m_z(\bar{F})$  bilan belgilanadi; ta'rifga ko'ra

$$m_z(\bar{F}) = m_0(\bar{F}_{xy}), \quad (5.5)$$

$$m_z(\bar{F}) = \pm F_{xy} \cdot h, \quad (5.6)$$

Kuchning o'qqa nisbatan momenti skalyar kattalik bo'lib, o'qning musbat uchidan qaraganda kuchning o'qqa perpendikulyar tekislikdagi proyeksiyasini jismni o'q atrofida soat mili harakatiga teskari yo'nalishda aylantirishga intilsa, kuch momenti musbat, aks holda manfiy ishora bilan olinadi.

Kuchning o‘qqa nisbatan momenti quyidagi xossalarga ega:

- 1) Agar kuch o‘qqa parallel yo‘nalgan bo‘lsa, kuchning o‘qqa nisbatan momenti nolga teng ( $\bar{F}_{xy}=0$  bo‘lgani uchun)
- 2) Kuchning ta‘sir chizig‘i o‘qni kesib o‘tsa, kuchning o‘qqa nisbatan momenti nolga teng bo‘ladi. ( $h=0$  bo‘lgani uchun).

### **5.3 Kuchning o‘qlarga nisbatan momentlari uchun Varin’on teoremasi**

Tekislikdagi kesishuvchi kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchisining (avvalgi bobning 3.2-qismida keltirilgan) biror nuqtaga nisbatan momenti sistema tarkibidagi barcha kuchlarning shu nuqtaga nisbatan momentlari ning algebraik yig’indisiga tengligini **Varin’on teoremasi** orqali isbotlab ko‘rsatgan edik.

Agar (3.9) vektor ifodaning har ikkala tomonini O nuqtadan o‘tuvchi  $z$  o‘qqa proeksiyalasak quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$m_z(\bar{R}) = \sum m_z(\bar{F}_k), \quad (5.7)$$

Demak, teng ta‘sir etuvchining momenti haqidagi Varin’on teoremasi istalgan o‘qqa nisbatan momentlar uchun ham o‘rinlidir. Kuchning koordinata o‘qlariga nisbatan momentlarini aniqlashda Varin’on teoremasi juda qulaydir. Buning uchun kuchni koordinata o‘qlariga nisbatan tashkil etuvchilarga ajratish yoki shu o‘qlarga proeksiyalash lozim.

**Kuchning o‘qlarga nisbatan momentlari uchun Varin’on teoremasi:**

Fazoviy kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchisining biror o‘qqa nisbatan momenti sistema tarkibidagi barcha kuchlarning shu o‘qqa nisbatan momentlarining algebraik yig’indisiga teng.

### **5.4 Kuchning koordinatalar o‘qlarga nisbatan momentlarining analitik usulda berilishi.**

Koordinatalari  $x, y, z$  bo‘lgan nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{F}$  kuchni  $\bar{F}_x, \bar{F}_y, \bar{F}_z$  tashkil etuvchilarga ajratamiz (5.3-rasm). U holda Varin’on teoremasiga ko‘ra quyidagini yozamiz:

$$m_x(\bar{F}) = m_x(\bar{F}_x) + m_x(\bar{F}_y) + m_x(\bar{F}_z), \quad (5.8)$$

$\bar{F}_x$  tashkil etuvchi  $x$  o‘qiga parallel  $\bar{F}_y$  va  $\bar{F}_z$  tashkil etuvchilar esa ularga perpendikulyar bo‘lgani uchun

$$m_x(F_x) = 0; \quad m_x(\bar{F}_y) = -z \cdot F_y; \quad m_x(\bar{F}_z) = y F_z, \quad (5.9)$$


natijada quyidagini hosil qilamiz:

$$m_x(\bar{F}) = y F_z - z F_y, \quad (5.10)$$

Xuddi shu usulda  $\bar{F}$  kuchni qolgan  $y$  va  $z$  o‘qlarga nisbatan momentlari aniqlanadi.

Demak,

$$\begin{aligned} m_x(\bar{F}) &= y F_z - z F_y \\ m_y(\bar{F}) &= z F_x - x F_z \\ m_z(\bar{F}) &= x F_y - y F_x \end{aligned} \quad (5.11)$$



### 5.3-rasm

(11) formula kuchning koordinata o‘qlariga nisbatan momentlarining analitik ifodasidir. (11) ning chap tomoni  $\bar{m}_0 = (\bar{F})$  vektoring koordinata o‘qlardagi proyeksiyalari bo‘lgani uchun shu tengliklar yordamida  $\bar{m}_0(\bar{F})$  vektoring modulini aniqlash mumkin:

$$|\bar{m}_0(\bar{F})| = \sqrt{[m_x(\bar{F})]^2 + [m_y(\bar{F})]^2 + [m_z(\bar{F})]^2} \quad (5.12)$$


## 5.5 Kuchning o‘qqa nisbatan momenti bilan shu o‘qdagi nuqtaga nisbatan momenti orasidagi bog`lanish

Kuchning nuqtaga nisbatan momenti bilan kuchning shu nuqtadan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan momenti orasidagi bog`lanishni keltirib chiqaramiz (5.4-rasm).

Ma’lumki:

$$\begin{aligned} M_0(\bar{F}) &= 2S_{\Delta OAB} \\ m_z(\bar{F}) &= 2S_{\Delta Oab}, \end{aligned} \quad (5.13)$$

Uchburchak Oab uchburchak OABning z o‘qqa perpendikulyar xy tekislikdagi proyeksiyasini bo‘lib hisoblanadi.



#### 5.4-rasm

$\Delta OAB$  ning yuzasi bilan  $\Delta Oab$ ning yuzasi orasidagi burchak bu yuzalarga tushirilgan perpendikulyarlar orasidagi burchakka teng. Shunga ko‘ra:

$$S_{\Delta Oab} = S_{\Delta OAB} \cdot \cos \gamma, \quad (5.14)$$

Tenglikning har ikkala tomonini 2 ga ko‘paytiramiz.

$$2S_{\Delta Oab} = 2S_{\Delta OAB} \cdot \cos \gamma, \quad (5.15)$$

bu yerda

$$2S_{\Delta Oab} = m_z(F), \quad 2S_{\Delta OAB} = m_0(\bar{F}), \quad (5.16)$$

bularni e‘tiborga olsak tenglik quyidagi ko‘rinishini oladi.

$$m_z(\bar{F}) = [\bar{m}_0(\bar{F})] \cos \gamma, \quad (5.17)$$

yoki

$$m_z(\bar{F}) = [\bar{m}_o(\bar{F})] z \quad (5.18)$$


Kuchning o‘qqa nisbatan momenti uning shu o‘qda olingan ixtiyoriy nuqtaga nisbatan moment vektorining shu o‘qdagi proyeksiyasiga teng.

## 5.6 Juft kuch moment – vektori

Juft kuchning jismga ko‘rsatadigan ta‘siri:

1) juft momenti moduli; 2) juftning ta‘sir tekisligi, 3) tekislikdagi aylanish yo‘nalishi bilan xarakterlanadi. Bir tekislikda yotmagan juftlarni ko‘rib chiqilayotganida har bir juft uchun yuqoridagi uchta elementning harbirini ko‘rsatish lozim. Qayd etilgan uchta faktorni aniqlashda juft momenti u yotgan tekislikka perpendikulyar yo‘nalgan vektor bilan belgilab olinadi. U  $\bar{m}$  yoki  $\overline{M}$  harfi bilan belgilanadi. Juft momenti vektorining moduli (belgilangan masshtabda) juft momenti moduliga, ya‘ni juftni tashkil etuvchilaridan birini juft yelkasi uzunligiga ko‘paytmasiga teng hamda juftning ta‘sir tekisligiga perpendikulyar yo‘nalgan bo‘lib, uning uchidan qaraganda, juft jismni soat mili aylanishiga teskari yo‘nalishda aylantirsin (5.5-rasm).

Juft kuch moment vektori kuchning markazga nisbatan moment vektoridan farq qilib, uni jismni istalgan nuqtasiga qo‘yish mumkin (bunday vektorga erkin vektor deyiladi). Haqiqatdan ham vektor berilgan bo‘lsa juftni o‘zini aniqlash mumkin.



### 5.5-rasm

Buning uchun vektorga perpendikulyar tekislik o‘tkaziladi, bu tekislik juftning ta‘sir tekisligi bo‘lib hisoblanadi, vektorning uzunligi juftning moduliga teng, vektorning yo‘nalishiga qarab juftni aylanish yo‘nalishi aniqlanadi.

Bizga ma‘lumki juft momentining moduli juftni kuchlaridan birini ikkinchi kuch qo‘yilgan nuqtasiga nisbatan momentiga teng.

Demak,


$$m = m_A(\bar{F}_2) = m_B(\bar{F}_1), \quad (5.19)$$

### 5.7 Fazodagi juftlarni qo'shish

**Teorema.** Absolyut qattiq jismga qo'yilgan juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent bo'lib, uning momenti berilgan juftlar momentlarning geometrik yig`indisiga teng.

**Izbot.** Avvalo I va II tekisliklarda yotgan momentlari  $\bar{m}_1$  va  $\bar{m}_2$  bo'lgan juftlarni qo'shamiz. Ikkala tekislik kesishgan AB=d kesmani olib, berilgan juftlarni o'z tekisligida umumiy d yelkaga keltiramiz (5.6-rasm).

Juftlarning xossalariiga asosan A va B nuqtalarga momenti  $\bar{m}_1$  ga teng bo'lgan  $(\bar{F}_1, \bar{F}_1^1)$  va momenti  $\bar{m}_2$  bo'lgan  $(\bar{F}_2, \bar{F}_2^1)$  juftlarni keltirib qo'yamiz. Bunda  $m_1 = F_1 d_1$ ,  $m_2 = F_2 d$  shart bajarilsin. A va B nuqtalarda qo'yilgan kuchlarni qo'shib haqiqatdan ham  $(\bar{F}_1, \bar{F}_1^1)$  va  $(\bar{F}_2, \bar{F}_2^1)$  juftlar bitta  $(\bar{R}, \bar{R}^1)$  juftga ekvivalent ekanligiga ishonch hosil qilamiz.



5.6-rasm

Bu juftning momenti  $\bar{M}$  ni aniqlaymiz:

$$\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2; \quad \bar{R}^1 = \bar{F}_1^1 + \bar{F}_2^1, \quad (5.20)$$

Bu juftning moment vektori quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned}\bar{M} &= \bar{AB} \times \bar{R} = \bar{AB} \times (\bar{F}_1 + \bar{F}_2) = (\bar{AB} \times \bar{F}_1) + (\bar{AB} \times \bar{F}_2) \\ \bar{AB} \times \bar{F}_1 &= \bar{m}_1, \quad \bar{AB} \times \bar{F}_2 = \bar{m}_2 \\ \bar{M} &= \bar{m}_1 + \bar{m}_2, \quad (5.21)\end{aligned}$$

$\bar{M}$  vektor  $\bar{m}_1$  va  $\bar{m}_2$  vektorlar asosida qurilgan parallelogramning diogonaliga teng. Teorema ikkita juft uchun isbotlandi.

Agar qattiq jismga momentlari  $\bar{m}_1, \bar{m}_2, \dots, \bar{m}_n$  bo‘lgan n ta juft ta‘sir etayotgan bo‘lsa, (5.21) formulani qo‘llab ularni birin-ketin qo‘shib chiqilsa, bu juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent ekanligi aniqlanadi. Bu juftning momenti berilgan juftlar momentlarining geometrik yig`indisiga teng:

$$\bar{M} = \bar{m}_1 + \bar{m}_2 + \dots + \bar{m}_n = \sum \bar{m}_k, \quad (5.22)$$

$\bar{M}$  vektor juftlar momentlari vektorlari asosida qurilgan ko‘pburchakning yopuvchi tomoni bo‘lib hisoblanadi.

Agar qo‘shiluvchi vektorlar bir tekislikda yotmagan bo‘lsa, hisoblashni analitik usulda olib borish kerak. Koordinata o‘qlarini o‘tkazib yig`indi vektoring o‘qdagi proyeksiyasi haqidagi teoremaga asosan (5.22) dan quyidagini yozamiz:

$$M_x = \sum m_{kx}; \quad M_y = \sum m_{ky}; \quad M_z = \sum m_{kz}, \quad (5.23)$$

(5.23) ga asosan  $\bar{M}$  vektorni qurish mumkin, uning moduli quyidagiga teng bo‘ladi:

$$M = \sqrt{M_x^2 + M_y^2 + M_z^2}, \quad (5.24)$$

Demak, juftlar sistemasi muvozanatda bo‘lishi uchun  $\bar{M}=0$  yoki

$$\sum \bar{m}_k = 0, \quad (5.25)$$

shart bajarilishi kerak, qattiq jismga ta‘sir etuvchi juftlar momenti vektorlaridan qurilgan ko‘pburchak yopiq bo‘lishi kerak. Endi muvozanatning analitik shartini aniqlaymiz.  $M=0$  bo‘lishi uchun  $M_x = 0$ ,

$M_y = 0$ ,  $M_z = 0$  bo‘lishi lozim, u holda (5.23) ga ko‘ra quyidagini yozamiz:

$$\sum m_{kx} = 0; \quad \sum m_{ky} = 0, \quad \sum m_{kz} = 0; \quad (5.26)$$

### 5.8 Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlarni berilgan markazga keltirish

Qattiq jismga ixtiyoriy yo‘nalgan  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  fazoviy kuchlar sistemasi ta‘sir etayotgan bo‘lsin (5.7-rasm, a). Ixtiyoriy O nuqta tanlab, uni keltirish markazi deb ataymiz.


Puanso lemmasini qo‘llab berilgan kuchlarni shu O markazga keltiramiz. Bunda keltirilayotgan kuchlarga mos juftlarni qo‘shib olamiz. Natijada qattiq jismga

$$\bar{F}_1^1 = \bar{F}_1, \bar{F}_2^1 = \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n^1 = \bar{F}_n, \quad (5.27)$$

kuchlar sistemasi va momentlari

$$\bar{m}_1 = \bar{m}_0(\bar{F}_1), \bar{m}_2 = \bar{m}_0(\bar{F}_2), \dots, \bar{m}_n = \bar{m}_0(\bar{F}_n), \quad (5.28)$$

bo‘lgan  $(\bar{F}_1, \bar{F}_1^{11}), (\bar{F}_2, \bar{F}_2^{11}), \dots, (\bar{F}_n, \bar{F}_n^{11})$  qo‘shilgan juftlar sistemasi ta‘sir qila boshlaydi, aniqlik uchun rasmda  $n=3$  ta kuch ko‘rsatilgan.



5.7-rasm

O nuqtaga qo‘yilgan  $\bar{F}^1 = \bar{F}_1, \bar{F}_2^1, \dots, \bar{F}_n^1$  kuchlarni geometrik qo‘shib ularning teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}^1$  kuchni hosil qilamiz.

$$\bar{R}^1 = \sum \bar{F}_K^1 \text{ yoki } \bar{R} = \sum \bar{F}_K, \quad (5.29)$$

Kuchlarni O nuqtaga keltirishda qo‘shib olingan juftlar moment vektorlarini geometrik usulda qo‘shamiz. Natijada juftlar sistemasi bitta juftga ekvivalent bo‘ladi. Bu juftning momenti  $\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_K$ , yoki

$$\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_0(\bar{F}_K), \quad (5.30)$$

Tekislikdagi kuchlar sistemasi kabi bu yerda ham  $\bar{R}$  barcha fazoviy kuchlar sistemasining geometrik yigindisi bo‘lib, sistemaning bosh vektori,  $\bar{M}_0$  kuchlar sistemasining O nuqtaga nisbatan momentlarning geometrik yig’indisi bo‘lib, kuchlar sistemasining shu O nuqtaga nisbatan bosh momenti deyiladi.

Shunday qilib biz quyidagi teoremani isbotladik:

**Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini biror O markazga keltirish natijasida bu kuchlar sistemasi keltirish markaziga qo‘yilgan bosh vektor  $\bar{R}$  ga teng bitta kuch bilan momenti  $\bar{M}_0$  ga teng bitta juftga ekvivalent bo‘ladi (5.7-rasm, b).**

Ko‘pincha  $\bar{R}$  va  $\bar{M}_0$  vektorlar analitik usulda, ya‘ni ularning o‘qlardagi proyeksiyalari orqali aniqlanadi, ya‘ni

$$R_x = \sum F_{kx}, \quad R_y = \sum F_{ky}, \quad R_z = \sum F_{kz}, \quad (5.31)$$

$$M_x = \sum m_x(\bar{F}_K), \quad M_y = \sum m_y(\bar{F}_K), \quad M_z = \sum m_z(\bar{F}_K); \quad (5.32)$$

## 5.9 Fazoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlari

Fazoviy kuchlar sistemasi muvozanatining zaruriy va yetarli sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{R} = 0, \bar{M}_0 = 0, \quad (5.33)$$

$\bar{R}$  va  $\bar{M}_0$  vektorlar faqat va faqat  $R_x = 0, R_y = 0, R_z = 0$  va  $M_x = 0, M_y = 0, M_z = 0$  shart bajarilganda nolga teng bo‘ladi.

O‘z navbatida

$$\begin{aligned} R_x &= \sum F_{kx} = 0; & R_y &= \sum F_{ky} = 0; & R_z &= \sum F_{kz} = 0 \\ M_x &= \sum m_x(\bar{F}_k) = 0, & M_y &= \sum m_y(\bar{F}_k) = 0, & M_z &= \sum m_z(\bar{F}_k) = 0 \end{aligned}, \quad (5.34)$$

U holda quyidagini yozamiz:

$$\begin{aligned} \sum F_{kx} &= 0, & \sum F_{ky} &= 0, & \sum F_{kz} &= 0 \\ \sum m_x(F_k) &= 0, & \sum m_y(F_k) &= 0, & \sum m_z(F_k) &= 0 \end{aligned}, \quad (5.35)$$

Bu tenglamalar fazoviy kuchlar sistemasi muvozanatining analitik shartlarini ifodalaydi:


**Fazoviy kuchlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun kuchlar sistemasining x, y, z koordinata o‘qlaridagi proektsiyalarining yig‘indisi va shu o‘qlarga nisbatan momentlarining yig‘indisi alohida-alohida nolga teng bo‘lishi shart va yetarlidir.**

(5.35) tengliklar sistemasi qattiq jismga ta‘sir etuvchi istalgan fazoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlarini ifodalaydi.


**Parallel kuchlar bo‘lgan hol.** Agar jismga ta‘sir etuvchi fazoviy kuchlar parallel kuchlardan iborat bo‘lsa, koordinata sistemasini shunday tanlash lozimki, o‘qlardan biri masalan, z o‘qi kuchlarga parallel tanlanishi kerak (5.8-rasm). Bunday holda kuchlarning x va y o‘qlardagi proektsiyalari yig‘indisi va z o‘qqa nisbatan momentlari yig‘indisi nolga teng bo‘ladi. U holda (5.34) tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\sum F_{kz} = 0; \sum m_x(\bar{F}_k) = 0, \sum m_y(\bar{F}_k) = 0, \quad (5.36)$$

Ushbu holatda qolgan tenglamalar esa ayniyatga aylanadi.



5.8 –rasm.



5.9 –rasm.

Shunday qilib, fazoviy parallel kuchlar sistemasi muvozanatining analitik shartlari quyidagicha ifodalanadi:

**Fazoviy parallel kuchlar sistemasi ta’siridagi jism muvozanatda bo‘lishi uchun barcha kuchlarning parallel o‘qdagi proektsiyalarining yigindisi va qolgan ikki o‘qqa nisbatan momentlarining yigindisi alohida-alohida nolga teng bo‘lishi zarur va yetarlidir.**

### 5.10 Fazoviy kuchlar sistemasining invariantlari

Berilgan kuchlar sistemasini unga ekvivalent bo‘lgan sistema bilan almashtirishda o‘zgarmay qoladigan vektor yoki skalyar kattalik kuchlar sistemasining invarianti deyiladi.

Kuchlar sistemasining bosh momenti  $\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_0(\bar{F}_k)$  esa keltirish markaziga nisbatan invariant xossasiga ega emas, chunki keltirish markazi o‘zgarsa kuchlar sistemasining shu markazga nisbatan bosh momenti ham o‘zgaradi.

$\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlar sistemasini qandaydir  $O$  markazga keltirilganda shu  $O$  markazga qo‘yilgan kuchlar sistemasining  $\bar{R} = \bar{R}'$  bosh vektorga hamda momenti  $O$  markazga nisbatan bosh moment  $\bar{M}_0 = \sum \bar{m}_0(\bar{F}_k)$  ga teng bo‘lgan juftga ega bo‘lamiz.

Endi biz keltirish markazi qilib  $O'$  nuqtani olaylik (5.9–rasm).  $\bar{F}_k$  kuch  $A_k$  nuqtaga qo‘yilgan bo‘lsin.  $A_k$  nuqtaning  $O$  markazga nisbatan

radius – vektori  $\bar{r}_k$ , O markazga nisbatan radius – vektori  $\bar{r}'_k$  ga teng. U holda hosil bo‘lgan  $A_k OO'$  uchburchakdan

$$\bar{r}'_k = \bar{r}' + \bar{r}_k, \quad (5.37)$$

ni yozamiz. Bu yerda  $\overline{OO}' = \bar{r}'$  deb belgilanadi.  $\bar{F}_k$  kuchni O va  $O'$  markazga nisbatan momentlari (3.8) formulaga ko‘ra quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$m_0(\bar{F}_k) = \bar{r}' \times \bar{F}_k, \quad (5.38)$$

$$m_{0'}(\bar{F}_k) = \bar{r}' \times \bar{F}_k = (\bar{r}' + \bar{r}_k) \times \bar{F}_k = \bar{r}' \times \bar{F}_k + \bar{r}_k \times \bar{F}_k = \bar{r}' \times \bar{F}_k + \bar{m}_0(\bar{F}_k), \quad (39)$$

Kuchlar sistemasining yangi keltirish markazi  $O'$  ga nisbatan bosh momenti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\overline{M}_0 = \sum m_0(\bar{F}_k) = \sum (\bar{r}' + \bar{F}_k) + \sum \bar{m}_0(\bar{F}_k) = \sum (\bar{r}' \times \bar{F}_k) + \overline{M}_0, \quad (5.40)$$

$$\sum (\bar{r}' \times \bar{F}_k) = \bar{r}' \times \sum \bar{F}_k = \bar{r}' \times \bar{R}, \quad (5.41)$$

$$\overline{m}_{0'}(\bar{R}) = \bar{r}' \times \bar{R}, \quad (5.42)$$

U holda yuqoridagi (40) tenglik quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\overline{M}_{0'} = \overline{M}_0 + \overline{m}_{0'}(\bar{R}), \quad (5.43)$$

$$\overline{M}_{0'} - \overline{M}_0 = \overline{m}_{0'}(\bar{R}), \quad (5.44)$$

Keltirish markazini o‘zgartirish natijasida bosh momentining o‘zgarishi avvalgi keltirish markazi O ga qo‘yilgan kuchlar sistemasi bosh vektori  $\bar{R}$  ning yangi keltirish markazi  $O'$  ga nisbatan momentiga teng.

$\overline{m}_{0'}(\bar{R}) \perp \bar{R}$  bo‘lganligi uchun  $\overline{m}_{0'}(\bar{R})$  vektoring  $\bar{R}$  yo‘nalishdagi chiziqdagi proeksiyasi nolga teng bo‘lganligi uchun (4.38) ning shu yo‘nalishdagi proeksiyasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$M_{0'} \cos \varphi' = M_0 \cos \varphi, \quad (5.45)$$

Bu yerda:


$\varphi$  –  $\bar{R}$  va  $\overline{M}_0$  vektorlar orasida hosil bo‘lgan burchak;

$\varphi'$  –  $\bar{R}$  va  $\overline{M}_{0'}$  vektorlar orasida hosil bo‘lgan burchak;


Shunday qilib, kuchlar sistemasi bosh vektorining bosh momentga skalyar ko‘paytmasi yoki bosh momentning bosh vektordagi proeksiyasi kuchlar sistemasining skalyar invarianti deyiladi.

### **5.11 Fazoviy kuchlar sistemasini dinamik vintga keltirish**

Berilgan kuchlar sistemasini biror O markazga keltirilganda biz bosh vektor  $\bar{R}$  va bosh moment  $\bar{M}_0$  ga ega bo‘lamiz. Bosh vektor  $\bar{R}$  bilan bosh moment  $\bar{M}_0$  vektorlari orasidagi  $\varphi$  burchak istalgan qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Biz  $\varphi \neq 90^\circ$  bo‘lgan holni ko‘rib chiqamiz.



**5.10 –rasm**



**5.11 –rasm**

Bosh moment  $\bar{M}_0$  ni bosh vektor  $\bar{R}$  bo‘ylab yo‘nalgan  $\bar{M}'_0$  va unga perpendikulyar yo‘nalgan  $\bar{M}''_0$  tashkil etuvchilarga ajratamiz (5.10- rasm):

$$M'_0 = |M_0 \cos \varphi|, \quad (5.46)$$

Agar  $\varphi < 90^\circ$  bo‘lsa,  $\bar{M}'_0$  vektor  $\bar{R}$  vektoring ustiga tushadi va bir tomonga yo‘nalgan bo‘ladi. Agar  $\varphi > 90^\circ$  bo‘lsa, bu vektorlar qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan bo‘ladi.

Kuchlar sistemasi bosh momentining bosh vektor yo‘nalgan o‘qdagi proeksiyasi o‘zgarmas kattalik bo‘lib, keltirish markaziga bog’liq bo‘lmaydi. Demak,  $\overline{M}_o'$  vektor keltirish markaziga nisbatan invariantdir.

$\overline{M}_o'' \perp \overline{R}$  bo‘lgani uchun  $(\overline{R}, \overline{M}_o'')$  sistema  $O'$  markaz orqali o‘tuvchi bitta  $\overline{R}$  kuchga keltiriladi.  $OO'$  masofa esa quyidagicha topiladi:

$$OO' = \frac{\overline{M}_o''}{R} = \frac{M_0 \sin \varphi}{R}, \quad (5.47)$$

Natijada  $O'$  markazga qo‘yilgan  $\overline{R}$  kuchga va bu kuchga parallel yo‘nalgan momenti  $\overline{M}'_0 = \overline{M}'$  juftga ega bo‘lamiz.  $\overline{M}_o'$  vektor erkin vektor bo‘lgani uchun uni  $O'$  markazga keltiramiz. Natijada 5.11-rasmda ko‘rsatilgan sistemaga ega bo‘lamiz.

Bitta kuch va shu kuchga perpendikulyar tekislikda yotuvchi juftdan tashkil topgan sistemaga dinamik vint deyiladi.

Fazoda  $O'$  nuqtani shunday tanlash kerakki, berilgan kuchlar sistemasi shu nuqtada dinamik vintni tashkil etsin, ya‘ni bosh vektor  $\overline{R}$  bilan bosh moment  $\overline{M}'$  bir to‘g’ri chiziq bo‘ylab yo‘nalsin. Bu to‘g’ri chiziq berilgan kuchlar sistemasining markaziy o‘qi deyiladi.

Markaziy o‘q tenglamasini keltirib chiqaramiz. Markaziy o‘q ustida yotuvchi ixtiyoriy  $O'$  nuqta olamiz va berilgan kuchlar sistemasini O nuqtadan  $O'$  nuqtaga ko‘chiramiz (5.12-rasm).


U holda (5.44) ga ko‘ra quyidagini yozamiz:

$$\overline{M}_0 = \overline{M}' + \overline{m}_0(\overline{R}), \quad (5.48)$$

Tenglikni koordinata o‘qlariga proeksiyalaymiz:

$$\begin{aligned} M_{ox} &= M'_x + m_{ox}(R) \\ M_{oy} &= M'_y + m_{oy}(R), \\ M_{oz} &= M'_z + m_{oz}(R) \end{aligned} \quad (5.49)$$

$$\begin{aligned}
 M'_x &= M_{ox} - m_{ox}(R) \\
 M'_y &= M_{oy} - m_{oy}(R), \\
 M'_z &= M_{oz} - m_{oz}(R)
 \end{aligned} \tag{5.50}$$



5.12 –rasm.

(5.11) formulaga ko‘ra quyidagilarni yozamiz:

$$\begin{aligned}
 m_{ox}(R) &= yR_z - zR_y \\
 m_{oy}(R) &= zR_x - xR_z, \\
 m_{oz}(R) &= xR_y - yR_x
 \end{aligned} \tag{5.51}$$

Yuqoridagilarni o‘rniga qo‘yamiz:

$$\begin{aligned}
 M'_x &= M_{ox} - (yR_z - zR_y) \\
 M'_y &= M_{oy} - (zR_x - xR_z), \\
 M'_z &= M_{oz} - (xR_y - yR_x)
 \end{aligned} \tag{5.52}$$

$\overline{M}'$  va  $\overline{R}$  vektorlar bir to‘g’ri chiziq bo‘ylab yo‘nalgani uchun ularni koordinata o‘qlaridagi proeksiyalari proporsionaldir:

$$\frac{M'_x}{R_x} = \frac{M'_y}{R_y} = \frac{M'_z}{R_z}, \quad (5.53)$$

$$\frac{M_{ox} - (yR_z - zR_y)}{R_x} = \frac{M_{oy} - (zR_x - xR_z)}{R_y} = \frac{M_{oz} - (xR_y - yR_x)}{R_z}, \quad (5.54)$$

Bu markaziy o‘q tenglamasi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqaramiz:

1. Agar  $\bar{R} \neq 0, \bar{R} \cdot \bar{M}_0 \neq 0$  bo‘lsa, kuchlar sistemasi dinamik vintga keltiriladi.

2. Agar  $\bar{R} \neq 0, \bar{R} \cdot \bar{M}_0 = 0$  bo‘lsa, kuchlar sistemasi teng tasir etuvchiga keltiriladi.

3. Agar  $\bar{R} = 0, \bar{M}_0 \neq 0$  bo‘lsa, kuchlar sistemasi bitta juftga keltiriladi. Ushbu holatda bosh moment keltirish markaziga bog’liq bo‘lmaydi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Kuchning o‘qqa nisbatan momenti deb nimaga aytildi?
2. Kuchning o‘qqa nisbatan momenti qanday xossalarga ega?
3. Kuchning o‘qqa nisbatan momenti ishorasi qanday aniqlanadi?
4. Kuchning o‘qlarga nisbatan momentlari uchun Varin’on teoremasi qanday ifodalanadi?
5. Kuchning o‘qqa nisbatan momenti qanday hollarda nolga teng bo‘ladi?
6. Kuchning koordinata o‘qlariga nisbatan momentlarining analitik usulda berilishini keltirib chiqaring.
7. Kuchning o‘qqa nisbatan momenti bilan shu o‘qdagi nuqtaga nisbatan momenti orasidagi bog`lanish qanday ifodalanadi?
8. Qachon juft kuch momenti- vektor deb olinadi?
9. Fazodagi juftlarni qo‘shishda qanday teoremadan foydalanamiz?
10. Qattiq jismga ta‘sir etuvchi fazodagi juftlar sistemasi muvozanatining analitik sharti qanday ifodalanadi?
11. Fazodagi ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasini berilgan markazga keltirish natijasida qanday natijaga erishamiz?
12. Bosh vektor deb nimaga aytildi?

13. Bosh moment deb nimaga aytildi?
14. Fazodagi juftlar sistemasining bosh vektori va bosh momenti qanday formulalar bilan aniqlanadi?
15. Kuchlar sistemasining vektorli invarianti deb nimaga aytildi?
16. Fazodagi kuchlar sistemasining skalyar invarianti deb nimaga aytildi?
17. Dinamik vint nima?
18. Qachon kuchlar sistemasi dinamik vintga keltiriladi?
19. Dinamik vint o‘qi deb qanday chiziqqa aytildi?
20. Vint parametri nima uchun va qanday aniqlanadi?
21. Dinamik vint ta’siridagi jism qanday harakatda bo‘ladi?
22. Fazodagi qanday chiziqqa kuchlar sistemasining markaziy o‘qi deyiladi?

### ***5.12 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar***

***1-masala*** (5.13-rasm, a) da tasvirlangan gorizontal plitaga ta‘sir etuvchi  $\bar{P}$  va  $\bar{Q}$  kuchlarning  $x$ ,  $y$  va  $z$  o‘qlarga nisbatan momentlarini aniqlang?

***Yechilishi:*** 1. Plitaning  $\bar{P}$  og’irlik kuchi vertikal pastga yo‘nalgan.  $y$   $z$  o‘qqa parallel,  $x$  va  $y$  o‘qlarga perpendikulyar. Bu o‘qlardan  $\bar{P}$  kuchgacha bo‘lgan masofa tegishlichcha  $\frac{b}{2}$  va  $\frac{a}{2}$ . U holda quyidagini yozamiz.


$$m_x(\bar{P}) = -P \frac{b}{2}; \quad m_y(\bar{P}) = P \frac{a}{2}; \quad m_z(\bar{P}) = 0;$$

2. Q kuchning  $yz$  tekisligidagi proyeksiyasi  $Q_{yz} = Q \sin \alpha$ ,  $Q_{yz}$  ning  $x$  o‘qiga nisbatan momenti  $m_x(\bar{Q}) = bQ \sin \alpha \bar{Q}$  kuch ABD tekisligida yotganligi uchun u,  $y$  o‘qiga perpendikulyar bo‘lib u o‘qni B nuqtada kesib o‘tadi. U holda  $Q_{xz}=Q$ , Yelka  $h=a \sin \alpha$  (5.13-rasm b).

Demak.  $m_y(\bar{Q}) = -Q a \sin \alpha \bar{Q}$  kuchning  $xy$  tekislikdagi proyeksiyasi


$Q_{xy}$ ;  $Q_{xy} = Q \cos \alpha \cdot z$  o‘qqa nisbatan yelkasi  $b$  ga teng

$$m_z(\bar{Q}) = bQ \cos \alpha$$



5.13-rasm

**2-masala.** 5.14-rasmda ko‘rsatilgan fazoviy kuchlar sistemasining  $x$ ,  $y$ , va  $z$  o‘qlarga va O nuqtaga nisbatan bosh momentlarini aniqlang.  $\bar{F}_1$  kuch kubning qirrasi bo‘ylab,  $\bar{F}_2$  va  $\bar{F}_3$  kuchlar yon tomoni dioganali bo‘ylab yo‘nalgan, kub tomoni  $a = 2m$ ,  $F_1 = 10kN$ ,  $F_2 = F_3 = 12\sqrt{2}kN$



5.14-rasm

**Yechilishi:** Kuchlar sistemasining o‘qlarga nisbatan bosh momenti, kuchlar sistemasining har bir o‘qlarga nisbatan momentlarining yig’indisiga teng,  
ya‘ni

$$M_x = \sum m_x(\bar{F}_K), \quad M_y = \sum m_y(\bar{F}_K), \quad M_z = \sum m_z(\bar{F}_K)$$

yoki,

$$\begin{aligned} M_x &= m_x(\bar{F}_1) + m_x(\bar{F}_2) + m_x(\bar{F}_3); \\ M_y &= m_y(\bar{F}_1) + m_y(\bar{F}_2) + m_y(\bar{F}_3); \\ M_z &= m_z(\bar{F}_1) + m_z(\bar{F}_2) + m_z(\bar{F}_3); \end{aligned}$$

hisoblaymiz.

$$M_x = O + F_2 \sin 45^\circ \cdot a = 12\sqrt{2} \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot 2 = 24\kappa N$$

$$M_y = -F_2 \sin 45^\circ \cdot a = -24\kappa N$$

$$M_z = F_1 \cdot a + F_2 \cdot \cos 45^\circ \cdot a = 10 \cdot 2 + 24 = 44\kappa N$$

Kuchlarni barchasining ta'sir chiziqlari O nuqtada kesishadi. Kuchlar sistemasining O nuqtaga nisbatan bosh momentini aniqlaymiz.

$$M_0 = \sqrt{M_x^2 + M_y^2 + M_z^2} = \sqrt{24^2 + (-24)^2 + 44^2} = 55,5\kappa N$$

yo'naltiruvchi kosinuslari esa

$$\cos(x, {}^\wedge \bar{M}_0) = \frac{M_x}{M_0} = \frac{24}{55,5} = 0,43;$$

$$\cos(y, {}^\wedge \bar{M}_0) = \frac{M_y}{M_0} = \frac{-24}{55,5} = -0,43;$$

$$\cos(z, {}^\wedge \bar{M}_0) = \frac{M_z}{M_0} = \frac{44}{55,5} = 0,79;$$

Demak,

$$(x, {}^\wedge \bar{M}_0) = 63^\circ, (y, {}^\wedge \bar{M}_0) = 115^\circ, (z, {}^\wedge \bar{M}_0) = 38^\circ$$


burchak ostida yo'nalgan.

**3-masala.** To'g'ri burchakli OABCDEKL parallelepipedning A,K va C uchlariga qo'yilgan  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \bar{F}_3, \bar{F}_4$  va  $F_5$  kuchlar sistemasini sodda holga keltiring (5.15-rasm).

$$F_1 = F_3 = F_4 = F_5 = F,$$

$$F_2 = 2F, OC = a, OA = \frac{a}{2}.$$

**Yechilishi:** Keltirish markazi qilib koordinata boshi O nuqtani olamiz. Kuchlar sistemasining bosh vektori R ni aniqlaymiz. Buni uchun kuchlar sistemasini  $x, y, z$  o'qlarga nisbatan bosh vektorining  $R_x, R_y, R_z$ , proyeksiyalarini



aniqlab olamiz.

$$R_x = \sum F_{kx} = F_5 ; \quad R_y = \sum F_{ky} = F_2 ; \\ R_z = \sum F_{kz} = F_1 - F_3 + F_4 = F$$

Qiymatlarini o‘rniga qo‘yamiz:

$$R_x = F, \quad R_y = 2F, \quad R_z = F$$

Kuchlar sistemasi bosh vektoring modulini aniqlaymiz:

$$R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2} = \sqrt{F^2 + 4F^2 + F^2} = F\sqrt{6}$$

Kuchlar sistemasining  $x, y$  va  $z$  o‘qlarga nisbatan bosh momentlarini aniqlaymiz.

$$M_x = \sum m_x (\bar{F}_K) = -F_3 \cdot a + F_4 \cdot a, \\ M_y = \sum m_y (\bar{F}_K) = F_1 \cdot \frac{a}{2} + F_3 \cdot \frac{a}{2}, \\ M_z = \sum m_z (\bar{F}_K) = F_2 \cdot \frac{a}{2} - F_5 \cdot a$$

Hisoblaymiz:

$$M_x = -F \cdot a + F \cdot a = 0; \quad M_y = -F \frac{a}{2} + F \cdot \frac{a}{2} = 0 \quad M_z = 2F \frac{a}{2} - Fa = 0 \\ M_x = 0, \quad M_y = 0, \quad M_z = 0.$$

Demak kuchlar sistemasining O markazga nisbatan bosh momenti  $\bar{M}_0 = 0$  ekan. Kuchlar sistemasining bosh momenti nolga teng bo‘lsa, kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchiga keltiriladi.

$$\bar{R} = F\sqrt{6}$$

Teng ta‘sir etuvchining ta‘sir chizig’i


$$\frac{x}{R_x} = \frac{y}{R_y} = \frac{z}{R_z} \quad \text{dan aniqlanadi, ya‘ni}$$

$$\frac{x}{1} = \frac{y}{2} = \frac{z}{1}$$

**4-masala.** 5.16-rasmida tasvirlangan  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlardan iborat sistemani sodda holga keltiring.

$$F_1 = F_2 = F, \quad OA = \frac{a}{2}$$

**Yechilishi:** Keltirish markazi qilib O nuqtani olamiz.  $x, y, z$ , koordinata o'qlarini kub qirralari bo'ylab yo'naltiramiz. Kuchlar sistemasi bosh vektori  $\bar{R}$  ning  $x, y, z$ , koordinata o'qlaridagi  $R_x, R_y$ , va  $R_z$  proyeksiyalarini aniqlaymiz:



5.16-rasm

$$\begin{aligned} R_x &= \sum F_{kx} = F_2 \\ R_y &= \sum F_{ky} = 0 \\ R_z &= \sum F_{kz} = -F_1 \end{aligned} \tag{1}$$

Hisoblashni bajaramiz.

$$R_x = F, \quad R_y = 0, \quad R_z = -F \tag{2}$$

Shunday qilib bosh vektor

$$\bar{R} = F\bar{i} - F\bar{k} \tag{3}$$

Uning moduli.

$$R = \sqrt{R_x^2 + R_y^2 + R_z^2} = \sqrt{F^2 + 0 + (-F)^2} = F\sqrt{2}; \tag{4}$$

Kuchlar sistemasining  $x, y, z$  o'qlarga nisbatan bosh momentlarini aniqlaymiz.

$$M_x = \sum m_x(\bar{F}_K) = 0, \quad M_y = \sum m_y(\bar{F}_K) = 0, \quad M_z = \sum m_z(F_K) = -F_2 \cdot a \tag{5}$$

shartga ko'ra  $|\bar{F}_2| = F$  bo'lgani uchun

$$M_x = 0, \quad M_y = 0, \quad M_z = -F \cdot a \quad (6)$$

Shunday qilib bosh moment

$$\bar{M}_0 = -F \cdot a \cdot \bar{k} \quad (7)$$

Uning moduli

$$M_0 = \sqrt{m_x^2 + m_y^2 + m_z^2} = \sqrt{0 + 0 + (-Fa)^2} = Fa; \quad (8)$$

$\bar{F}_1$ ,  $\bar{F}_2$  kuchlar sistemasi teng ta'sir etuvchisi  $\bar{R} = \bar{F}_1 - \bar{F}_2$ . ga va momenti O markazga nisbatan bosh momentga, ya'ni  $\bar{M}_0 = -F_a \bar{k}$ . teng juftga keltirilar ekan. Bundan ko'rindik,  $\bar{R}$  va  $\bar{M}_0$  vektorlar o'zaro perpendikulyar emas. Demak, ular dinamik vintga keladi.

Endi markaziy o'q tenglamasini chiqaramiz.

$$\frac{M_x - yR_z + zR_y}{R_x} = \frac{M_y - zR_x + xR_z}{R_y} = \frac{M_z - xR_y + yR_x}{R_z}$$

O'miga qo'yib hisoblaymiz.

$$\begin{aligned} \frac{0 - y(-F) + zF}{F} &= \frac{0 - z \cdot F + x(-F)}{0} = \frac{-F \cdot a - x \cdot 0 + y \cdot F}{-F} \\ \frac{y \cdot F + z \cdot F}{F} &= \frac{-zF - xF}{0} = \frac{F \cdot \frac{a}{2} - y \cdot F}{F} = \frac{y+z}{1} = \frac{-z-x}{0} = \frac{\frac{a}{2} - y}{1} \\ y &= \frac{a}{2}; \quad z = x \end{aligned}$$

### 5.13 Mustaqil yechish uchun masalalar


**1-masala.** Rasmda tasvirlangan gorizontal plitaga ta'sir etayotgan  $\bar{P}$  va  $\bar{Q}$  kuchlarning  $x$ ,  $y$  va  $z$  o'qlarga nisbatan momentlari aniqlansin.

**(Javob:**


$$m_x(\bar{Q}) = bQ \sin \alpha,$$

$$m_y(\bar{Q}) = -Qh = -Q \sin \alpha,$$

$$m_z(\bar{Q}) = bQ \cos \alpha)$$



**2-masala.** AB sterjenni ikkita gorizontal AD va BC arqonlar qiya holda ushlab turadi. Bunda sterjen A nuqtaga vertikal devorga, B nuqtaga esa gorizontal polda tiralgan. D nuqta ham vertikal devorda yotadi. A va C nuqtalar bir vertikal chiziqda yotadi. Sterjenning og'irligi  $8N$ . A va B nuqtalardagi ishqalanishni hisobga olmaymiz. Sterjenning muvozanat holatda qolish mumkinligi tekshirilsin va arqonlarning  $T_A$  va  $T_B$  tortilish kuchlari hamda tayanch tekisliklarning reaksiyalari aniqlansin:  $\angle ABC = \angle BCE = 60^\circ$ .



**(Javob:**  $R_B = P = 8H$ ,  $R_A = \frac{1}{4}(2R_B - P) = 2H$ ,  $T_A = \frac{1}{4\sqrt{3}}(R_B - P) = 1,15N$ ,  $T_B = 2T_A = 2,3N$ )

**3-masala.** Og'irligi  $200N$  bo'lgan bir jinsli to'g'ri burchakli rom A sharli sharnir va B xalqa yordami bilan devorga biriktirilgan bo'lib, uni CE arqon gorizontal holda ushlab turadi, arqon devorning A bilan bir vertikaldagi E nuqtatasiga qoqilgan mixga va romning C nuqtasiga bog'langan;  $\angle ECA = \angle BAC = 30^\circ$ . Arqondagi tortilish kuchi va tayanchlardagi reaksiyalar aniqlansin.

**(Javob:**  $x_B = 0$ ,  $T = P = 200N$ ,  $z_B = \frac{1}{2}(P - T) = 0$ ,

$$z_A = P - z_B - \frac{1}{2}T = 100N, \quad y_A = \frac{3}{4}T = 150N,$$


$$x_A = \frac{\sqrt{3}}{4}T - x_B = 86,6N.)$$

**4-masala.** ABCD kvadrat plitaning BD tomoni bo‘ylab gorizontal P kuch ta’sir qilsa, uni ushlab turadigan oltita tayanch sterjenlardagi zo‘riqishlar aniqlansin. O‘lchamlar shaklda ko‘rsatilgan.


**(Javob:**

$$S_2 = -\sqrt{2}P, \quad S_1 = P - \frac{\sqrt{2}}{2}S_2 = 2P, \quad S_4 = -\sqrt{2}P,$$

$$S_5 = \sqrt{2}P, \quad S_6 = -2P, \quad S_3 = -P.)$$




**5-masala.** A va B podshipniklarga o‘rnatilgan gorizontal valning o‘qiga perpendikulyar holda radiusi  $r_1=20$  sm -li shkiv va radiusi  $r_2=15$  smlı baraban o‘rnatilgan. Val shkivga o‘ralgan tasma orqali aylanma harakatga keltiriladi. Barabanga o‘ralgan arqon orqali o‘zgarmas tezlik bilan  $R=540$  N og‘irlilikdagi yuk yuqoriga ko‘tarilmoqda. Valning, barabanning va shkivning xususiy og‘irligini e’tiborga olmagan holda, A va B podshipniklarning reaksiya kuchlarini, hamda yetaklovchi tasmaning tortilish kuchini aniqlang. Yetaklovchi tasmaning yetaklovchi tortilish kuchi  $T_1$ , yetaklanuvchi tortilish kuchi  $T_2$  - dan ikki marta katta deb hisoblansin. Bu yerda  $a=40$  sm,  $b=60$  sm va  $\alpha=30^\circ$ .



**(Javob:**  $T_1=810$  N,  $Y_A=-1890$  N,  $Z_A=108$  N,  $Y_B=205$  N,  $Z_B=162$  N. )

**6-masala.** Og'irligi  $R=120\text{N}$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli plita, vertikal bilan  $\alpha=60^\circ$  burchak tashkil qilgan holda gorizontal holdagi AB o'qqa mahkamlangan. A nuqtada tovonsimon podshipnikka, B nuqtada esa silindrik podshipnikka mahkamlangan. Qopqoq DE arqon bilan devorga tortib qo'yilgan va O blokning ustidan oshirib tashlangan ip orqali og'irligi  $Q=200\text{N}$  yuk bilan tortib qo'yilgan. (KO chiziq AB ga parallel).  $BD=BE$ ,  $AK=a=0,4\text{m}$   $AB=b=1\text{m}$ . A va B podshipniklarning reaksiya kuchlari va DE arqonning tortilish kuchi aniqlansin.



(**Javob:**  $T \approx 104 \text{ N}$ ,  $X_A = 200 \text{ N}$ ,  $Y_A \approx 69 \text{ N}$ ,  $Z_A = 20 \text{ N}$ ,  $Y_B = -17 \text{ N}$ ,  $Z_B = 10 \text{ N}$ )


**7-masala.** Yuqoridagi 82-masalada qopqoqqa qo'shimcha ravishda momenti  $M=120\text{N}\cdot\text{m}$  bo'lgan va qopqoqning tekisligida ta'sir etuvchi juft kuch qo'yilgan bo'lsin; juftning yo'nalishi (qopqoqning ustidan qaralganda) soat strelkasiga teskari yo'nalishda bo'lgan holda, masala yechilsin.

(**Javob :**  $T \approx 104 \text{ N}$ ,  $X_A = 200 \text{ N}$ ,  $Y_A \approx 173 \text{ N}$ ,  $Z_A = -40 \text{ N}$ ,  $Y_B = -121 \text{ N}$ ,  $Z_B = 70 \text{ N}$ .)

## VI BOB. QATTIQ JISMNING OG'IRLIK MARKAZI

### 6.1 Parallel kuchlar markazi

Har qanday qattiq jismni juda kichik bo'lakchalar to'plamidan iborat deb qarash mumkin (6.1-rasm). Yer sirtiga yaqin bo'lgan bo'lakchalarni Yer o'ziga tortishi tufayli, har bir bo'lakchaga vertikal pastga yo'nalgan kuchlar ta'sir etadi. Bu kuchlarga og'irlik kuchlari deyiladi. Jismning o'lchami Yerning o'lchamidan juda kichik bo'lgani uchun bo'lakchalarning og'irlik kuchlarini parallel kuchlardan iborat deb qarash mumkin.



**6.1-rasm**

Bo'lakchalarning og'irlik kuchlarini tegishlicha  $\bar{P}_1, \bar{P}_2, \dots, \bar{P}_n$  desak, ularning teng ta'sir etuvchisining moduli quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P = \sum P_k, \quad (6.1)$$

Qattiq jismni istalgan burchakka burganda bo'lakchalarga ta'sir etuvchi kuchlarning faqatgina yo'nalishi o'zgaradi, qo'yilish nuqtasi esa o'zgarmaydi. Bo'lakchalar og'irlik kuchlarining teng ta'sir etuvchisi  $\bar{P}$

kuchning qo‘yilish nuqtasi C qattiq jismning og’irlilik markazi,  $\bar{P}$  kuchga esa og’irlilik kuchi deyiladi.

Jismlarning og’irliklari markazlari holatini aniqlashda parallel kuchlar markazi haqidagi tushunchadan foydalilanadi. Avvalo tekislikdagi ikkita parallel kuchlar markazini aniqlaymiz. Qattiq jismning  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalariga o‘zaro parallel  $\bar{F}_1$ ,  $\bar{F}_2$  kuchlar qo‘yilgan bo‘lsin (6.2-rasm). Bu kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2$  ga teng va qo‘shiluvchi kuchlarga parallel, ta‘sir chizig’i esa  $A_1$ ,  $A_2$  kesmada yotuvchi C nuqtadan o‘tadi (6.2-rasm, a).

C nuqtaning o‘rnini Varin’on teoremasidan foydalanib aniqlaymiz:

$$m_C(\bar{R}) = m_C(\bar{F}_1) + m_C(\bar{F}_2), \quad (6.2)$$

$$m_C(\bar{R}) = 0, \quad m_C(\bar{F}_1) = F_1 h_1, \quad m_C(\bar{F}_2) = F_2 h_2, \quad (6.3)$$

(6.3) da aniqlangan ifodalarni (6.2)ga olib borib qo‘yamiz:

$$0 = F_1 h_1 - F_2 h_2, \quad (6.4)$$


$$0 = F_1 A_1 C \cos \alpha - F_2 A_2 C \cos \alpha, \quad (6.5)$$

bundan  $F_1 \cdot A_1 C = F_2 \cdot A_2 C$ , (6.6)


(6.6) ifodadan quyidagi nisbat kelib chiqadi:

$$\frac{F_1}{F_2} = \frac{A_2 C}{A_1 C}, \quad (6.7)$$

a)



b)



**6.2-rasm**

Agar bizga  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlarning modullari ma'lum bo'lsa, (6.7) nisbatdan foydalananib  $\bar{R}$  kuchning haqiqiy o'rnnini aniqlaymiz. Aniqlangan C nuqtaning jismga ta'sir etuvchi istalgan parallel kuchlar sistemasi uchun ham o'zgarmasligini isbotlaymiz.

Buning uchun  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlarni  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalar atrofida biror  $\alpha$  burchakka bursak,  $\bar{F}'_1$  va  $\bar{F}'_2$  parallel kuchlarga ega bo'lamiz (6.2-rasm, a). Bu kuchlar ham  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalarga qo'yilgan bo'lib, momentlari  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlar momentlariga teng bo'ladi.  $\bar{F}'_1$  va  $\bar{F}'_2$  kuchlar uchun ham (6.7) tenglik o'rinli, ularning teng ta'sir etuvchisi  $\bar{R}$ 'ning ta'sir chizig'i ham C nuqtadan o'tadi. Bu C nuqtaga  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  parallel kuchlar markazi deyiladi.

Endi qattiq jismning  $A_1, A_2, \dots, A_n$  nuqtalariga qo'yilgan bir tomonga yo'nalgan o'zaro parallel  $\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlar sistemasini ko'rib chiqamiz. Bu kuchlar sistemasining teng ta'sir etuvchisi  $\bar{R}$  bo'lib, uning moduli quyidagi formula yordamida topiladi:

$$R = \sum F_k , \quad (6.8)$$

$\bar{F}_1, \bar{F}_2, \dots, \bar{F}_n$  kuchlarning modullaridan foydalanib (6.7) nisbatdan yo‘qoridagi ketma-ketlikda  $\bar{R}$  kuchning qo‘yilish o‘rnini aniqlaymiz.

Agar kuchlar sistemasining har birini qo‘yilish nuqtasi atrofida bir tomonga va bir xil burchakka bursak, qattiq jismga ta‘sir etuvchi boshqa bir parallel kuchlar sistemasiga ega bo‘lamiz (6.2-rasm, b).

Bu kuchlar sistemasining teng ta‘sir etuvchisining moduli avvalgi kuchlar sistemasining moduliga teng bo‘ladi. Hosil bo‘lgan barcha kuchlar sistemasi teng ta‘sir etuvchisining ta‘sir chizig’i faqat C nuqtadan o‘tishini ko‘rsatamiz. Avval  $\bar{F}_1$  va  $\bar{F}_2$  kuchlarni o‘zaro (6.8) formula yordamida qo‘shamiz. Ularning teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}_1$  ning ta‘sir chizig’i  $C_1$  nuqtadan o‘tishini hamda (6.7) tenglikni qanoatlantirishini aniqlaymiz. Endi  $\bar{R}_1$  va  $\bar{F}_3$  kuchlarni qo‘shamiz:  $\bar{R}_1 = \bar{F}_1 + \bar{F}_2$  ga teng edi. Demak  $\bar{F}_1, \bar{F}_2$  va  $\bar{F}_3$  kuchlarning teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}_2 = \bar{F}_1 + \bar{F}_2 + \bar{F}_3$  ning ta‘sir chizig’i  $C_1A_3$  kesmada yotuvchi  $C_2$  nuqtadan o‘tishini aniqlaymiz. Shu usulda qolgan kuchlarni ham qo‘shamiz va ta‘sir chizig’i doimo C nuqtadan o‘tuvchi kuchlar sistemasining teng ta‘sir etuvchisi  $\bar{R}$  ga ega bo‘lamiz. C nuqtaga parallel kuchlar markazi deyiladi.

Endi parallel kuchlar markazi C nuqtaning koordinatalarini aniqlaymiz. Qattiq jism orqali Oxyz koordinatalar sistemasini o‘tkazamiz. U holda kuchlar qo‘yilgan nuqtalarning koordinatalarini  $A_1(x_1, y_1, z_1), A_2(x_2, y_2, z_2), \dots, A_n(x_n, y_n, z_n)$  ko‘rinishda yozamiz. Kuchlar sistemasini qo‘yilish nuqtalari atrofida z o‘qiga parallel joylashadigan qilib burib  $\bar{F}'_1, \bar{F}'_2, \dots, \bar{F}'_n$  kuchlar sistemasini hosil qilamiz. Bunda  $\bar{F}_1 = \bar{F}'_1, \bar{F}_2 = \bar{F}'_2, \bar{F}_3 = \bar{F}'_3, \dots, \bar{F}_n = \bar{F}'_n$  shart bajariladi. Varin’on teoremasini qo‘llab kuchlar sistemasini y o‘qiga nisbatan momentlarini aniqlaymiz:

$$m_y(\bar{R}') = \sum m_y(\bar{F}'_k), \quad (6.9)$$

6.2-rasmdan  $m_y(\bar{R}') = R \cdot x_c$  ekanligini topamiz, bunda  $\bar{R}' = \bar{R}$  yoki  $m_y(\bar{F}_1') = F_1' \cdot x_1$ ,  $m_y(\bar{F}_2') = F_2' \cdot x_2$  va hakozo. Bularni (6.9) tenglikka keltirib qo‘ysak

$$R \cdot x_c = F_1 x_1 + F_2 x_2 + \dots + F_n x_n = \sum F_k \cdot x_k, \quad (6.10)$$

$$x_c = \frac{\sum F_k \cdot x_k}{R}, \quad (6.11)$$

Shu usulda  $y_c$  va  $z_c$  larni aniqlab olamiz. Buning uchun kuchlar sistemasining  $Ox$  o‘qiga nisbatan momentlarini olamiz.  $z_c$  ni aniqlash uchun barcha kuchlarni  $Oy$  o‘qiga parallel yo‘naladigan qilib  $Ox$  o‘qiga nisbatan momentlarini topamiz:

$$-Rz_c = -F_1 z_1 + (-F_2 z_2) + \dots + (-F_n z_n), \quad (6.12)$$

(6.12) tenglikdan  $z_c$  ni aniqlaymiz.

Natijada quyidagicha parallel kuchlar markazi koordinatalari uchun formulalarni hosil qilamiz:

$$x_c = \frac{1}{R} \sum F_k \cdot x_k, \quad y_c = \frac{1}{R} \sum F_k \cdot y_k, \quad z_c = \frac{1}{R} \sum F_k z_k, \quad (6.13)$$

Qattiq jismning istalgan holatida uni tashkil etuvch bo‘lakchalarning og’irlilik kuchlari teng ta‘sir etuvchisining ta‘sir chizig’i o‘tadigan nuqta **qattiq jismning og’irlilik markazi** deyiladi.

Qattiq jism og’irlilik markazi koordinatalari (6.13) ifodaga uni tashkil etuvch bo‘lakchalarning og’irlilik kuchlarini olib kelib qo‘yish orqali aniqlanadi, ya‘ni:

$$x_c = \frac{1}{P} \sum P_k \cdot x_k, \quad y_c = \frac{1}{P} \sum P_k \cdot y_k, \quad z_c = \frac{1}{P} \sum P_k \cdot z_k, \quad (6.14)$$

bu yerda:  $x_k$ ,  $y_k$ ,  $z_k$ , - qattiq jism bo‘lakchasi og’irlilik kuchi qo‘yilish nuqtasining koordinatalari.

## 6.2 Bir jinsli jismlar uchun og'irlik markazining koordinatalarini aniqlash

Bir xil moddadan tashkil topgan jismlarga bir jinsli jismlar deyiladi. Bizga og'irligi  $P$  ga, hajmi  $V$  ga teng bo'lgan jism berilgan bo'lsin. Agar birlik hajmga to'g'ri kelgan solishtirma og'irlikni  $\gamma$  bilan belgilasak, u holda bir jinsli jismning istalgan  $V_k$  hajmdagi bo'lakchasining og'irligi  $P_k$  shu bo'lakchalarining hajmi  $V_k$  ga proporsional, ya'ni  $P_k = \gamma V_k$ ,

U holda  $V$  hajmga ega bo'lgan jismning og'irligi  $P$  ni jism hajmi  $V$  ga proporsional, ya'ni  $P = \gamma V$  deb qabul qilish mumkin.  $P$  va  $P_k$  larning qiymatlarini (14) ifodaga qo'yib  $V$  hajmga ega bo'lgan qattiq jism og'irlik markazi koordinatalarini aniqlash formulalarini hosil qilamiz:

$$x_c = \frac{1}{V} \sum v_k \cdot x_k, \quad y_c = \frac{1}{V} \sum v_k \cdot y_k, \quad z_c = \frac{1}{V} \sum v_k \cdot z_k, \quad (6.15)$$

Agar jism bir jinsli yupqa, yassi plastinkadan iborat bo'lsa, uning og'irlik markazi koordinatalari quyidagi formulalardan topiladi:

$$x_c = \frac{1}{S} \sum s_k \cdot x_k, \quad y_c = \frac{1}{S} \sum s_k \cdot y_k, \quad (6.16)$$

bu yerda  $S$ -plastinka yuzasi;  $s_k$ -bitta bo'lakchaning yuzasi.

Xuddi shu usul yordamida chiziq (ip, arqon, tros)ning og'irlik markazi koordinatalari quyidagi formulalardan topiladi:

$$x_c = \frac{1}{L} \sum l_k \cdot x_k, \quad (6.17)$$

bu yerda:  $L$ -chiziqning uzunligi,  $l_k$  –bo'lakchaning uzunligi.

Endi biz bir jinsli jism og'irlik markazi koordinatalarini aniqlash usullarini ko'rib chiqamiz.

### 1. Simmetriya usuli.


Agar bir jinsli jism simmetriya o'qi yoki simmetriya tekisligiga ega bo'lsa, uning og'irlik markazi simmetriya o'qida yoki simmetriya tekisligida yotadi.

6.3-rasmda simmetriya tekisligiga ega bo'lgan jism tasvirlangan.  $x$  va  $y$  o'qlarini simmetriya tekislikligida joylashtiramiz,  $z$  o'qni esa tekislikka perpendikulyar qilib yo'naltiramiz. Jismdan  $xOy$  tekisligiga simmetrik

joylashgan ikkita  $M$ ,  $M_1$  nuqtalarini olamiz. Nuqtalar yonida hajmi  $\Delta V_k$  hajmchalarni ajratamiz.

$M$ ,  $M_1$  nuqtalar  $xOy$  tekisligiga o'tkazilgan perpendikulyarlardan va bu tekislikdan bir xil masofa uzoqlikda yotadi, ya'ni  $MN=M_1N$  (6.3-rasm). Demak, bu nuqtalarning  $z$  va  $z_1$  koordinatalari o'zaro teng va teskari ishoraga ega:

$$M(x; y; z), M_1(x_1; y_1; -z)$$




6.3-rasm


Yuqoridagilarga ko'ra  $z_k \Delta V_k$  ko'paytmalarni qo'shib chiqsak  $\sum z_k \Delta V_k = 0$  ekanligi kelib chiqadi. Jism og'irlik markazi  $z_c$  (13) ga ko'ra aniqlanadi:

$$z_c = \frac{\sum z_k \cdot \Delta V_k}{V} = 0, \quad (6.18)$$

a)



b)



6.4-rasm


6.4-a) rasmda keltirilgan shaklning og'irlik markazi y o'qining, 6.4-b) rasmda keltirilgan shaklning og'irlik markazi esa x o'qining ustida yotadi. Simmetriya o'qiga ega bo'lgan istalgan bir jinsli jismning og'irlik markazi simmetriya o'qida yotadi.

Shunday qilib, simmetriya tekisligiga yoki o'qiga ega bo'lgan bir jinsli jismlarning og'irlik markazlari simmetriya tekisligida yoki o'qida yotadi.


## **2. Bo'laklarga ajratish usuli.**

Ba'zida murakkab jismni shunday oddiy bo'laklarga bo'lish mumkinki, bu bo'laklarning og'irlik markazlari oldindan ma'lum bo'ladi. Bunday jismlarning og'irlik markazi bo'laklarga ajratish usuli bilan (16) formulalar yordamida aniqlanadi.

a)



b)



## **6.5-rasm**

Ushbu usul yordamida 6.5-rasmda keltirilgan bir jinsli plastinkaning og'irlik markazini aniqlash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Berilgan o'lchamlar asosida plastinka ma'lum masshtabda chizib olinadi.
2. Murakkab shakldagi plastinka standart yuzalarga ajratib olinadi. Standart yuzalar deganda to'g'ri burchakli uchburchak, to'g'ri

to‘rtburchak, doira kabi aniq hisoblash formulasiga ega bo‘lgan yuzalarni tushunamiz. Ushbu holatda murakkab shakl uchta to‘g‘ri to‘rtburchakka bo‘linadi (6.5-rasm, b).

3. Ajratib olingan har bir to‘g‘ri to‘rtburchaklarning alohida yuzalari va umumiy plastinkaning yuzasi aniqlab olinadi.
4. CHizmadan xOy koordinatalar sistemasini o‘tkazamiz.
5. xOy koordinatalar sistemasiga nisbatan ajratib olingan har bir to‘g‘ri to‘rtburchakning og‘irlik markazlari koordinatalarini aniqlaymiz.
6. Plastinkaning og‘irlik markazi koordinatalarini aniqlaymiz.
7. CHizmada plastinkaning og‘irlik markazini ko‘rsatamiz.

### **3. Manfiy yuza usuli.**

Bu usul bo‘laklarga ajratish usulining xususiy holidir. Bu usul bir qismi qirqib olib tashlangan jismlarga nisbatan qo‘llaniladi. Bunday jismlarning og‘irlik markazini aniqlash yuqoridagi (1-7) tartibda olib boriladi.

### **4. Integrallash usuli.**

Agar jismni og‘irlik markazining holati aniq bo‘lgan bo‘lakchalarga ajratish mumkin bo‘lmasa, integrallash usulidan foydalaniladi.

Ushbu holatda jism juda kichik  $\Delta V$  hajmga ega bo‘lgan bo‘lakchalarga ajratib olinadi. Bo‘lakchalar uchun (6.15) formulani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$x_c = \frac{1}{V} \sum x_{\kappa} \cdot \Delta v_{\kappa}; \quad y_c = \frac{1}{V} \sum y_{\kappa} \cdot \Delta v_{\kappa}; \quad z_c = \frac{1}{V} \sum z_{\kappa} \cdot \Delta v_{\kappa}, \quad (6.19)$$

Jismning bo‘laklar sonini orttirib borib (15) dagi yig’indilarda  $n \rightarrow \infty$ ,  $\Delta V_r \rightarrow 0$  bo‘lganda limitga o‘tsak,  $V$  hajmga ega bo‘lgan jism og‘irlik markazi uchun quyidagi integralli ifodalarni hosil qilamiz:

$$x_c = \frac{1}{V} \int_V x dv, \quad y_c = \frac{1}{V} \int_V y dv, \quad z_c = \frac{1}{V} \int_V z dv, \quad (6.20)$$

Xuddi shuningdek, integrallash usulidan foydalanib S yuzaga ega bo‘lgan plastinkani va L uzunlikdagi chiziqning og‘irlik markazlari quyidagicha aniqlanadi:

$$x_C = \frac{1}{s} \int_{(S)} x ds, \quad y_C = \frac{1}{s} \int_{(S)} y ds , \quad (6.21)$$


$$x_C = \frac{1}{L} \int_{(L)} x dl , \quad (6.22)$$

**5. Tajriba usuli.** Bir jinsli bo‘lmagan murakkab shaklli jismlarning og’irlik markazini aniqlashda **ipga osish** va **tarozida tortish** tajriba usullaridan foydalilaniladi.

### 5.1. Ipga osish usuli.

Tajriba usullaridan biri bo‘lgan ipga osish usuli quyidagi tartibda bajariladi:

1. Berilgan jismdan ixtiyoriy to‘rtta A, B, C, D nuqtalarni tanlab olamiz.
2. Jismni birinchi holatda A nuqtasidan ipga osamiz (6.6-rasm, a). Jism ipning taranglik va og’irlik kuchlari ta’sirida muvozanatda bo‘ladi. Ipning yo‘nalishini davom ettirib jismda og’irlik kuchining ta’sir chizig’ini A<sub>1</sub>A<sub>2</sub> bilan belgilaymiz.



6.6– rasm

3. Endi jismni ikkinchi B nuqtadan ipga osamiz. Yana jism ipning taranglik va og’irlik kuchlari ta’sirida muvozanatda bo‘ladi. Ushbu holat

uchun ham ipning yo‘nalishini davom ettirib jismda og’irlilik kuchining ta‘sir chizig’ini  $B_1B_2$  bilan belgilaymiz (6.6-rasm, b).

4. Xuddi shu tarzda jismning qolgan nuqtalaridan osib og’irlilik kuchining ta‘sir chiziqlari chizib olinadi (6.6-rasmida faqat ikkita nuqta uchun ko‘rsatilgan).
5. Ta‘sir chiziqlarning kesishgan nuqtasi C berilgan jismning og’irlilik markazi bo‘lib hisoblanadi (6.6-rasm, c).

Ushbu usulda jismning osilish nuqtalari sonini kamida 4 ta olish va ta‘sir chiziqlarining aniq o‘tkazilishiga erishish natijaning yanada aniq bo‘lishiga zamin yaratadi.


## 5.2. Tarozida tortish usuli.

Bir jinsli bo‘limgan murakkab shaklli jismlarning og’irlilik markazlari tarozida tortish usuli bilan aniqlanadi. Ushbu usuldan mashinasozlik sanoatida har xil mashina-mexanizmlarning og’irlilik markazlarini aniqlashda keng foydalaniladi.


Ushbu usul yordamida 6.7-rasmida keltirilgan bir jinsli bo‘limgan murakkab shaklli samolyotning og’irlilik markazini aniqlashni ko‘rib chiqamiz. U quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Samolyotning aniq o‘lchamlari asosida hisobiy sxemasi chizib olinadi.
2. Agar  $AB=l$  ga teng bo‘lsa (6.7-pacm, a), samolyotning og’irlilik markazi uning ko‘ndalang kesim yuzasining simmetriya o‘qida yotadi.
3. Samolyotning A g’ildiragidan  $a$  masofada joylashgan C nuqta samolyotning og’irlilik markazi bo‘ladi (6.7-pacm, b).
4. Samolyotning B g’ildiragini taroziga qo‘yib, g’ildirakning taroziga beradigan bosim kuchni aniqlaymiz. Bu bosim kuchi tarozi tomonidan samolyotga beradigan  $\bar{N}_1$  reaksiya kuchiga teng (6.7–rasm, b).

a)



b)



## 6.7-пачм

5. Xuddi shu usulda  $\bar{N}_2$  reaksiya kuchini ham aniqlaymiz.
6. C nuqtani moment markazi deb qabul qilib, Varin'on teoremasiga ko'ra kuchlarning shu nuqtaga nisbatan momentlarini aniqlab nolga tenglashtiramiz, ya'ni

$$-N_1(l-a) + N_2a = 0, \quad (6.23)$$

$$a = \frac{lN_1}{N_1 + N_2}, \quad (6.24)$$


bu yerda:  $N_1 + N_2 = P$  - samolyotning umumiy og'irligi.

7. a masofadan foydalanib samolyotning og'irlik markazi C nuqta aniqlanadi.


### 6.3. Ayrim bir jinsli jismlarning og'irlik markazlari

Statika masalalarini echishda bizga geometriya kursidan ma'lum bo'lgan tekis shakllar va jismlarning og'irlik markazlarini bilish kerak bo'ladi.

1. *Aylana yoyining og'irlik markazi*. Markaziy burchagi  $AOB=2\alpha$ , radiusi R bo'lgan AB yoyning og'irlik markazini aniqlaymiz.



6.8 – rasm



6.9 – rasm

Koordinata boshi qilib O nuqtani olib  $x$  va  $y$  o'qlarini o'tkazamiz (6.8-rasm). Aylana yoyi x o'qiga simmetrik bo'lgani uchun uning og'irlik

markazi  $x$  o‘qi ustida yotadi ( $y_c=0$ ). Og’irlik markazining  $x_c$  koordinatasini (22) formuladan foydalanib aniqlaymiz.

Buning uchun AB yoydan uzunligi  $dl=Rd\varphi$  bo‘lgan MM' bo‘lagini olamiz. MM' bo‘lakchaning  $x$  koordinatasi  $x=R\cos\varphi$  ekanligini inobatga olib  $x$  va  $dl$  ning qiymatini (22) ga qo‘yib quyidagini hosil qilamiz:

$$x_c = \frac{1}{L} \int_A^B x dl = \frac{R^2}{L} \int_{\alpha}^{\alpha} \cos \varphi d\varphi = 2 \frac{R^2}{L} \sin \alpha, \quad (6.25)$$

bu yerda: L –uzunligi  $R \cdot 2\alpha$  ga teng bo‘lgan  $\overset{\curvearrowleft}{AB}$  yoyning uzunligi.

Yuqoridagilarga ko‘ra

$$x_c = \frac{R \sin \alpha}{\alpha}, \quad (6.26)$$

Shunday qilib, aylana yoyining og’irlik markazi O nuqtadan  $x_c$  masofada simmetriya o‘qidagi C nuqtada yotar ekan.


**2. Uchburchak yuzasining og’irlik markazi.** ABD uchburchakni AD tomonga parallel bo‘lgan kichik bo‘laklarga ajratamiz (5.9-rasm). Bu bo‘laklarning og’irlik markazi BE medianada yotadi. Qolgan ikkita mediana uchun ham olingan natija xuddi shunday bo‘ladi. Demak, uchburchak yuzasining og’irlik markazi uning medianalari kesishgan nuqtada yotadi, ya‘ni

$$CE = \frac{1}{3} BE, \quad (6.27)$$

## 2. Doira sektori yuzasi og’irlik markazi.

Radiusi R markaziy burchagi  $2\alpha$  ga teng doira sektori yuzasining og’irlik markazini aniqlash uchun x o‘qini sektor yuzining simmetriya o‘qi bo‘ylab yo‘naltiramiz (6.10-rasm).

OAB sektor yuzasini fikran bir qancha elementar sektorlarga bo‘lib chiqamiz. Har bir elementar sektorning balandligi R ga teng uchburchak deb qarasak, uning og’irlik markazi  $\frac{2}{3}R$  masofada yotadi. **6.10-rasm**



Demak, doira sektorining og'irlilik markazi O markazdan  $\frac{2}{3}R$  ga teng aylana yoyining og'irlilik markazi bilan ustma – ust tushadi. (22) ga asosan

$$x_C = \frac{2}{3} \frac{R \sin \alpha}{\alpha}, \quad (6.28)$$


Yarim doira uchun  $\alpha = \frac{\pi}{2}$  ekanligini nazarda tutsak,

$$x_C = \frac{4}{3\pi} R = 0,424R, \quad (6.29)$$


**4. Piramida hajmi (yoki konus)ning og'irlilik markazi.** Piramidaning og'irlilik markazi  $C_1E$  chiziq ustida yotadi (6.11-rasm). E-piramida uchi,  $C_1$ -piramida asosining og'irlilik markazi hisoblanadi:

$$CC_1 = \frac{1}{4} EC_1, \quad (6.30)$$

Bu formula barcha ko'pburchakli piramidalar va konus uchun o'rinni.



6.11-rasm



6.12-rasm

**5. Yarim shar hajmining og'irlilik markazi.**

Yarim sharnirning og'irlilik markazi C nuqta Ox (simmetriya o'qi) o'qi ustida yotadi (6.12-rasm):

$$x_C = OC = \frac{3}{8}R, \quad (6.31)$$

bu yerda: R – yarim sharning radiusi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**


1. Ikkita parallel kuchning markazi qanday usulda topiladi?
2. Parallel kuchlar markazining koordinatalari qanday formulalarda ifodalanadi?
3. Qattiq jismning og'irlik markazi koordinatalari qanday ifodalanadi?
4. Bir jinsli jismlar (hajm, yuza, chiziq) larning og'irlik markazi koordinatalarini aniqlash formulalari qanday ifodalanadi?
5. Og'irlik markazini aniqlashning simmetriya usuli?
6. Og'irlik markazini aniqlashning bo'laklarga bo'lish usuli?
7. Og'irlik markazini aniqlashning manfiy yuza (hajm) usuli?
8. Og'irlik markazini aniqlashning tajriba usuli?
9. Og'irlik markazini aniqlashning integrallash usuli?
10. Aylana yoyining og'irlik markazi qanday topiladi?
11. Uchburchak yuzasi og'irlik markazi qanday topiladi?
12. Doiraviy sektor yuzasi og'irlik markazi qanday topiladi?
13. Yarim shar hajmining og'irlik markazi qanday topiladi?

### **6.4 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar**

**1-masala.** 6.13-rasmda tasvirlangan bir jinsli plastinkaning og'irlik markazi koordinatalarini aniqlang. O'lchamlar santimetrlarda berilgan.

### **Yechilishi:**

1. Berilgan plastinkani ma'lum masshtabda chizib olamiz.
2. Chizmaga x, y koordinata o'qlarini o'tkazamiz.
3. Plastinkani 3 ta to'g'ri to'rt burchakdan iborat yuzalarga ajratamiz.



### **6.13-rasm**

4. Plastinkaning har bir bo'lakchalarning yuzalarini va uning to'liq yuzasini aniqlaymiz:

$$S = S_1 + S_2 + S_3 = 4 + 20 + 12 = 36 \text{ sm}^2$$

5. Har bir bo'lakchaning koordinatalari va yuzasini aniqlaymiz.

Nº	1	2	3
$x_k$	-1	1	5
$y_k$	1	5	9
$s_k$	4	20	12

6. Plastinka og'irlik markazi koordinatalarini aniqlaymiz:

$$x_C = \frac{x_1 s_1 + x_2 s_2 + x_3 s_3}{s} = \frac{(-1) \cdot 4 + 1 \cdot 20 + 5 \cdot 12}{36} = \frac{-4 + 20 + 60}{36} \approx 2,1 \text{ sm}$$


$$y_C = \frac{y_1 s_1 + y_2 s_2 + y_3 s_3}{s} = \frac{1 \cdot 4 + 5 \cdot 20 + 4 \cdot 12}{36} = \frac{4 + 100 + 108}{36} \approx 5,9 \text{ sm}$$

Plastinkaning og'irlik markazi rasmda ko'rsatilgan bo'lib, u plastinkadan tashqarida ekan.

**2-masala.** Radiusi  $r_2 = \frac{r_1}{2}$  doiraviy kesimga ega bo‘lgan bir jinsli radiusi  $r_1$  bo‘lgan diskning og’irlilik markazini aniqlang (6.14-rasm).

**Yechilishi:**

1. Masalani yechish uchun x, y koordinata o‘qlarini o’tkazamiz.
2. Diskning og’irlilik markazi  $C_1, C_2$  chiziqda yotadi, chunki bu chiziq simmetriya o‘qidir.
3.  $x_c$  koordinatani aniqlash uchun diskni to‘ldiramiz.



### 6.14-rasm

4. To‘liq disk yuzasidan qirqib tashlangan doira yuzasini ayirib tashlaymiz. Bunda qirqib tashlangan doira yuzasi manfiy ishorada olinadi:

$$s_1 = \pi r_1^2; \quad s_2 = \pi \left(\frac{r_1}{2}\right)^2 = \frac{\pi r_1^2}{4}$$

$$x_1 = 0; \quad x_2 = \frac{r_1}{2}; \quad y_c = 0$$


$$x_c = \frac{x_1 s_1 - x_2 s_2}{s_1 - s_2} = \frac{0 - \frac{r_1}{2} \cdot \frac{\pi r_1^2}{4}}{\pi r_1^2 - \frac{\pi r_1^2}{4}} = -\frac{r_1}{6}$$

Aniqlangan C og’irlilik markazi  $C_1$  og’irlilik markazidan chap tomonda yotadi.

**3-masala.** Agar  $AB=l$  berilgan bo‘lsa samolyot og’irlilik markazining bitta koordinatasi  $a$  ni tortish usuli bilan aniqlashni ko‘rsating (6.15-rasm).

## ***Yechilishi:***

1. Samolyotning B g'ildiragini taroziga qo'yib, g'ildirakning taroziga beradigan bosim kuchni aniqlaymiz. Bu bosim kuchi tarozi tomonidan samolyotga beradigan  $\bar{N}_1$  reaksiya kuchiga teng.



## **6.15-rasm**

2. Xuddi shu usulda  $\bar{N}_2$  reaksiya kuchini ham aniqlaymiz.
3. C nuqtani moment markazi qilib Varin'on teoremasiga ko'ra kuchlarining shu nuqtaga nisbatan momentlarini aniqlab nolga tenglashtiramiz, ya'ni

$$-N_1(l-a) + N_2a = 0$$


bundan

$$\alpha = \frac{lN_1}{N_1 + N_2}$$


bu yerda  $N_1 + N_2 = P$  - samolyotning og'irligi.

**4-masala.** Rasmida tasvirlangan figura og'irlilik markazining koordinatalari topilsin (6.16a-rasm).

a)



b)

**6.16-rasm*****Yechilishi:***

- Agar kvadrat to‘liq shaklda bo‘lganda, uning og’irlik markazini osongina topish mumkin edi, lekin bu masalada kvadrat to‘liq shaklda emas. Shuning uchun og’irlik markazini aniqlash uchun kvadratni to‘liq shaklda deb tasavvur qilamiz.
- Doiraviy sektor og’irlik markazi koordinatasi topamiz.

Bizga ma’lumki diogonal uzunligi  $OA = a\sqrt{2}$  ga teng va doiraviy sektor uchun  $x_0 = \frac{2\sqrt{2}}{3\pi}a$ .

- Aniqlangan doiraviy sektor og’irlik markazi koordinatasini kvadratning og’irlik markazi koordinatasidan ayirib hisoblaymiz (6.16b-rasm):

$$\text{Shunday ekan } x_1 = OA - x_0 = a\sqrt{2}\left(1 - \frac{2}{3\pi}\right),$$

$$x_2 = OA/2 = a\sqrt{2}/2,$$

Endi alohida yuzalarni aniqlashga o’tamiz.

$$S_1 = \pi a^2 / 16,$$


$$S_2 = a^2$$

Topilgan qiymatlarni inobatga olib, figuraning og'irlik markazi koordinatalarini aniqlaymiz


$$x_C = \frac{S_2 \cdot x_2 - S_1 \cdot x_1}{S_2 - S_1} = \frac{a^3 \cdot \sqrt{2}/2 - \pi a^3 \sqrt{2}(1 - \frac{2}{3\pi})/16}{-\pi a^2/16 + a^2} = 0,61a.$$

**5-masala.** Rasmda ko'rsatilgan bir jinsli plastinka og'irlik markazining koordinatalari topilsin. Quyidagilar berilgan: AH=2sm, HG=1,5sm, AB=3sm, BC=10sm, EF=4sm, ED=2sm (6.17-rasm).

a)



b)



### 6.17-rasm

**Yechilishi:**

1. Berilgan plastinkani ma'lum masshtabda chizib olamiz.
2. Chizmaga x, y koordinata o'qlarini o'tkazamiz.
3. Plastinkani 3 ta to'g'ri to'rt burchakdan iborat yuzalarga ajratamiz.
4. Plastinkaning har bir bo'lakchalarning yuzalarini va uning to'liq yuzasini aniqlaymiz:

$$S = S_1 + S_2 + S_3 = 6 + 9 + 11 = 26 \text{ sm}^2$$

5. Har bir bo'lakchaning koordinatalari va yuzasini aniqlaymiz:

Nº	1	2	3
x <sub>K</sub>	1	5	9
y <sub>K</sub>	1,5	0,75	2,75
s <sub>K</sub>	6	9	11

6. Plastinka og'irlik markazi koordinatalarini aniqlaymiz:

$$x = \frac{S_1 x_1 + S_2 x_2 + S_3 x_3}{S_1 + S_2 + S_3} = \frac{6 \cdot 1 + 9 \cdot 5 + 11 \cdot 9}{6 + 9 + 11} = \frac{75}{13} \text{ sm.}$$

$$y = \frac{S_1 y_1 + S_2 y_2 + S_3 y_3}{S_1 + S_2 + S_3} = \frac{6 \cdot 1,5 + 9 \cdot 0,75 + 11 \cdot 2,75}{6 + 9 + 11} = \frac{23}{13} \text{ sm.}$$


---


**6-masala.** Yarim doira va yarim aylana og'irlik markazlarini aniqlang.

**Yechilishi:**

1.  $x$  o'qini yarim doiraning simmetriya o'qi bo'ylab,  $y$  o'qini esa diametri bo'ylab yo'naltiramiz (6.18-rasm).

2. Yarim doira  $y$  o'qi atrofida aylantirilganda shar hosil bo'ladi, uning hajmi:

$$V = \frac{4}{3} \pi R^3$$



**6.18-rasm**

3. Yarim doiraning yuzasi esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$S = \frac{1}{2} \pi R^2$$

4. Yarim doiraning og'irlik markazi  $x_c$   $x$  o'qni ustida yotadi

$$x_c = \frac{V}{2\pi S} = \frac{\frac{4}{3}\pi R^3}{2\pi \frac{1}{2}\pi R^2} = \frac{4}{3\pi}R \approx 0,424R$$

5. Yarim aylananing og'irlik markazini topish uchun  $x$  o'qini uning simmetriya o'qni bo'yab,  $y$  o'qini esa diametri bo'yab yo'naltiramiz. Yarim aylanining og'irlik markazi  $x$  o'qni ustida yotadi.

6. Yarim aylanani  $y$  o'q atrofida aylantirisak shar sirti hosil bo'ladi. Uning yuzasi esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$S = 4\pi R^2$$


7. Yarim aylana uzunligi  $L = \pi R$ , u holda yarim aylanining og'irlik markazi quyidagicha topiladi:

$$x_C = \frac{S}{2\pi L} = \frac{4\pi R^2}{2\pi\pi R} = \frac{2}{\pi}R \approx 0,6366R$$

### 6.5 Mustaqil yechish uchun masalalar:


**1-masala.** Sterjenli AFBD konturning C og'irlik markazining vaziyati aniqlansin? Kontur FD=R radiusli aylananing to'rtdan biriga teng bo'lgan ADB yoy va diametri AB vatar bo'lgan AFB yarim aylana yoyidan tashkil topgan. Sterjenlarning chiziqli zichligi bir xil.

(javob:  $CF = R(\sqrt{2} - 1) + \frac{2R}{P}(3 - 2\sqrt{2}) = 0,524R$ .)




**2-masala.** Radiusi AO=30sm bo'lgan ADB doiraviy segment yuzining C og'irlik markazi topilsin.

(javob: OC=27,7sm).




**3-masala.** Rasmda tasvirlangan chorak xalqa og'irlik markazining koordinatalari aniqlansin.

(javob:  $x_C = y_C = 1,38\text{sm}.$ )




**4-masala.** Betonning solishtirma og'irligi  $24\text{kN/m}^3$ , tuproqniqi esa  $16\text{kN/m}^3$  deb qabul qilib, rasmda ko'rsatilgan platina ko'ndalang kesim yuzasining og'irlik markazi topilsin.

(javob:  $x_C = 8,19\text{m}$ ,  $y_C = 1,9\text{m}$ )




**5-masala.** O'lchovlari rasmda ko'rsatilgan qo'shtavr profilning og'irlik markazi topilsin.

(javob:  $x_C = 9\text{sm}$ ,




**6-masala.** Tomoni a ga teng ABCD kvadrat berilgan. Bu kvadratning ichida shunday E nuqta topilsinki, kvadratdan teng yonli AEB uchbur-chak kesib olinganda, bu nuqta kvadratdan qolgan yuzanining og'irlik markazi bo'lsin.

(javob:  $x_E = a/2$ ,  $y_E = a/2$ ,



**7-masala.** Tekis ferma og'irlilik markazining koordinatalari topilsin? Ferma 7 ta sterjenden tuzilgan bo'lib, ularning uzunliklari rasmda ko'rsatilgan. Hamma sterjenlar har bir metrining og'irligi bir xil.

(javob:  $x=1,47m$   $y=0,94m$ ).




**8-masala.** Suv sig'imi 45000kN bo'lgan og'irligi 300kN bo'lgan yuk kemaning oldingi qismidan ketingi qismiga 60 m masofaga surilgan. Yuk va kemaning umumiyligi og'irlilik markazi qancha suriladi?

(javob: 0,4 m).

**9-masala.** Stul ko'rinishidagi jism og'irlilik markazining koordinatalari topilsin, bu jism bir xil uzunlik va bir xil og'irlilikdagi sterjenlardan tuzilgan. Sterjenlarning uzunligi 44 sm.

(javob:  $x=-22$  sm,  $y=16$  sm,  $z=0$ ).



## VII BOB. KINEMATIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI. NUQTA KINEMATIKASI.

### 7.1 *Kinematikaning asosiy tushuncha va qoidalari*

Jismlarning harakatini ularga ta'sir etuvchi kuchlar va inertligini (massasini) e'tiborga olmay, sof geometrik nuqtai nazardan o'rganuvchi nazariy mexanikaning bir qismiga kinematika deyiladi.

Kinematika so'zi yunoncha «kinema» so'zidan olingan bo'lib, harakat ma'nosini anglatadi. Jismning vaqtga bog'liq ravishda fazoda boshqa jismlarga nisbatan vaziyatini o'zgartirishiga mexanik harakat deyiladi.

Harakat tushunchasi fazo, vaqt\* va jism (nuqta) tushunchalari bilan chambarchas bog`liq. Vaqtning turli momentlarida harakatlanuvchi jism (yoki nuqta) ning boshqa jismlarga nisbatan holatini aniqlash uchun sanoq sistemasi tanlanadi. Sanoq sistemasini shartli ravishda qo'zg`almas deb olish yoki harakatdagi jismga biriktirilgan deb qarash mumkin.

Jismning fazoda qiladigan harakati vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladi. Mexanikada fazo uch o'lchovli Yevklid fazosi deb qaraladi. Undagi barcha o'lhashlar Yevklid geometriyasi usullari asosida olib boriladi. Uzunlik o'lchov birligi qilib  $1\text{ m}$  olingan.

Vaqt uzluksiz o'zgaruvchan va skalyar kattalik. Kinematika masalalarida  $t$  vaqt mustaqil o'zgaruvchan (argument) deb qabul qilinadi. Qolgan boshqa o'zgaruvchan kattaliklar (masofa, tezlik va b.q.) vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchan kattaliklar yoki  $t$  vaqtning funksiyasi hisoblanadi. Vaqtning hisoblash boshlang'ich moment ( $t=0$ ) dan boshlab olib boriladi.

Ko'chish va harakat tushunchalari kinematikaning asosiy tushunchalaridir. Nuqtaning ma'lum vaqt oralig'ida fazoda bir holatdan boshqa holatga ixtiyoriy ravishda o'tishi ko'chish deyiladi. Nuqtaning boshlang'ich holatdan oxirgi holatga vaqtga bog'liq holda aniq bir usulda o'tishi-ga harakat deyiladi. Fazoda harakatlanayotgan nuqtaning biror sanoq sistemasiga nisbatan holati bilan vaqt orasidagi bog'lanishni ifodalovchi tenglamaga nuqtaning harakat qonuni deyiladi.

\*Mexanikada vaqt barcha sanoq sistemalari uchun bir xilda o‘tadi va absolyut deb hisoblanadi. Vaqtning o‘lchov birligi qilib 1 soniya (1s) qabul qilingan.

Kinematikaning asosiy masalasi nuqtaning (jismning) harakat qonunlarini o‘rganishdan iborat. Agar nuqtaning biror sanoq sistemasiga nisbatan harakat qonuni berilgan bo‘lsa, nuqta harakatining kinematik harakteristikalari: trayektoriya, tezlik va tezlanishlarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Biror sanoq sistemasiga nisbatan harakatlanuvchi nuqtaning qoldirgan iziga trayektoriya deyiladi.

Har qanday qattiq jismni nuqtalar to‘plamidan iborat deb qarash mumkin. Shu sababli jism harakatini o‘rganish uchun uning nuqtalari harakatini o‘rganishga to‘g’ri keladi. Dastlab nuqta kinematikasini o‘rganib, undan keyin qattiq jism kinematikasini o‘rganishga o‘tiladi.

## 7.2 Nuqta harakatining berilish usullari


Nuqta harakati quyidagi uchta usul yordamida beriladi:

- 1) Vektor usuli,
- 2) Koordinatalar usuli,
- 3) Tabiiy usul.

Nuqta harakatining vektor usulda berilishi.  $M$  nuqta qandaydir  $Oxyz$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatlanayotgan bo‘lsin. Vaqtning istalgan paytida nuqtaning holatini  $M$  nuqta va koordinata boshi  $O$  ni tutashtirishdan hosil bo‘lgan  $\bar{r}$  radius–vektor orqali aniqlash mumkin (7.1-rasm).  $M$  nuqta harakatlanayotganida vaqtga bog’liq ravishda  $\bar{r}$  radius–vektoring moduli ham, yo‘nalishi ham o‘zgarib boradi. Demak, radius–vektor  $t$  vaqtning vektorli funksiyasidan iborat bo‘ladi, ya‘ni

$$\bar{r} = \bar{r}(t) \quad (7.1)$$

(7.1) tenglamaga nuqtaning vektor shaklidagi harakat tenglamasi deyiladi. Radius–vektorlarning uchlarini tutashtirishda hosil bo‘lgan chiziqqa vektorlar godografi deyiladi. Vektorlar godografi



7.1-rasm

harakatlanuvchi nuqtaning trayektori-yasi bo‘lib hisoblanadi.

Vektorni analitik usulda berish uchun uning koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari berilgan bo‘lishi lozim.  $\bar{r}$  vektorning to‘g’ri burchakli Dekart koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari quyidagicha belgilanadi:

$$r_x = x, r_y = y, r_z = z$$

bu yerda:  $x, y, z$  - M nuqtaning koordinatalari.

Agar koordinata o‘qlarining birlik vektorlarini  $\bar{i}, \bar{j}, \bar{k}$  deb belgilasak  $\bar{r}$  radius-vektor uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\bar{r} = x\bar{i} + y\bar{j} + z\bar{k} \quad (7.2)$$

(7.2) tenglik harakatning vektorli va Dekart koordinatalari orqali aniqlash usullari orasidagi bog’lanishni ifodalaydi.

Nuqtaning fazodagi holatini uning  $x, y, z$  Dekart koordinatalari orqali aniqlash mumkin. Nuqta harakatlanganda uning koordinatalari vaqtga bog’liq ravishda o‘zgaradi, ya‘ni  $x, y, z$  koordinatalar vaqtning bir qiymatli funksiyasidan iborat bo‘ladi:

$$x = f_1(t), y = f_2(t), z = f_3(t) \quad (7.3)$$

(7.3) tenglamalarga nuqta harakatining Dekart koordinatalaridagi tenglamalari deyiladi. Bu tenglamalar yordamida nuqtaning harakati koordinatalar usulida berilganda harakat qonunini aniqlaydi.

Agar nuqta faqat bitta tekislikda harakatlansa, nuqtaning harakat tenglamalari bittaga kamayadi, ya‘ni

$$x = f_1(t), y = f_2(t) \quad (7.4)$$

Agar nuqta to‘g’ri chiziq bo‘ylab harakatlanayotgan bo‘lsa, u holda  $Ox$  o‘qini shu to‘g’ri chiziq bo‘ylab yo‘naltiramiz. Nuqtani harakat tenglamasi bitta tenglama bilan ifodalanadi:

$$x = f(t) \quad (7.5)$$

(7.5) ga nuqtaning to‘g’ri chiziqli harakat tenglamasi deyiladi.

Nuqtaning trayektoriyasi avvaldan ma‘lum bo‘lsa, harakatni tabiiy usulda berish maqsadga muvofiqdir. Nuqta  $O_1xyz$  koordinatalar Sistemasiga nisbatan qandaydir  $AB$  egri chiziq bo‘ylab harakatlanayotgan bo‘lsin (7.2-rasm). Shu trayektoriya ustidan ixtiyoriy qo‘zg’almas  $O$  nuqta tanlaymiz.  $O$  nuqtani sanoq boshi deb ataymiz hamda musbat va manfiy harakat yo‘nalishini belgilab olamiz. U holda  $M$  nuqtaning trayektoriya-

dagi holati egri chiziqli  $S = \bar{O}^U \bar{M}$  yoy koordinatasi bilan aniqlanadi.  $M$  nuqta harakatlanishi natijasida  $M_1, M_2, \dots$  holatlarni egallaydi va vaqt o'tishi bilan  $s$  masofa o'zgarib boradi va  $t$  vaqtning bir qiymatli funksiyasidan iborat bo'ladi:


$$s = f(t) \quad (7.6)$$

(7.6) tenglamaga  $M$  nuqtaning trayektoriya bo'ylab harakat tenglamasi yoki harakat qonuni deyiladi.

Agar 1) nuqtaning trayektoriyasi,

2) trayektoriyada musbat yoki manfiy harakat yo'nalishini ko'rsatuvchi sanoq boshi,

3) nuqtaning trayektoriya bo'ylab qiladigan  $s=f(t)$  harakat qonunlari avvaldan ma'lum bolsa, nuqtaning harakati tabiiy usulda beriladi.



7.2-rasm

Shuni ta'kidlash lozimki (7.6) dagi  $S$  kattalik nuqtaning bosib o'tgan yo'lini emas, balki nuqtaning holatini aniqlaydi. Masalan, nuqta  $O$  sanoq boshidan harakatlanib  $M_1$  nuqta kelib, yana iziga qaytib  $M$  nuqtaga kelsin. Bunday holda nuqtaning koordinatasi  $S = OM$  bo'ladi. Bosib o'tgan yo'li  $OM + M_1 M$  ga teng bo'ladi.

### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kinematika deb nimaga aytildi?
2. Fazo nima?
3. Vaqt qanday kattalik?
4. Ko'chish deb nimaga aytildi?
5. Harakat deb nimaga aytildi?
6. Kinematikaning asosiy masalasi nima?
7. Harakat vektor usulida qanday ifodalanadi?
8. Harakat koordinata usulida qanday ifodalanadi

### 7.3 Harakati vektor, koordinata hamda tabiiy usulda berilganda nuqtaning tezligi va tezlanishi.

To‘g’ri burchakli Dekart koordinatalar sistemasiga nisbatan  $M$  nuqta harakatlanayotgan bo‘lsin. Nuqta vaqtning  $t$  paytida  $\bar{r}$  radius–vektor bilan aniqlanuvchi  $M$  nuqtada, vaqtning  $t_1$  paytida  $M_1$  holatni egallab, radius – vektori  $\bar{r}_1$  bo‘lsin (7.3-rasm, a).

U holda nuqta  $\Delta t = t_1 - t$  vaqt oralig’ida  $\overline{MM_1} = \Delta \bar{r}$  ga ko‘chadi.  $OMM_1$  uchburchakdan quyidagini yozamiz.

$$\overline{MM_1} = \bar{r}_1 - \bar{r} = \Delta \bar{r}$$

Ko‘chish vektori  $\Delta \bar{r}$  ni shu ko‘chish sodir bo‘ladigan  $\Delta t$  vaqtga nisbati nuqtaning mazkur vaqt oraligidagi o‘rtacha tezlik vektori deyiladi.

$$\bar{\vartheta}_{o'rt.} = \frac{\Delta \bar{r}}{\Delta t} \quad (7.7)$$


O‘rtacha tezlik vektori  $\vartheta_{o'rt.} = \Delta \bar{r} = \overline{MM_1}$  vektor bo‘yicha yo‘nalgan bo‘ladi.  $\Delta t$  vaqt oralig’i qancha kichik qilib olinsa, nuqta harakatini xarakterlovchi  $\bar{\vartheta}_{o'rt.}$  kattalik shuncha aniq bo‘ladi. Nuqtaning harakati to‘g’risida aniq xarakteristikaga ega bo‘lish uchun berilgan ondagi nuqtaning tezligi tushunchasi kiritiladi.

Nuqta o‘rtacha tezlik vektorining  $\Delta t$  nolga intilgandagi limiti nuqtaning berilgan ondagи tezlik (oniy tezlik) vektori deyiladi va  $\bar{\vartheta}$  bilan belgilanadi:

$$\bar{\vartheta} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} (\bar{\vartheta}_{o'rt.}) = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \bar{r}}{\Delta t}$$

yoki

$$\bar{\vartheta} = \frac{d\bar{r}}{dt} \quad (7.8)$$




7.3-rasm

Demak, nuqtaning tezlik vektori uning radiusi – vektoridan vaqt bo‘yicha olingan birinchi tartibli hosilaga teng.

Tezlik vektorining o‘lchov birligi  $[g] = \frac{[uzunlik]}{[vaqt]} = \frac{s}{t}$ , tezlik asosan  $\frac{m}{s}$  yoki  $\frac{km}{soat}$  larda o‘lchanadi.

Biror vaqt oraligida nuqta tezligi moduli va yo‘nalishining o‘zgarishini xarakterlovchi kattalikka tezlanish deyiladi. Vaqtning qandaydir  $t$  paytida nuqta  $M$  holatda bo‘lib tezligi  $\bar{g}$ , vaqtning  $t_1$  paytida nuqta  $M_1$  holatga kelib tezligi  $\bar{g}_1$  bo‘lsin (7.3-pacM,b).  $\Delta t = t_1 - t$  vaqt oralig’ida nuqtaning tezligi  $\Delta \bar{g} = \bar{g}_1 - \bar{g}$  orttirma oladi.  $\Delta \bar{g}$  tezlik orttirmasini aniqlash uchun  $\bar{g}_1$   $M_1$  tezlik vektorini  $M$  nuqtaga o‘z-o‘ziga parallel ko‘chirib,  $\bar{g}$  va  $\bar{g}_1$  tezlik vektorlari asosida parallelogram quramiz.



7.3-rasm

Parallelogramning ikkinchi tomoni  $\Delta \bar{g}$  tezlik orttirmasi bo‘lib hisoblanadi. Shuni qayd qilish kerakki,  $\Delta \bar{g}$  tezlik vektori doimo trayektoriyaning botiq tomoniga qarab yo‘nalgan bo‘ladi.

$\Delta \bar{g}$  tezlik orttirmasini  $\Delta t$  ga nisbati nuqtaning o‘rtacha tezlanishi deyiladi:

$$\bar{a}_{o'rt.} = \frac{\Delta \bar{g}}{\Delta t} \quad (7.9)$$

$\bar{a}_{o'rt.}$  vektorning yo‘nalishi  $\Delta \bar{g}$  vektorning yo‘nalishi bilan bir xil bo‘ladi. Nuqtaning o‘rtacha tezlanish vektori  $\bar{a}_{o'rt.}$  ni  $\Delta t$  nolga intilgandagi limiti nuqtaning berilgan paytdagi tezlanish vektori deyiladi:

$$\bar{a} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta \bar{g}}{\Delta t} \text{ yoki} \quad \bar{a} = \frac{d \bar{g}}{dt} = \frac{d^2 \bar{r}}{dt^2} \quad (7.10)$$

Demak, nuqtaning berilgan paytdagi tezlanish vektori nuqta tezlik vektoridan vaqt bo‘yicha olingan birinchi tartibli hosilasiga yoki radius-vektordan vaqt bo‘yicha olingan ikkinchi tartibli hosilasiga teng.

Tezlanishning o'lchov birligi  $\frac{uzunlik}{(vaqt)^2}$ , tezlanish asosan  $\frac{m}{s^2}$  da o'lchanadi.

Agar nuqta to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanayotgan bo'lsa tezlanish vektori shu to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalган bo'ladi. Agar trayektoriya egri chiziqdan iborat bo'lsa, tezlanish vektori trayektoriyaning botiq tomoniga qarab yo'nalган bo'ladi.

Harakat koordinatalar usulida berilganda nuqta tezligining moduli va yo'nalishini aniqlaymiz.

Nuqta  $x=f_1(t)$ ,  $y=f_2(t)$ ,  $z=f_3(t)$  qonuniyat bo'yicha harakatlanayotgan bo'lsin. Koordinata o'qlarining birlik vektorlarini  $\bar{i}$ ,  $\bar{j}$  va  $\bar{k}$  bilan belgilab, M nuqtani koordinata boshi O nuqta bilan tutashtirib  $\bar{r}$  radius- vektorini o'tkazamiz (7.4-rasm).

Paralellepedning yasovchilarini Oxyz koordinata o'qlariga parallel yo'naltiramiz. U holda  $\bar{r}$  radius-vektor va  $\bar{s}$  tezlik vektorining koordinata o'qlaridagi proyeksiyalari quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$\bar{r} = x\bar{i} + y\bar{j} + z\bar{k} \quad (7.11)$$

$$\bar{s} = s_x\bar{i} + s_y\bar{j} + s_z\bar{k} \quad (7.12)$$

(7.8) ni e'tiborga olib (11) tenglikdan vaqt bo'yicha hosila olamiz.


$$\bar{s} = \frac{d\bar{r}}{dt} = \frac{dx}{dt}\bar{i} + \frac{dy}{dt}\bar{j} + \frac{dz}{dt}\bar{k} \quad (7.13)$$

(7.12) va (7.13) larning birlik vektorlari oldidagi koeffisentlar o'zaro tengligidan quyiidagilarni hosil qilamiz.

$$s_x = \frac{dx}{dt} = x; \quad s_y = \frac{dy}{dt} = y, \quad s_z = \frac{dz}{dt} = z \quad (7.14)$$

(7.14) tezlik vektorining koordinata o'qlaridagi proyeksiyalarini ifodalaydi.

Shunday qilib, nuqta tezligining biror qo'zg'almas Dekart koordinata o'qidagi proyeksiyasi, nuqtaning shu o'qqa mos koordinatasidan vaqt bo'yicha olingan birinchi hosilasiga teng.




7.4-rasm

Nuqta tezligining koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari ma‘lum bo‘lsa, uning moduli va yo‘nalishi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi.

$$g = \sqrt{g_x^2 + g_y^2 + g_z^2} \quad (7.15)$$

$$\cos \alpha = \frac{g_x}{g}, \quad \cos \beta = \frac{g_y}{g}, \quad \cos \gamma = \frac{g_z}{g} \quad (7.16)$$




7.5-rasm

Egri chiziqli notekis harakatda nuqta tezligining moduli ham yo‘nalishi ham o‘zgaradi. Nuqta Oxyz koordinata sistemasiga nisbatan notekis egri chiziqli harakat qilayotgan bo‘lsin (7.5-rasm,a). Nuqtaning trayektoriyada egallagan bir necha  $M_1, M_2, M_3$ , ketma ket holatlariiga mos tezliklarning barchasini miqdor va yo‘nalishlarini o‘zgartirmay biror  $O_1$  qutbga keltiraylik (7.5-rasm, b).

Bu holda tezlik vektorining uchlarini tutashtirishda hosil bo‘lgan  $CD$  egri chiziq nuqta tezligining godografi deyiladi.

Ixtiyoriy  $O_1$  xyz koordinata sistemasi olib  $CD$  tezlik godografini unga parallel qilib ko‘chiramiz (7.5-rasm,c).



7.6-rasm

Tezlik godografi ixtiyoriy  $N$  nuqtasining radius-vektori  $\bar{r}$  tezlikdan iborat bo‘ladi. Godo-graf nuqtasining koordinatalari tegishlichcha  $x_1, y_1, z_1$  bo‘lsa u holda

$$x_1 = \vartheta_x = \dot{x}, \quad y_1 = \vartheta_y = \dot{y}, \quad z_1 = \vartheta_z = \dot{z} \quad (7.17)$$

Bu tenglamalar tezlik godografining parametrik tenglamalarini ifodalaydi.

Nuqtaning harakati  $x = f_1(t), \quad y = f_2(t), \quad z = f_3(t)$  ko‘rinishdagi tenglamalar bilan berilgan bo‘lsin. M nuqtaning radius-vektori  $\bar{r}$

$$\bar{r} = x\bar{i} + y\bar{j} + z\bar{k}$$

ko‘rinishda bo‘lsin. Nuqtaning tezlanishi radius-vektordan vaqt bo‘yicha olingan ikkinchi tartibli hosilaga teng,  $\bar{i}, \bar{j}$  va  $\bar{k}$  vektorlar o‘zgarmas bo‘lganligidan (7.6 – rasm)

$$\bar{a} = \frac{d^2 \bar{r}}{dt^2} = \frac{d^2 x}{dt^2} \bar{i} + \frac{d^2 y}{dt^2} \bar{j} + \frac{d^2 z}{dt^2} \bar{k}$$

$\bar{a}$  tezlanish vektorining koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari quyidagi ko‘rinishda yoziladi.

$$\bar{a} = a_x \bar{i} + a_y \bar{j} + a_z \bar{k}$$

$a_x, a_y, a_z$  -  $\bar{a}$  tezlanishning  $x, y, z$  o‘qlaridagi proyeksiyalari. Tezlanishni aniqlovchi ikki formulani o‘zaro solishtirib quyidagini hosil qilamiz.

$$a_x = \frac{d^2 x}{dt^2} = \frac{d \vartheta_x}{dt} = \ddot{x}, \quad a_y = \frac{d^2 y}{dt^2} = \frac{d \vartheta_y}{dt} = \ddot{y}, \quad a_z = \frac{d^2 z}{dt^2} = \frac{d \vartheta_z}{dt} = \ddot{z} \quad (7.18)$$

Demak, tezlanish vektorining biror qo‘zg’almas Dekart koordinatalar o‘qidagi proyeksiyasi, nuqtaning mos koordinatalaridan vaqt bo‘yicha olingan ikkinchi hosilasiga yoki tezlik vektorining mos koordinata o‘qlaridagi proyeksiyasidan vaqt bo‘yicha olingan birinchi hosilasiga teng bo‘ladi.

Nuqta tezlanishining moduli va yo‘nalishi quyidagi formulalardan topiladi:


$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2 + a_z^2} \quad (7.19)$$

$$\cos \alpha_1 = \frac{a_x}{a}, \quad \cos \beta_1 = \frac{a_y}{a}, \quad \cos \gamma_1 = \frac{a_z}{a} \quad (7.20)$$

bu yerda  $\alpha_1, \beta_1, \gamma_1$ - tezlanish vektorining koordinata o‘qlari bilan tashkil qilgan burchaklari.

Nuqtaning harakati  $s=f(t)$  ko‘rinishda ya‘ni tabiiy usulda berilganda uning tezligi va tezlanishini aniqlaymiz.

Biz shu paytgacha nuqtani  $\bar{s}$  tezlik,  $\bar{a}$  tezlanish vektorlarining modullarini qo‘zg’almas Oxyz koordinata sistemasi o‘qlaridagi proyeksiyalari orqali aniqlagan edik. Harakat tabiy usulda berilganda nuqtaning  $\bar{s}$  tezlik va  $\bar{a}$  tezlanish vektorlarining modullarini qo‘zg’almas Oxyz koordinata sistemasiga emas, balki nuqta bilan birgalikda harakatlanuvchi  $M\tau nb$  koordinata sistemasi o‘qlaridagi proyeksiyalari orqali aniqlanadi.  $M\tau$  o‘q nuqtaning trayektoriyasiga urinma qilib yo‘naltiriladi.  $Mn$  o‘q  $M\tau$  o‘qqa perpendikulyar trayektoriyaning botiq tomoniga qarab yo‘naltiriladi. Bu o‘qqa bosh normal o‘qi deyiladi. Ikkala o‘qqa perpendikulyar qilib  $Mb$  o‘qi yo‘naltiriladi. Bu o‘qqa binormal o‘qi deyiladi (7.7-rasm).



7.7-rasm

Nuqtaning  $\bar{s}$  tezlik vektori trayektoriyaga urinma bo‘ylab yo‘nalgan. Uning  $M\tau$  o‘qdagi proyeksiyasi  $s_\tau$   $s_\tau = s$  yoki  $s_\tau = -s$  bo‘lishi mumkin. Bundan keyin  $s_\tau$  ni  $s$  bilan belgilaymiz.  $s$  ning qiymatini aniqlashga o‘tamiz. Nuqta vaqtning  $t$  paytida trayektoriyaning  $M$  nuqtasida,  $t_1 + \Delta t$  vaqtidan keyin  $M_1$  nuqtasiga kelsin.  $\Delta t$  vaqt oralig’ida nuqta egri chiziqli trektoriya bo‘ylab  $\Delta s = \overline{MM}_1$  ga ko‘chadi.  $\Delta s$  - nuqta koordinatasi orttirmasi. Nuqtaning o‘rtacha tezligi  $s_{o.rt.} = \frac{\Delta s}{\Delta t}$  formula yordamida

aniqlanadi. Nuqtaning berilgan ondagи tezligи o‘rtacha tezlikdan  $\Delta t$  ni nolga intiltirib olingan limitga teng

$$\vartheta = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta s}{\Delta t} = \frac{ds}{dt}$$

yoki


$$\vartheta = \frac{ds}{dt} = \dot{s} \quad (7.21)$$

Nuqtaning tezligи masofadan (egri chiziqli koordinatadan) vaqt bo‘yicha olingan birinchi hosilaga teng.

Nuqta  $M_m$  tekisligida harakatlanganligи uchun nuqta tezlanish vektorining  $M_b$  o‘qdagi proyeksiyasi ( $a_b = 0$ ) nolga teng. Chunki  $M_b$  - o‘q bu tekislikka perpendikulyar yo‘nalgan. Nuqta tezlanishining  $M_\tau$  va  $M_n$  o‘qlardagi proyeksiyalarini aniqlaymiz. Buning uchun (7.10) tenglikni  $M_\tau$  va  $M_n$  o‘qlariga proyeksiyalaymiz:

$$a_\tau = \frac{(d\vartheta)\tau}{dt}, \quad a_n = \frac{(d\vartheta)n}{dt} \quad (7.22)$$

Nuqtaning  $M$  va  $M^l$  holatlardagi tezliklarining farqini  $d\bar{\vartheta}$  vektor bilan belgilaymiz (7.8-rasm,a), u holda



7.8-rasm

$$d\bar{\vartheta} = \bar{\vartheta}^l - \bar{\vartheta}. \quad \bar{\vartheta} = \bar{MA} \quad \text{va} \quad \bar{\vartheta}^l = \bar{MB}$$

$\bar{g} = \overline{MA}$  va  $\bar{g}' = \overline{MB}$  vektorlarni umumiyligiga bo'lgan M nuqtaga ko'chiramiz, (7.8-rasm,b) natijada  $d\bar{g} = \bar{AB}$  bo'ladi.  $d\varphi$  burchak juda kichik bo'lsa, ABCD figurani to'g'ri burchakli deb qarash mumkin. U holda:

$$(d\vartheta)_\tau = AC = DB = MB - MA = g^1 - g = d\vartheta$$

Yoyni vatarga nisbatidan olingan limit birga teng bo'lgani uchun AD, MA radiusning elementar yoyi hisoblanadi, u holda

$$(d\vartheta)_n = AD = MAd\varphi = gd\varphi$$

$(d\vartheta)_\tau$  va  $(d\vartheta)_n$  larning qiymatlarini (7.22) ga qo'yib quyidagilarni hosil qilamiz:

$$a_\tau = \frac{d\vartheta}{dt}, \quad a_n = g \frac{d\varphi}{dt}, \quad (7.23)$$

(7.23) ning ikkinchi tengligini o'ng tomonini o'zgartiramiz:

$$g \frac{d\varphi}{dt} = g \frac{d\varphi}{ds} \frac{ds}{dt}$$

bu yerda:  $\frac{d\varphi}{ds} = k$  - egri chiziqning egrilik koeffisienti. Uni quyidagi ko'rinishda belgilaymiz:

$$k = \frac{1}{\rho} \quad (7.24)$$

bu yerda:  $\rho$  - egri chiziqning egrilik radiusi.

(7.21) va (7.24) ni e'tiborga olsak (7.23) ning ikkinchi tengligi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$a_n = g \frac{d\varphi}{ds} \frac{ds}{dt} = g \cdot \frac{1}{\rho} \cdot g = \frac{g^2}{\rho}$$

Natijada quyidagilarga ega bo'lamiz

$$a_\tau = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2 s}{dt^2}, \quad a_n = \frac{g^2}{\rho}, \quad a_b = 0 \quad (7.25)$$


$a_\tau$  - nuqtaning urinma (tangensial) tezlanishi,

$a_n$  - nuqtaning normal tezlanishi.

Shunday qilib, nuqta tezlanishining urinmadagi proyeksiyasi tezlikning algebraik qiymatidan vaqt bo'yicha olingan birinchi hosilasiga yoki nuqtani yoy koordinatasidan vaqt bo'yicha olingan ikkinchi hosilasiga teng, nuqta tezlanishining bosh normaldagagi proyeksiyasi, nuqta tezligi kvadratning trayektoriyani berilgan nuqtadagi egrilik radiusi nisbatiga teng.

Nuqtaning tezlanish vektori  $\bar{a}$ , urinma tezlanish  $\bar{a}_\tau$  va normal tezlanish  $\bar{a}_n$  larning geometrik yig'indisiga teng bo'ladi.

$$\bar{a} = \bar{a}_\tau + \bar{a}_n$$



7.9-rasm

Tezlanish moduli va yo'nalishi

$$a = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2} = \sqrt{\left(\frac{d\vartheta}{dt}\right)^2 + \left(\frac{\vartheta^2}{\rho}\right)^2}$$

$$\operatorname{tg} \mu = \frac{a_\tau}{a_n} \quad (7.26)$$

formulalar yordamida aniqlanadi.

bu yerda  $\mu > 0$  bo'lsa  $-\frac{\pi}{2} < \mu < \frac{\pi}{2}$  bo'ladi, u holda  $\bar{a}$  tezlanish vektori  $Mn$  normaldan  $M\tau$  o'qi tomon og'gan bo'ladi (7.9-rasm,a),  $\mu < 0$  bo'lsa teskari tomonga og'adi (7.9-rasm, b).

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezligi formulasi qanday ifodalanadi?
2. Harakat vektor usulda berilganda nuqtaning tezlanishi formulasi qanday ifodalanadi?
3. Nuqta tezligining Dekart koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari qanday aniqlanadi?
4. Tezlik godografi deganda nimani tushunasiz, uning parametrik tenglamalari?
5. Nuqta tezlanishining Dekart koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari nimaga teng?
6. Nuqtaning tezlik va tezlanish moduli qanday aniqlanadi?
7. Tabiiy koordinata sistemasi Dekart koordinata sistemasidan qanday farq qiladi?
8. Harakat tabiiy usulda berilganda nuqtaning tezligi qanday aniqlanadi?
9. Nuqtaning urinma tezlanishi qanday formula bilan aniqlanadi?
10. Nuqtaning normal tezlanishi qanday formula yordamida aniqlanadi?
11. Nuqtaning to‘la tezlanishi modulini ifodalovchi tenglama qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
12. Nuqtaning qanday harakatida normal tezlanish nolga teng?
13. Nuqtaning qanday harakatida urinma tezlanish nolga teng?

## 7.4 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** Nuqtaning harakat tenglamasi  $x = 8t - 4t^2$ ,  $y = 6t - 3t^2$  ko‘rinishda berilgan ( $x, y$  – metrlarda,  $t$ -soniyalarda). Nuqtaning trayektoriyasi, tezligi va tezlanishini aniqlang.

**Yechilishi:** Nuqtaning harakat tenglamasiga ko‘ra uning trayektoriya tenglamasini topish uchun harakat tenglamadagi  $t$  vaqtni chiqarib tashlash lozim. Buning uchun birinchi tenglamaning har ikkala tomonini 3 ga, ikkinchi tenglamaning har ikkala tomonini 4 ga ko‘paytiramiz:

$$x = 8t - 4t^2 \quad |3$$

$$y = 6t - 3t^2 \quad |4$$

$$3x = 24t - 12t^2$$

$$4y = 24t - 12t^2$$

Birinchi tenglamadan ikkinchisini ayiramiz.

$$3x - 4y = 0 \quad \text{yoki} \quad y = \frac{3}{4}x$$

Bu nuqtaning trayektoriya tenglamasi. Nuqtaning trayektoriyasi to‘g’ri chiziqdan iborat ekan .

y	0	0,75	1,5	3	-0,75	-1,5	-3
x	0	1	2	4	-1	-2	-4

Nuqtaning tezligini aniqlaymiz. Nuqtaning harakat tenglamasidan vaqt bo‘yicha hosila olamiz.

$$\vartheta_x = \frac{dx}{dt} = 8 - 8t = 8(1-t)$$

$$\vartheta_y = \frac{dy}{dt} = 6 - 6t = 6(1-t)$$

$$g = \sqrt{g_x^2 + g_y^2} = \sqrt{8^2(1-t)^2 + 6^2(1-t)^2} = \sqrt{(8^2 + 6^2)(1-t)^2} = \sqrt{(64+36)(1-t)^2} = 10(1-t)$$

Nuqtaning tezlanishini aniqlaymiz.

$$a_x = \frac{d^2x}{dt^2} = -8; \quad a_y = -6;$$


$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2} = \sqrt{(-8)^2 + (-6)^2} = 10 \text{ m/s}^2$$

Nuqtaning tezlik va tezlanish vektorlari AB to‘g’ri chiziq bo‘ylab yo‘nalgan.

---

**2-masala.** Qo‘zg’almas O markaz atrofida aylanma harakat qiluvchi OM = r krivoshipning oxirgi uchi M nuqtasining harakat tenglamasi, tezligi va tezlanishini aniqlang. Krivoshipning gorizontal o‘qqa nisbatan burilish burchagi  $\varphi = \omega t$  qonun bo‘yicha o‘zgaradi (7.10-rasm).

**Yechilishi:** O nuqtani koordinata boshi qilib x, y o‘qlarini o‘tkazamiz.



7.10-rasm

M nuqtaning koordinatasi

$$x = OA = OM \cos \varphi = r \cos \omega t$$

$$y = AM = OM \sin \varphi = r \sin \omega t$$

M nuqta tezligining koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalarini aniqlaymiz.

$$g_x = \frac{dx}{dt} = -r\omega \sin \omega t$$

$$g_y = \frac{dy}{dt} = r\omega \cos \omega t$$

Endi M nuqta tezligining modulini aniqlaymiz.

$$g = \sqrt{g_x^2 + g_y^2} = \sqrt{(-r\omega \sin \omega t)^2 + (r\omega \cos \omega t)^2} = \sqrt{r^2 \omega^2 \sin^2 \omega t + r^2 \omega^2 \cos^2 \omega t} = r \cdot \omega = \text{const}$$

$M$  nuqtaning tezligi o‘zgarmas kattalik ekan. Tezlik yo‘nalishini esa quyidagicha bo‘ladi

$$\cos(\bar{\vartheta}, \wedge x) = \frac{\vartheta_x}{\vartheta} = \frac{-r\omega \sin \omega t}{r\omega} = -\sin \varphi$$

$$\cos(\bar{\vartheta}, \wedge y) = \frac{\vartheta_y}{\vartheta} = \frac{-r\omega \cos \omega t}{r\omega} = \cos \varphi$$

$M$  nuqtaning tezlanishini topamiz.

$$a_x = \frac{d\vartheta_x}{dt} = -r\omega^2 \cos \omega t$$

$$a_y = \frac{d\vartheta_y}{dt} = -r\omega^2 \sin \omega t$$

$$a = \sqrt{a_x^2 + a_y^2} = \sqrt{(-r\omega^2 \cos \omega t)^2 + (-r\omega^2 \sin \omega t)^2} = \\ = \sqrt{r^2 \omega^4 \cos^2 \omega t + r^2 \omega^4 \sin^2 \omega t} = r\omega^2 = \text{const}$$


$M$  nuqtaning tezlanishi ham o‘zgarmas miqdor ekan.  $M$  nuqta tezlanishning yo‘nalishini esa:

$$\cos(a \wedge x) = \frac{a_x}{a} = \frac{-r\omega^2 \cos \omega t}{r\omega^2} = -\cos \varphi$$

$$\cos(a \wedge y) = \frac{a_y}{a} = \frac{-r\omega^2 \sin \omega t}{r\omega^2} = -\sin \varphi$$

Demak, krivoshipning  $M$  uchi  $O$  markaz atrofida tekis aylanma harakat qiladi.

**3-masala.** OA krivoship  $\omega = 10 \text{ rad/s}$  doimiy burchak tezlik bilan aylanadi. Uzunlik  $OA = AB = 80 \text{ sm}$ . Shatun o‘rtasidagi  $M$  nuqtaning harakat tenglamasi va trayektoriyasi, shuningdek  $B$  polzunning harakat tenglamasi topilsin (7.11-rasm) Koordinata o‘qlari rasmda ko‘rsatilgan.



7.11-rasm

**Yechilishi:** Masalani yechish uchun  $O$  nuqtani koordinata boshi sifatida tanlab olamiz. Biz  $M$  nuqtaning harakat holatini o‘rganishimiz uchun  $M$  nuqtaning koordi-nata o‘qlaridagi holatlarini aniqlashimiz zarur:

$$x_M = (OA + \frac{AB}{2}) \cos \varphi$$

$$y_M = \frac{AB}{2} \sin \varphi$$

$$\varphi = \omega t = 10t$$

$$x_M = (80 + \frac{80}{2}) \cos 10t$$

$$y_M = \frac{80}{2} \sin 10t$$

o‘rinlidir. Ifodani soddalashtirsak quyidagi ko‘rinish oladi.

$$x = 120 \cos 10t$$

$$y = 40 \sin 10t$$

Bu tenglamalarni sistema shaklida yechsak  $M$  nuqtaning trayektoriyasini aniqlashimiz mumkin.

$\frac{x^2}{120^2} + \frac{y^2}{40^2} = 1$  Bundan ko‘rinadiki  $M$  nuqtaning harakat holati ellipsdan iborat ekan.


**4-masala.** Nuqta  $x = a \cos kt$ ,  $y = a \sin kt$ ,  $z = \vartheta t$  vint chizig’i bo‘ylab harakatlanadi. Nuqta harakatining tenglamalari silindrik koordinatalarda aniqlansin (7.12-rasm).

**Yechilishi:**  $M$  nuqtaning silindrik koordinatalar sistemasidagi ko‘rinishi bizga ma’lum bo‘lib u quyidagicha bo‘ladi.

$$x = r \cos \varphi,$$

$$y = r \sin \varphi,$$

$$z = z$$



Bu tenglamani Nuqtaning  $x = a \cos kt$ ,  $y = a \sin kt$ ,  $z = \vartheta t$  vint chizig’i bo‘ylab harakatlanish qonuniyati bilan birgalikda yechamiz.

$$a \cos kt = r \cos \varphi,$$

$$a \sin kt = r \sin \varphi,$$

$$z = \vartheta t$$

$$\cos kt = \cos \varphi,$$

$$\sin kt = \sin \varphi,$$

$$z = \vartheta t$$


$$r = a,$$

bundan  $\varphi = kt$ , ekanligini ko‘rish mumkin.

$$z = \vartheta t$$

**5-masala.** Nuqtaning Dekart koordinatalar sistemasida berilgan harakat tenglamasiga asosan uning trayektoriyasi va sferik koordinatalar sistemasidagi harakat tenglamalari topilsin (7.13-rasm).

$$x = R \cos^2 \frac{kt}{2}, \quad y = \frac{R}{2} \sin kt, \quad z = R \sin \frac{kt}{2}.$$



7.13-rasm

**Yechilishi:** Dasttavval nuqtaning  $x$  va  $z$  o‘qidagi harakat tenglamasini ikkilangan burchak formulasiga qo‘yib quyidagicha yozib olamiz.

$$x = \frac{R}{2}(1 + \cos kt) \quad z = \frac{R}{2}(1 - \cos kt)$$

Endi har uchala tenglamani kvadratlarga oshirib yig’indisini hisoblaymiz. Unga ko‘ra :

$$\begin{aligned} x^2 + y^2 + z^2 &= \frac{R^2}{4}(1 + \cos kt)^2 + \frac{R^2}{4}\sin^2 kt + R^2 \sin^2 \frac{kt}{2} = \\ &= \frac{R^2}{4}(1 + 2\cos kt + \cos^2 kt + \sin^2 kt) + \frac{R^2}{2}(1 - \cos kt) = \\ &= \frac{R^2}{2}(1 + \cos kt + 1 - \cos kt) = R^2 \end{aligned}$$

Tenglamaning yechimi  $x^2 + y^2 + z^2 = R^2$  sfera bilan  $(x - \frac{R}{4})^2 + y^2 = \frac{R^2}{4}$  silindrning kesishish chizig'i.

Endi bu nuqtaning sferik koordina-talar sistemasidagi harakat tenglama-larini topamiz:

$$\begin{aligned}x &= r \cos \theta \cos \varphi, \\y &= r \cos \theta \sin \varphi, \\z &= r \sin \theta\end{aligned}$$

Bu tenglamalarni nuqtaning Dekart

Koordinatalar sistemasidagi berilgan harakat tenglamalariga qo'yib, mos holda tenglashtirib sistemani birgalikda yechsak ushbu natijaga ega bo'lamiz:

$$r = R, \quad \varphi = \frac{kt}{2}, \quad \theta = \frac{kt}{2}$$


---

**6-masala.** Poyezd  $72 \text{ km/soat}$  tezlik bilan harakat qiladi. Tormoz qilinganda u  $0,4 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$  ga teng sekinlashish oladi. Poyezdni stansiyaga kelmasdan qancha vaqt oldin va stansiyadan qancha narida tormozlay boshlash kerakligi topilsin.

**Yechilishi:** Masala shartiga binoan harakat sekinlanuvchan. Demak  $\frac{d^2x}{dt^2} = -0,4$  boshlang'ich shartlarni e'tiborga olsak

$$\begin{aligned}t &= 0, \\x &= 0, \\\dot{x} &= 20 \text{ m/s}\end{aligned}$$

Tenglamani vaqt bo'yicha integrallasak  $\frac{dx}{dt} = -0,4t + 20$  bundan  $x = -0,4 \frac{t^2}{2} + 20t$  ga ega bo'lamiz. Harakat sekinlanuvchan bo'lganligi sababli uning oxirgi tezligi 0 ga teng bo'ladi. Shu sababli tezlanish formulasi orqali bu tezlikni hisobga olmasdan bosib olingan vaqtini topish mumkin:

$$t = \frac{20}{0,4} = 50 \text{ s}$$

Topilgan vaqtini qiymatidan foydalanib bosib o‘tilgan yo‘lni aniqlaymiz:

$$S = -0,2 \cdot 50^2 + 20 \cdot 50 = 500 \text{ m}$$

**7-masala.** Suv tomchilari vertikal naychaning teshigi-dan har 0,1 sekundda bir marta tomadi va  $9,81 \frac{\text{m}}{\text{s}^2}$  tezlanish bilan pastga tushadi. Birinchi tomchi oqib chiqqan paytdan 1 sekund o‘tgandan so‘ng birinchi va ikkinchi tomchilar orasidagi masofaning qancha bo‘lishi aniqlansin (7.14-rasm).



7.14-rasm

**Yechilishi:** Bu masalani ham 9-masala kabi tezlanishning diffirensial ko‘rinishi orqali nomalumlarni aniqlashdan

boshlaymiz.  $\frac{d^2x}{dt^2} = g$  boshlang’ich shartlar quyidagicha  $x = 0$ ,  $t = 0$ ,

$$\dot{x} = 0$$

tenglamani integrallab  $x$  ni qiymatini topish mumkin.

$$\frac{dx}{dt} = gt \quad x = \frac{gt^2}{2}$$


Tomchilar tomish interval vaqtini e’tiborga olsak

$$t_1 = 1 \text{ s}$$

$$t_2 = t_1 - 0,1 = 1 - 0,1 = 0,9 \text{ s}$$

1- va 2- tomchilar orasidagi masofa tushayotgan balandliklari farqi orqali aniqlanadi.  $x_1 - x_2 = \Delta x = \frac{g}{2}(1 - 0,81) = 0,932 \text{ m}$

**8-masala.** Poyezdning boshlang’ich tezligi 54 km/soat bo‘lib birinchi 30 s da u 600 m yo‘l bosdi. Poyezd radiusi  $R=1 \text{ km}$  bo‘lgan aylanma yo‘lda o‘zgaruvchan harakat qiladi deb hisoblab, uning 30 s oxiridagi tezligi va tezlanishi aniqlansin (7.15-rasm).



7.15-rasm

**Yechilishi:** Urunma tezlanish tezlikdan vaqt bo'yicha olingan birinchi tartibli hosilaga teng  $\frac{d\vartheta}{dt} = a_\tau$  ekanligidan foydalanib, integral-lash orqali tezlikni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin  $\vartheta = a_\tau t + \vartheta_0$ . Poyezdnинг bosib o'tgan masofasi esa  $s = a_\tau \cdot \frac{t^2}{2} + \vartheta_0 t$ . Poyezd aylanma harakat uchun  $30\text{ s}$  vaqt sarflaganini e'tiborga olsak, urunma tezlanish  $a_{\tau(t=30s)} = \frac{600 - 450}{900} \cdot 2 = \frac{1}{3} m/s^2$  tezlik esa  $\vartheta_{(t=30s)} = 10 + 15 = 25 m/s$ . Normal tezlanish esa quyidagicha  $a_n = \frac{\vartheta^2}{\rho} = \frac{5}{8} m/s^2$ . To'la tezlanish esa urunma va normal tezlanishlar kvadratlarining yig'indisiga teng.  $a = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2} = 0,708 m/s^2$ .

---

**9-masala.** Radiusi  $R=20\text{ sm}$  bo'lgan aylana yoyi bo'ylab nuqta harakatlanadi. Uning trayektoriya bo'ylab harakat qilish qonuni  $s = 20 \sin \pi t$  ( $t$ -sekundlar,  $s$ -santimetrlar hisobida).  $t=5\text{s}$  bo'lgan payt uchun nuqta tezligining miqdori va yo'nalishi, urinma, normal va to'la tezlanishi topilsin?

**Yechilishi:** Nuqtaning harakat trayektoriyasi tenglamasi ma'lum va undan olingan hosila nuqtaning harakat tezligi tenglamasini ifodalashi ma'lum. Shunga ko'ra dastlab tezlik tenglamasini aniqlaymiz.

$$s = 20 \sin \pi t$$

$$\vartheta = 20\pi \cos \pi t$$

Urinma tezlanish tenglamasi esa tezlik tenglamasida olingan birinchi tartibli hosila yoki trayektoriya tenglamasidan olingan ikkinchi tartibli hosilaga teng.  $a_\tau = -20\pi^2 \sin \pi t$  Normal tezlanish esa  $a_n = \frac{\vartheta^2}{\rho} = 20 \cdot \pi^2 \cos^2 \pi t$ .

Nuqtaning  $5\text{s}$  vaqt davomida harakat holatini o'rganishimiz zarur. Shunday ekan aniqlangan tenglamalardagi vaqt  $t$  ning o'rniga  $5\text{s}$  ni qo'yib miqdoriy o'lchovini aniqlaymiz. Unga ko'ra

$$\vartheta = -20\pi \text{ sm/s}, \quad a_\tau = 0, \quad a_n = 20\pi^2 \text{ sm/s}^2$$


---

**10-masala.**  $x = -a \sin 2\omega t$ , tenglamalarga muvofiq Lissaju shaklini chizuvchi  
 $y = -a \sin \omega t$   
nuqta trayektoriyasining  $x = y = 0$  holatdagi egrilik radiusi topilsin?

**Yechilishi:** Nuqtaning berilgan harakat tenglamalariga ko‘ra birinchi tartibli hosila olib, nuqtaning tezligini umumiyl holda aniqlaymiz.

$\dot{x} = -2a\omega \cos 2\omega t$ , nuqtaning topilgan o‘qlardagi tezliklari tenglamasini  
 $\dot{y} = -a\omega \cos \omega t$   
inobatga olgan holda ularning kvadratlari yig’indisidan nuqta tezligini aniqlaymiz (trayektoriyasini aniqlashni yuqoridagi masalalarda ko‘rgan edik).

Unga ko‘ra:

$$\vartheta = a\omega \sqrt{4\cos^2 \omega t + \cos^2 2\omega t}$$

Shartlarni inobatga olsak:

$$t = 0 \quad (x = y = 0) \quad \frac{d\vartheta}{dt} = 0.$$

Demak

$$t = 0 \quad \ddot{x} = 0 \quad \ddot{y} = 0$$

bundan ko‘rishimiz mumkinki normal tezlanish ham nolga teng. Shunday ekan egrilik radiusi

$$\rho = \frac{\vartheta^2}{a_n} = \infty$$

cheksizlikdan iborat.

## 7.5 Mustaqil yechish uchun masalalar:

**1-masala.** Nuqtaning koordinata usulida berilgan harakat tenglamalariga ko‘ra uning trayektoriya tenglamasi topilsin va rasmida harakat yo‘nalishi ko‘rsatilsin.

1)  $x=3t-5$      $y=4-2t$ .

(javob:  $x=-5$ ,  $y=4$  nuqtadan boshlanadigan  $2x+3y-2=0$  yarim to‘g’ri chiziq)

2)  $x = 2t$ ,  $y = 8t^2$

(javob:  $x=0$ ,  $y=0$  nuqtadan boshlanadigan  $y = 2x^2$  parabolaning o‘ng tarmog’i)

3)  $x = 5\sin 10t$ ,  $y = 3\cos 10t$

(javob:  $x=0$ ,  $y=3$  nuqtadan boshlanadigan  $\frac{x^2}{25} + \frac{y^2}{9} = 1$  ellips)

4)  $x = 2 - 3\cos 5t$ ,  $y = 4\sin 5t - 1$

(javob:  $x=-1$ ,  $y=-1$  nuqtadan boshlanadigan  $\frac{(x-2)^2}{9} + \frac{(y+1)^2}{16} = 1$  ellips)

---

**2-masala.** Ko‘prikli kran ustaxona bo‘ylab  $x=t$  tenglamaga muvofiq, harakatlanadi. Aravacha kran bo‘ylab  $y=1,5t$  ( $x$  va  $y$  - metr lar,  $t$  - sekundlar hisobida) tenglamaga muvofiq ko‘ndalang yo‘nalishda g‘ildirab boradi. Zanjir  $0,5$  m/s tezlik bilan qisqaradi. Yuk og‘irlik markazining trayektoriyasi topilsin. Boshlang‘ich paytda yukning og‘irlik markazi  $Oxy$  gorizontal tekislikda bo‘lgan;  $Oz$  o‘q vertikal ravishda yuqoriga yo‘nalan.

(javob: Trayektoriya - to‘g’ri chiziq:  $y = 1,5x$ ,  $z = 0,5x$ )

**3-masala.** Lissaju shaklini chizuvchi nuqtaning harakati

$$x = 3\sin t,$$

$$y = 2\cos 2t$$

( $t$ -sekundlar hisobida) tenglamalar bilan berilgan. Trayektoriya tenglamasi topilsin, trayektoriya chizilsin va nuqta harakatining har xil vaqtlardagi yo‘nalishi ko‘rsatilsin. Shuningdek, harakat boshlangandan keyin trayektoriya  $Ox$  o‘jni kesib o‘tgan eng oldingi  $t_l$  vaqt ko‘rsatilsin.

(javob:  $4x^2 + 9y = 18$  parabolaning bir qismi, chiziq bo‘ylab  $|x| \leq 3$ ,  $|y| \leq 2$ ,  $t_1 = \pi/4$  s.)

---

**4-masala.** Elastik arqon bilan ko‘tariluvchi yuk  $x = a \sin(kt + \frac{3\pi}{2})$  tenglamaga muvofiq tebranma harakat qiladi. Bunda  $a$ -santimetrlar hisobida,  $k$ -rad/s hisobida o‘lchangan. Agar harakat davri  $0,4$  s va boshlang‘ich vaqtida  $x_0 = -4$  sm bo‘lsa, yuk tebranishi amplitudasi va doiraviy chastotasining qancha bo‘lishi aniqlansin. Masofalar egri chizig‘i chizilsin.

(javob:  $a = 4$  sm,  $k = 5\pi$  rad/s )

---

**5-masala.** Chastotasi bir xil, lekin amplituda va fazalari har xil bo‘lgan ikkita garmonik tebranma harakatda bir vaqtida qatnashuvchi nuqtaning trayektoriyasi aniqlansin. Tebranma harakatlar ikkita o‘zaro perpendikulyar o‘qlar bo‘ylab yuzaga keladi:

$$x = a \sin(kt + \alpha) \quad y = b \sin(kt + \beta)$$

(javob:  $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} - \frac{2xy}{ab} \cos(\alpha - \beta) = \sin^2(\alpha - \beta)$  - ellips)

---

**6-masala.** Avtomobil to‘g‘ri chiziqli yo‘lda o‘zgarmas  $20$  m/s tezlik bilan harakatlanadi, uning  $R=1m$  radiusli g‘ildiragi gardishida yotuvchi nuqtaning harakat tenglamasi va trayektoriyasi aniqlansin. G‘ildirakni sirg‘anmasdan g‘ildiraydi deb hisoblansin; koordinata boshini  $Ox$  o‘q sifatida olingan yo‘lning harakat boshlanadigan nuqtasida olinsin.

(javob: Sikloida  $x = 20t - \sin 20t$ ,  $y = 1 - \cos 20t$ .)

---

**7-masala.** Snaryadning harakati  $x = \vartheta_0 \cos \alpha t$ ,  $y = \vartheta_0 \sin \alpha t - \frac{gt^2}{2}$  tenglamalar bilan berilgan, bu yerda  $\vartheta_0$  - snaryadning boshlang‘ich tezligi,  $\alpha$  - gorizontal o‘q  $x$  bilan  $\vartheta_0$  orasidagi burchak,  $g$  - og’irlilik kuchining tezlanishi.

Snaryadning harakat trayektoriyasi,  $H$  - balandligi,  $L$  - uchish uzoqligi va  $T$  uchish vaqtini aniqlansin?

**(javob:** Trayektoriyasi  $y = \tan \alpha \cdot x - \frac{g}{2g_0 \cos^2 \alpha} x^2$  - parabola, balandligi esa  $H = \frac{g_0^2}{2g} \sin^2 \alpha$  uchish uzoqligi  $L = \frac{g_0^2}{g} \sin 2\alpha$  uchish vaqtini  $T = 2 \frac{g_0}{g} \sin \alpha$ )

---

**8-masala.** Oldingi masalaning shartlaridan foydalanib  $\alpha$  otish burchagini qanday qiymatida  $L$  uchish uzoqligi eng katta bo'lishi aniqlansin. Unga mos keluvchi ko'tarilish balandligi va uchish vaqtini topilsin.

**(javob:**  $\alpha = 45^\circ$ ,  $L_{\max} = \frac{g_0^2}{g}$ ,  $H = \frac{g_0^2}{4g}$ ,  $T = \sqrt{2} \frac{g_0}{g}$ )

---

**9-masala.** Nuqta  $x = a \sin kt$  qonunga muvofiq garmonik tebranma harakat qiladi.  $x = x_1$  bo'lganda  $\vartheta = \vartheta_1$  va  $x = x_2$  da esa  $\vartheta = \vartheta_2$  deb olib, tebranishlar amplitudasi  $a$  va doiraviy chastotasi  $k$  aniqlansin?

**(javob:**  $a = \sqrt{\frac{\vartheta_1^2 x_2^2 - \vartheta_2^2 x_1^2}{\vartheta_1^2 - \vartheta_2^2}}$ ,  $k = \sqrt{\frac{\vartheta_1^2 - \vartheta_2^2}{x_2^2 - x_1^2}}$ )

---

**10-masala.** Ellipsograf lineykasining uzunligi  $AB=40$  sm, krivoshipning uzunligi  $OC=20$  sm,  $AC=CB$ . Krivoship  $O$  atrofida  $\omega$  burchak tezlik bilan bir tekis aylanadi. Lineykaning  $A$  uchidan  $MA = 10$  sm masofada yotuvchi  $M$  nuqtaning trayektoriyasi bilan tezlik godografi tenglamalari topilsin?

**(javob:**  $\frac{x^2}{900} + \frac{y^2}{100} = 1$ ,  $\frac{x^2}{900\omega^2} + \frac{y^2}{100\omega^2} = 1$ )

**11-masala.** Tik qirg'oqdagi uchta punktdan 50, 75 va 100 m/s ga teng bo'lgan gorizontal tezlik bilan bir vaqtida otilgan uchta o'q suvgaga bir vaqtida tushadi. Shu punktlarning suv sathidan balandliklari  $h_1$   $h_2$  va  $h_3$

aniqlansin. Birinchi o‘q tushgan nuqtadan qirg‘oqgacha bo‘lgan masofa  $100\text{ m}$  ga teng. Faqat og‘irlik kuchining tezlanishi  $g=9,81\text{ m/s}^2$  e’tiborga olinsin. Shuningdek, o‘qlarning uchish vaqtini  $T$  va ularning suvga tushish paytdagi  $\vartheta_1$ ,  $\vartheta_2$  va  $\vartheta_3$  tezliklari aniqlansin ?

(javob:  $h_1 = h_2 = h_3 = 19,62\text{ m}$ ,  $T = 2\text{ s}$ ,  $\vartheta_1 = 53,71\text{ m/s}$ ,  $\vartheta_2 = 77,52\text{ m/s}$ ,  $\vartheta_3 = 101,95\text{ m/s}$ )

---


**12-masala.** O‘qi gorizont bilan  $30^\circ$  burchak tashkil qilgan to‘pdan  $500\text{ m/s}$  tezlik bilan snaryad otiladi. Snaryad faqat  $g=9,81\text{ m/s}^2$  og‘irlik kuchi tezlanishga ega deb faraz qilib, uning tezlik godografi va godograf chizuvchi nuqtaning tezligi topilsin?

(javob: Godograf - koordinatalar boshidan  $432\text{ m/s}$  narida turuvchi vertikal to‘g‘ri chiziq kesmasi  $\vartheta_1 = 9,81\text{ m/s}^2$ ).

---

**13-masala.** Radiusi  $R=1\text{ m}$  bo‘lgan elektrovoz g‘ildiragining o‘qdan  $a=0,5\text{ m}$  narida yotuvchi nuqtasining harakat tenglamalari va trayektoriyasi aniqlansin. G‘ildirak gorizontal va to‘g‘ri chiziqli yo‘lda sirg‘anmasdan g‘ildirab boradi. G‘ildirak o‘qining tezligi  $\vartheta=10\text{ m/s}$ .  $Ox$  o‘q rels bilan ustma-ust tushadi,  $Oy$  o‘q nuqtaning boshlang‘ich pastki holatidagi radiusga mos keladi. Shuningdek, g‘ildirakning shu nuqta yotgan diametri gorizontal va vertikal holatni egallagan paytlarda nuqta tezligining qancha bo‘lishi aniqlansin?

(javob: qisqartirilgan sikloida  $x=10t-0,5\sin 10t$ ,  $y=1-0,5\cos 10t$ . Tezlik:  $11,18\text{ m/s}$ ,  $5\text{ m/s}$ ,  $15\text{ m/s}$ )



7.16-rasm

**14-masala.** Elektrovozning tezligi  $\vartheta_0 = 72\text{ km/soat}$ , g‘ildiragining radiusi  $R = 1\text{ m}$ . G‘ildirak to‘g‘ri chiziqli temir izda sirpanmasdan g‘ildirab boradi.

1) G‘ildirak gardishidagi  $M$  nuqtanining radiusi  $\vartheta_0$  tezlik yo‘nalishi bilan  $\frac{\pi}{2} + \alpha$  burchak hosil qilgan paytda shu nuqta  $\vartheta$  tezligining miqdori va yo‘nalishi aniqlansin (7.16-rasm).


2)  $M$  nuqtanining tezlik godografi chizilsin va godograf chizuvchi nuqtanining  $\vartheta_1$  tezligi aniqlansin (7.17-rasm).

**(javob:** 1. Tezlik  $\vartheta = 40 \cos \frac{\alpha}{2} \text{ m/s}$ , va  $MA$  to‘g’ri chiziq

bo‘ylab yo‘nalgan.

2.  $\rho = 2\vartheta_0 \cos \theta$  (bunda  $\theta = \frac{\alpha}{2}$ ) radiusi  $r = \vartheta_0$  bo‘lgan

aylana;  $\vartheta_1 = \frac{\vartheta_0^2}{R} = 400 \text{ m/s}^2$ )



7.17-rasm

**15-masala.** Vagon g‘ildiragida o‘qdan  $a=0,6m$  masofada bo‘lgan va boshlang‘ich paytda relsdan  $0,1m$  pastda turgan  $M$  nuqtanining harakat tenglamalari va trayektoriyasi aniqlansin. Vagon g‘ildiragining radiusi  $0,5m$ . Vagon to‘g’ri chiziqli yo‘lda  $\vartheta=10 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakat qiladi. Shuningdek, shu nuqta o‘zining eng pastki va yuqorigi holatidan o‘tgandagi vaqtlar va bu paytlardagi nuqta tezligining  $Ox$  va  $Oy$  o‘qlardagi proyeksiyalari topilsin.  $Ox$  o‘q rels bo‘ylab yo‘nalgan.  $Oy$  o‘q nuqtanining boshlang‘ich pastki holatidan o‘tadi.

**(javob:** cho‘ziq sikloida:  $x = 10t - 0,6 \sin 20t$        $t = \frac{\pi k}{10} \text{ s}$  bo‘lganda nuqta  
pastki holatda bo‘ladi  $\vartheta_x = -2 \text{ m/s}$ ,  $\vartheta_y = 0$ ,  $t = \frac{\pi}{20}(1+2k) \text{ s}$  bo‘lganda nuqta  
yuqorigi holatni egallaydi,  $\vartheta_x = 22 \text{ m/s}$ ,  $\vartheta_y = 0$  bunda  $k = 0,1,2,3,\dots$ ).)

**16-masala.** Kopyor to‘qmog‘i qoziqqa urilib to‘xtaguncha qoziq bilan birga  $0,02 \text{ s}$  mobaynida harakat qiladi, bunda qoziq yerga  $6 \text{ sm}$  kiradi. Qoziq harakatini tekis sekinlanuvchan harakat deb xisoblab, qoziqning boshlang‘ich tezligi topilsin.

**(javob:**  $6 \text{ m/s}$ )

---

**17-masala.** Samolyotning yerga qo‘nish tezligini  $400 \text{ km/soat}$  deb hisoblab, qo‘nish vaqtida samolyotning  $l=1200\text{m}$  li yo‘lda sekinlanishi aniqlansin. Sekinlanish doimiy deb hisoblansin.

(javob:  $a = 5,15 \text{ m/s}^2$ )

---

**18-masala.** Kopyor to‘qmog‘i  $2,5 \text{ m}$  balandlikdan pastga tushadi, uni o‘sha balandlikka ko‘tarish uchun, shuncha joydan tushishiga qaraganda uch marta ko‘proq vaqt ketadi. Agar kopyor to‘qmog‘i pastga  $g = 9,81 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan erkin tushadi deb hisoblansa, u bir minutda necha marta uradi.

(javob: 21 zarba )

---

**19-masala.** Polzun to‘g’ri chiziqli yo‘naltiruvchi bo‘ylab  $a_x = -\pi^2 \sin \frac{\pi}{2} t \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan xarakat qiladi. Agar polzun ning boshlang’ich tezligi  $\vartheta_{0x} = 2\pi \text{ m/s}$  boshlang’ich holati esa polzunning koordinata boshi deb qabul qilingan o‘rta holatiga to‘g’ri kelsa, polzun harakatining tenglamasi topilsin. Masofa, tezlik va tezlanish egri chiziqlari chizilsin.

(javob:  $x = 4 \sin \frac{\pi}{2} t \text{ m.}$ )

---

**20-masala.** Poyezd stansiyadan jo‘naganda tezligi bir tekis ortib, 3 minutdan keyin  $72 \text{ km/soat}$  yetadi. Yo‘l, radiusi  $800\text{m}$  bo‘lgan burilishda joylashgan. Stansiyadan jo‘nagan paytdan 2 minut keyin poyezdning urinma, normal va to‘la tezlanishi aniqlansin.

(javob:  $a_\tau = \frac{1}{9} \text{ m/s}^2$ ,  $a_n = \frac{2}{9} \text{ m/s}^2$ ,  $a = 0,25 \text{ m/s}^2$ )

---

**21-masala.** Radiusi  $R = 800\text{m}$  bo‘lgan aylana yoyi bo‘ylab poyezd tekis sekinlanuvchan harakat qiladi va  $s = 800 \text{ m}$  yo‘l bosadi. Uning boshlang’ich tezligi  $\vartheta_0 = 54 \text{ km/soat}$  va oxirgi tezligi  $\vartheta = 18 \text{ km/soat}$ . Poyezdning yoy boshidagi va oxiridagi to‘la tezlanishi, shuningdek shu yoy bo‘ylab qancha vaqt harakatlanishi aniqlansin.

**(javob:**  $a_0 = 0,308 \text{ m/s}^2$ ,  $a = 0,129 \text{ m/s}^2$ ,  $T = 80\text{s}$ ).

**22-masala.** Radiusi  $R=20 \text{ sm}$  bo‘lgan aylana yoyi bo‘ylab nuqta harakatlanadi. Uning trayektoriya bo‘ylab harakat qilish qonuni:  $s = 20 \sin \pi t$  ( $t$ -sekundlar,  $s$  - santimetrlar hisobida).  $t=5 \text{ s}$  bo‘lgan payt uchun nuqta tezligining miqdori va yo‘nalishi, urinma, normal va to‘la tezlanishi topilsin? Shuningdek, tezlikning, urinma va normal tezlanishlarning grafiklari chizilsin.

**(javob:** Tezlik miqdori  $20\pi \text{ sm/s}$  ga teng bo‘lib,  $s$  yoyini hisoblashning musbat yo‘nalishiga qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan:  $a_\tau = 0$ ,  $a = a_n = 20\pi^2 \text{ sm/s}^2$ )

**23-masala.** Nuqta  $s = \frac{g}{a^2}(at + e^{-at})$  qonunga muvofiq to‘g’ri chiziqli harakat qiladi, bunda  $a$  va  $g$  - doimiy miqdorlar. Nuqtaning boshlang’ich tezligi, shuningdek, uning tezlanishi  $\vartheta_0 = 0$ ,  $a^1$  tezlikning funksiyasi sifatida aniqlansin.


**(javob:**  $\vartheta_0 = 0$ ,  $a^1 = g - a\vartheta_0$ )

**24-masala.** Ishga tushirish davrida dizel krivoshipi paletsining harakati  $x = 75 \cos 4t^2$ ,  $y = 75 \sin 4t^2$  ( $x$ ,  $y$ - santimetrlar,  $t$  - sekundlar hisobida) ko‘rinishdagi tenglamalar bilan berilgan. Paletsning tezligi, urinma va normal tezlanishi topilsin.

**(javob:**  $\vartheta = 600t \text{ sm/s}$ ,  $a_\tau = 600 \text{ sm/s}^2$ ,  $a_n = 4800t^2 \text{ sm/s}^2$ )

**25-masala.** Ox gorizontal o‘q bo‘ylab sirpanmasdan dumalovchi g’ildirak nuqtasi tezlanishining miqdori va yo‘nalishi hamda traektiriyasining egrilik radiusi topilsin (7.18-rasm). Nuqta quyidagi tenglamalarga asosan sikloida chizadi

$$x = 20t - \sin 20t, y = 1 - \cos 20t \quad (\text{t-sekundlar},$$



7.18-rasm

x va y metrlar hisobida). Shuningdek  $t=0$  bo‘lganda egrilik radiusi aniqlansin?

**(javob:** Tezlanish  $a = 400 \text{ m/s}^2$ , bo‘lib dumalovchi g’ildirakning C markaziga MC bo‘ylab yo‘nalgan  $\rho = 2 \text{ MA}$ ,  $\rho_0 = 0$ ).

---

**26-masala.** Nuqta  $x = 2 \cos 4t$ ,  $y = 2 \sin 2t$ ,  $z = 2t$  tenglamalar bilan ifodalanadigan vint harakati qiladi, bunda uzunlik birligi uchun metr olingan. Trayektoriyaning egrilik radiusi aniqlansin?

**(javob:**  $\rho = 2\frac{1}{8} \text{ m}$ )

## VIII BOB. QATTIQ JISM KINEMATIKASI.

### 8.1 Qattiq jismning ilgarilanma harakati

Barcha qattiq jismlarni kinematikada ham statikadagi kabi absolyut qattiq jism deb qaraladi. Qattiq jism kinematikasida uchraydigan masalalar ikki qismga bo‘linadi:

1) butun jismning harakati va bu harakatning kinematik harakteristikalarini aniqlash

2) jism har bir nuqtasining harakatini o‘rganish.


Dastlab qattiq jismning ilgarilanma harakatini o‘rganishdan boshlaymiz.

Jismda olingan har qanday kesma jism harakati davomida hamma vaqt o‘z – o‘ziga parallel ko‘chsa., jismning bunday harakatiga ilgarilanma harakat deyiladi.

Ilgarilanma harakatni to‘g’-ri chiziqli harakat bilan almashtir-maslik kerak. Masalan, to‘g’-ri chiziqli relsda harakatlanayotgan vagon kuzovining harakati ilgarilanma harakat bo‘lib kuzov nuqtalarining traektoriyalari to‘g’-ri chiziqdan iborat.

AB sparnik  $O_1A$  va  $O_2B$  krivoshiplar atrofida aylanishi natijasida ilgarilanma harakat qiladi. AB sparnik hamma vaqt o‘z-o‘ziga parallel ko‘chadi. Sparnikning A va B nuqtalari markazlari  $O_1$ ,  $O_2$  nuqtalarda yotgan aylanalar chizadi. Bu holda sparnikning nuqtalari aylana bo‘ylab harakat qiladi (8.1- rasm).

Ilgarilanma harakatning xossalari quyidagi teoremadan aniqlanadi.



8.1-rasm


**Teorema.** Ilgarilanma harakatdagi jismning hamma nuqtalari bir xil traektoriya chizadi va har onda moduli va yo‘nalishi bir xil bo‘lgan tezlik va tezlanishlarga ega bo‘ladi.

Isbot. Teoremani isbotlash uchun Oxyz koordinata sistemasiga nisbatan ilgarilanma harakat qilayotgan qattiq jismni ko‘rib chiqamiz. Qattiq jismdan ixtiyoriy ikkita A va B nuqtalarni olamiz. Vaqtning  $t$  paytida ularning holatlari tegishlich  $\bar{r}_A$  va  $\bar{r}_B$  radius – vektorlar orqali aniqlansin (8.2-rasm). Bu nuqtalarni tutashtiruvchi  $\overline{AB}$  vektorni o‘tkazamiz, u holda

$$\bar{r}_B = \bar{r}_A + \overline{AB} \quad (8.1)$$

Qattiq jism absolyut qattiq jism bo‘lganligi uchun  $\overline{AB}$  - vektor o‘zgarmas kattalik, shuningdek qattiq jism ilgarilanma harakatlanayot-gani uchun uning yo‘nalishi ham o‘zgarmaydi. Shunday qilib qattiq jism harakatlanayotganida  $\overline{AB}$  vek-tor o‘zgarmaydi ( $\overline{AB} = \text{const}$ ). Demak A va B nuqtalarning traektoriyalari bir xil egri chiziqdandan iborat. A va B nuqtalarning tezliklarini topish uchun (8.1) tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha hosila olamiz:

$$\frac{d\bar{r}_B}{dt} = \frac{d\bar{r}_A}{dt} + \frac{d(\overline{AB})}{dt}$$



8.2-rasm

$\overline{AB}$  o‘zgarmas bo‘lgani uchun uning hosilasi nolga teng.  $\bar{r}_A$  va  $\bar{r}_B$  radius – vektorlarning vaqt bo‘yicha olingan hosilalari A va B nuqtalar tezliklarini beradi, ya‘ni

$$\overline{\vartheta}_A = \overline{\vartheta}_B$$

Vaqtning istalgant payti uchun A va B nuqtalarning tezliklarining moduli va yo‘nalishi bir hil bo‘ladi. Oxirgi tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha hosila olamiz.

$$\frac{d\bar{\vartheta}_A}{dt} = \frac{d\bar{\vartheta}_B}{dt} \quad \text{yoki} \quad \bar{a}_A = \bar{a}_B$$

Demak, vaqtning istalgan paytida  $A$  va  $B$  nuqtalar tezlanishlarining modullari ham yo‘nalishlari ham bir xil bo‘ladi.


$A$  va  $B$  nuqtalar ixtiyoriy tanlangan edi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki vaqtning istalgan paytida jismning barcha nuqtalarining traektoriyalari, shuningdek tezlik va tezlanishlari bir xil bo‘ladi. Shunday qilib teorema isbotlandi.

Teoremadan yana shu narsani bilib olish mumkinki, qattiq jismning ilgarilanma harakatini uning bitta nuqtasi harakati orqali aniqlab olish mumkin. Yana shu narsani ta‘kidlash lozimki, tezlik va tezlanish tushunchalari faqat jismning ilgarilanma harakati uchun ta‘luqli. Qolgan barcha hollar uchun qattiq jism nuqtalari turli xil tezlik va tezlanishlar bilan harakatlanadi.

Qattiq jismning bunday harakatlarida “jismning tezligi”, yoki “jismning tezlanishi” degan terminlar mazmunini yo‘qotadi.

## 8.2 Qattiq jismning qo‘zg’almas o‘q atrofida aylanma harakati

Qattiq jismning qandaydir ikkita nuqtasi uning harakati davomida qo‘zg’almasdan qolsa, bunday harakatga qo‘zg’almas o‘q atrofidagi aylanma harakat deyiladi. Qo‘zg’almas  $A$  va  $B$  nuqtalar orqali o‘tuvchi  $AB$  to‘g’ri chiziqqa aylanish o‘qi deyiladi. Aylanma harakatda qattiq jismning o‘q ustida yotgan barcha nuqtalari qo‘zg’almas bo‘ladi. Jismning qolgan barcha nuqtalari, aylanish o‘qiga perpendikulyar tekislikda markazi aylanish o‘qida yotgan aylanalar chizadi. Aylanma harakat qilayotgan jismning holatini aniqlash uchun aylanish o‘qi orqali qo‘zg’almas I tekislik, qattiq jismga biriktirilgan va u bilan birgalikda aylanuvchi II tekislikni o‘tqazamiz (8.3-rasm). Qattiq jismni vaqtning istalgan paytdagi



8.3-rasm

holati tekisliklar orasidagi burilish burchagi deb ataluvchi  $\varphi$  burchak orqali aniqlanadi.  $\varphi$  burchak musbat yoki manfiy ishorada bo'lishi mumkin. Az o'qning musbat uchidan qaraganimizda qattiq jism o'q atrofida soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylansa, burilish burchagi musbat, aks holda manfiy ishorada olinadi.

Burilish burchagi  $\varphi$ -radianlarda o'lchanadi. Jismni vaqtning istalgan paytidagi holatini aniqlash uchun burilish burchagi  $\varphi$  ning  $t$  vaqtga bog'liqligini bilish zarur, ya'ni:

$$\varphi = f(t) \quad 8.2$$

(8.2) qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati tenglamasi.

Qattiq jism aylanma harakatining kinematik harakteristikalarini aniqlashga o'tamiz. Vaqtning  $t$  paytidagi burilish burchagi  $\varphi$  bo'lib, vaqtning  $t_1 = t + \Delta t$  paytida burilish burchagi  $\varphi_1 = \varphi + \Delta\varphi$  ga teng bo'lsin. Qattiq jism  $\Delta t$  vaqt oralig'ida  $\Delta\varphi$  burchakka buriladi. Burilish burchagi  $\Delta\varphi$  ning  $\Delta t$  ga nisbati o'rtacha burchak tezlik deyiladi.

$$\omega_{o'rt.} = \frac{\Delta\varphi}{\Delta t}$$

Jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakatining berilgan ondag'i burchak tezligini topish uchun o'rtacha burchak tezligining  $\Delta t$  nolga intilgandagi limitini olamiz.

$$\omega = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta\varphi}{\Delta t} = \frac{d\varphi}{dt} \quad (8.3)$$

Shunday qilib, jismning burchak tezligi burilish burchagidan vaqt bo'yicha olingan birinchi hosilasiga teng. Qattiq jism o'q atrofida soat mili aylanishiga teskari yo'nalishda aylanayotgan bo'lsa  $\omega > 0$ , soat mili aylanishi bo'yicha aylanayotgan bo'lsa  $\omega < 0$  bo'ladi. burchak tezligining o'lchami  $\frac{1}{t}$  yoki  $\frac{1}{vaqt}$ . O'lchov birligi  $\frac{1}{s}, (s^{-1})$ . Chunki radian o'lchamsiz kattalik.

Burchak tezlik vektor ko‘rinishda ifodalanadi. Uning moduli  $|\bar{\omega}|$  ga teng. Burchak tezlik vektori jismning aylanish o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan va uning musbat yo‘nalishidan qaralganda aylanish soat mili aylanishiga teskari yo‘nalgan bo‘ladi.

Burchak tezlanish, burchak tezligini vaqtga bog’liq ravishda o‘zgarishini xarakterlovchi kattalik.

Vaqtning  $t$  paytida jismning burchak tezligi  $\omega$  vaqtning  $\Delta t = t_1 + \Delta t$  paytida burchak tezligi  $\omega_1$  bo‘lsin  $\Delta t = t_1 - t$  vaqt oralig’ida jism burchak tezligi orttirmasa  $\Delta\omega = \omega_1 - \omega$  ga teng bo‘ladi.  $\Delta\omega$  ning  $\Delta t$  ga nisbati jismning shu vaqtdagi o‘rtacha burchak tezlanishi deyiladi.

$$\varepsilon_{o\cdot rt.} = \frac{\Delta\omega}{\Delta t}$$

O‘rtacha burchak tezlanishining  $\Delta t$  nolga intilgandagi limiti jismning berilgan ondagi burchak tezlanishi deyiladi.

$$\varepsilon = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta\omega}{\Delta t} = \frac{d\omega}{dt}$$

(8.3) ni e‘tiborga olsak

$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} \quad (8.4)$$

ko‘rinishda yoziladi.

Shunday qilib jismning berilgan ondagi burchak tezlanishi burchak tezligidan vaqt bo‘yicha olingan birinchi hosilasiga, burilish burchagidan vaqt bo‘yicha olingan ikkinchi hosilasiga teng.

O’lchami  $\frac{1}{t^2}$  yoki  $\frac{1}{vaqt^2}$ , o‘lchov birligi  $\frac{|p\omega|}{s^2}$  yoki  $\frac{1}{s^2} (s^{-2})$

Agar vaqt o‘tishi bilan burchak tezligining moduli ortib borsa, jismning aylanishi tezlanuvchan aylanma harakat, kamaya borsa, sekinlanuvchan aylanma harakat bo‘ladi.  $\omega$  va  $\varepsilon$  bir hil ishorada bo‘lsa aylanma harakat tezlanuvchan, har hil ishorada sekinlanuvchan bo‘ladi.

Burchak tezlanishi ham vektor ko‘rinishda ifodalanadi. Bu holda u quyidagicha ifodalanadi.

$$\varepsilon = \frac{d\bar{\omega}}{dt} \quad (8.5)$$

Agar jism tezlanuvchan aylanayotgan bo‘lsa  $\bar{\varepsilon}$  va  $\bar{\omega}$  vektorlar bir tomonga yo‘nalgan bo‘ladi sekinlanuvchan aylanma harakatda esa  $\bar{\varepsilon}$  va  $\bar{\omega}$  vektorlari qarama – qarshi tomonga yo‘nalgan bo‘ladi.

### **8.3 Tekis va tekis o‘zgaruvchan aylanma harakat**

Jism harakati davomida uning burchak tezligi o‘zgarmay qolsa ( $\omega = const$ ), jismning bunday aylanishiga tekis aylanma harakat deyiladi. Tekis aylanma harakat qonunini aniqlaymiz. (8.3) ni quyidagi ko‘rinishda yozamiz.

$$d\varphi = \omega dt$$

Tenglikning chap tomonini  $\varphi_0$  dan  $\varphi$  gacha , o‘ng tomonini  $0$  dan  $t$  chegaralarda integrallaymiz.

$$\int_{\varphi_0}^{\varphi} d\varphi = \int_0^t \omega dt \text{ yoki: } \varphi - \varphi_0 = \omega t$$

$$\varphi = \varphi_0 + \omega t \quad (8.6)$$

Bu jismning tekis aylanma harakat tenglamasi.

agar  $\varphi_0 = 0$  bo‘lsa,  $\varphi = \omega t$

$$\omega = \frac{\varphi}{t} \quad (8.7)$$

Texnikada ko‘pincha, jism tekis aylanma harakat qilayotgan bo‘lsa, u minutdagи aylanishlar soni bilan ifodalanadi. Jism bir marta to‘liq aylanganda burilish burchagi  $\varphi = 2\pi$  bo‘ladi. Jism bir minutda n marta aylansa, tekis aylanma harakat burchak tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega = \frac{2\pi n}{60} = \frac{\pi n}{30} \approx 0,1\pi s^{-1} \quad (8.8)$$

Jism harakati davomida burchak tezlanishi o‘zgarmay qolsa ( $\varepsilon = \text{const}$ ) , uning bunday harakatiga tekis o‘zgaruvchan aylanma harakat deyiladi.

Buning uchun (8.5) tenglikning quyidagi ko‘rinishda yozamiz.

$$d\omega = \varepsilon dt$$

tenglikning chap tomonini  $\omega_0$  dan  $\omega$  gacha, o‘ng tomonini  $0$  dan  $t$  gacha chegaralarda integrallaymiz.

$$\int_{\omega_0}^{\omega} d\omega = \varepsilon \int_0^t dt$$

$$\omega - \omega_0 = \varepsilon t, \quad \omega = \omega_0 + \varepsilon t \quad (8.9)$$

(8.9) ifodani quyidagi ko‘rinishda keltiramiz.

$$\begin{aligned} \frac{d\varphi}{dt} &= \omega_0 + \varepsilon t \\ d\varphi &= \omega_0 dt + \varepsilon t dt \end{aligned}$$


Tenglikni ikkinchi marta integrallaymiz.

$$\varphi = \varphi_0 + \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2} \quad (8.10)$$

Bu jismning tekis o‘zgaruvchan aylanma harakat tenglamasi.

#### **8.4 Aylanma harakat qilayotgan jism nuqtasining tezlik va tezlanishi**

Qattiq jismning aylanish o‘qidan  $h$  masofada joylashgan  $M$  nuqtasini ko‘rib chiqamiz. Jism aylanma harakatlanayotganida,  $M$  nuqta aylanish o‘qiga perpendikulyar tekislikda radiusi  $h$  ga teng bo‘lgan markazi aylanish o‘qida yotgan aylana chizadi. Jism  $dt$  vaqt oralig’ida  $d\varphi$  burchakka burilsa,  $M$  nuqta aylana bo‘ylab harakatlanib  $ds = hd\varphi$  yoy koordinatasini o‘tadi.



**8.4-rasm**

U holda nuqtaning tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\vartheta = \frac{ds}{dt} = h \frac{d\varphi}{dt}$$

yoki


$$\vartheta = \omega \cdot h \quad (8.11)$$

Ayrim hollarda  $\bar{\vartheta}$  tezlikni chiziqli tezlik deb ham ataydilar.

Shunday qilib, aylanma harakat qilayot-gan qattiq jism nuqtasining tezligi miqdon jihatdan jism burchak tezligini aylanish o'qidan nuqttagacha bo'lgan masofaga bo'lgan ko'paytmaga teng. Nuqtaning chiziqli tezligi nuqta chizayotgan aylanaga harakat yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan urinma bo'ylab yo'naladi.

Jism barcha nuqtalarining burchak tezliklari har onda o'zaro teng bo'ladi. Shu sababli qo'zg'almas o'q atrofida aylanuvchi jism nuqtalarining chiziqli tezliklari mazkur nuqtalardan aylanish o'qiga bo'lgan masofalarga proporsional bo'ladi (8.4-rasm).

M                   nuqtaning                   tezlanishini  
 $a_r = \frac{d\vartheta}{dt}$  va  $a_n = \frac{\vartheta^2}{\rho}$        formulalar       yordamida  
 aniqlaymiz.  $\rho = h$  deb olib,  $\vartheta$  tezlikning (8.11) tenglikdagi qiymatini yuqoridagi tengliklarga qo'yib, quyidagilarni hosil qilamiz.



8.5-rasm

$$a_r = h \frac{d\omega}{dt}, \quad a_n = \frac{h^2 \omega^2}{h}$$

yoki

$$a_r = h\varepsilon, \quad a_n = h\omega^2 \quad (8.12)$$

Urinma tezlanish  $\bar{a}_r$  nuqtaning traektoriyasiga urinma bo'ylab yo'nalagan bo'ladi (tezlanuvchan aylanma harakatda nuqtaning harakat yo'nalishi bilan, sekinlanuvchan aylanma harakatda esa unga teskari

yo‘nalgan bo‘ladi); normal tezlanish  $\bar{a}_n$  doimo MC radius bo‘ylab aylanish o‘qi tomon yo‘nalgan bo‘ladi (8.5-rasm).

$M$  nuqtaning to‘liq tezlanishi va yo‘nalishi quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi.

$$a = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2} = h\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (8.12)$$


$$\operatorname{tg}\mu = \frac{a_\tau}{a_n} = \frac{\varepsilon}{\omega^2} \quad (8.13)$$

$M$  nuqtani AB aylanish o‘qida yotgan  $O$  nuqta bilan tutashtirib  $\bar{r}$  radius- vektorini o‘tkazamiz (8.6- rasm) va  $h = r \sin \alpha$  tenglikni (8.11) ga qo‘yamiz.

$$|\mathcal{G}| = |\omega| h = |\omega| r \sin \alpha \text{ yoki } |\mathcal{G}| = |\bar{\omega} \times \bar{r}|$$

$[\bar{\omega} \times \bar{r}]$  vektoring moduli  $M$  nuqtaning tezligi moduliga teng  $[\bar{\omega} \times \bar{r}]$  vektor bilan  $\bar{s}$  vektoring yo‘nalishi ustma – ust tushadi, demak

$$\mathcal{G} = \bar{\omega} \times \bar{r} \quad (8.14)$$



**8.6-rasm**

Aylanma harakat qilayotgan jismning istalgan nuqtasining tezlik vektori jismning burchak tezligi bilan shu nuqta radius–vektorining vektorial ko‘paytmasiga teng. (8.14) formulaga Eyler formulasi deyiladi.

(8.14) tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha hosila olamiz.

$$a = (\bar{\varepsilon} \times \bar{r}) + (\bar{\omega} \times \bar{\mathcal{G}}) \quad (8.15)$$

(8.15) tenglama aylanma harakat qilayotgan jism ixtiyoriy nuqtasining tezlanish vektorini aniqlash formulasi. (8.15) tenglikning o‘ng tomonidagi birinchi qavs urinma tezlanish, ikkinchi qavs esa normal tezlanish ekanligini e‘tiborga olsak quyidagini qilamiz:

$$\begin{aligned} \bar{a}_\tau &= \bar{\varepsilon} \times \bar{r} \\ \bar{a}_n &= \bar{\omega} \times \bar{\mathcal{G}} \end{aligned}$$

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Qattiq jismning qanday harakatiga ilgarilanma harakat deyiladi va bu harakatning asosiy xususiyatlari?
2. Qattiq jismning qanday harakatiga  $qo'zg'$  almas o‘q atrofidagi aylanma harakat deyiladi?
3. Aylanma harakat tenglamasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
4. Aylanma harakat qilayotgan qattiq jismning burchak tezlik va burchak tezlanish modullari qanday formula bilan aniqlanadi?
5.  $Qo'zg'$  almas o‘q atrofidagi aylanma harakat qilayotgan qattiq jism burchak tezlik va burchak tezlanish vektorlari qanday yo‘nalgan bo‘ladi?
6. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning chiziqli tezligi qanday formula orqali ifodalanadi?
7. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning chiziqli tezlanishi qanday formula orqali ifodalanadi?
8. Eyler formulasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
9. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlik vektori qanday ifodalanadi?
10. Aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanish vektori qanday ifodalanadi?

## 8.5 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** Qo‘zg’almas o‘q atrofida aylanuvchi maxovikning aylanish o‘qidan  $r = 0,3\text{m}$  masofadagi nuqtasi  $S = 3t + t^3$  qonunga muvofiq harakat qiladi. ( $S$ -metrda,  $t$ -sekundda)  $t_1 = 3\text{s}$  bo‘lgan paytda maxovikning burchak tezligi va tezlanishi topilsin.

**Yechilishi:**  $r$  radiusli aylana bo‘ylab harakatlanuvchi nuqta tezligining moduli

$$\vartheta = \frac{dS}{dt}$$

tenglamadan foydalanib topiladi.

$$\vartheta = \frac{dS}{dt} = \frac{d(3t + t^3)}{dt} = 3 + 3t^2$$

Nuqtaning urinma tezlanishining moduli  $a_\tau = \frac{d\vartheta}{dt}$  orqali topilishini inobatga olsak uning qiymati

$$a_\tau = 6t$$

Nuqta tezligi va urinma tezlanishlarining modullari burchak tezlik va burchak tezlanishlar orqali ifodalanadi, ya’ni

$$\vartheta = \omega r, \quad a_\tau = \varepsilon r$$

Bu formulalardan  $\vartheta$ ,  $a_\tau$  larni aniqlab vaqtning  $3\text{s}$  holatini qo‘yamiz.

$$\omega = \frac{v}{r} = \frac{3(1+t^2)}{0,3} = 10(1+t^2) \quad \varepsilon = \frac{6t}{0,3} = 20t$$

Tegishli amallarni bajarsak burchak tezlik va burchak tezlanish qiymatlarini aniqlaymiz. Unga ko‘ra  $\omega = 100 \frac{1}{s}$   $\varepsilon = 60 \frac{1}{s^2}$  ga teng bo‘ladi.

**2-masala.** Barabanga o‘ralgan  $AB$  ipning uchiga osilgan  $A$  yuk tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakatlanib pastga tushishi natijasida, baraban aylanma harakatga keladi.  $3\text{s}$  ichida baraban  $9$  marta aylanadi. Barabanning diametri  $D=30\text{ sm}$  bo‘lsa  $5\text{-s}$  oxirida baraban chetidagi nuqtani va  $A$  yukning tezligi va tezlanishini aniqlang (8.7-rasm).

**Yechilishi:** Masalani shartiga ko‘ra  $\varphi_0 = 0$ :  $\omega_0 = 0$  u holda tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\varphi = \frac{\varepsilon t^2}{2} \quad (1)$$


$$\omega = \varepsilon t \quad (2)$$

$t=3$  s ichida baraban 9 marta aylanadi va  $\varphi = 2\pi N$  burchakka o‘zgaradi. (1) dan

$$\varepsilon = \frac{2\varphi}{t^2} = \frac{4\pi \cdot 9}{9} = 2 \frac{ayl}{c^2} = 4 \pi s^{-2}$$

5 s oxirida barabanning burchak tezligi

$$\omega = 4\pi \cdot 5 = 20\pi s^{-1}$$



8.7-rasm

Barabanning  $B$  nuqtasining tezligi yukning tezligiga teng bo‘ladi.

$$g = R\omega = 0,15 \cdot 20\pi = 9,42 \frac{m}{s}$$

Yukning tezlanishi  $B$  nuqtaning urinma tezlanishiga teng.

$$a_\tau = R\varepsilon = 0,15 \cdot 4\pi = 1,88 \frac{m}{s^2}$$

$B$  nuqtaning normal tezlanishi

$$a_n = R\omega^2 = 0,15 \cdot 400\pi^2 = 591,6 \frac{m}{s^2}$$

$B$  nuqtaning to‘liq tezligi

$$a = \sqrt{a_\tau^2 + a_n^2} = \sqrt{1,88^2 + 591,6^2} \approx 591,6 \frac{m}{s^2}$$

**3-masala.**  $n=90 \frac{ayl}{min}$  burchak tezlik bilan aylanayotgan val dvigatel o‘chirilgandan so‘ng tekis sekinlanuvchan harakatlanib  $t_1=40$  s dan so‘ng to‘xtaydi. Shu vaqt oralig’ida val necha marta aylangan.

**Yechilishi:** Val tekis sekinlanuvchan aylanma harakat qilayotganligi sababli  $\varphi_0 = 0$ , u holda

$$\varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2} \quad \omega = \omega_0 + \varepsilon t$$

Valning dvigatel o'chirilishida qanday burchak tezlik bilan aylanayotgan bo'lsa, shu burchak tezlik uning boshlang'ich burchak tezligidan iborat bo'ladi, ya'ni:

$$\omega_0 = \frac{\pi n}{30}$$

Valning to'xtash  $t=t_1$  paytdagi burchak tezligi  $\omega=0$  bo'ladi. U holda (1) ning ikkinchi tengligi quyidagi ko'rinishni oladi.

$$0 = \frac{\pi n}{30} + \varepsilon t \text{ bundan } \varepsilon = -\frac{\pi n}{30 \cdot t_1}$$

Dvigatel o'chirilgandan so'ng valning aylanishlar sonini  $N$  bilan belgilaymiz ( $n$  bilan  $N$  ni aralashtirib yubormaslik kerak), u holda valning shu paytdagi burilish burchagi  $\varphi_1 = 2\pi N$ .  $\varepsilon$  va  $\varphi_1$  larning bu qiymatlarini (1) ning birinchi tengligiga qo'yamiz.

$$2\pi N = \left( \frac{\pi n}{30} \right) t_1 - \left( \frac{\pi n}{60} \right) t_1 = \frac{\pi n}{60} t_1$$

bundan

$$N = \frac{nt_1}{120} = 30 \text{ ayl}$$

**4-masala.** Radiusi  $R=0,6$

$m$  bo'lgan maxovik  $n=90$  ayl/min tezlik bilan tekis aylanma harakat qilmoqda. Shu maxovikning gardishidagi nuqtaning tezlik va tezlanishi aniqlansin.

**Yechilishi:** Maxovikning gardishidagi tezlik  $\vartheta = \omega R$  formula orqali hisoblanadi. Masalada, burchakli tezlik ayl/min - larda berilgan, shu sababli uni rad/s -larga aylantiramiz. U holda  $\omega = \frac{\pi n}{30} = 3\pi$  va  $\vartheta = 3\pi R \approx 5,7 \text{ m/s}$

$\omega=const$  bo'lgani uchun  $\varepsilon = 0$  va  $a_r = \varepsilon \cdot R = 0$  bo'ladi, shunga ko'ra,

$$a = a_n = \omega^2 \cdot R = 9\pi^2 \cdot R \approx 53,3 \text{ m/s}^2$$

Nuqtaning tezlanish vektori M nuqtadan aylanish o'qiga qarab yo'nalgan bo'ladi.

**5-masala.** Tinch holatda bo‘lgan val tekis tezlanish bilan aylana boshlaydi. Birinchi 5 sekundda u 12,5 marta aylanadi. Shu 5 s o‘tgandan so‘ng uning burchak tezligi qancha bo‘ladi?

**Yechilishi:** Dastavval valning 5 sekunddagi tezlanishini aniqlaylik.  $\varphi_0 = 0$  ekanligini hisobga olsak

$$\varphi = \frac{\varepsilon t^2}{2}$$


$$12,5 \cdot 2 \cdot \pi = \frac{\varepsilon \cdot 25}{2}$$

$\varepsilon = 2\pi \text{ rad/s}^2$  ekanligini ko‘rish mumkin.

Jismning burchak tezligi aylanish burchagidan vaqt bo‘yicha olingan hosilaga tengligidan

$$\omega = \dot{\varphi} = \varepsilon t_{t=5s} = 10 \cdot \pi \text{ rad/s.}$$

**6-masala.** B yuk radiusi  $r$ -ga teng bo‘lgan valni aylanma harakatga keltirmoqda, bu val esa radiusi  $r_1$  - teng bo‘lgan tishli g‘ildirak 1 -ga mahkamlangan bo‘lib ular bitta o‘q atrofida aylanma harakat qiladilar. Yukning boshlang‘ich tezligi nolga teng bo‘lib, o‘zgarmas a-tezlanish bilan harakat qilmoqda. 1-tishli g‘ildirak bilan tishlashib turgan  $r_2$  - radiusli shesaternya 2-ning harakat qonuni aniqlansin (8.8-rasm).



8.8-rasm

**Yechilishi:** B yukning boshlang‘ich tezligi nolga teng bo‘lgani uchun ixtiyoriy vaqtdagi tezligi ( $\vartheta_B = at$ ) -qonun orqali aniqlanadi. 1 - g‘ildirakning gardishidagi nuqtalar ham xuddi shunday chiziqli tezlik bilan harakat qiladilar. Ikkinci tomondan olsak 1 -g‘ildirakning gardishidagi nuqtalarning tezliklari  $r\omega_1$  -ga teng bo‘ladi, bu erda  $\omega_1$  - val bilan 1 - g‘ildirakning burchakli tezligi. Demak,

$$r\omega_1 = at,$$

bundan

$$\omega_I = at/r$$

bo‘ladi. Endi 2 - shesternyaning burchakli tezligini aniqlaymiz. I-g‘ildirak bilan 2-shesternyalar tishlashib turgan  $C$  nuqtaning tezliklari o‘zaro teng bo‘lganliklari sababli

$$\vartheta_c = \omega_1 r_1 = \omega_2 r_2$$

bundan

$$\omega_2 = \frac{r_1}{r_2} \omega_1 = \frac{r_1 a}{r_2 r} t$$


Shunday qilib 2 -shesternyaning burchakli tezligi vaqtga proporsional ravishda o‘zgarar ekan.  $\omega_2 = \frac{d\varphi_2}{dt}$  ( $\varphi_2$  -2 shesternyaning burilish burchagi) ekanligidan foydalanib,

$$d\varphi_2 = \frac{r_1 a}{r_2 r} t dt$$


aniqlaymiz. So‘ngra  $t=0$  da  $\varphi_2=0$  ekanligini e’tiborga olib, oxirgi tenglamaning ikkala tarafini integrallab, 2 -shesternyaning tekis o‘zgaruvchan aylanma harakat qonunini keltirib chiqaramiz.

$$\varphi_2 = \frac{r_1 a}{2r_2 r} t^2$$

**7-masala.** Shkivning gardishidagi  $A$  nuqta  $50$   $sm/s$  tezlik bilan harakat qiladi.  $A$  nuqta bilan bir radiusda yotuvchi boshqa  $B$  nuqta esa  $10$   $sm/s$  tezlik bilan harakatlanadi;  $AB$  masofa  $20$   $sm$  ga teng. Shkivning burchak tezligi  $\omega$  hamda diametri aniqlansin (8.9-rasm).



8.9-rasm



8.10-rasm

**Yechilishi:** Chizmadan ko‘rinib turibdiki, biz uchun dastavval shkivning radiusini topib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o‘rganishimiz zarur bo‘lgan har ikkala nuqta ham bir shkivga tegishli ekanligidan bu nuqtalarning doiraviy

aylanish chastotalari bir xil bo‘ladi (8.10-rasm). Shuni inobatga olgan holda quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$$\frac{\vartheta_A}{AO} = \frac{\vartheta_B}{BO} = \frac{\vartheta_A - \vartheta_B}{AB}$$

$$\text{Bundan } AO = AB \frac{\vartheta_A}{\vartheta_A - \vartheta_B} = 20 \cdot \frac{50}{40} = 25 \text{ sm}$$

diametr radiusning ikkilanganiga teng

$$d = 2 \cdot AO = 50 \text{ sm}$$

burchak tezlik

$$\omega = \frac{\vartheta_A}{AO} = 2 \text{ rad/s}$$

ga tengdir.

**8-masala.** Radiusi  $R=2\text{m}$  bo‘lgan maxovik tinch holatdan boshlab tekis tezlanish bilan aylanadi; to‘g‘inda yotuvchi nuqtalar  $t=10$  s dan keyin  $\vartheta=100 \text{ m/s}$  chiziqli tezlikka ega bo‘ladi. G‘ildirak to‘g‘inidagi nuqtaning  $t=15\text{s}$  bo‘lgan vaqtdagi tezligi, urinma va normal tezlanishlari topilsin.

**Yechilishi:** Ushbu masala shartiga binoan  $\varphi_0 = 0$   $\omega_0 = 0$  u holda tekis tezlanuvchan harakat tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$\varphi = \frac{\varepsilon t^2}{2}; \quad \omega = \varepsilon t$$

Maxovikning aylanish tezligi

$$\vartheta = R \cdot \omega$$

$\omega = \dot{\varphi} = \varepsilon t$  ekanligini inobatga olgan holda to‘g‘indagi nuqtalar  $10 \text{ s}$  keyin quyidagi tezlanishga ega bo‘ladi

$$\varepsilon = \frac{100}{20} = 5 \text{ rad/s}^2$$


endi nuqtaning  $15$  sekunddagи tezligini aniqlashimiz mumkin:

$$\vartheta = \omega \cdot R = \varepsilon \cdot t \cdot R = 2 \cdot 5 \cdot 15 = 150 \text{ m/s}$$

Masalani yechish uchun kerak qo'shimcha kattaliklar ma'lum bo'ldi. Endi ulardan foydalangan holda urinma va normal tezlanishlarni aniqlay olamiz:

$$a_n = \frac{g^2}{R} = \frac{150^2}{2} = 1125 \text{ m/s}^2 \quad a_\tau = \varepsilon \cdot R = 5 \cdot 2 = 10 \text{ m/s}^2$$

**9-masala.** Maxovik to'g'indagi nuqtaning to'la tezlanishi radius bilan  $60^\circ$  ga teng burchak hosil qiladi. Shu paytda nuqtaning urinma tezlanishi  $w_\tau = 10\sqrt{3} \text{ m/s}^2$ . Aylanish o'qidan  $r = 0,5 \text{ m}$  masofada turgan nuqtaning normal tezlanishi topilsin. Maxovikning radiusi  $R = 1 \text{ m}$ .



8.11-rasm

**Yechilishi:** To'la tezlanishi radius bilan  $60^\circ$  ga teng burchak hosil qilishi, bu to'la tezlanishning normal tezlanish bilan ham shunday burchak hosil qilishidir. Shunday ekan bu burchakning tangensi urinma tezlanishning normal tezlanishga nisbatiga teng kattalikdir (8.11-rasm). U holda normal tezlanish:

$$a_n = \frac{a_\tau}{\tan \alpha} = \frac{10\sqrt{3}}{\sqrt{3}} = 10 \text{ m/s}^2$$

Umumiy holda normal tezlanish

$$a_n = \frac{g^2}{R} = \frac{\omega^2 R^2}{R} = \omega^2 R$$

ifoda orqali aniqlanishidan  $\omega^2$  ni qiymatini topish mumkin

$$\omega^2 = \frac{a_n}{R} = \frac{10 \text{ m/s}^2}{1 \text{ m}} = 10 \text{ rad/s}^2$$


urunma tezlanish ifodasidan

$$a_\tau = \varepsilon \cdot R$$

burchak tezlanishni topish mumkin  $\varepsilon = \frac{a_\tau}{R} = 10 \cdot \sqrt{3} \text{ rad/s}^2$ .

Aylanish o'qidan  $r = 0,5 \text{ m}$  masofada turgan nuqtaning normal tezlanishini topa olamiz  $a_n = \omega^2 r = 10 \cdot 0,5 = 5 \text{ m/s}^2$ .

**10-masala.** Diametri  $D_1$  bo‘lgan I tishli g’ildirakning burchak tezligi  $\frac{10\pi}{3} \frac{\text{rad}}{\text{s}}$  ga teng. I g’ildirak bilan ichki biriktirilgan va burchak tezligi unga qaraganda uch marta katta bo‘lgan II tishli g’ildirakning diametri qanchaga teng bo‘lishi kerak (8.12-rasm).



8.12-rasm


**Yechilishi:** I va II g’ildiraklar ichma joylashgani sababli ular bir xil aylanish tezligiga ega bo‘ladi.  $\vartheta_1 = \vartheta_2$  tezliklarning mos ifodalarini qo‘ysak.  $\vartheta_1 = R \cdot \omega$ ,  $\vartheta_2 = r \cdot 3\omega$  u holda

$$R \cdot \omega = r \cdot 3\omega$$

Bundan  $r = \frac{R}{3} = \frac{D_1}{2 \cdot 3} = 60 \text{ mm}$  ( $R$  orqali I shkiv radiusi  $r$  orqali II shkiv radiuslari belgilangan)

$$D_2 = 2 \cdot r = 120 \text{ mm}$$

**11-masala.** Tinch holatdagi A shkivli stanok elektromotorning B shkividan tortilgan uzluksiz tasma bilan harakatga keltiriladi. Shkivlarning radiuslari  $r_1 = 75 \text{ sm}$ ,  $r_2 = 30 \text{ sm}$  elektromotorning harakatga keltirilgandan keyingi burchak tezlanishi  $0,4\pi \text{ rad/s}^2$ . Tasmaning shkivlar bo‘ylab sirg‘anishini hisobga olmay, stanok qancha vaqtidan keyin  $10\pi \text{ rad/s}$  ga teng burchak tezlikka ega bo‘lishi aniqlansin (8.13-rasm).



8.13-rasm

**Yechilishi:** Dastlab A va B shkivlar gardishlaridagi nuqtalarning urinma tezlanishlarini topib olish muhim.

$$a_\tau^A = \varepsilon_A \cdot r_2$$

$$a_\tau^B = \varepsilon_B \cdot r_1$$

Tasma shkivlar bo‘ylab sirg‘anmaydi. Shuning uchun A va B nuqtalardagi urinma tezlanishlar bir xil bo‘ladi

$$\varepsilon_A \cdot r_2 = \varepsilon_B \cdot r_1$$

Bundan  $\varepsilon_A = \frac{\varepsilon_B \cdot r_1}{r_2} = \frac{75 \text{ sm}}{30 \text{ sm}} \cdot 0,4\pi \text{ rad/s}^2 = \pi \text{ rad/s}^2$ .

A shkiv tejis tezlanuvchan harakatda bo‘ladi, shuning uchun uning burchak tezligi quyidagicha aniqlanadi  $\omega_A = \omega_{AO} + \varepsilon_A \cdot t$

A shkivning boshlang’ich burchak tezligi  $\omega_{AO} = 0$ ,  $t = T$  paytda  $\omega_A = 10\pi \text{ rad/s}$  ga teng. Bular yuqoridagi tenglamalarga qo‘yiladi

$$10\pi \text{ rad/s} = \pi \text{ rad/s}^2 \cdot T$$

Bundan  $t = 10 \text{ s}$  ekanligi aniqlanadi. Masalani boshqa bir holatda yechilishini ko‘rishimiz mumkin.


Shkivlarning A va B nuqtalardagi tezliklari bir xil qiymat kasb etadi.

$$\text{Demak } r_1 \cdot \omega_1 = r_2 \cdot \omega_2$$

Bundan  $\omega_2 = \frac{r_1 \cdot \omega_1}{r_2}$  tenglama o‘rinlidir.  $\omega_1 = \varepsilon \cdot t$  ekanligidan foydalanib t ning qiymatini aniqlash mumkin:

$$10\pi = \frac{r_1}{r_2} \cdot 0,4\pi t, \quad t = \frac{25 \cdot 30}{75} = 10 \text{ s}$$

**12-masala.** Strelkali indikator mexanizmida harakat o‘lchov shtiftining 1 reykasidan 2 shesternyaga uzatiladi. 2 shesternyaning o‘qiga 3 tishli g’ildirak o‘rnatilgan. 3 g’ildirak esa strelka biriktirilgan 4 shesternya bilan tishlashadi. Agar shtiftning harakati  $x = a \sin kt$  tenglama bilan berilgan bo‘lsa va tishli g’ildiraklarning radiuslari tegishlich  $r_2, r_3, r_4$  bo‘lsa, strelkaning burchak tezligi aniqlansin (8.14-rasm).



8.14-rasm

**Yechilishi:** Shtiftning harakati tenglamasi  $x = a \sin kt$  ko‘rinishda berilgan. Bu harakat tenglamasidan vaqt bo‘yicha 1 – tartibli hosila olamiz.

$$\dot{x} = ak \cos kt$$

$$\vartheta = \dot{x} = r_2 \cdot \omega_2$$

Topilgan ifoda shtiftning harakat tezligidir. 2 shesternyaning o‘qiga 3 tishli g’ildirak o‘rnatilganligi sababli shesternyaning  $\omega_2$  burchak tezligining  $r_3$  radiusiga ko‘paytmasiga teng bo‘lgan tezligi mos ravishda 4 – shesternyaning burchak tezlik va radiuslari ko‘paytmasiga teng bo‘lgan kattaligi bilan aynan tengdir:

$$\omega_4 \cdot r_4 = r_3 \cdot \omega_2$$


Bundan

$$\omega_4 \cdot \frac{r_3 \cdot \omega_2}{r_4} = \frac{r_3}{r_4} \cdot \frac{\vartheta}{r_2} = \frac{r_3}{r_2 \cdot r_4} \cdot a \cdot k \cdot \cos kt$$

Ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**13-masala.** Radiusi  $r_1$  bo‘lgan tishli konus shaklidagi  $O_1$  g’ildirakning qancha vaqtdan keyin  $144\pi \text{ rad/s}$  ga teng burchak tezligiga ega bo‘lishi aniqlansin. Tinch holatdagi bu g’ildirakni radiusi  $r_2 = 15 \text{ sm}$  ga teng va  $4 \text{ rad/s}^2$  burchak tezlanishga ega bo‘lib, tekis tezlanish bilan aylanadigan konus shaklidagi  $O_2$  g’ildirak aylantiradi (8.15-rasm).

**Yechilishi:**  $O_2$  g’ildirak aylanish burchak tenglamasi  $\varphi_2 = \frac{\varepsilon \cdot t^2}{2}$  orqali ifodalanadi. Bunda  $\varphi_0 = 0$   $\omega_0 = 0$  shart o‘rinlidir.  $O_2$  g’ildirak aylanish burchak tezligi quyidagicha



8.15-rasm

$$\omega_2 = \dot{\varphi}_2 = \varepsilon \cdot t \quad (1)$$

Har ikkala g’ildirak ham bir xil doiraviy tezlikda harakatlanadi. Shu bois

$$r_2 \omega_2 = r_1 \omega_1 \quad (2)$$

(1) va (2) larni birgalikda bajarsak

$$t = \frac{r_1}{r_2} \cdot \frac{\omega_1}{\varepsilon} = 24 \text{ s}$$

natijaga ega bo'lamiz.

**14-masala.** Eksentrikning diametri  $d=2r$ , aylanish o'qi O esa diskning C o'qidan  $OC=a$  masofada turadi. Sterjenning harakat qonuni topilsin (8.16-rasm).  $Ox$  o'q sterjen bo'ylab yo'nalgan. Sanoq boshi – aylanish o'qida,  $\frac{a}{r} = \lambda$

**Yechilishi:** Chizmadan ko'rindik  $\alpha$  va  $\varphi$  burchaklar orqali sinuslar teoremasini qo'llash mumkin  $\frac{\sin \alpha}{a} = \frac{\sin \varphi}{r}$  bunda  $a$  va  $r$  uchburchak tomonlari shaklida tasvirlangan.

Bu ifodadan  $\alpha$  burchakning sinusini aniqlaymiz:

$$\sin \alpha = \frac{a}{r} \cdot \sin \varphi$$

Masala shartiga binoan  $\frac{a}{r} = \lambda$ . Shuning uchun bu ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi


$$\sin \alpha = \lambda \cdot \sin \varphi$$

Trigonometriyaning asosiy ayniyatlari orqali shu burchakni kosinusini topamiz:

$$\cos \alpha = \sqrt{1 - \lambda^2 \cdot \sin^2 \varphi}$$

Harakat yo'nalishini inobatga olgan holda sterjenning  $x$  o'q bo'ylab harakatlanish qonuniyatini tuzamiz:

$$x = a \cdot \cos \varphi + r \cdot \cos \alpha = a \cdot \cos \varphi + r \cdot \sqrt{1 - \lambda^2 \cdot \sin^2 \varphi}$$



8.16-rasm

## 8.6 Mustaqil yechish uchun masalalar:

**1-masala.** Bug' turbinasi diskini ishga tushirish davridagi aylanish tenglamasi yozilsin; aylanish burchagi vaqt kubiga proporsional va  $t = 3\text{ s}$  bo'lganda diskning burchak tezligi  $\omega = 27\pi \text{ rad/s}$  ga to'g'ri keladi.

(javob:  $\varphi = \pi^3$ )

---

**2-masala.**  $AB$  vertikal o'q atrofida aylanuvchi markazdan qochuvchi regulyatorning mayatnigi minutiga 120 marta aylanadi. Boshlang'ich paytda aylanish burchagi  $\pi/6 \text{ rad}$  ga teng.  $t = 1/2 \text{ s}$  vaqt ichida mayatnikning aylanish burchagi va ko'chish burchagi topilsin.

(javob:  $\varphi = \frac{13\pi}{6} \text{ rad}$ .  $\Delta\varphi = 2\pi \text{ rad}$ .)

---

**3-masala.** Tinch holatda bo'lgan jism tekis tezlanish bilan aylana boshlab, birinchi 2 minutda 3600 marta aylanadi. Burchak tezlanish aniqlansin.

(javob:  $\varepsilon = \pi \text{ rad/s}^2$ )

---

**4-masala.** Tinch holatda turgan maxovik tekis tezlanish bilan aylana boshlaydi; harakat boshlangandan 10 minut keyin uning burchak tezligi  $4\pi \text{ rad/s}$  ga to'g'ri keladi. Shu 10 minut ichida g'ildirak necha marta aylanadi?

(javob: 600 aylanish)

---

**5-masala.** Qo'zg'almas o'qli g'ildirak  $2\pi \text{ rad/s}$  ga teng bo'lgan boshlang'ich burchak tezligi olgan. G'ildirak 10 marta aylangandan keyin podshipniklardagi ishqalanish tufayli to'xtadi. G'ildirakning burchak tezlanishini doimiy deb hisoblab, uning miqdori  $\varepsilon$  aniqlansin.

(javob:  $\varepsilon = 0,1\pi \text{ rad/s}^2$ , aylanish sekinlanuvchan)

---

**6-masala.** Motor o'chirilgan paytda  $40\pi \text{ rad/s}$  ga to'g'ri keladigan burchak tezligi bilan aylanayotgan samolyot propelleri to'xtaguncha 80 marta aylanadi. Propeller aylanishini tekis sekinlanuvchan deb hisoblab, motor o'chirilganidan propeller to'xtagunigacha qancha vaqt o'tishi topilsin.


**(javob:** 8 sekund)

**7-masala.** Jism qo‘zg‘almas o‘q atrofida tebranma harakat qiladi, bunda aylanish burchagi  $\varphi = 20^\circ \sin \psi$  tenglama bilan beriladi.  $\psi$  burchak esa graduslarda  $\psi = (2t)^\circ$  ( $t$ -sekundlar hisobida) munosabat bilan ifodalangan. Jismning  $t = 0$  paytdagi burchak tezligi, aylanish yo‘nalishi o‘zgaradigan eng yaqin  $t_1$  va  $t_2$  vaqtlar hamda tebranish davri  $T$  aniqlansin.

**(javob:**  $\omega = \frac{1}{180} \pi^2 \text{ rad/s}$ ,  $t_1 = 45 \text{ s}$ ,  $t_2 = 135 \text{ s}$ ,  $T = 180 \text{ s}$ )

**8-masala.** Soat balansiri  $T = 1/2 \text{ s}$  davr bilan buralma garmonik tebranma harakat qiladi. Balansir gardishidagi nuqtaning muvozanat holatiga nisbatan hosil qilgan eng katta burchagi  $\alpha = \frac{\pi}{2} \text{ rad}$  ga teng.

Balansir muvozanat holatidan o‘tganidan 2 s keyin balansirning burchak tezligi va burchak tezlanishining qancha bo‘lishi topilsin.



**(javob:**  $\omega = 2\pi^2 \text{ rad/s}$ ,  $\varepsilon = 0$ )

---

**9-masala.** Mayatnik O gorizontal o‘q atrofida vertikal tekislikda tebranadi. Boshlang‘ich paytda muvozanat holatidan chiqib,  $2/3 \text{ s}$  dan keyin  $\alpha = \frac{\pi}{16} \text{ rad}$  eng katta burchakka og‘adi.

- Mayatnik garmonik tebranma harakat qiladi deb hisoblab, uning tebranish qonuni yozilsin.
- Mayatnik qanday xolatda eng katta burchak tezligi oladi va u qanchaga teng?

**(javob:**  $\varphi = \frac{\pi}{16} \sin \frac{3}{4}\pi t \text{ rad}$ )

---

**10-masala.** Yerning o‘z o‘qi atrofidagi aylanishinigina xisobga olib, yer yuzasining Leningraddagi nuqtasining tezligi  $\vartheta$  va tezlanishi  $a$  aniqlansin. Leningradning kengligi  $60^\circ$ . Yerning radiusi  $6370\text{ km}$ .

(javob:  $\vartheta = 232\text{ m/s}$ ,  $a = 0,0169\text{ m/s}^2$ )


**11-masala.** Radiusi  $0,5\text{ m}$  bo‘lgan maxovik o‘z o‘qi atrofida bir tekis aylanadi. G‘ildirak to‘g‘inida yotgan nuqtalarning tezligi  $2\text{ m/s}$  ga teng. G‘ildirak bir minutda necha marta aylanadi?

(javob:  $n=38,2\text{ ayl./min}$ )

**12-masala.** Ekvatorda turgan jism yer atrofida maxsus yo‘naltiruvchilarda ekvator bo‘ylab bir tekis harakatlanganda erkin tushish tezlanishiga ega bo‘lishi uchun jismga qanday gorizontal tezlik  $\vartheta$  berilishi topilsin. Shuningdek, jism o‘zining avvalgi holatiga qaytib kelguncha o‘tadigan  $T$  vaqt ham aniqlansan. Yer radiusi  $R = 637 \cdot 10^6\text{ sm}$ , ekvatorda og‘irlik kuchining tezlanishi  $g = 978\text{ sm/s}^2$ .

(javob:  $\vartheta = 7,9\text{ km/soat}$ ,  $T = 1,4\text{ soat}$ )

**13-masala.** Radiusi  $R=10\text{ sm}$  bo‘lgan  $A$  val unga ipda osilgan  $P$  tosh bilan aylantiriladi. Toshning harakati  $x=100t^2$  tenglama bilan ifodalanadi, bunda  $x$  - toshdan qo‘zgalmas  $OO_1$  gorizontalgacha bo‘lgan, santimetrlar hisobida ifodalangan masofa,  $t$ - vaqt (sekundlar hisobida).  $t$  paytda valning burchak tezligi  $\omega$  va burchak tezlanishi  $\varepsilon$ , shuningdek, val sirtidagi nuqtaning to‘la tezlanishi  $a$  aniqlansin.



(javob:  $\omega = 20t\text{ rad/s}$ ,  $\varepsilon = 20\text{ rad/s}^2$ ,  $a = 200\sqrt{1+400t^4}\text{ sm/s}$ )


**14-masala.** Val gardishida yotuvchi nuqtalarning tezlanishini tosh bosib o'tgan  $x$  masofa orqali ifodalab, 161- masala umumiy ko'rinishda yechilsin. G'ildirakning radiusi  $R$  va toshning tezlanishi  $\ddot{x} = \omega_0 = \text{const}$

$$(\text{javob: } \omega = \omega_0 \sqrt{\frac{1+4x^2}{R}})$$



---

**15-masala.** Domkrat mexanizmida  $A$  dasta aylan-ganda  $1, 2, 3, 4$  va  $5$  shesternyalar aylana boshlaydi bular domkratning  $B$  tishli reykasini harakatga keltiradi. Agar  $A$  dasta  $\pi \text{ rad/s}$  ga teng burchak tezlik bilan aylansa, tishli reyka tezligining qancha bo'lishi aniqlansin. Shesterna tishlarining soni:  $z_1 = 32$ ,  $z_2 = 24$ ,  $z_3 = 8$ ,  $z_4 = 32$ ; beshinchи shesternyaning radiusi  $r_5 = 4 \text{ sm}$ .

$$(\text{javob: } \vartheta_B = 7,8 \text{ mm/s})$$




**16-masala.** Davriy suratda o'zgaruvchi burchak tezliklarni hosil qilish uchun ikkita bir xil elliptik tishli g'ildiraklar ilashtirilgan. Bularning biri  $O$  o'q atrofida  $\omega = 9\pi \text{ rad/s}$  burchak tezlik bilan tekis aylanadi, ikkinchisini esa birinchi gildirak  $O_1$  o'q atrofida aylantiradi.  $O$  va  $O_1$  o'qlar parallel bo'lib, ellipslarning fokuslaridan o'tadi.  $OO_1$  oraliq  $50 \text{ sm}$  ga teng. Ellipslarning yarim o'qlari  $25 \text{ sm}$  va  $15 \text{ sm}$ .  $O_1$  g'ildirakning eng katta va eng kichik burchak tezliklari topilsin.



$$(\text{javob: } \omega_{\min} = \pi \text{ rad/s}, \omega_{\max} = 81\pi \text{ rad/s})$$


---

**17-masala.** Yarim o'qlari  $a$  va  $b$  bo'lgan bir juft elliptik tishli g'ildiraklarning aylanma harakatini uzatish qonuni chiqarilsin. I g'ildi-rakning burchak tezligi  $\omega_1 = \text{const}$ . O'qlar orasi-dagi masofa  $O_1O_2 = 2a$ ,  $\varphi$  aylanish o'qlarini tutashtiruvchi




to‘g‘ri chiziq bilan I elliptik g‘ildirakning katta o‘qi orasidagi burchak. O‘qlar ellipslarning fokuslari orqali o‘tadi.

**(javob:**  $\omega_2 = \frac{a^2 - c^2}{a^2 - 2ac \cos \varphi + c^2} \cdot \omega_1$  bunda  $c$  ellipslarning chiziqli ekssentrisiteti:  $c = \sqrt{a^2 - b^2}$  )


**18-masala.**  $8\pi \text{ rad/s}$  burchak tezlikka ega bo‘lgan  $O_1$ , g‘ildirak bilan tutashtirilgan  $O_2$  oval g‘ildirakning eng katta va eng kichik burchak tezligi topilsin. G‘ildiraklarning aylanish o‘qlari ovallarning markazlarida joylashgan. O‘qlar orasidagi masofa  $50 \text{ sm}$  ga teng. Ovallarning yarim o‘qlari  $40$  va  $10 \text{ sm}$  ga teng.

**(javob:**  $\omega_{\min} = 2\pi \text{ rad/s}$ ,  $\omega_{\max} = 32\pi \text{ rad/s}$ )



**19-masala.** Radiusi  $r_1 = 10 \text{ sm}$  bo‘lgan tishli konus shaklidagi  $O_1$  g‘ildirakning qancha vaqtidan keyin  $144\pi \text{ rad/s}$  ga teng burchak tezligiga ega bo‘lishi aniqlansin. Tinch holatdagi bu g‘ildirakni radiusi  $r_2 = 15 \text{ sm}$  ga teng va  $4 \text{ rad/s}^2$  burchak tezlanishga ega bo‘lib, tekis tezlanish bilan aylanadigan konus shaklidagi  $O_2$  g‘ildirak aylantiradi.

**(javob:**  $t=24 \text{ s}$ )




## IX BOB. QATTIQ JISMNING TEKIS PARALLEL HARAKATI

### 9.1 Qattiq jismning tekis parallel harakati


Barcha nuqtalari biror qo‘zg’almas tekislikka parallel harakatla-nuvchi qattiq jismning harakatiga tekis parallel harakat deyiladi.

Jismning tekis parallel harakatiga misol qilib g’ildirakning to‘g’ri chiziqli yo‘lda dumalashi, shatunning krivoship – shatun mexanizmdagi harakati va boshqa harakatlarni ko‘rsatish mumkin. Qattiq jismni qo‘zg’almas o‘q atrofidagi aylanma harakati, tekis parallel harakatning xususiy holi hisoblanadi.

Jismning tekis parallel harakatini ko‘rib chiqamiz. Biror qo‘zg’almas  $\Pi$  tekislikka nisbatan harakatlanayotgan qattiq jism berilgan bo‘lsin.



9.1-rasm



9.2-rasm

Qattiq jismni qo‘zg’almas  $\Pi$  tekislikka parallel bo‘lgan Oxy tekislik bilan kesamiz. Kesimda  $S$  qirqim hosil bo‘ladi (9.1 – rasm). Kelgusida  $S$  qirqimni tekis shakl deb ataymiz. Tekis parallel harakat ta‘rifiga ko‘ra, jismning harakati davomida bu  $S$  tekis shakl qo‘zg’almas  $\Pi$  tekislikka parallel bo‘lgan Oxy tekisligida harakatlanadi.  $S$  tekis shaklga perpendikulyar  $MM^1$  kesma, jism harakati davomida doimo o‘z–o‘ziga parallel ko‘chadi, demak kesma ilgarilanma harakat qiladi. Shunday qilib, qattiq jismning tekis parallel harakatini o‘rganish uchun jismda  $\Pi$  qo‘zg’almas tekislikka parallel bo‘lgan  $S$  tekis shaklning Oxy tekisligidagi harakatini bilish kifoya.

*S* tekis shaklning *Oxy* tekislikdagi holati tekis shaklda o‘tkazilgan qandaydir *AB* kesmaning holati bilan aniqlanadi (9.2 - rasm).


O‘z navbatida *AB* kesmaning holati *A* nuqtani  $x_A, y_A$  koordinatalari va *AB* kesmaning  $x$  o‘qi bilan tashkil qilgan  $\varphi$  burchak yordamida aniqlash mumkin. *S* tekis shaklning holatini aniqlash uchun tanlangan *A* nuqtani bundan keyin qutb deb ataymiz. Tekis shakl harakatlanganda  $x_A, y_A$  koordinatalar va  $\varphi$  burchak  $t$  vaqtga bog’liq ravishda o‘zgaradi.

$$x_A = f_1(t), \quad y_A = f_2(t), \quad \varphi = f_3(t) \quad (9.1)$$

Harakat qonunini aniqlovchi (9.1) tenglamalar tekis shaklning harakat tenglamalari yoki bo‘lmasa, qattiq jismning tekis parallel harakat tenglamalari deyiladi. (9.1) tengliklarning birinchi ikkitasi,  $\varphi = const$  bo‘lganda tekis shaklning harakat tenglamasini ifodalarydi. Bu harakat ilgarilanma harakat bo‘lib hisoblanadi. Uchinchi tenglama  $x_A = const$ ,  $y_A = const$  bo‘lganda tekis shaklning *A* qutb atrofidagi aylanma harakatini ifodalarydi.

Yuqoridagilardan shu narsani bilib olish mumkinki, tekis shakl o‘z tekisligida qiladigan tekis parallel harakati uning barcha nuqtalari xuddi qutb kabi harakat qiluvchi ilgarilanma va qutb atrofidagi aylanma harakatlarning yig’indisidan iborat ekan.

Tekis parallel harakatning asosiy kinematik harakteristikalari, qutbning tezlik va tezlanishiga teng bo‘lgan ilgarilanma harakat tezligi va tezlanishi ( $\bar{g}_{il} = \bar{g}_A, \bar{a}_{il} = \bar{a}_A$ ) va qutb atrofida aylanishi natijasida olgan burchak tezlik va burchak tezlanishlar bo‘lib hisoblandi. Vaqtning istalgan  $t$  payti uchun harakteristikalarining qiymatlari (9.1) tenglamalardan foydalanib topiladi.



9.3-rasm

Harakatni o‘rganishda qutb deb tekis shaklning istalgan nuqtasini olish mumkin. Qutb deb  $A$  nuqtani emas, tekis shaklning qandaydir  $C$  nuqtasini olaylik.  $CD$  kesmaning holati  $CD$  ning  $Ox$  o‘q bilan hosil qilgan  $\varphi_1$  burchak orqali aniqlanadi (9.3 – rasm).

Bunday holda ilgarilanma harakatni harakterlovchi kattaliklar o‘zgaradi, ya‘ni  $\bar{\vartheta}_A \neq \bar{\vartheta}_C$  va  $\bar{a}_A \neq \bar{a}_C$  (shunday bo‘lmasa tekis shaklning harakati ilgarilanma harakatdan iborat bo‘lar edi). Aylanma harakatning kinematik harakteristikalarini ya‘ni  $\omega$  va  $\varepsilon$  lar o‘zgarmasdan qoladi. Haqiqatdan ham  $C$  nuqtadan  $AB$  parallel  $CB$ , kesmani o‘tkazamiz, vaqtning istalgan payti uchun


$$\varphi_1 = \varphi - \alpha \quad (9.2)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi. Bunda  $\alpha = \text{const}$  ekanligini e‘tiborga olib, (9.2) tenglikdan vaqt bo‘yicha ikki marta hosila olamiz  $\frac{d\varphi_1}{dt} = \frac{d\varphi}{dt}$ ,  $\frac{d^2\varphi_1}{dt^2} = \frac{d^2\varphi}{dt^2}$  yoki  $\omega_1 = \omega$ ,  $\varepsilon_1 = \varepsilon$  ekanligi kelib chiqadi.


Demak, harakatning aylanma harakat qismi qutbning o‘zgarishiga bog’liq bo‘lmas ekan.

## 9.2 Tekis shakl nuqtasining tezligini qutb yordamida aniqlash

Yuqorida qayd qilinganidek, tekis shaklning harakati tekis shaklning barcha nuqtalari  $A$  qutbning  $\bar{\vartheta}_A$  tezligiga teng tezlik bilan harakatlanuvchi ilgarilanma va qutb atrofidagi aylanma harakat yig’indisidan iborat. Tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezligi tekis shaklning har bir harakatida olgan tezliklarning geometrik yig’indisiga teng ekanligini ko‘rsatamiz.



9.4-rasm



9.5-rasm

$A$  va  $B$  nuqtalarning qo‘zg’almas  $Oxy$  koordinata sistemasiga nisbatan radius – vektorlari  $\overline{r}_A$  va  $\overline{r}_B$  bo‘lsin.

$B$  nuqtaning qo‘zg’aluvchi  $Ax_1y_1$  koordinata sistemasiga nisbatan radius – vektorini  $\overline{r}'$  bilan belgilab (9.4–rasm) quyidagini yozamiz.

$$\overline{r}_B = \overline{r}_A + \overline{r}'$$

Tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha birinchi tartibli hosila

$$\text{olamiz: } \overline{\vartheta}_B = \frac{d\overline{r}_B}{dt} = \frac{d\overline{r}_A}{dt} + \frac{d\overline{r}'}{dt}$$

Bunda  $\frac{d\overline{r}_A}{dt} = \vartheta_A$   $A$  qutbning tezligi,  $\frac{d\overline{r}'}{dt} = \overline{\vartheta}_{BA}$   $B$  nuqtaning  $A$  nuqta atrofida aylanishida olgan tezligi, u holda quyidagini hosil qilamiz:

$$\overline{\vartheta}_B = \overline{\vartheta}_A + \overline{\vartheta}_{BA} \quad (9.3)$$

$B$  nuqtaning  $A$  qutb atrofida aylanishida olgan  $\overline{\vartheta}_{BA}$  tezligini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin.


$$\overline{\vartheta}_{BA} = \overline{\omega} \times \overline{BA} \quad (\overline{\vartheta}_{BA} \perp \overline{BA}) \quad (9.4)$$

$\omega$ - tekis shaklning burchak tezligi.

Shunday qilib, tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezligi, qutb deb tanlangan  $A$  nuqtaning tezligi bilan  $B$  nuqtani qutb atrofida aylanishida olgan tezliklarining geometrik yig’indisiga teng.  $\overline{\vartheta}_B$  tezlikning moduli va yo‘nalishi parallelogramm asosida topiladi (9.5 – rasm).

### 9.3 Jism ikki nuqtasi tezliklarining proaksiyalari haqida teorema

Tekis shakl (yoki tekis parallel harakat qilayotgan jism) nuqtasining tezligini (9.3) formula yordamida aniqlash bir muncha murakkab hisoblashlar bilan bog’liq.



9.6-rasm

Tekis shakl nuqtasining tezligini aniqlashning amaliy jihatdan qulay va sodda usullari ham mavjudki quyida shu usullardan biri bilan tanishamiz.

**Teorema.** Qattiq jism ikkita nuqtasi tezliklarining shu nuqtalardan o‘tuvchi o‘qdagi proeksiyalari o‘zaro teng.

**Izbot.** Tekis shaklning qandaydir ikkita  $A$  va  $B$  nuqtalarni ko‘rib chiqamiz.  $A$  nuqtani qutb deb olamiz (9.6-rasm), u holda (9.3) formulaga ko‘ra  $B$  nuqtaning tezligi quyidagi ko‘rinishda aniqlanadi

$$\overline{\vartheta_B} = \overline{\vartheta_A} + \overline{\vartheta_{BA}}$$

Tenglikning har ikkala tomonini  $AB$  bo‘ylab yo‘nalgan o‘qqa proeksiyalaymiz:


$$\vartheta_B \cos \beta = \vartheta_A \cos \alpha \quad (9.5)$$

$\overline{\vartheta_{BA}}$  vektor  $AB$  o‘qqa perpendikulyar yo‘nalgani uchun uning o‘qdagi proeksiyasi nolga teng.

Agar (47) tenglik bajarilmasa u holda tekis shakl (yoki jism) harakatlanayotganida  $A$  va  $B$  nuqtalar orasidagi masofa o‘zgarishi kerak, bunday bo‘lishi mumkin emas, chunki qattiq jismni absolyut qattiq jism deb olamiz. Teorema izbotlandi.

#### 9.4 Tekis shakl nuqtasining tezligini tezliklar oniy markazi yordamida aniqlash

Tekis parallel harakat qiladigan qattiq jism nuqtasining tezligini aniqlashning sodda usuli tezliklarning oniy markazi tushunchasiga asoslanadi. Berilgan onda tezligi nolga teng bo‘lgan tekis shakl nuqtasiga tezliklarning oniy markazi deyiladi.



9.7-rasm

Agar tekis shakl (jism) ilgarilanma bo‘lmagan harakat qilayotgan bo‘lsa, vaqtning istalgan paytida tezligi nolga teng bo‘lgan nuqtasi mavjud bo‘ladi. Vaqtning t paytida tekis shaklning  $A$  va  $B$  nuqtalari o‘zaro parallel bo‘lmagan  $\overline{\vartheta_A}$  va  $\overline{\vartheta_B}$  tezliklarga ega bo‘lsin (9.7-rasm).  $\overline{\vartheta_A}$  va  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektorlariga  $Aa$  va  $Bb$  perpendikulyarlar o‘tkazamiz. Bu perpendikulyarlar qandaydir  $P$  nuqtada kesishadi.  $P$  nuqta tezliklarining oniy markazi bo‘ladi ( $\vartheta_p = 0$ ). Faraz qilaylik  $\vartheta_p \neq 0$  bo‘lsin. U holda tezliklarning proeksiyalari haqidagi teoremagaga asosan  $\overline{\vartheta_p}$  vektor bir vaqtning o‘zida  $AP$  va  $BP$  larga perpendikulyar bo‘lishi lozim, lekin bunday bo‘lishi mumkin emas. Teoremadan shu narsa kelib chiqadiki, vaqtning shu paytida tekis shaklning tezligi nolga teng bo‘lmagan boshqa bir nuqtasi mavjud bo‘lmaydi.

Agar vaqtning shu paytida  $P$  nuqtani qutb deb olsak (9.3) formulaga ko‘ra  $A$  nuqtaning tezligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\overline{\vartheta_A} = \overline{\vartheta_p} + \overline{\vartheta_{PA}}$$

Bizga ma‘lumki  $\overline{\vartheta_p} = 0$ , u holda  $A$  nuqtaning tezligi  $\overline{\vartheta_A} = \overline{\vartheta_{PA}}$ . (9.4) formulaga ko‘ra

$$\vartheta_A = \omega \cdot \overline{PA} \quad (\overline{\vartheta_A} \perp \overline{PA}) \quad (9.5)$$

Xuddi shuningdek  $B$  nuqtaning tezligi

$$\vartheta_B = \omega \cdot \overline{PB} \quad (\overline{\vartheta_A} \perp \overline{PB}) \quad (9.6)$$

(9.6) va (9.6<sup>1</sup>) tengliklardan quyidagi nisbatni yozamiz

$$\frac{\vartheta_A}{PA} = \frac{\vartheta_B}{PB} \quad (9.7)$$

Tekis shakl nuqtalarining tezliklari shu nuqtalardan tezliklarining oniy markazigacha bo‘lgan masofalarga to‘g’ri proporsional.

Olingan natijalardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi.

1. Tekis shakl ikkita  $A$  va  $B$  nuqtalari tezliklarining yo‘nalishlari ma‘lum bo‘lsin (9.7-rasm).  $A$  va  $B$  nuqtalardan  $\overline{\vartheta_A}$  va  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektorlariga

perpendikulyarlar o‘tkazsak ularning kesishgan  $P$  nuqtasi tezliklar oniy markazi bo‘lib hisoblanadi.

2. Tekis shakl istalgan nuqtasining tezligini aniqlash uchun, tekis shaklda biror  $A$  nuqtasining tezligini moduli va yo‘nalishi boshqa bir  $B$  nuqtani tezligining yo‘nalishini bilish kerak.  $A$  va  $B$  nuqtalardan  $\overline{\vartheta_A}$  va  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektorlariga perpendikulyarlar tushirib tezliklar oniy markazi  $P$  nuqtani va  $\overline{\vartheta_A}$  tezlik vektorining yo‘nalishiga qarab, tekis shaklning aylanish yo‘nalishini aniqlaymiz.  $\overline{\vartheta_A}$  ni bilgan holda (9.7) formuladan tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezligi aniqlanadi.  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektori  $PB$  ga perpendikulyar tekis shakl aylanish yo‘nalishi tomonga yo‘nalgan bo‘ladi.

3. Tekis shaklning burchak tezligi vaqtning berilgan paytda qandaydir nuqtasi tezligining tezliklar oniy markazdan shu nuqtagacha bo‘lgan masofaga bo‘lgan nisbatga teng:

$$\omega = \frac{\vartheta_B}{PB} \quad (9.8)$$

$\omega$  ning boshqacha ifodalanishini topamiz.

(9.3) va (9.4) tengliklardan


$$\overline{\vartheta_{BA}} = (\overline{\vartheta_B} - \overline{\vartheta_A}) \text{ va } \overline{\vartheta_{BA}} = \omega \cdot AB .$$

bulardan quyidagini hosil qilamiz.

$$\omega = \frac{\vartheta_{BA}}{AB} = \frac{|\overline{\vartheta_B} - \overline{\vartheta_A}|}{AB} \quad (9.9)$$

Tezliklar oniy markazini topishning xususiy hollari bilan tanishamiz.


a) Silindr shaklidagi jism qo‘zg’almas sirt ustida sirpanmasdan dumalayotgan bo‘lsa, dumalayotgan jismning qo‘zg’almas sirtga tutinish  $P$  nuqtasi, sirpanish bo‘lmaganda tezligi nolga ( $\overline{\vartheta_p} = 0$ ) teng bo‘ladi. Demak,  $P$  nuqta tezliklar oniy



9.8-rasm

markazi bo‘lib hisoblanadi. Bunga g’ildirakning rels ustida dumalashini misol qilib ko‘rsatish mumkin (9.8-rasm)

*b)* Tekis shakl  $A$  va  $B$  nuqtalarning tezlik vektorlari o‘zaro parallel, hamda  $AB$  chiziq  $\overline{\vartheta_A}$  ga perpendikulyar bo‘lmasa (9.9-rasm, a) bunday holda tezliklar oniy markazi cheksizlikda yotadi. Tekis shakl barcha nuqtalarning tezliklari  $\overline{\vartheta_A}$  ga parallel bo‘ladi. Tezliklarning proyeksiyalari haqidagi teoremagaga ko‘ra  $\vartheta_A \cos \alpha = \vartheta_B \cos \beta$  bundan  $\vartheta_A = \vartheta_B$ . Demak, vaqtning shu paytida jism barcha nuqtalari moduli va yo‘nalishi bir hil bo‘lgan tezlikka ega bo‘lib jism ilgarilanma harakat qiladi. Shu paytda jismning  $\omega$  burchak tezligi (9.9) formulaga ko‘ra nolga teng.



9.9-rasm

*c)* Tekis shakl  $A$  va  $B$  nuqtalarning tezlik vektorlari o‘zaro parallel hamda  $AB$  chiziq  $\overline{\vartheta_A}$  vektorga perpendikulyar bo‘lsa, bunday holda tezliklar oniy markazi  $P$  (9.9-rasm,b) da ko‘rsatilgandek topiladi. Bu holda oldingilarga qaraganda tezliklar oniy markazini topishda  $\overline{\vartheta_A}$  va  $\overline{\vartheta_B}$  tezliklarning yo‘nalishidan tashqari ularning modullari ham ma‘lum bo‘lishi kerak.

*d)* Tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektori va burchak tezligi  $\omega$  ma‘lum bo‘lsa  $\overline{\vartheta_B}$  tezlik vektori ustida yotuvchi tezliklar oniy markazi  $P$  (9.9-rasm,b) gacha bo‘lgan masofa (9.8) formuladan topiladi.

## 9.5 Sentroidalar haqida tushuncha

Umumiy holda tezliklar oniy markazi vaqtning o'tishi bilan tekis shaklning harakat tekisligida o'z holatini o'zgartira boradi. Agar tezliklar oniy markazining har ondagi holatini tekis shaklda va harakat tekisligida belgilab borsak, ularning geometrik o'rni ikkita chiziqni ifodalaydi.

Tezliklar oniy markazining tekis shakl harakati tekisligidagi geometrik o'rni qo'zg'almas sentroida deyiladi.

Tezliklar oniy markazining tekis shaklga bog'langan tekislikdagi geometrik o'rni qo'zg'aluvchan sentroida deyiladi.


Masalan qo'zg'almas rels ustida sirpanmay dumalayotgan g'ildirak uchun qo'zg'almas sentroida to'g'ri chiziq, qo'zg'aluvchi sentroida g'ildirak gardishidagi aylanadan iborat (9.10-rasm).

Har onda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan sentroidalar tezliklar oniy markazi P nuqtada umumiy urinish nuqtasiga ega bo'ladi. Shu sababli qattiq jismning tekis parallel harakatini geometrik tarzda quyidagicha talqin qilish mumkin: tekis shaklning harakati qo'zg'aluvchan sentroidani qo'zg'almas sentroida ustida sirpanmasdan dumalashidir.

## 9.6 Tekis shakl nuqtasining tezlanishini qutb yordamida aniqlash

Tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezlanishi tekis shaklning ilgarilanma va aylanma harakatlarida olgan tezlanishlarining geometrik yig'indisidan iborat ekanligini ko'rsatamiz.  $B$  nuqtaning  $Oxy$  koordinata sistemasiga nisbatan holati (9.4-rasmga qarang) quyidagicha aniqlangan edi:  $\overline{r_B} = \overline{r_A} + \overline{r}$  bu yerda  $\overline{r'} = \overline{AB}$ .

Tenglikni har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha ikkinchi tartibli hosila olamiz.




9.10-rasm

$$\overline{\overline{a}_B} = \frac{d^2 \overline{r}_B}{dt^2} = \frac{d^2 \overline{r}_A}{dt^2} + \frac{d^2 \overline{r}'_B}{dt^2}$$

Tenglikning o‘ng tomonidagi birinchi qo‘shiluvchi had  $A$  nuqtaning  $\overline{\overline{a}_A}$  tezlanishini, ikkinchi qo‘shiluvchi had esa tekis shaklning  $A$  qutb atrofida aylanishida olgan  $\overline{\overline{a}_{BA}}$  tezlanishini beradi, u holda:

$$\overline{\overline{a}_B} = \overline{\overline{a}_A} + \overline{\overline{a}_{BA}} \quad (9.10)$$



9.11-rasm

Tezlanish  $\overline{\overline{a}_{BA}}$  aylanma harakat qilayotgan nuqtaning tezlanishi kabi (8.12) formula yordamida topiladi

$$\overline{\overline{a}_{BA}} = BA\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4}, \quad \operatorname{tg} \mu = \frac{\varepsilon}{\omega^2} \quad (9.11)$$

bu yerda  $\omega$  va  $\varepsilon$  - tekis shaklning burchak tezligi va burchak tezlanishi,  $\mu - \overline{\overline{a}_{BA}}$  tezlanish vektori bilan  $BA$  kesma orasidagi burchak (9.11 – rasm).


Shunday qilib, tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezlanishi, qutb deb tanlangan nuqtaning tezlanishi va tekis shaklning qutb atrofida aylanishida  $B$  nuqtaning olgan tezlanishlarining geometrik yig’indisiga teng.  $\overline{\overline{a}_B}$  tezlanishning moduli va yo‘nalishi parallelogramm qurish asosida topiladi (9.11-rasm).  $B$  nuqtaning  $\overline{\overline{a}_B}$  tezlanishini tasvirlangan parallelogramm yordamida hisoblash bir oz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Avval  $\mu$  ning qiymatini, keyin esa  $\overline{\overline{a}_{BA}}$  va  $\overline{\overline{a}_A}$  vektorlar orasidagi burchakni aniqlash lozim. Shunga ko‘ra masalalarni yechishda  $\overline{\overline{a}_{BA}}$  tezlanish vektori  $\overline{\overline{a}_{BA}^\tau}$  urinma va  $\overline{\overline{a}_{BA}^n}$  normal tashkil etuvchilar bilan almashtiriladi, u holda (9.10) tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$\overline{\overline{a}_B} = \overline{\overline{a}_A} + \overline{\overline{a}_{BA}^\tau} + \overline{\overline{a}_{BA}^n} \quad (9.12)$$

$\overline{\overline{a}_{BA}^\tau}$  vektor  $AB$  kesmaga doimo perpendikulyar bo‘lib, tezlanuvchan harakatda aylanish yo‘nalishi bo‘ylab (9.12 – rasm, a), sekinlanuvchan harakatda esa aylanish yo‘nalishiga teskari yo‘nalgan bo‘ladi (9.12-

rasm,b).  $\bar{a}_{BA}^n$  vektor doimo  $AB$  bo‘ylab  $B$  nuqtadan  $A$  nuqtaga tomon yo‘nalgan bo‘ladi. Son jihatidan bu tezlanishlar quyidagiga teng.

$$\bar{a}_{BA}^\tau = AB \cdot \varepsilon, \quad \bar{a}_{BA}^n = AB \cdot \omega^2 \quad (9.13)$$



**9.12-rasm**

Agar qutb deb tanlangan  $A$  nuqta ilgarilanma harakat qilmasa, u holda uning tezlanishini ham  $\bar{a}_A^\tau$  urinma va  $\bar{a}_A^n$  normal tashkil etuvchilar yig’indisidan iborat deb qarash lozim, u holda (9.12) tenglik quyidagi ko‘rinishni oladi.


$$\bar{a}_B = \bar{a}_A^\tau + \bar{a}_A^n + \bar{a}_{BA}^\tau + \bar{a}_{BA}^n \quad (9.14)$$

### **9.7 Tekis shakl nuqtasining tezlanishini tezlanishlar oniy markazi yordamida aniqlash**

Agar tekis shakl ilgarilanma bo‘lmagan harakat qilsa vaqtning istalgan paytida unda tezlanishi nolga teng bo‘lgan nuqta mavjud bo‘ladi. Tekis shaklni vaqtning istalgan paytida tezlanishi nolga teng bo‘lgan nuqtasiga tezlanishlar oniy markazi deyiladi. Tezlanishlar oniy markazini aniqlaymiz. Aytaylik tekis shaklning qandaydir biror  $A$  nuqtasining tezlanishi  $\bar{a}_A$ , tekis shaklning burchak tezligi  $\omega$  berilgan bo‘lsin.

1) Burchak  $\mu$  ni aniqlaymiz:  $\tan \mu = \frac{\varepsilon}{\omega^2}$

2) A nuqtadan  $\bar{a}_A$  vektor bilan  $\mu$  burchak tashkil etuvchi  $AE$  to‘g’ri chiziqni o‘tkazamiz (9.13-rasm). Bunda  $AE$  to‘g’ri chiziq aylanish tezlanuvchan bo‘lsa  $\bar{a}_A$  vektordan aylanish yo‘nalishi tomon, agar aylanish sekinlanuvchan bo‘lsa, aylanishga qarama-qarshi tomonga og‘gan bo‘lishi kerak, aniqrog’i,  $\varepsilon$  burchak tezlanishi yo‘nalgan tomonga og‘gan bo‘ladi:



$$AQ = \frac{\bar{a}_A}{\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^2}} \quad (9.15)$$

$AQ$  ga teng kesmani  $AE$  to‘g’ri chiziq ustiga qo‘yib  $Q$  nuqtani aniqlaymiz.  $Q$  nuqta tezlanishlar oniy markazi bo‘lib hisoblanadi. Haqiqatdan ham  $A$  nuqtani qutb deb olib,  $Q$  nuqtaning tezlanishini (9.10) va (9.11) formulalar yordamida hisoblaymiz:

$$\bar{a}_Q = \bar{a}_A + \bar{a}_{QA}$$

Bunda

$$\bar{a}_{QA} = AQ \sqrt{\varepsilon^2 + \omega^2}$$

$$\bar{a}_{QA} = AQ \sqrt{\varepsilon^2 + \omega^2}$$

$AQ$  ning bu qiymatini (9.15) formulaga qo‘ysak  $\bar{a}_{QA} = \bar{a}_A$  kelib chiqadi.

$\bar{a}_{QA}$  vektor  $AQ$  bilan  $\mu$  burchak tashkil etadi. Demak,  $\bar{a}_{QA}$  vektor  $\bar{a}_A$  vektorga parallel lekin qarama – qarshi tomonga yo‘nalgan. Shunga ko‘ra

$$\bar{a}_{QA} = -\bar{a}_A \quad \text{va} \quad \bar{a}_Q = 0$$

Agar  $Q$  nuqtani qutb deb tanlasak, u holda  $\bar{a}_Q = 0$  bo‘ladi. Tekis shakl ixtiyoriy  $B$  nuqtasining tezlanishi (9.10) formulaga ko‘ra

$$\bar{a}_{QA} = \bar{a}_Q + \bar{a}_{BQ} = \bar{a}_{BQ} \quad (9.16)$$

(9.11) formulaga ko‘ra  $B$  nuqtaning tezlanishi son jihatdan quyidagiga teng.

$$\bar{a}_B = BQ\sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (9.17)$$


(9.15) va (9.17) formulalardan

$$\frac{\bar{a}_Q}{BQ} = \frac{\bar{a}_A}{AQ} = \dots = \sqrt{\varepsilon^2 + \omega^4} \quad (9.18)$$

munosabatga ega bo‘lamiz.

Demak, tekis shakl nuqtalarining tezlanishlari, shu nuqtalardan tezlanishlar oniy markazigacha bo‘lgan masofalarga to‘g’ri proporsional bo‘ladi.

Tezlanishlarning taqsimlanishi 9.14-rasmda tasvirlangan. Tezliklar oniy markazi  $P$  bilan tezlanishlar oniy markazi  $Q$  vaqtning bu paytida ustma-ust tushmaydi. Masalan, to‘g’ri chiziqli rels bo‘ylab markazi  $C$  o‘zgarmas tezlik ( $\bar{\vartheta}_c = const$ ) harakatlanayotgan g’ildirakning tezliklar oniy markazi g’ildirak bilan rels tutinib turgan  $P$  nuqtasi hisoblanadi ( $\bar{\vartheta}_p = 0$ ) lekin,  $P$  nuqta tezlanishlar oniy markazi bo‘la olmaydi chunki  $\bar{a}_p \neq 0$ . Bu holda tezlanishlar oniy markazi to‘g’ri chiziqli tekis harakatlanayotgan g’ildirakning  $C$  markazi bo‘ladi, bu nuqtaning tezlanishi  $\bar{a}_c = 0$ . Qo‘zg’almas o‘q atrofida aylanayotgan jismda tezliklar oniy markazi bilan tezlanishlar oniy markazi ustma-ust tushadi.



**9.14-rasm**

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Tekis shaklning qanday nuqtasiga tezliklar oniy markazi deyiladi?
2. Tezliklar oniy markazini aniqlashning qanday usullari mavjud?
3. Sentroida nima?
4. Qo‘zg’aluvchan sentroida deb nimaga aytiladi?
5. Qo‘zg’almas sentroida deb nimaga aytiladi?
6. Qutb yordamida tekis shakl ixtiyoriy nuqtasining tezlanishini aniqlash formulasini keltirib chiqaring?
7. Tekis shakl ixtiyoriy nuqtasining tezlanishini geometrik usulda qanday topiladi?
8. Tekis shaklning qanday nuqtasiga tezlanishlar oniy markazi deyiladi?
9. Tezliklar oniy markazi bilan tezlanishlar oniy markazi ustma–ust tushadimi?

## 9.8 Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar:

**1-masala.** To‘g’ri chiziqli relesda sirpanmasdan dumalayotgan g’ildirak gardishidagi  $M$  nuqtaning tezligini aniqlang . G’ildirak markazi  $C$  nuqtaning tezligi  $\overline{\vartheta}_c$ , burchak  $DKM = \alpha$  bo‘lsin (9.15-rasm).

**Yechilishi:** G’ildirak markazi  $C$  nuqtaning tezligi ma‘lum bo‘lgani uchun, bu nuqtani qutb deb olamiz, u holda  $M$  nuqtaning tezligi  $\overline{\vartheta}_M = \overline{\vartheta}_c + \overline{\vartheta}_{MC}$  bu yerda  $\overline{\vartheta}_{MC} \perp \overline{MC}$   $\overline{\vartheta}_{MC}$  ning moduli  $\overline{\vartheta}_{MC} = \omega \cdot MC = \omega \cdot R$  ( $R$ — g’ildirakning radiusi). G’ildirak sirpanmasdan dumalayotgani uchun  $\overline{\vartheta}_K = 0$   $K$  nuqtaning tezligini quyidagi ko‘rinishda yozamiz.

$$\overline{\vartheta}_K = \overline{\vartheta}_c + \overline{\vartheta}_{KC} \text{ bu yerda } \overline{\vartheta}_{KC} = \omega \cdot KC = \omega \cdot R$$


$K$  nuqtaning tezligi  $\overline{\vartheta}_K = 0$  bo‘lgani uchun  $\overline{\vartheta}_{KC} = \overline{\vartheta}_c$  bunda  $\omega = \frac{\overline{\vartheta}_c}{R}$ . Buni e‘tiborga olsak  $\overline{\vartheta}_{MC} = \frac{\overline{\vartheta}_c}{R} \cdot R = \overline{\vartheta}_c$ .

Demak  $\overline{\vartheta}_{MC} = \overline{\vartheta}_c$   $\overline{\vartheta}_c$  va  $\overline{\vartheta}_{MC}$  tezliklar asosida qurilgan parallelogramm rombdan iborat bo‘ladi va vektorlar orasidagi burchak  $\beta$  ga teng. O’z navbatida  $\beta = 2\alpha$ . Markaziy burchak o‘zi tiralib turgan yoy bo‘lgani uchun  $\overline{\vartheta}_c$  va  $\overline{\vartheta}_M$  vektorlar orasidagi burchak hamda  $\overline{\vartheta}_{MC}$  va  $\overline{\vartheta}_M$  vektorlar orasidagi burchak ham  $\alpha$  ga teng.

Rombning dioganallari o‘zaro perpendikulyar bo‘lganligidan.

$$\overline{\vartheta}_M = 2\overline{\vartheta}_c \cos \alpha \text{ va } \overline{\vartheta}_M \perp \overline{KM}$$

**2-masala:**  $AB$  sterjen tekis parallel harakat qiladi.  $A$  nuqtaning tezligi shu paytda  $5 \text{ m/s}$  bo‘lib, sterjen bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiladi.  $B$  nuqtaning tezligi shu paytda sterjenning davomi bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi (9.16-rasm,a). Agar  $AB=2m$  bo‘lsa,  $B$  nuqtaning tezligini, tezliklar oniy




9.15-rasm

markazini, sterjenning burchak tezligini aniqlang. Shuningdek sterjenning o‘rtasidagi  $D$  nuqtaning tezligini ham aniqlang.

**Yechilishi:** Graffo analitik usulda yechish. (45) formulaga ko‘ra  $B$  nuqtaning tezligi

$$\overline{\vartheta_B} = \overline{\vartheta_A} + \overline{\vartheta_{BA}} \quad (1)$$

(1) formulaga ko‘ra tezliklar uchburghagini quramiz. (9.16-rasm,b) bu uchburghakning bitta tomoni va barcha burchaklari ma‘lum, shunga



**9.16-rasm**

$$\vartheta_B = \vartheta_A \operatorname{tg} 60^\circ = 5\sqrt{3} m/s \approx 8,05 m/s \quad (2)$$

bu yerda

$$\vartheta_{BA} = \omega \cdot BA = 2 \cdot \omega \quad (3)$$

(1) va (3) lardan  $\omega$  ni aniqlaymiz.

$$2 \cdot \omega = 10 \quad \omega = \frac{10}{2} \frac{\text{rad.}}{\text{s}} = 5 \frac{\text{rad.}}{\text{s}}$$

Sterjen o‘rtasidagi D nuqtaning tezligini aniqlaymiz.

$$\vartheta_B = \vartheta_A + \frac{1}{2} \vartheta_{BA}$$

Tezliklar uchburghagini quramiz (9.16-rasm,c) bu uchburghakning ikkita tomoni o‘zaro teng, ya‘ni:

$\vartheta_A = \frac{1}{2} \vartheta_{BA} = 5 \text{ m/s}$  Bu ikkala tomon orasidagi burchak  $60^\circ$ . Demak bu uchburchak teng tomonli.  $D$  nuqtaning tezligi ham  $\vartheta_D = 5 \text{ m/s}$

Endi bu masalani tezliklar oniy markazi yordamida yechamiz. Buning uchun  $A$  va  $B$  nuqtalar tezlik vektorlariga perpendikulyarlar tushiramiz. Bu perpendikulyarlar qandaydir  $P$  nuqtada kesishadi.  $P$  nuqta tezliklar oniy markazi bo‘lib hisoblanadi. Uchburchak  $ABP$  ning bitta tomoni va barcha burchaklari ma‘lum. Uchburchakning  $AP$  va  $BP$  tomonlarini aniqlaymiz (9.16– rasm,d).

$$AP = AB \sin 30^\circ = 2 \cdot 0,5 = 1 \text{ m}$$

$$BP = AB \cos 30^\circ = 2 \frac{\sqrt{3}}{2} \approx 1,73 \text{ m}$$

$AB$  sterjenning burchak tezligi

$$\omega = \frac{\vartheta_A}{AP} = \frac{5}{1} = 5 \frac{\text{rad}}{\text{s}}$$

$B$  nuqtaning tezligi

$$\vartheta_B = \omega BP = 5 \cdot 1,73 = 8,65 \frac{\text{m}}{\text{s}}$$

$D$  nuqtaning tezligining aniqlash uchun  $D$  nuqtani  $P$  nuqta bilan tutashtiramiz. Hosil bo‘lgan  $\Delta ADP$  dan  $AD=AP=1 \text{ m}$ . Demak uchburchak teng tomonli. Shunga ko‘ra  $DP=1 \text{ m}$ , u holda  $\vartheta_D = \omega \cdot DP = 5 \cdot 1 \text{ m/s} = 5 \text{ m/s}$

$D$  nuqtaning tezligi  $DP$  ga perpendikulyar yo‘nalgan.

**3-masala:** Krivoship mexanizmining  $OA$  krivoshipi  $O$  nuqta atrofida  $\omega_{OA}$  burchak tezlik bilan aylanmoqda  $OA=r$  va  $AB=l$  deb olib,  $OA$  krivoship porshenning yo‘naltiruvchi o‘qi bilan  $\varphi$  burchak hosil qilganda  $AB$  shatunning burchak tezligi va  $B$  porshenning tezligining aniqlang. (9.17-rasm, a).


**Yechilishi:** Krivoshipning burchak tezligi va uzunligini bilgan holda krivoship  $A$  nuqtasi (barmoq) ning tezligini aniqlaymiz:

$$\vartheta_A = \omega_{OA} \cdot OA = r \cdot \omega_{OA}$$

Krivoship A nuqtasining tezligi  $OA$  ga perpendikulyar  $B$  porshenning tezligi esa  $OB$  bo‘ylab yo‘nalgan  $A$  va  $B$  nuqtalarning tezlik vektorlariga perpendikulyarlar o‘tkazamiz, ular qandaydir nuqtada kesishadi. Bu nuqta tezliklar oniy markazi bo‘lib hisoblanadi. Uni  $P_{AB}$  deb belgilaymiz.  $A$  nuqtadan tezliklar oniy markazigacha bo‘lgan masofani hisoblaymiz.

$$AP_{AB} = \frac{AL}{\cos \varphi}$$

lekin  $AL = KB = \sqrt{AB^2 - AK^2} = \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}$



**9.17-rasm**

$AL$  ning o‘rniga qiymatini qo‘yamiz.

$$AP_{AB} = \frac{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}}{\cos \varphi}$$

AB shatunning burchak tezligi

$$\omega_{AB} = \frac{\vartheta_A}{AP_{AB}} = \frac{r \omega_{OA}}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}} = \frac{r \omega_{OA} \cdot \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}}$$

B porshenning tezligini topish uchun  $BP_{AB}$  ni aniqlaymiz.

$$BP_{AB} = LP_{AB} + LB = AP_{AB} \sin \varphi + AK = \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi} \cdot \operatorname{tg} \varphi + r \sin \varphi$$

## B porshenning tezligi


$$\vartheta_B = BP_{AB}\omega_{AB} = \left( \sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi} \operatorname{tg} \varphi + r \sin \varphi \right) \cdot \frac{r \omega_{OB} \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}} = \left( r^2 \sin \varphi + \frac{r^2 \sin \varphi \cos \varphi}{\sqrt{l^2 - r^2 \sin^2 \varphi}} \right) \omega_{OA}$$

$\varphi = 0$  bo‘lganda, shatunning tezliklar oniy markazi  $B$  nuqta bilan ustma-ust tushadi. Natijada shatunning barcha nuqtalari  $B$  nuqta atrofida aylanalar chizadi (9.17-rasm,b).

Shatunning burchak tezligi

$$\omega_{AB} = \frac{\vartheta_A}{PA} = \frac{r}{l} \omega_{OA}$$


$B$  porshenning tezligi  $\vartheta_B = 0$ ,  $\varphi = 90^\circ$ , bo‘lganda krivoshipning  $A$  nuqtasi va  $B$  porshenning tezliklari o‘zaro parallel bo‘ladi. Shunga ko‘ra  $AB$  shatunning tezliklar oniy markazi cheksizlikda yotadi (9.18-rasm).



9.18-rasm

Bu paytda  $AB$  shatunning barcha nuqtalari bir xil  $\overline{\vartheta_A}$  tezlikka ega bo‘ladi. Chunki  $\omega_{AB} = 0$ .

**4-masala.** Radiusi  $R$  bo‘lgan g’ildirak gorizontal to‘g’ri chiziq bo‘ylab sirpanmasdan g’ildiraydi. G’ildirak markazi  $C$  ning tezligi o‘zgarmas va  $\vartheta$  ga teng. G’ildirak bilan bog’langan y o‘q boshlang’ich paytda vertikal bo‘lib, qo‘zg’almas  $\eta$  o‘q shu paytda g’ildirakning  $C$  markazi orqali o‘tadi. G’ildirakning harakat tenglamalari aniqlansin.  $C$  nuqta qutb deb olinsin (9.19-rasm).



9.19-rasm

**Yechilishi:** Koordinatalar sistemasini shaklda ko‘rsatilganday qilib tanlaymiz.

G'ildirakning C markazi  $\xi$  o‘qiga parallel to‘g’ri chiziq bo‘ylab  $\vartheta$  o‘zgarmas tezlik bilan tekis harakat qilgani uchun uning  $\eta$  koordinatasi o‘zgarmas va  $R$  ga teng, ya’ni  $\eta_c = R$

$\xi$  koordinatasi esa quyidagiga teng:  $\xi_c = \vartheta \cdot t$


Endi  $\varphi$  burchakni topamiz. G'ildirak  $\varphi$  burchakka burilganda uning chetidagi nuqtalar  $R\varphi$  ga teng yoy chizadi va g'ildirak markazining  $\vartheta \cdot t$  ko‘chishiga teng bo‘ladi, ya’ni

$$R\varphi = \vartheta \cdot t$$

bundan  $\varphi = \frac{\vartheta}{R}t$

---

**5-masala.** To‘g’ri chiziqli yo‘naltiruvchi bo‘ylab sirpanuvchi  $A$  va  $B$  nuqtalar l uzunlikdagi  $AB$  sterjen bilan birlashtirilgan.  $A$  mufta  $\vartheta_A$  o‘zgarmas tezlik bilan harakatlanadi.  $A$  muftani  $O$  nuqtadan harakatlana boshlagan deb hisoblab,  $AB$  sterjenning harakat tenglamalari yozilsin. Qutb uchun  $A$  nuqta olinsin.  $BOA$  burchak  $\pi - \alpha$  ga teng (9.20-rasm).



9.20-rasm

**Yechilishi:**  $A$  nuqtaning  $x_A, y_A$  koordinatalarini topamiz. Koordinatalar sistemasini shaklda ko‘rsatilgandek qilib tanlaymiz. Shakldan ma’lumki:

$$x_A = OA \cos \alpha, \quad y_A = OA \sin \alpha$$

$A$  nuqta o‘zgarmas tezlik bilan tekis harakat qilgani uchun  $OA = \vartheta_A \cdot t$  ga teng bo‘ladi. Demak  $A$  nuqta

$$x_A = \vartheta_A t \cos \alpha, \quad y_A = \vartheta_A t \sin \alpha$$

tenglamalarga muvofiq harakatlanadi.

**6-masala.**  $AB$  sterjenning  $A$  uchi  $\vartheta$  o‘zgarmas tezlik bilan to‘g’ri chiziqli yo‘naltiruvchida sirpanadi va bunda sterjen harakat vaqtida  $D$  shtiftga tayanadi. Sterjen va uning  $B$  uchi harakati tenglamalari yozilsin. Sterjen uzunligi  $l$  ga teng. Shtift to‘g’ri chiziqli yo‘naltiruvchidan  $H$  balandlikka o‘rnatalgan. Harakatning boshlanishida sterjenning  $A$  uchi qo‘zg’almas koordinatalar sistemasi boshi  $O$  nuqta bilan ustma-ust tushgan.  $OM=a$ .

$A$  nuqtani qutb deb olinsin (9.21-rasm).

**Yechilishi:** Sterjenning  $A$  qutb atrofida aylanishini  $\varphi$  burchak orqali belgilaymiz.  $A$  nuqta  $x$  o‘qi bo‘ylab yo‘nalgani uchun hamma vaqt  $y_0=0$ . Endi  $x_A$  koordinatasi topiladi.  $A$  nuqta  $\vartheta$  tezlik bilan tekis harakat qilgani uchun  $x_A - OA = \vartheta t$  bo‘ladi.

Shakldan ko‘rinadiki

$$\frac{H}{AC} = \operatorname{tg} \varphi \quad AC = a - \vartheta t$$

bundan


$$\frac{H}{a - \vartheta t} = \operatorname{tg} \varphi \quad \varphi = \operatorname{arctg} \frac{H}{a - \vartheta t}$$

Endi  $B$  nuqtani koordinatalari topiladi.

$$x_B = OA + AE \quad OA = \vartheta t \quad AE = l \cos \varphi$$

$$\cos \varphi = \frac{1}{\sqrt{1 + \operatorname{tg}^2 \varphi}} = \frac{a - \vartheta t}{\sqrt{(a - \vartheta t)^2 + H^2}}$$

Natijada




9.21-rasm

$$x_B = \vartheta t + \frac{a - \vartheta t}{\sqrt{(a - \vartheta t)^2 + H^2}} l$$

$$y_B = BE = l \sin \varphi = \frac{Hl}{\sqrt{(a - \vartheta t)^2 + H^2}}$$

**7-masala.** G'ildirak gorizontga  $30^\circ$  og'gan qiya tekislik bo'ylab dumalaydi. G'ildirakning


$O$  markazi  $x_0 = 10t^2$  sm qonun bilan harakatlanadi. Bunda  $x$ - qiya tekislikka parallel yo'nalgan o'q. G'ildirak  $O$  markaziga uzunligi 36 sm ga teng  $OA$  sterjen ilib qo'yilgan. Bu sterjen  $O$  nuqtadan rasm tekisligiga perpendikulyar ravishda o'tuvchi gorizontal o'q atrofida  $\varphi = \frac{\pi}{3} \sin \frac{\pi}{6} t$  rad. qonunga binoan aylanib tebranadi.  $t=1$  s payt uchun  $OA$  sterjen  $A$  uchining tezligi topilsin (9.22-rasm, a).



9.22-rasm (a)

**Yechilishi:** Tezlikning yo'nalishlarini chizmada ko'rsatilgan kabi bo'ladi. Bunda g'ildirakning boshlang'ich tezligi qiya tekislik bo'ylab yo'nalgan bo'lib harakat tenglamasidan vaqt bo'yicha olingan hosilaga tengdir (9.22-rasm,b).  $\vartheta_0 = \frac{dx_0}{dt} = 20t$

$t=1$  s da boshlang'ich tezlik  $20 \text{ sm/s}$  tezlikka erishadi.



9.22-rasm

qiymat o'rinali bo'lib u harakat tekisligiga qarama-qarshi yo'naladi. Vaqtni hisobga olgan holda tezlikni aniqlaymiz. Unga ko'ra

$$\vartheta_{AO} = \omega \cdot AO = \frac{d\varphi}{dt} \cdot AO$$

$$\vartheta_{AO} = \sqrt{3}\pi^2 \text{ sm/s}^2$$

Sterjen A nuqtasining tezligi esa tezliklar farqi  $\vartheta_A = \vartheta_0 - \vartheta_{AO}$  ga teng bo'lib uning miqdoriy qiymati  $2,9 \text{ sm/s}$  bo'ladi.

**8-masala.** Har birining radiusi  $r$  bo'lgan ikkita bir xil disk A silindrik sharnir vositasida birlashtirilgan. I disk O qo'zg'almas gorizontal o'q atrofida  $\varphi = \varphi(t)$  qonunga binoan aylanadi. II disk A gorizontal o'q atrofida  $\psi = \psi(t)$  qonunga asosan aylanadi. O va A o'qlar rasm tekisligiga perpendikulyar.  $\varphi$  va  $\psi$  burchaklar vertikaldan soat strelkasi harakatiga teskari yo'nalishda hisoblanadi. II disk C markazining tezligi topilsin (9.23-rasm).

**Yechilishi:** Shakldan foydalanib C nuqtaning koordinatalarini aniqlaymiz.

$$x_c = r \sin \varphi + r \sin \psi$$

$$y_c = -r \cos \varphi - r \cos \psi$$


Bu tenglamalardan vaqt bo'yicha birinchi tartibli hosilalarni olib C nuqta tezligining proyeksiyalari aniqlanadi.

$$\vartheta_{cx} = \frac{dx_c}{dt} = r \dot{\varphi} \cos \varphi + r \dot{\psi} \cos \psi$$

$$\vartheta_{cy} = \frac{dy_c}{dt} = r \dot{\varphi} \sin \varphi + r \dot{\psi} \sin \psi$$

C nuqta tezligining modulini topamiz

$$\vartheta_c = \sqrt{\vartheta_{cl}^2 + \vartheta_{cy}^2} = r \sqrt{\dot{\varphi}^2 + \dot{\psi}^2 + 2\dot{\varphi}\dot{\psi} \cos(\varphi - \psi)}$$



9.23-rasm

**9-masala.** Uzunligi 0,5 m bo‘lgan AB sterjen rasm tekisligida harakatlanadi.  $\vartheta_A$  tezlik 2 m/s bo‘lib sterjen bilan ustma-ust tushgan x o‘q bilan  $45^\circ$  burchak hosil qiladi. B nuqtaning  $\vartheta_B$  tezligi x o‘q bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. B nuqta tezligining kattaligi va sterjenning burchak tezligi topilsin (9.24-rasm).




9.24-rasm

**Yechilishi:** Tekis shakl nuqtasi ning tezligini proyeksiya usuli bilan aniqlashga oid teoremagaga asosan bu ikki nuqtaning shu nuqtalardan o‘tuvchi o‘qqa nisbatan proyeksiyalari o‘zaro tengdir. Ya’ni:

$$\vartheta_B \cos \beta = \vartheta_A \cos \alpha$$

$$\vartheta_B = \frac{\vartheta_A \cos \alpha}{\cos \beta} = 2,82 \text{ m/s}$$



9.25-rasm

Bu ikki A va B nuqtalar uchun bitta P nuqta topiladiki bu nuqta oniy markaz hisoblanadi. Tekis shakl nuqtalarining tezliklari shu nuqtalardan tezliklar oniy markazigacha bo‘lgan masofalarga to‘g’ri proporsional bo‘ladi (9.25-rasm).

Sinuslar teoremasiga asosan AP masofani topib olamiz

$$\frac{AP}{\sin 30^\circ} = \frac{AB}{\sin 15^\circ}$$

bundan  $AP = 0,966 \text{ m}$  hosil bo‘ladi. Bu ikkala nuqta uchun P nuqtaga nisbatan burchak tezliklari bir xil bo‘ladi.

$$\omega_{AB} = \frac{\vartheta_A}{AP} = 2,06 \text{ rad/s}$$

**10-masala.** Sharnirli  $ABCD$  to‘rt zvenolikda yetakchi  $AB$  krivoship  $\omega_0 = 6\pi \text{ rad/s}$  o‘zgarmas burchak tezlik bilan aylanadi.  $AB$  krivoship bilan  $BC$  sterjen bir to‘g’ri chiziqda yotgan paytda  $CD$  krivoship va  $BC$  sterjenning oniy burchak tezliklari topilsin (9.26-rasm).  $BC=3AB$ .

**Yechilishi:** Chizmadan ma’lumki  $B$  nuqta tezligidan o‘tkazilgan perpendikulyar  $C$  nuqtadan ham o‘tadi. Demak  $C$  nuqta shaklning oniy aylanish markazi bo‘ladi.  $A$  doimiy aylanish markaziga nisbatan  $B$  nuqta tezligi topiladi.


$$\begin{aligned}\vartheta_B &= AB \cdot \omega_0 \\ \vartheta_B &= BC \cdot \omega_{BC}\end{aligned}$$

bundan

$$\omega_{BC} = \frac{AB \cdot \omega_0}{BC} = \frac{AB}{3AB} \omega_0 = 2\pi \text{ rad/s}$$

hosil bo‘ladi. Qaralayotgan holda  $C$  nuqtaga nisbatan  $DC$  sterjen tinch holatda turibdi, shuning uchun  $\omega_{CD} = 0$  o‘rinlidir.

**11-masala.** Rasmda harakatlarni qo‘shadigan mexanizm tasvirlangan. O’zaro parallel ikkita 1- va 2- reykalar  $\vartheta_1$  va  $\vartheta_2$  o‘zgarmas tezliklar bilan bir tomonga harakatlanishadi. Reykalar orasiga r radiusli, reykalar bo‘ylab sirpanmay dumalaydigan disk qisilgan. Diskning  $C$  o‘qiga mahkamlangan 3-reykaning tezligi 1- va 2- reykalar tezliklari yig’indisining yarmiga tengligi ko‘rsatilsin. Shuningdek diskning burchak tezligi topilsin (9.26-rasm).




9.26-rasm

**Yechilishi:** Chizmadan tezliklar yo‘nalishini belgilaymiz va shunday  $P$  nuqta topamizki bu nuqta oniy markaz bo‘lsin (9.27-rasm). Bunda burchak tezliklar bir xil bo‘ladi va  $\vartheta = \omega \cdot r$

formuladan barcha  $\omega$  larni tenglashtiramiz.

$$\begin{aligned}\frac{\vartheta_1}{2r+a} &= \frac{\vartheta_2}{a} = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{2r} \\ \frac{\vartheta_1}{2r+a} &= \frac{\vartheta_c}{r+a} = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{r}\end{aligned}$$



Bundan  $\vartheta_c = \frac{\vartheta_1 + \vartheta_2}{2}$ ; va  $\omega = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{2r}$  hosil bo‘ladi.

**Yechilishi:** Chizmadan tezliklar yo‘nalishini belgilaymiz va shunday  $P$  nuqta topamizki bu nuqta oniy markaz bo‘lsin (9.27-rasm). Bunda burchak tezliklar bir xil bo‘ladi va  $\vartheta = \omega \cdot r$


formuladan barcha  $\omega$  larni tenglashtiramiz.

$$\begin{aligned}\frac{\vartheta_1}{2r+a} &= \frac{\vartheta_2}{a} = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{2r} \\ \frac{\vartheta_1}{2r+a} &= \frac{\vartheta_c}{r+a} = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{r}\end{aligned}$$

Bundan  $\vartheta_c = \frac{\vartheta_1 + \vartheta_2}{2}$ ; va  $\omega = \frac{\vartheta_1 - \vartheta_2}{2r}$  hosil bo‘ladi.

**12-masala.** Mustahkam biriktirilgan  $AME$  to‘g’ri burchak shaklidagi mexa-nizm shunday harakatlanadiki, bunda

$A$  nuqta har doim Oy qo‘zg’almas o‘qda qoladi. Boshqa  $ME$  tomoni esa, aylanuvchi  $B$  sharnir orqali o‘tadi. Masofa  $MA=OB=a$ .  $A$  nuqtaning  $\vartheta_A$  tezligi o‘zgarmas.  $M$  nuqtaning tezlanishi  $\varphi$  burchakning funksiyasi sifatida aniqlansin (9.28-rasm, a).



**Yechilishi:** Tekis mexanizmning  $A$  va  $B$  nuqtalarining tezliklaridan perpendikulyar chiqarib,  $P$  oniy aylanish markazi topiladi (9.28-rasm,b).


Bu markazga nisbatan  $\vartheta_A = AP \cdot \omega$  bundan  $\omega = \frac{\vartheta_A}{AP}$ .

Shakldan ma'lumki  $\cos \varphi = \frac{CP}{AP} = \frac{MP}{AB}$

bundan  $AP = \frac{MP}{\cos \varphi}$ .

$$ON = \frac{a \sin \varphi}{1 + \sin \varphi}; NB = OB - ON = \frac{a}{1 + \sin \varphi}$$

$$\cos \varphi = \frac{MB}{NB} \text{ ifodadan}$$



9.28-rasm

Shaklning  $A$  nuqtasi vertikal

bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan harakatlangani uchun uning tezlanishi nolga teng. Shuning uchun tezlanishlar markazi sifatida  $A$  nuqta olinadi. Shu  $A$  nuqtaga nisbatan  $M$  nuqtaning tezlanishlari topiladi.

$$a_{MA}^{(n)} = AM \cdot \omega^2 = a \cdot \frac{\vartheta_A^2 (1 + \sin \varphi)^2}{a^2} = \frac{\vartheta_A^2 (1 + \sin \varphi)^2}{a}$$

$$a_{MA}^{(\tau)} = \frac{\vartheta_A^2}{a} \cos^2 \varphi (1 + \sin^2 \varphi)$$

To'la tezlanish quyidagicha topiladi:

$$a_A = \sqrt{(a_{MA}^{(n)})^2 + (a_{MA}^{(\tau)})^2} = \frac{\sqrt{2} \vartheta_A^2}{2} (1 + \sin \varphi)^{3/2}$$

Endi tezlanishning yo'nalishi topiladi:

$$\operatorname{tg} \mu = \frac{\varepsilon}{\omega^2} = \frac{\cos \varphi (1 + \sin \varphi)}{(1 + \sin \varphi)^2} = \frac{1 - \operatorname{tg} \frac{\varphi}{2}}{1 + \operatorname{tg} \frac{\varphi}{2}}$$


$$\text{yoki } \operatorname{tg} \mu = \frac{\pi}{4} - \frac{\varphi}{2}.$$

## 9.9 Mustaqil yechish uchun masalalar

**1-masala.** Radiusi  $20 \text{ sm}$  bo‘lgan diskning  $xy$  vertikal tekislikdagi harakatida uning  $C$  markaz  $x_C = 10t, y_C = 100 - 4,9t^2 \text{ m}$  tenglamalarga asosan harakatlanadi. Shu bilan birga, disk o‘zining tekisligiga perpendikulyar bo‘lgan  $C$  gorizontal o‘q atrofida  $\omega = \frac{\pi}{2} \text{ rad/s}$

$t=0$  bo‘lgan paytda disk gardishidagi  $A$  nuqtaning tezligi aniqlansin.  $A$  nuqtaning diskdagi holati vertikalga nisbatan soat strelkasi aylanishiga teskari yo‘nalishda hisoblanadigan  $\varphi = \omega t$  burchak bilan aniqlanadi.

(javob: Tezlik gorizontal bo‘ylab o‘ng tomonga yo‘nalgan va qiymati  $10,31 \text{ m/s}$  ga teng )




**2-masala.** Oldingi masalaning shartlarini saqlagan holda,  $A$  nuqtaning  $t=1\text{s}$  paytga mos keluvchi tezligi aniqlansin.

(javob:  $\vartheta_{Ax} = 10 \text{ m/s}, \vartheta_{Ay} = -9,49 \text{ m/s}, \vartheta_A = 13,8 \text{ m/s},$ )

**3-masala.** Uzunligi  $1 \text{ m}$  bo‘lgan  $AB$  sterjen doimo o‘zining uchlari bilan o‘zaro tik  $Ox$  va  $Oy$  to‘g’ri chiziqlarga tayanib harakat qiladi. Burchak  $OAB = 60^\circ$  bo‘lgan paytda tezliklar oniy markazining  $x$  va  $y$  koordinatalari topilsin.

(javob:  $x=0,866 \text{ m}, y=0,5 \text{ m}$ )




**4-masala.**  $AB$  to‘g’ri chiziq rasm tekisligida harakatlanadi. Bir paytda  $A$  nuqtaning  $\vartheta_A$  tezligi  $180 \text{ sm/s}$  ga teng bo‘lib,  $AB$  to‘g’ri chiziq bilan  $30^\circ$  burchak tashkil qiladi. Shu paytda  $B$  nuqta

tezligining yo‘nalishi  $AB$  to‘g’ri chiziq yo‘nalishi bilan bir xilda bo‘ladi.  $B$  nuqtaning  $\vartheta_B$  tezligi aniqlansin.

(javob:  $\vartheta_B = 156 \text{ sm/s}$ )

---


**5-masala.** Charxlovchi stanok,  $O$  o‘q atrofida  $\varphi = \frac{\pi}{6} \sin \frac{\pi}{2} t \text{ rad}$ . qonun bilan tebranuvchi  $OA = 24 \text{ sm}$  pedal bilan harakatga keltiriladi ( $\varphi$  burchak gorizontal ga nisbatan hisoblanadi).  $K$  charx tosh  $AB$  sterjen yordamida  $O_1$  o‘q atrofida aylanadi.  $O$  va  $O_1$  o‘qlar rasm tekisligiga perpendikulyar.  $t=0$  bo‘lgan paytda  $OA$  va  $O_1B$  zvenolar gorizontal holatda joylashgan deb, radiusi  $R = 2BO_1$  ga teng  $K$  charxlovchi tosh gardishidagi  $D$  nuqtaning shu paytdagi tezligi topilsin.



(javob:  $\vartheta_D = 39,44 \text{ sm/s}$ )

---


**6-masala.** Sharnirli to‘rt zvenoli mexanizm  $OA$  sterjenining bur-chak tezligi  $\omega_1$  ga teng.  $O_2B$  ster-jenining  $\omega_2$  burchak tezligi  $O_1A$  va  $O_2B$  sterjenlarning aylanish o‘qlaridan  $AB$  shatungacha bo‘lgan eng qisqa masofalar  $O_1D$  va  $O_2E$  hamda  $\omega_1$  orqali



ifodalansin.

(javob:  $\omega_2 = \omega_1 \frac{O_1D}{O_2E}$ )


**7-masala.** Gidravlik pressning  $D$  por-sheni  $OABD$  sharnir-richag mexanizmi vositasida harakatga keltiriladi. Rasmida tasvirlangan



holatda  $OL$  richag  $\omega = 2 \text{ rad/s}$  burchak tezlikka ega. Agar  $OA = 15 \text{ sm}$  bo'lsa,  $D$  porshenning tezligi va  $AB$  zvenoning burchak tezligi aniqlansin.


(javob:  $\vartheta_D = 34,6 \text{ sm/s}$ ,  $\omega_{AB} = 2 \text{ rad/s}$ )

**8-masala.** Tebranuvchi silindrli mashinadagi krivoshipning uzunligi  $OA = 15 \text{ sm}$ . Krivoshipning burchak tezligi  $\omega_0 = 15 \text{ rad/s} = \text{const}$ . Krivoship shatunga tik bo'lgan paytda porshen tezligi va silindrning burchak tezligi topilsin.




(javob:  $\vartheta = 225 \text{ sm/s}$ ,  $\omega = 0$ )

**9-masala.** 1 qo'zg'aluvchan va 2 qo'zg'almas bloklar cho'zilmaydigan ip bilan bog'langan. Ipning uchiga biriktirilgan  $K$  yuk  $x = 2t^2 \text{ (m)}$  qonun bilan vertikal bo'ylab pastga tushadi.  $t=1 \text{ s}$  bo'lgan paytda rasmida tasvirlangan holat uchun harakatlanuvchi blok gardishida yotuvchi  $C$ ,  $D$ ,  $B$  va  $E$  nuqtalarning tezliklari topilsin. Qo'zg'aluvchi 1 blok radiusi  $0,2 \text{ m}$  ga teng.  $CB \perp BE$ . Shuningdek, 1 blokning burchak tezligini ham toping.



(javob:  $\vartheta_C = 0$ ,  $\vartheta_D = 2 \text{ m/s}$ ,  $\vartheta_B = \vartheta_E = 2\sqrt{2} \text{ m/s}$ ,  $\omega = 10 \text{ rad/s}$ )

**10-masala.**  $R = 0,5 \text{ m}$  radiusli g'ildirak to'g'ri chiziqli yo'l uchastkasida sirg'anmay g'ildiraydi. G'ildirak markazining tezligi o'zgarmas bo'lib,  $\vartheta_0 = 10 \text{ m/s}$  ga teng. G'ildirakning vertical va gorizontal diametrlarining uchlari bo'l mish  $M_1, M_2, M_3$  va  $M_4$  nuqtalarning tezliklari,




shuningdek, g'ildirakming burchak tezligi aniqlansin.

**(javob:**  $\vartheta_1 = 0$ ,  $\vartheta_2 = \vartheta_4 = 14,4 \text{ m/s}$ ,  $\omega = 20 \text{ rad./s}$  )

**11-masala.** Tekis parallel harakat qilayotgan

12 sm uzunlikdagi bir jinsli AB sterjen uchlarining tezlanishlari AB ga perpendikulyar va bir tomonga yo'nalgan bo'lib,


$a_A = 24 \text{ sm/s}^2$ ,  $a_B = 12 \text{ sm/s}^2$ . Sterjenning burchak tezligi va burchak tezlanishi shuningdek uning C og'irlilik markazining tezlanishi topilsin.



**(javob:**  $\omega = 0$ ,  $\varepsilon = 1 \text{ rad./s}^2$  C nuqtaning tezlanishi AB ga perpendikulyar, A va B nuqtalar tezlanishlari yo'nalishda bo'lib miqdori  $18 \text{ sm/s}^2$  ga teng ).

**12-masala.** Teng tomonli ABC uchburchak rasm tekisligida harakatlanadi. Uchburchak A va B uchlarining tezlanishlari biror paytda  $16 \text{ sm/s}^2$  ga teng bo'lib, uchburchak tomonlari bo'ylab yo'nalgan. Uchburchakning C uchining tezlanishi aniqlansin.

**(javob:**  $a_c = 16 \text{ sm/s}^2$  va C dan B ga yo'nalgan).



## X BOB. MODDIY NUQTANING MURAKKAB HARAKATI


### 10.1 Nuqtaning nisbiy, ko‘chirma va absolyut harakati

Biz shu vaqtga qadar nuqta yoki jismning harakatini bitta sanoq sistemasiga nisbatan o‘rganib keldik. Ayrim hollarda mexanika masalalarini yechishda nuqta yoki jismning harakatini bir vaqtning o‘zida ikkita: bulardan biri shartli ravishda qo‘zg`almas, ikkinchisi esa birinchisiga nisbatan harakatda bo‘lgan sanoq sistemalariga nisbatan o‘rganishga to‘g`ri keladi.

Bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq harakatlarga ishtirok etuvchi nuqtaning harakatiga murakkab harakat deyiladi. Suzib ketayotgan kema palubasida dumalayotgan koptokning harakati qirg`oqqa nisbatan murakkab harakatda bo‘ladi. Koptokning harakating ikkita sodda harakatga ajratish mumkin.

$M$  nuqta biror  $Oxyz$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatlanayotgan bo‘lsin. O‘z navbatida  $M$  nuqta bu koordinatalar sistemasi bilan birgalikda qo‘zg`almas deb olingan  $O_1x_1y_1z_1$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatlansin (10.1–rasm). Odadta har ikkala kordinatalar sistemasi ham ma‘lum jismlarga biriktirilgan deb qaraladi. Quyidagi qoidalarni kiritamiz.

1.  $M$  nuqtaning qo‘zg`aluvchan  $Oxyz$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatiga nisbiy harakat deyiladi (bunday harakatni shu sanoq sistemasi bilan bog`liq bo‘lgan va shu sanoq sistema bilan birgalikda harakatlanayotgan kuzatuvchi ko‘radi). Nuqtaning nisbiy harakatida qoldirgan  $AB$  traektoriyasiga nisbiy traektoriya deyiladi.  $M$  nuqtaning  $Oxyz$  koordinata sistemasiga nisbatan harakat tezligiga nisbiy tezlik ( $\bar{\vartheta}_r$ ), tezlanishiga nisbiy tezlanishi ( $\bar{a}_H$ ) deyiladi. ( $\bar{\vartheta}_r$ ) va ( $\bar{a}_H$ ) kattaliklarni aniqlashda  $Oxyz$  koordinatalar sistemasini qo‘zg`almas deb qarash mumkin.




10.1-rasm

2. Qo‘zg`aluvchan  $Oxyz$  koordinatalar sistemasi va u bilan o‘zgarmas ravishda bog’langan jism (nuqta) ning qo‘zg`almas  $O_1x_1y_1z_1$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakati ko‘chirma harakat deyiladi.

Vaqtning berilgan paytida harakatdagi  $M$  nuqta bilan ustma–ust tushuvchi qo‘zg`aluvchi koordinatalar sistemasi  $m$  nuqtasining tezligi ko‘chirma tezlik ( $\bar{\vartheta}_e$ ), tezlanishiga ko‘chirma tezlanish ( $\bar{a}_e$ ) deyiladi.

$$\bar{\vartheta}_e = \bar{\vartheta}_m, \quad \bar{a}_e = \bar{a}_m \quad (10.1)$$

3.  $M$  nuqtaning qo‘zg`almas  $O_1x_1y_1z_1$  koordinatalar sistemasiga nisbatan harakatiga absolyut yoki murakkab harakat deyiladi. Nuqtaning harakat paytida qoldirgan  $CD$  traektoriyasiga absolyut trayektoriya, tezligiga absolyut tezlik ( $\bar{\vartheta}_a$ ), tezlanishiga esa absolyut tezlanish ( $\bar{a}_a$ ) deyiladi:



10.2-rasm

Yuqorida keltirilgan misolimizda koptokning kema palubasiga nisbatan harakati nisbiy harakat koptokning tezligi esa nisbiy tezlik; kemaning qirg`oqqa nisbatan harakati koptok uchun ko‘chirma harakat, kema palubasining shu paytda koptok tegib turgan nuqtasining tezligi ko‘chirma tezlik, koptokning qirg`oqqa nisbatan harakati absolyut harakat, koptokning tezligi absolyut tezlik bo‘ladi.

Kinematikaga oid shu masalalarni yechishda, nuqtaning nisbiy, ko‘chirma va absolyut tezliklar miqdori va tezlanishlari orasidagi bog`lanishlarni aniqlash lozim.

## ***10.2 Tezliklarni qo‘shish haqida teorema***

$M$  nuqtaning murakkab harakatini ko‘rib chiqamiz.  $M$  nuqta  $\Delta t = t_1 - t$  vaqt oralig`ida  $AB$  trayektoriya bo‘ylab nisbiy harakatlanib,  $M$  nuqtadan  $M'$  nuqtaga kelsin (10.2-rasm,a). Shu vaqt oralig`ida  $AB$  egri chiziq qo‘zg`aluvchan  $Oxyz$  sistemasi bilan birgalikda harakatlanib  $A_1, B_1$  holatni egallaydi. Vaqtning  $t$  paytida  $AB$  egri chiziqning m nuqtasi bilan ustma-ust tushuvchi  $M$  nuqta, shu vaqtning ichida ko‘chirma harakat qilib,  $M$  ( $m$ ) nuqtadan  $m_1$  nuqtaga keladi. Natijada  $M$  nuqta  $\Delta t$  vaqt oralig`ida absolyut harakat qilib,  $M_1$  holatni egallaydi. Vektorlarni yig`indi shaklida ifodalab va tenglikning har ikkala tomonini  $\Delta t$  ga bo‘lib,  $\Delta t$  ni  $0$  ga intiltirib limit olamiz:

$$\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{MM_1}{\Delta t}} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{Mm_1}{\Delta t}} + \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{m_1 M_1}{\Delta t}}$$

Yuqorida aytilganga ko‘ra

$$\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{MM_1}{\Delta t}} = \overline{\vartheta_a}, \quad \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{Mm_1}{\Delta t}} = \overline{\vartheta_e}$$

yozamiz.  $\Delta t$  nolga intilganda  $A_1, B_1$  egri chiziq  $AB$  bilan ustma-ust tushishga intiladi, u holda

$$\lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{M_1 m_1}{\Delta t}} = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \overline{\frac{MM'}{\Delta t}} = \overline{\vartheta_r}$$

Natijada quyidagini hosil qilamiz:

$$\overline{\vartheta_a} = \overline{\vartheta_r} + \overline{\vartheta_e} \quad (10.2)$$

Shunday qilib, tezliklarni qo‘shish haqidagi quyidagi teoremani isbotladik: murakkab harakatda nuqtaning absolyut tezligi nisbiy va ko‘chirma tezliklarning geometrik yig` indisiga teng.

10.2-(b) rasmida hosil bo‘lgan figuraga tezliklar parallelogrammi deyiladi. Absolyut tezlikning moduli kosinuslar teoremasiga asosan topiladi.

$$\bar{g}_a = \sqrt{\bar{g}_r^2 + \bar{g}_e^2 + 2\bar{g}_r\bar{g}_e \cos \alpha} \quad (10.3)$$

burchak  $\alpha - \bar{g}_r$  va  $\bar{g}_e$  tezlik vektorlari orasidagi burchak.

Nuqtaning nisbiy, ko‘chirma va absolyut tezlanishlari orasidagi bog’lanishni aniqlaymiz. Buning uchun (10.2) tenglikning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha hosila olamiz:

$$\frac{d\bar{g}_a}{dt} = \frac{d\bar{g}_r}{dt} + \frac{d\bar{g}_e}{dt}$$

tenglikning chap tomoni absolyut tezlanishni beradi:

$$\begin{aligned}\bar{a}_a &= \frac{d\bar{g}_a}{dt} \\ \bar{a}_a &= \frac{d\bar{g}_r}{dt} + \frac{d\bar{g}_e}{dt}\end{aligned} \quad (10.4)$$

(10.4) tenglikning o‘ng tomonidagi hadlar tegishlicha nisbiy tezlanish  $\bar{a}_r$  va ko‘chirma tezlanish  $\bar{a}_e$  larni bermaydi. Chunki bu kattaliklar nuqtaning murakkab harakatida qo‘zg’aluvchan sanoq sistemasi harakatining xarakteriga bog’liq.

Nisbiy tezlik  $\bar{g}_r$  va ko‘chirma tezlik  $\bar{g}_e$  vektorlarining nisbiy harakat paytida vaqtga bog’liq o‘zgarishlarini «1» indeks bilan ko‘chirma harakat paytidagisini esa «2» indeks bilan belgilasak (10.4) tenglik quyidagi ko‘rinishni oladi.

$$\bar{a}_a = \frac{(d\bar{g}_r)_1}{dt} + \frac{(d\bar{g}_r)_2}{dt} + \frac{(d\bar{g}_e)_1}{dt} + \frac{(d\bar{g}_e)_2}{dt} \quad (10.5)$$

Nisbiy tezlanishiga berilgan ta‘rifga ko‘ra nisbiy tezlanishning vaqtga bog’liq ravishda o‘zgarishi nisbiy tezlanishni harakterlaydi. Bunda ko‘chirma harakat e‘tiborga olinmaydi. Shunga ko‘ra

$$\bar{a}_r = \frac{(d\bar{g}_r)_1}{dt} \quad (10.6)$$

Shuningdek ko‘chirma tezlanish faqatgina ko‘chirma harakatda ko‘chirma tezlikning vaqtga bog’liq o‘zgarishini xarakterlaydi, ya‘ni  $\bar{a}_K = \bar{a}_m$

Shunga ko‘ra

$$\bar{a}_e = \frac{(d\bar{g}_e)_2}{dt} \quad (10.7)$$

U holda (10.5) tenglikni quyidagi ko‘rinishda yozamiz:


$$\bar{a}_a = \bar{a}_r + \bar{a}_e + \frac{(d\bar{g}_r)_2}{dt} + \frac{(d\bar{g}_e)_1}{dt} \quad (10.8)$$

quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$\bar{a}_{KOP} = \frac{(d\bar{g}_r)_2}{dt} + \frac{(d\bar{g}_e)_1}{dt} \quad (10.9)$$

$\bar{a}_{KOP}$  - Koriolis tezlanishi.

Nuqtaning nisbiy tezligini ko‘chirma harakatda, ko‘chirma tezligining nisbiy harakatda vaqtga bog’liq ravishda o‘zgarishini xarakterlovchi kattalikka aylanma yoki bo‘lmasa Koriolis tezlanishi deyiladi. Natijada (10.8) tenglik quyidagi ko‘rinishni oladi:



10.3-rasm

$$\bar{a}_a = \bar{a}_r + \bar{a}_e + \bar{a}_{KOP} \quad (10.10)$$

Murakkab harakatda nuqtaning absolyut tezlanishi, nisbiy, ko‘chirma va Koriolis tezlanishlarining geometrik yig`indisiga teng.

Bu Koriolis teoremasini ifodalaydi. Endi Koriolis tezlanishini hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz. Hisoblashni  $\frac{(d\bar{g}_r)_2}{dt}$  ni aniqlashdan boshlaymiz. Qarab chiqilayotgan ko‘chirma harakatda AB egri chiziqqa urinma bo‘ylab yo‘nalgan  $\bar{g}_r$  tezlik vektori egri chiziq bilan

birgalikda ilgarilanma harakatlanib  $\overline{m_1 b}$  holatini oladi (10.3-rasm) va bir vaqtning o‘zida  $\overline{m_1 b_1}$  holatni olguncha  $\omega$  burchak tezlik bilan  $m_1$  nuqta atrofida buriladi. Natijada  $\overline{\vartheta_r}$  tezlik vektori ko‘chirma harakatda  $(d\overline{\vartheta_r})_2 = \overline{bb_1} = \overline{\vartheta_b} \cdot dt$  orttirma oladi. Bu erda  $\overline{\vartheta_b} - b$  nuqta  $(\overline{m_1 b}) = \overline{\vartheta_r}$  vektorining  $m_2$  nuqta atrofida aylanish tezligi  $\bar{\omega}$  burchak tezlik bilan aylanish sodir bo‘lgani uchun  $b$  nuqtaning tezlik vektori

$$\overline{\vartheta_b} = \bar{\omega} x \overline{m_1 b} = \bar{\omega} x \overline{\vartheta_r} \cdot dt$$

Natijada quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} (d\overline{\vartheta_r})_2 &= \overline{\vartheta_b} \cdot dt = \bar{\omega} \times \overline{\vartheta_r} dt \\ \frac{(d\overline{\vartheta_r})_2}{dt} &= \frac{(\bar{\omega} x \overline{\vartheta_r}) dt}{dt} = \bar{\omega} x \overline{\vartheta_r} \end{aligned} \quad (10.11)$$

Endi  $\frac{(d\overline{\vartheta_e})_1}{dt}$  ni aniqlaymiz:

$$\overline{\vartheta_e} = \overline{\vartheta_0^1} + \bar{\omega} \times \bar{r}$$

$dt$  vaqt oralig’ida nuqta nisbiy harakatlanib  $\overline{MM^1} = \overline{\vartheta_r} \cdot dt \cdot M^1$  holatni oladi. Bu nuqtaning radius-vektori  $\overline{r^1} = \bar{r} + \overline{MM^1}$  ko‘rinishda bo‘ladi va

$$\overline{\vartheta_e^1} = \overline{\vartheta_0} + \bar{\omega} x \overline{r^1} = \overline{\vartheta_0} + \bar{\omega} \times (\bar{r} + \overline{MM^1})$$

Demak, nuqta  $M$  nuqtadan  $M'$  nuqtaga kelguncha nisbiy harakatlanadi.  $\overline{MM^1} = \overline{\vartheta_r} dt$ ,  $\overline{\vartheta_e}$  ko‘chirma tezlik vektori shu vaqt ichida orttirma oladi.

$(d\overline{\vartheta_e})_1 = \overline{\vartheta_e^1} - \overline{\vartheta_e} = \bar{\omega} \times \overline{MM^1} = \bar{\omega} \times \overline{\vartheta_r} dt$  o‘rniga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{(d\overline{\vartheta_e})_1}{dt} = \bar{\omega} x \overline{\vartheta_r} \quad (10.12)$$

Hosil bo‘lgan tenglamalarni (10.9) ga qo‘yamiz:

$$\overline{a_{KOR}} = 2 (\bar{\omega} x \overline{\vartheta_r}) \quad (10.13)$$

Shunday qilib, Koriolis tezlanishi, ko‘chirma harakat burchak tezligini nuqtaning nisbiy tezligiga bo‘lgan vektorial ko‘paytmasining ikkilanganiga teng

### ***10.3 Ko‘chirma harakat ilgarilanma harakatdan iborat bo‘lganda tezlanishlarni qo‘shish***

Agar qo‘zg’aluvchan sanoq sistemasi ilgarilanma harakat qilayotgan bo‘lsa  $\omega = 0$  bo‘ladi, shunga ko‘ra koriolis tezlanishi  $\overline{\overline{a}_{KOR}} = 0$  bo‘ladi. U holda (10.10) formula quyidagi ko‘rinishni oladi.

$$\overline{\overline{a}_a} = \overline{\overline{a}_r} + \overline{\overline{a}_e} \quad (10.14)$$

Ko‘chirma harakat ilgarilanma harakat bo‘lganda nuqtaning absolyut tezlanishi nisbiy va ko‘chirma tezlanishlarning geometrik yig’indisiga teng.

### ***10.4 Koriolis tezlanishning moduli va yo‘nalishini aniqlash***


Nuqtaning nisbiy tezlanishini hisoblash paytida qo‘zg’aluvchan sanoq sistemasining harakati e‘tiborga olinmaydi. Nisbiy tezlanish nuqtaning tezlanishi kabi topiladi. Ko‘chirma tezlanish qo‘zg’aluvchan sanoq sistemasi bilan chambarchas bog’liq bo‘lgan nuqtaning tezlanishi kabi topiladi.

Koriolis tezlanishi (10.13) formula yordamida aniqlanadi. Agar  $\overline{\omega}$  va  $\overline{\vartheta_r}$  vektorlar orasida burchak  $\alpha$  ga teng bo‘lsa, Koriolis tezlanishining moduli quyidagicha aniqlanadi:

$$a_{KOR} = 2|\omega| \cdot |\vartheta_r| \sin \alpha \quad (10.15)$$

$\overline{\omega}$  vektorni o‘ziga parallel tarzda fikran  $M$  nuqtaga ko‘chirilganda  $\overline{\overline{a}_{KOR}}$  - Koriolis tezlanish vektori  $\overline{\omega}$  va  $\overline{\vartheta_r}$  vektorlar yotgan tekislikka perpendikulyar ravishda shunday yo‘naladiki, uning musbat uchidan qaraganda  $\overline{\omega}$  ni kichik burchakka burib  $\overline{\vartheta_r}$  ustiga tushirish uchun soat mili aylanishiga teskari yo‘nalishda burishi kerak.

10.4 (a) -rasm, dan ko‘rinadiki, Koriolis tezlanishining yo‘nalishini aniqlash uchun, nisbiy tezlik  $\bar{g}_r$  vektorini  $\bar{\omega}$  vektorga perpendikulyar bo‘lgan  $\Pi$  tekislikka proeksiyalab va  $\bar{g}_r^\Pi$  ni mazkur tekislikda ko‘chirma harakat yo‘nalishida  $90^\circ$  burchakka burish kerak.



10.4-rasm

Agar  $\bar{\omega}$  vektori  $\bar{g}_r$  tezlik vektoriga perpendikulyar bo‘lsa, Koriolis tezlanishiing yo‘nalishini aniqlash uchun  $\bar{g}_r$  ni  $\bar{\omega}$  atrofida ko‘chirma harakat aylanishi yo‘nalishida  $90^\circ$  burchakka burish kerak (10.4-rasm,b).

Quyidagi xususiy hollarni ko‘rib chiqamiz.


- 1) Qo‘zg’aluvchan sanoq sistemasi ilgarilanma harakatdan iborat bo‘lsa  $\omega=0$  bo‘ladi, u holda (10.13) formuladan Koriolis tezlanishi  $a_{KOR}=0$  kelib chiqadi.
- 2) Berilgan onda nuqtaning nisbiy tezligi  $g_r=0$  bo‘lsa (10.13) formulaga ko‘ra Koriolis tezlanishi  $a_{KOR}=0$  bo‘ladi.
- 3) Agar  $\alpha=0^\circ$  yoki  $\alpha=180^\circ$  bo‘lsa, berilgan onda nisbiy harakat tezlik vektori ko‘chirma harakat burchak tezligi vektoriga parallel bo‘lsa  $\sin 0^\circ=0$  ekanligidan (10.13) formulaga ko‘ra Koriolis tezlanishi  $a_{KOR}=0$  bo‘ladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Nuqtaning qanday harakatiga nisbiy harakat deyiladi?
2. Nuqtaning qanday harakatiga ko‘chirma harakat deyiladi?
3. Nuqtaning qanday harakatiga absolyut harakat deyiladi?
4. Nuqtaning nisbiy tezligi qanday topiladi?
5. Nuqtaning ko‘chirma tezligi qanday topiladi?
6. Nuqtaning absolyut tezligi qanday topiladi?
7. Tezliklarni qo‘shish haqidagi teoremani aytib bering. Absolyut tezlik modulini topish formulasini yozib bering.
8. Nuqtaning nisbiy ko‘chirma va absolyut tezlanishlari orasida qanday bog’lanish bor?
9. Ko‘chirma harakat ilgarilanma harakat bo‘lmagan harakatdan iborat bo‘lganda nuqtaning absolyut tezlanishi qanday formula yordamida aniqlanadi?
10. Ko‘chirma harakat ilgarilanma harakat bo‘lganda nuqtaning absolyut tezlanishi nimaga teng?
11. Koriolis tezlanishi deb qanday tezlanishga aytildi?
12. Koriolis tezlanishi qanday formula yordamida aniqlanadi?
13. Koriolis tezlanishning modulini aniqlash formulasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
14. Koriolis tezlanishining yo‘nalishi qanday aniqlanadi?
15. Koriolis tezlanishi nuqtaning qanday harakatida paydo bo‘ladi?
16. Koriolis tezlanishi qanday hollarda nolga teng bo‘ladi?


## 10.5 Mavzu yuzasidan masalalar yechish uchun namunalar:

**1-masala** Kema  $\vartheta_0$  tezlik bilan to‘g’ri chiziqli harakat qiladi. Dengiz sathidan  $h$  balandlik va o‘sha kurs bilan  $\vartheta_1$  tezlikda sa-molyot uchib boradi. Samolyot-dan tashlangan vimpel kemaga tushishi uchun vimpelni gori-zontal bo‘yicha hisoblanuvchi qanday masofada tashlash kerak?



10.5-rasm

**2-masala** Agar ekipaj to‘g’-ri chiziqli yo‘lda  $\vartheta_0 = 10 \text{ m/s}$  tezlik bilan tekis harakat qilsa,  $O$  va  $O_1$  o‘qlaridagi krivoshiplarni birlashtiruv-chi  $AB$  sparnikning biror  $M$  nuqtasining absolyut tezla-nishi aniqlansin. G’ildiraklar radiusi  $R=1\text{m}$ , krivo-shiplar radiuslari  $r=0,75\text{m}$  (10.6-rasm).




10.6-rasm

**Yechilishi:** Krivoship  $A$  nuqtasining tezlanishi sparnikning biror  $M$  nuqtasining absolyut tezlanishi bilan bir xil qiymatda bo‘ladi. Bunda sparnik va krivoship bir xil doiraviy chastotada harakatlanadi. Shunga ko‘ra  $a_M = a_A = \omega^2 r$  Krivoshipning doiraviy chastotasi  $\omega = \left(\frac{\vartheta_0}{R}\right)^2$  ga tengligini hisobga olsak  $M$  nuqtaning absolyut tezlanishi  $a_M = \left(\frac{\vartheta_0}{R}\right)^2 \cdot r = 100 \cdot 0,75 = 75 \text{ m/s}^2$  bo‘ladi.

**3-masala** Gorizontal yo‘lda  $72 \text{ km/soat}$  tezlik bilan borayotgan avtomobildagi passajir kabinaning yon oynasiga tushgan yomg’ir tomchisining vertikalga nisbatan  $40^\circ$  ga teng burchakka og’gan trayekto-riyasini kuzatadi. Vertikal tushayot-gan yom-g’ir tomchisining absolyut tezligi

aniqlansin. Tomchi bilan oyna orasi-dagi ishqalanish hisobga olin-masin (10.7-rasm).

**Yechilishi:** Chizmadan ma'lumki yomg'ir tomchisining avtomobil oynasi bilan tashkil qilgan burchagi absolyut va nisbiy tezliklar orasidagi burchak bo'lib, bu burchakning tangensi avtomobil tezligining absolyut tezlikka nisbatiga tengdir. Shunga ko'ra



$$\vartheta_A = \frac{\vartheta_e}{\tan 40^\circ} = \frac{20}{0.839} = 23.8 \text{ m/s}$$

**4 – masala.** ADE uchburchak plastinka z o'qi atrofida  $\varphi = 0.1t^3 - 2.2t$  qonuniyat bo'yicha aylanmoqda. B nuqta AD gipotenuza bo'ylab  $S=AB=2+15t-3t^2$  qonuniyat bo'yicha nisbiy harakatlanadi. Vaqtning  $t_1=2$  paytida B nuqtaning absolyut tezligi  $\bar{v}_a$  va absolyut tezlanishi  $\bar{a}_a$  ni aniqlang (10.8-rasm).

**Yechilishi:** B nuqtaning harakati murakkab harakatdan iborat. B nuqtaning AD gipotenuza bo'ylab harakati nisbiy harakat, plastinkaning z o'q atrofidagi aylanishi ko'chirma harakatdir.

U holda absolyut tezlik va absolyut tezlanish quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$\bar{v}_a = \bar{v}_r + \bar{v}_e, \quad \bar{a}_a = \bar{a}_r + \bar{a}_e + \bar{a}_{kor}$$

*Nisbiy harakat.* B nuqta AD gipotenuza bo'ylab  $s=AB=2+15t-3t^2$  qonuniyat bo'yicha nisbiy harakat qiladi. B nuqtaning nisbiy tezligi va nisbiy tezlanishi

$$\bar{v}_r = \frac{ds}{dt} = \frac{d(2+15t-3t^2)}{dt} = 15-6t \quad \bar{a}_r = \frac{d\bar{v}_r}{dt} = \frac{d(15-6t)}{dt} = -6$$

$t_1 = 2s$  bo‘lganda  $B$  nuqtaning o‘rnini, nisbiy tezligi va nisbiy tezlanishini aniqlaymiz:

$$s = AB_1 = 2 + 15 \cdot 2 - 3 \cdot 4 = 20 \text{ sm}$$

$$\overline{\vartheta_r} = 15 - 6 \cdot 2 = 3 \frac{\text{sm}}{\text{s}}$$

$$\overline{a_r} = -6 \frac{\text{sm}}{\text{s}^2}$$

Kattaliklarning ishoralaridan shuni aniqlash mumkinki,  $B$  nuqtaning nisbiy tezlik vektori  $A$  dan  $D$  nuqta tomon yo‘nalgan, nisbiy tezlanish vektori esa unga teskari yo‘nalgan ekan. Ko‘chirma harakat.  $ADE$  plastinka z o‘q atrofida  $\varphi = 0,1t^3 - 2,2t$  qonuniyat bo‘yicha ko‘chirma (aylanma) harakat qiladi. Ko‘chirma harakatning burchak tezligi  $\omega$  va burchak tezlanishi  $\varepsilon$  larni aniqlaymiz

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d(0,1t^3 - 2,2t)}{dt} = 0,3t^2 - 2,2$$

$$\varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = \frac{d(0,3t^2 - 2,2)}{dt} = 0,6t$$

$$t_1 = 2 \text{ s} \text{ bo‘lganda } \omega = 0,3 \cdot 4 - 2,2 = 1,2 - 2,2 = -1 \text{ s}^{-1} \quad \varepsilon = 1,2 \text{ s}^{-2}$$

Burchak tezlik  $\omega$  burilish burchagi  $\varphi$  ga teskari burchak tezlanish  $\varepsilon$  esa soat mili aylanishiga teskari tomonga yo‘nalgan ekan.  $B_1$  nuqtadan z o‘qigacha bo‘lgan  $h$  masofani aniqlaymiz.

$$h = AB_1 \sin 30^\circ = 20 \cdot 0,5 = 10 \text{ sm}$$

U holda  $B$  nuqtaning ko‘chirma tezligi:

$$\begin{aligned}\overline{\vartheta_e} &= |\omega| \cdot h = |-1| \cdot 10 = 10 \text{ sm/s} \\ \overline{a_e^z} &= |\varepsilon| h = |1,2| \cdot 10 = 12 \text{ sm/s}^2 \\ \overline{a_e^n} &= |\omega^2| h = |-1^2| \cdot 10 = 10 \text{ sm/s}^2\end{aligned}$$

$\overline{\vartheta_e}$  vector  $B_1$  nuqtaga urinma bo‘ylab  $\omega$  burchak tezlik bilan bir tomonga yo‘nalgan bo‘ladi.  $\overline{a_e^z}$  vektor esa  $\overline{\vartheta_e}$  vektor yo‘nalgan to‘g’ri chiziq bo‘ylab

unga teskari ( $\varepsilon$  burchak tezlanish bilan bir tomonga) yo‘nalgan bo‘ladi.  $\overline{a_e^n}$  vektor esa  $B_1$  nuqtadan aylana markazi tomon, ya‘ni aylanish o‘qi tomon yo‘nalgan bo‘ladi.

**Koriolis tezlanishi.** Nisbiy tezlik  $\overline{\vartheta}_r$  vektori bilan aylanish o‘qi orasidagi burchak  $30^\circ$  bo‘lgani uchun, Koriolis tezlanishining moduli

$$a_{KOP} = 2|\vartheta_r| \cdot |\omega| \sin 30^\circ = 2 \cdot 3 \cdot |-1| \cdot 0,5 = 3 \frac{sm}{s^2}$$

Koriolis tezlanishining yo‘nalishni topish uchun nisbiy tezlik  $\overline{\vartheta}_r$  vektorini aylanish o‘qiga perpendikulyar tekislikka proeksiyalab, keyin proeksiyani  $90^\circ$  burchakka, burchak tezligi yo‘nalgan tomonga buramiz. Koriolis tezlanishi  $\overline{a_{KOP}}$  vektori  $\overline{\vartheta}_e$  vektori bilan bir to‘g’ri chiziq bo‘ylab yo‘nalgan

**B nuqtaning absolyut tezligi.**  $\overline{\vartheta}_a$  ni aniqlaymiz.  $\overline{\vartheta}_r$  va  $\overline{\vartheta}_e$  vektorlar o‘zaro perpendikulyar bo‘lgani uchun

$$\vartheta_a = \sqrt{\vartheta_r^2 + \vartheta_e^2} = \sqrt{3^2 + 10^2} = \sqrt{109} = 10,44 \frac{sm}{s}$$

5. B nuqtaning absolyut tezlanishini aniqlaymiz:

$$\overline{a_a} = \overline{a_r} + \overline{a_e^\tau} + \overline{a_e^n} + \overline{a_{KOP}}$$

Absolyut tezlanish  $\overline{a_a}$  ni aniqlash uchun  $B_1xyz$  koordinata sistemasini o‘tkazib koordinata o‘qlariga proeksiyalaymiz:

$$a_{ax} = |a_e^\tau| - a_{KOP} = 12 - 3 = 9 \frac{sm}{s^2}$$

$$a_{ay} = a_e^n + |a_n| \sin 30^\circ = 10 + |-6| \cdot 0,5 = 13 \frac{sm}{s^2}$$

$$a_{az} = |a_r| \cos 30^\circ = |-6| \cdot 0,866 = 5,196 \approx 5,2 \frac{sm}{s^2}$$

$$a_a = \sqrt{a_{ax}^2 + a_{ay}^2 + a_{az}^2} = \sqrt{9^2 + 13^2 + 5,2^2} = 16,64 m/s^2$$

## 10.6 Mustaqil yechish uchun masalalar

**1-masala.** Harakati  $x_1 = 2\cos(\pi t + \pi/2)$ ,  $x_2 = 3\cos(\pi t + \pi)$  tenglamalar bilan ifodalanuvchi ikkita garmonik tebranishlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan nuqtaning to'g'ri chiziqli harakati tenglamasi aniqlansin.

(javob:  $x = \sqrt{13} \cos(\pi t + \alpha)$ , bunda  $\alpha = \arctg 2/3 = 33^0 40'$ .

**2-masala.** O'tloq tepasida muallaq turgan vertolyot yuk tashlaydi va shu zahoti gorizontal sirtga nisbatan  $\alpha$  burchak ostidagi yo'nalishda  $v_0$  tezlik bilan harakatlana boshlaydi. Yukning vertolyotga nisbatan harakat tenglamalari va trayektoriyasi topilsin.(nisbiy koordinatalar sistemasi o'qlari vertolyotning og'irlik markazidan uning gorizontal kursi bo'ylab va vertikal pastga yo'naltirilgan).

(javob:  $x_r = -g_0 t \cos \alpha$ ,  $y_r = gt^2 / 2 + g_0 t \sin \alpha$  trayektoriya parabola.  
 $y_r = -x_r \operatorname{tg} \alpha + \frac{gx_r^2}{2g_0^2 \cos^2 \alpha}$  ).


**3-masala.** A nuqtadan o'tayotgan kema yo'nalishi va miqdori o'zgarmas bo'lgan  $v_0$  tezlik bilan harakatlanadi. Kater B nuqtadan yo'nalishi va miqdori o'zgarmas bo'lgan  $v_1$  tezlik bilan harakatlanib, kema bilan uchrashishi uchun, kater AB to'g'ri chiziqqa nisbatan qanday  $\beta$  burchak ostida harakatlanishi kerak? AB chiziq kema kursiga tik yo'nalish bilan burchak  $\psi_0$  tashkil qiladi.

(javob:  $\sin \beta = \frac{g_0}{g_1} \cos \psi_0$ )

**4-masala.** Kema  $36\sqrt{2} \text{ km/soat}$  tezlik bilan janybga qarab suzmoqda. Ikkinci kema janubiy-sharqqa qarab kurs olib,  $36 \text{ km/soat}$  tezlik bilan bormoqda. Birinchi kema palubasida turgan kuzatuvchi aniqlanadigan ikkinchi kema tezligining yo'nalishi va miqdori topilsin.


(javob:  $g_r = 36 \text{ km/soat}$  bo'lib shimoliy-sharqqa yo'nagan).

**5-masala.** Suv zarralari trubinaga  $u$  tezlik bilan kiradi.  $u$  tezlik va zarralar kira digan nuqtada rotorga o'tkazilgan urinma orasidagi burchak  $\alpha$  ga teng. Rotoring tashqi diametri  $D$ , minutdagi aylanishlar soni  $n$ . Suv trubinaga zarbasiz kirishi uchun, (zarralarning nisbiy tezligi bunda kuraklar bo'y lab yo'nali shi kerak) rotor kuragi bilan suvning kirish nuqtasidagi urinma orasidagi burchak  $\beta$  qancha bo'lishi aniqlansin.




$$(\text{javob: } \operatorname{tg} \beta = \frac{60u \sin \alpha}{60u \cos \alpha - \pi D n})$$

**6-masala.** To'g'ri chiziqli relsda  $v$  tezlik bilan harakatlanuvchi vagonning A va B g'ildiraklari rels bo'y lab sirg'anmay dumalaydi. G'ildiraklarning radiuslari  $r$  ga, o'qlar orasidagi masofa  $d$  ga teng. B g'ildirak bilan o'zgarmaydigan qilib bog'langan koordinatalar sistemasiga nisbatan A g'ildirak markazining tezligi aniqlansin.



$$(\text{javob: Tezlik } \frac{9d}{r} \text{ ga teng, AB ga perpendikulyar va pastga yo'nalgan}).$$


**7-masala.** Krivoship kulisa mexanizmi aylanuvchi kulisasining burchak tezligi krivoshipning to'rtta: ikkita vertikal va ikkita gorizontak holatlari uchun aniqlansin.  $a=60\text{sm}$ ,  $l=80\text{ sm}$  va krivoshipning burchak tezligi  $\pi \text{ rad/s}$  ga teng.



$$(\text{javob: } \omega_I = \frac{4}{7} \pi \text{ rad/s}, \omega_{II} = \omega_{IV} = 0,64\pi \text{ rad/s}, \omega_{III} = 4\pi \text{ rad/s})$$

**8-masala.** O'ng tomonga gorizontal bo'y lab  $a=0492 m/s^2$  tezlanish bilan harakat qiluvchi aravachaga elektr motori o'rnatilgan. Uning rotori harakatga keltirish vaqtida  $\varphi=t^2$  tenglamaga muvofiq aylanadi. Bunda  $\varphi$  burchak radianlar bilan o'lchanadi. Rotorning radiusi 0,2 m ga teng. Rotor to'g'inidagi A nuqtaning t=1s bo'lgandagi absolyut tezlanishi aniqlansin. Shu paytda A nuqta rasmda ko'rsatilgan holda turadi.

(javob:  $a_a=0,746 m/s^2$  - tik yuqoriga yo'nalgan).




**9-masala.** Oldingi masalada A nuqta B holatni egallaganda uning absolyut tezlanishi nolga teng bo'lsa, rotoring tekis aylanishidagi burchak tezligi aniqlansin.

(javob:  $\omega=1,57 rad/s$ ).

**10-masala.** Avtomobil yo'lning to'g'ri chiziqli uchastkasida  $a_0=2 m/s^2$  tezlanish bilan harakat qiladi. Uzunasiga yo'nalgan valga radiusi  $R=0,25 m$  bo'lgan aylanuvchi maxovik o'rnatilgan. Uning shu paytdagi burchak tezligi  $\omega=4 rad/s$  va burchak tezlanishi  $\varepsilon=4 rad/s^2$ . Maxovik to'g'inidagi nuqtalarning shu paytdagi absolyut tezlanishi topilsin.


(javob:  $a=4,58 m/s^2$ ).



**11-masala.** Radiusi  $R=1 m$  bo'lgan yumaloq truba gorizontal O o'q atrofida soat strelkasi bo'y lab  $\omega=1 rad/s$  o'zgarmas burchak tezlik bilan aylanadi. M sharcha trubadagi biror A nuqta atrofida shunday tebranadiki, burchak  $\varphi=\sin \pi t$  qonun bilan o'zgaradi.

$t=2\frac{1}{6} s$  bo'lgan paytda sharcha absolyut


tezlanishining urinma va normal tashkil etuvchilari (tezlanishlari) topilsin.



**(javob:**  $a_\tau = -4,93 \text{ m/s}^2$ ,  $a_n = 13,84 \text{ m/s}^2$  ).

**12-masala.** Markazidan o‘zining tekisligiga perpendikulyar ravishda o‘tuvchi o‘q atrofida aylanayotgan diskning AB vatari bo‘ylab A dan B ga tomon P sharcha  $1,2 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Sharcha disk markazidan  $30 \text{ sm}$  ga teng eng qisqa masofada bo‘lganida uning absolyut tezlanishi topilsin. Shu paytda diskning burchak tezligi  $3 \text{ rad/s}$ , burchak sekinlanishi  $8 \text{ rad/s}^2$  ga teng.

**(javob:**  $a_a = 10,18 \text{ m/s}^2$  ).



**13-masala.** Oldingi masala disk AB vatarga parallel bo‘lgan diametri atrofida aylanadi, deb yechilsin.

**(javob:**  $a_a = 3,612 \text{ m/s}^2$  )

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. HIBBELER R.C. ENGINEERING MECHANICS STATICS & DYNAMICS. TWELFTH EDITION. PRENTICE HALL Upper Saddle River, NJ 07458, 2016. 655 p.
2. Meriam J.L., Kraige L.G. Engineering Mechanics. Statics. Virginia Polytechnic Institute and State University, John Wiley & Sons, Inc. Printed in the United States of America, 2012. 522 p.
3. Alan Darbyshire. Mechanical Engineering. BTEC National Engineering Specialist Units/ Butterworth-Heinemann An imprint of Elsevier Linacre House, Jordan Hill, Oxford OX2 8DP 200 Wheeler Road, Burlington MA 01803, 2010. 407 p.
4. Prof. Dr. ING. Vasile SZolga. Theoretical Mechanics. 2010.
5. Mirsaidov M.M., Boymurodova L.I., G'iyasova N.T. "Nazariy mexanika". O'quv qo'llanma. T.: "ILM ZIYO", 2009. – 224 b.
6. Karimov K.A., Axmedov A.X., Karimova A.R. Nazariy mexanika\ O'quv qo'llanma: -T.: "MALIK PRINT CO" nashhriyoti, 2021. -360 b.
7. Mirsaidov M.M., Mavlanov T.M., Xudaynazarov Sh.O., Donayev B.D. «Nazariy mexanika. Statika». O'quv qo'llanma : -T. : "Zamin nashr", 2021. 270 b.
8. H.To'rayev "Nazariy mexanika", darslik, "Noshir", Toshkent-2012.
9. Rashidov T.R., SHOziyotov SH., Mo'minov K.V. «Nazariy mexanika asoslari», Darslik. T.: «O'qituvchi», 1990. – 412 b.
10. Targ S.M. «Kratkiy kurs teoreticheskoy mexaniki», Uchebnik. M.: «Nauka», 1986.- 220 s.
11. Mesherskiy I.V., Butenin N.V., Lure A.I., Merkin D.R. «Nazariy mexanikadan masalalar to'plami», O'quv qullanma. T.: «O'qituvchi», 1989. – 324 b.
12. Yablonskiy A.A., Noreyko S.S., Volfson S.A. «Nazariy mexanikadan kurs ishlari uchun topshiriqlar to'plami», O'quv qullanma. T.: «O'qituvchi», 2002. – 416 b.
13. O'rozboev M.T."Nazariy mexanika", Darslik. T.: «O'qituvchi», 1979. – 510b.

14. Aziz-Qoriev K.S., Yangurazov SH.X. «Nazariy mexanikadan masalalar echish». O‘quv qullanma. T.: «O‘qituvchi», 1975. – 247 b.
15. Krasyuk A., Rykov A. Sbornik zadaniy dlya raschetno-graficheskix rabot po teoreticheskoy mexanike. Uchebnoe posobie Izdatelstvo NGTU, Novosibirsk, 2013. 164 s.
16. H.T. To‘rayev, A.Tilavov Nazariy mexanika. Statika va kinematika. — Toshkent: Noshir, 2012. 304 bet.
17. Bondar V.S., Ryabov V.G., Petrov V.K., Noritsina G.I. Teoreticheskaya mexanika. Rukovodstvo po resheniyu zadach povyshennoy slojnosti. Uchebnoe posobie. Sankt – Peterburg : Lan, 2020 g, 368 s.
18. YAkovenko G.V. Kratkiy kurs teoreticheskoy mexaniki. 6-izd. – M.:BINOM. Laboratoriya znaniy, 2020. 119 s.
19. Doronin F.A. Teoreticheskaya mexanika. Uchebnoe posobie. Sankt – Peterburg : Lan, 2018 g, 480 s.
20. Lyukshin B.A. Teoreticheskaya mexanika: uchebnik / Tomsk, TUSUR, 2017 g.,142 str.
21. Doe V.S., Doronin F.A Sbornik zadaniy po teoreticheskoy mexanike na baze MATHCAD. Uchebnoe posobie , Izdatelstvo «Lan», 2010 g. 592 s.
22. Jukovskiy N.E. Teoreticheskaya mexanika. Uchebnik dlya vuzov. –M.: Izdatelstvo YUrayt, 2016. 404 s.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b>	3
I.	<b>I BOB. STATIKA. STATIKANING ASOSIY TUSHUNCHLARI.</b>	5
1.1	Statikaning asosiy tushuncha va qoidalari	5
1.2	Statika aksiomalari	9
1.3	Bog'lanish va bog'lanish reaksiyalar	13
II.	<b>II BOB. KESISHUVCHI KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI</b>	20
2.1	Kuchlar sistemasi va ularning turlari	20
2.2	Kesishuvchi kuchlar sistemasini geometrik usulda qo'shish	22
2.3	Kuchning o'qdagi va tekislikdagi proyeksiyasi	25
2.4	Kuchni analitik usulda aniqlash	26
2.5	Uch kuchning muvozanati haqida teorema	28
2.6	Kesishuvchi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari	29
2.7	Statika masalalarini yechish tartibi	31
2.8	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	32
2.9	Mustaqil yechish uchun masalalar	45
III.	<b>III BOB. TEKISLIKDAGI KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI</b>	51
3.1	Kuchning markaz (nuqta) ga nisbatan momenti	51
3.2	Teng ta'sir etuvchining momenti haqida Varin'on teoremasi	53
3.3	Juft kuch. Juft kuch momenti	54
3.4	Ekvivalent juftlar haqida teorema	55
3.5	Tekislikdagi juftlarni qo'shish. Tekislikdagi juft kuchlar sistemasining muvozanat shartlari	57
3.6	Kuchni o'ziga parallel ko'chirishga oid lemma	60
3.7	Tekislikdagi kuchlar sistemasini berilgan markazga keltirish	61
3.8	Tekislikdagi kuchlar sistemasining muvozanat shartlari	62
3.9	Tekislikdagi parallel kuchlarning muvozanat shartlari	65
3.10	Statik aniq va statik aniqmas masalalar	65
3.11	Taqsimlangan kuchlar	66
3.12	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	69
3.13	Mustaqil yechish uchun masalalar:	80
IV.	<b>IV BOB. FERMA. FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISH KUCHLARINI ANIQLASH. ISHQALANISH.</b>	89
4.1	Ferma haqida tushuncha. Fermalarni hisoblash.	89
4.2	Tugunlarni kesish usuli	94
4.3	Ritter usuli	99
4.4	Maksvell-Kremon diagrammasi	100
4.5	Matritsalar usuli	102
4.6	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	108

4.7	Mustaqil yechish uchun masalalar:	125
V.	<b>V BOB. FAZOVIY KUCHLAR SISTEMASINING MUVOZANATI.</b>	130
5.1	Kuchning markazga nisbatan moment-vektori	130
5.2	Kuchning o'qqa nisbatan momenti	133
5.3	Kuchning o'qlarga nisbatan momentlari uchun Varin'on teoremasi	133
5.4	Kuchning koordinatalar o'qlariga nisbatan momentlarining analitik usulda berilishi	133
5.5	Kuchning o'qqa nisbatan momenti bilan shu o'qdagi nuqtaga nisbatan momenti orasidagi bog`lanish	134
5.6	Juft kuch moment – vektori	136
5.7	Fazodagi juftlarni qo'shish	137
5.8	Fazoda ixtiyoriy joylashgan kuchlarni berilgan markazga keltirish	138
5.9	Fazoviy kuchlar sistemasining muvozanat shartlari	140
5.10	Fazoviy kuchlar sistemasining invariantlari	142
5.11	Kuchlar sistemasini dinamik vintga keltirish	143
5.12	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	148
5.13	Mustaqil yechish uchun masalalar	153
VI.	<b>VI BOB. QATTIQ JISMNING OG'IRLIK MARKAZI.</b>	157
6.1	Parallel kuchlar markazi	157
6.2	Bir jinsli jismlar uchun og'irlilik markazining koordinatalarini aniqlash	161
6.3	Ayrim bir jinsli jismlarning og'irlilik markazlari	168
6.4	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	171
6.5	Mustaqil yechish uchun masalalar:	178
VII.	<b>VII BOB. KINEMATIKANING ASOSIY TUSHUNCHALARI. NUQTA KINEMATIKASI.</b>	181
7.1	Kinematikaning asosiy tushuncha va qoidalari	181
7.2	Nuqta harakatining berilish usullari	182
7.3	Harakati vektor, koordinata hamda tabiiy usulda berilganda nuqtaning tezligi va tezlanishi	185
7.4	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	194
7.5	Mustaqil yechish uchun masalalar	203
VIII.	<b>VIII BOB. QATTIQ JISM KINEMATIKASI.</b>	211
8.1	Qattiq jismning ilgarilanma harakati	211
8.2	Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakati	213
8.3	Tekis va tekis o'zgaruvchan aylanma harakat	216
8.4	Aylanma harakat qilayotgan jism nuqtasining tezlik va tezlanishi	217
8.5	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	220
8.6	Mustaqil yechish uchun masalalar	231
IX.	<b>IX BOB. QATTIQ JISMNING TEKIS PARALLEL HARAKATI.</b>	237

9.1	Qattiq jismning tekis parallel harakati	237
9.2	Tekis shakl nuqtasining tezligini qutb yordamida aniqlash	239
9.3	Jism ikki nuqtasi tezliklarining proeksiyalari haqida teorema	240
9.4	Tekis shakl nuqtasining tezligini tezliklar oniy markazi yordamida aniqlash	242
9.5	Sentroidalar haqida tushuncha	245
9.6	Tekis shakl nuqtasining tezlanishini qutb yordamida aniqlash	246
9.7	Tekis shakl nuqtasining tezlanishini tezlanishlar oniy markazi yordamida aniqlash	248
9.8	Mavzu doirasida masalalar yechish uchun namunalar	251
9.9	Mustaqil yechish uchun masalalar	264
X.	<b>X BOB. NUQTANING MURAKKAB HARAKATI.</b>	268
10.1	Nuqtaning nisbiy, ko‘chirma va absolyut harakati	268
10.2	Tezliklarni qo‘shish haqida teorema	270
10.3	Ko‘chirma harakat ilgarilanma harakatdan iborat bo‘lganda tezlanishlarni qo‘shish	274
10.4	Koriolis tezlanishining moduli va yo‘nalishini aniqlash	274
10.5	Mavzu yuzasidan masalalar yechish uchun namunalar:	277
10.6	Mustaqil yechish uchun masalalar	281
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	285

## ОГЛАВЛЕНИЕ

	<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	3
<b>I.</b>	<b>ГЛАВА I. СТАТИКА. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ СТАТИКИ.</b>	5
<b>1.1</b>	Основные понятия и правила статики	5
<b>1.2</b>	Аксиомы статики	9
<b>1.3</b>	Связи и их реакции	13
<b>II.</b>	<b>ГЛАВА II. РАВНОВЕСИЕ СИСТЕМЫ СХОДЯЩИХСЯ СИЛ</b>	20
<b>2.1</b>	Система сил. Основные виды систем сил.	20
<b>2.2</b>	Геометрический способ сложения системы сходящихся сил	22
<b>2.3</b>	Проекция силы на ось и на плоскость	25
<b>2.4</b>	Аналитический способ определения сил	26
<b>2.5</b>	Теорема о трех силах	28
<b>2.6</b>	Условия равновесия системы сходящихся сил	29
<b>2.7</b>	Порядок решения задач статики	31
<b>2.8</b>	Примеры решения задач	32
<b>2.9</b>	Задачи для самостоятельного решения	45
<b>III.</b>	<b>ГЛАВА III. РАВНОВЕСИЕ ПЛОСКОЙ СИСТЕМЫ СИЛ</b>	51
<b>3.1</b>	Момент силы относительно центра (или точки)	51
<b>3.2</b>	Теорема Вариньона о моменте равнодействующей силы	53
<b>3.3</b>	Пара сил. Момент пары сил.	54
<b>3.4</b>	Теорема об эквивалентности пар	55
<b>3.5</b>	Сложение пары сил в плоскости. Условия равновесия пары сил, находящейся в плоскости	57
<b>3.6</b>	Теорема о параллельном переносе силы	60
<b>3.7</b>	Приведение плоской системы сил к данному центру	61
<b>3.8</b>	Условия равновесия плоской системы сил	62
<b>3.9</b>	Условия равновесия плоской параллельной системы сил	65
<b>3.10</b>	Статически определимые и неопределенные задачи	65
<b>3.11</b>	Распределенные силы	66
<b>3.12</b>	Примеры решения задач	69
<b>3.13</b>	Задачи для самостоятельного решения	80
<b>IV.</b>	<b>ГЛАВА IV. ФЕРМА. ОПРЕДЕЛЕНИЕ УСИЛИЙ В СТЕРЖНЯХ ФЕРМЫ.</b>	89
<b>4.1</b>	Понятие о ферме. Расчет ферм.	89
<b>4.2</b>	Метод вырезания узлов	94
<b>4.3</b>	Метод Риттера	99
<b>4.4</b>	Диаграмма Максвелл-Кремона	100
<b>4.5</b>	Метод матриц	102
<b>4.6</b>	Примеры решения задач	108
<b>4.7</b>	Задачи для самостоятельного решения	125

<b>V.</b>	<b>ГЛАВА V. РАВНОВЕСИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ СИЛ</b>	
		130
<b>5.1</b>	Момент силы относительно центра как векторное произведение	130
<b>5.2</b>	Момент силы относительно оси	133
<b>5.3</b>	Теорема Вариньона для момента силы относительно оси	133
<b>5.4</b>	Аналитические выражения моментов силы относительно координатных осей	133
<b>5.5</b>	Зависимость между моментом силы относительно точки и моментом силы относительно оси, проходящей через эту точку	134
<b>5.6</b>	Момент пары силы как векторное произведение	136
<b>5.7</b>	Сложение пары сил, произвольно расположенных в пространстве	137
<b>5.8</b>	Приведение произвольной пространственной системы сил к данному центру	138
<b>5.9</b>	Условие равновесия произвольной пространственной системы сил	140
<b>5.10</b>	Инварианты произвольной пространственной системы сил	142
<b>5.11</b>	Приведение произвольной пространственной системы сил к динамическому винту	143
<b>5.12</b>	Примеры решения задач	148
<b>5.13</b>	Задачи для самостоятельного решения	153
<b>VI.</b>	<b>ГЛАВА VI. ЦЕНТР ТЯЖЕСТИ ТВЕРДОГО ТЕЛА</b>	157
<b>6.1</b>	Центр параллельных сил	157
<b>6.2</b>	Способы определения координат центров тяжести тел	161
<b>6.3</b>	Определение центра тяжести некоторых однородных тел	168
<b>6.4</b>	Примеры решения задач	171
<b>6.5</b>	Задачи для самостоятельного решения	178
<b>VII.</b>	<b>ГЛАВА VII. ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ КИНЕМАТИКИ. КИНЕМАТИКА ТОЧКИ.</b>	181
<b>7.1</b>	Основные понятия и правила кинематики	181
<b>7.2</b>	Способы задания движения точки	182
<b>7.3</b>	Скорость и ускорения точки при векторном, координатном и естественном способе задания движения	185
<b>7.4</b>	Примеры решения задач	194
<b>7.5</b>	Задачи для самостоятельного решения	203

<b>VIII.</b>	<b>ГЛАВА VIII. КИНЕМАТИКА ТВЕРДОГО ТЕЛА.</b>	211
<b>8.1</b>	Поступательное движение твердого тела.	211
<b>8.2</b>	Вращательное движение твердого тела вокруг неподвижной оси.	213
<b>8.3</b>	Равномерное и равнопеременное вращательное движение	216
<b>8.4</b>	Скорости и ускорения точек вращающегося тела	217
<b>8.5</b>	Примеры решения задач	220
<b>8.6</b>	Задачи для самостоятельного решения	231
<b>IX.</b>	<b>ГЛАВА IX. ПЛОСКОПАРАЛЛЕЛЬНОЕ ДВИЖЕНИЕ ТВЕРДОГО ТЕЛА.</b>	237
<b>9.1</b>	Плоскопараллельное движение твердого тела	237
<b>9.2</b>	Определение скоростей точек плоской фигуры с помощью полюса	239
<b>9.3</b>	Теорема о проекциях скоростей двух точек тела	240
<b>9.4</b>	Определение скоростей точек плоской фигуры с помощью мгновенного центра скоростей	242
<b>9.5</b>	Понятие о центроиде	245
<b>9.6</b>	Определение ускорений точек плоской фигуры с помощью полюса	246
<b>9.7</b>	Определение ускорений точек плоской фигуры с помощью мгновенного центра ускорений	248
<b>9.8</b>	Примеры решения задач	251
<b>9.9</b>	Задачи для самостоятельного решения	264
<b>X.</b>	<b>ГЛАВА X. СЛОЖНОЕ ДВИЖЕНИЕ ТОЧКИ.</b>	268
<b>10.1</b>	Относительное, переносное и абсолютное движение точки	268
<b>10.2</b>	Теорема о сложении скоростей	270
<b>10.3</b>	Сложение ускорений при поступательном переносном движении	274
<b>10.4</b>	Определение модуля и направления ускорения Кориолиса	274
<b>10.5</b>	Примеры решения задач	277
<b>10.6</b>	Задачи для самостоятельного решения	281
	<b>ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА</b>	285

## CONTENTS

	<b>INTRODUCTION</b>	3
<b>I.</b>	<b>CHAPTER I. STATICS, BASIC CONCEPTS OF STATICS.</b>	5
<b>1.1</b>	Basic concepts and rules of statics	5
<b>1.2</b>	Axioms of statics	9
<b>1.3</b>	Connections and their responses	13
<b>II.</b>	<b>CHAPTER II. EQUILIBRIUM OF THE SYSTEM OF CONVERGING FORCES.</b>	20
<b>2.1</b>	Force system. The main types of systems of forces.	20
<b>2.2</b>	Geometrical way of adding a system of converging forces	22
<b>2.3</b>	Force projection into axis and plane	25
<b>2.4</b>	Analytical method for determining forces	26
<b>2.5</b>	Three forces theorem	28
<b>2.6</b>	Equilibrium conditions for a system of converging forces	29
<b>2.7</b>	Procedure for solving static problems	31
<b>2.8</b>	Examples of problem solving	32
<b>2.9</b>	Tasks for independent solution	45
<b>III.</b>	<b>CHAPTER III. EQUILIBRIUM OF A PLANE SYSTEM OF FORCES.</b>	51
<b>3.1</b>	Moment of force relative to the center (or a point)	51
<b>3.2</b>	Varignon's theorem on the moment of the resultant force	53
<b>3.3</b>	A pair of forces. A moment of a pair of forces.	54
<b>3.4</b>	Theorem of pairs equivalence	55
<b>3.5</b>	Addition of a pair of forces in a plane and the equilibrium conditions	57
<b>3.6</b>	Parallel force transfer theorem	60
<b>3.7</b>	Reducing a flat system of forces to a given center	61
<b>3.8</b>	Equilibrium conditions for a plane system of forces	62
<b>3.9</b>	Equilibrium conditions for a plane parallel system of forces	65
<b>3.10</b>	Statically definable and indefinable tasks	65
<b>3.11</b>	Distributed forces	66
<b>3.12</b>	Examples of problem solving	69

<b>3.13</b>	Tasks for independent solution	80
<b>IV.</b>	<b>CHAPTER IV. TRUSS. DETERMINATION OF FORCES IN THE TRUSS RODS.</b>	89
<b>4.1</b>	Concept of a truss. Calculation of a truss	89
<b>4.2</b>	Method of units cutting	94
<b>4.3</b>	Ritter method	99
<b>4.4</b>	Maxwell-Cremona diagram	100
<b>4.5</b>	Matrix method	102
<b>4.6</b>	Examples of problem solving	108
<b>4.7</b>	Tasks for independent solution	125
<b>V.</b>	<b>CHAPTER V. EQUILIBRIUM OF THE SPATIAL SYSTEM OF FORCES.</b>	130
<b>5.1</b>	The moment of force about the center as a vector product	130
<b>5.2</b>	Moment of force about the axis	133
<b>5.3</b>	Varignon's theorem for the moment of force about an axis	133
<b>5.4</b>	Analytical expressions of the moments of force about the coordinate axes	133
<b>5.5</b>	The relationship between the moment of force about a point and the moment of force about an axis passing through this point	134
<b>5.6</b>	Moment of a pair of force as a vector product	136
<b>5.7</b>	Addition of a pair of forces arbitrarily located in space	137
<b>5.8</b>	Reduction of an arbitrary spatial system of forces to a given center	138
<b>5.9</b>	Equilibrium condition for an arbitrary spatial system of forces	140
<b>5.10</b>	Invariants of an arbitrary spatial system of forces	142
<b>5.11</b>	Reduction of an arbitrary spatial system of forces to a dynamic screw	143
<b>5.12</b>	Examples of problem solving	148
<b>5.13</b>	Tasks for independent solution	153
<b>VI.</b>	<b>CHAPTER VI. RIGID BODY CENTER OF GRAVITY.</b>	157
<b>6.1</b>	Center of parallel forces	157
<b>6.2</b>	Methods for determining the coordinates of the centers of gravity of bodies	161
<b>6.3</b>	Determination of the center of gravity of some homogeneous bodies	168
<b>6.4</b>	Examples of problem solving	171
<b>6.5</b>	Tasks for independent solution	178
<b>VII.</b>	<b>CHAPTER VII. BASIC CONCEPTS OF KINEMATICS. KINEMATICS OF THE POINT.</b>	181

<b>7.1</b>	Basic concepts and rules of kinematics	181
<b>7.2</b>	Ways to set point motion	182
<b>7.3</b>	Normal and tangential acceleration of the point	185
<b>7.4</b>	Examples of problem solving	194
<b>7.5</b>	Tasks for independent solution	203
<b>VIII.</b>	<b>CHAPTER VIII. KINEMATICS OF RIGID BODY.</b>	211
<b>8.1</b>	The translational motion of a rigid body.	211
<b>8.2</b>	Rotational motion of a rigid body around a fixed axis.	213
<b>8.3</b>	Uniform and uniformly variable rotating motion	216
<b>8.4</b>	Velocities and accelerations of points of a rotating body	217
<b>8.5</b>	Examples of problem solving	220
<b>8.6</b>	Tasks for independent solution	231
<b>IX.</b>	<b>CHAPTER IX. PLANE-PARALLEL MOTION OF RIGID BODY.</b>	237
<b>9.1</b>	Plane-parallel motion of rigid body	237
<b>9.2</b>	Determining the velocities of points in a flat figure using a pole	239
<b>9.3</b>	Theorem on the projections of the velocities of two points of a body	240
<b>9.4</b>	Determination of the velocities of points of a flat figure using the instant center of velocities	242
<b>9.5</b>	Notion of a centroid	245
<b>9.6</b>	Determining the acceleration of points of a flat figure using a pole	246
<b>9.7</b>	Determining the acceleration of points of a flat figure using the instant center of accelerations	248
<b>9.8</b>	Examples of problem solving	251
<b>9.9</b>	Tasks for independent solution	264
<b>X.</b>	<b>CHAPTER X. COMPLEX MOTION OF A POINT.</b>	268
<b>10.1</b>	Relative, transport, and absolute motion of a point	268
<b>10.2</b>	Velocities addition theorem	270
<b>10.3</b>	Addition of accelerations under translational transport motion	274
<b>10.4</b>	Determination of the modulus and direction of Coriolis acceleration	274
<b>10.5</b>	Examples of problem solving	277
<b>10.6</b>	Tasks for independent solution	281
	<b>REFERENCES</b>	285

**MIRSAIDOV MIRZIYOD  
DONAYEV BURXON  
XUDAYNAZAROV SHERZOD  
ALMARDONOV OYBEK**

## **NAZARIY MEXANIKA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida foydalanishga  
tavsiya etilgan*

Muharrir: **B. Musayev**

Musahhih: **I. Tog'ayev**

Texnik muharrir: **M. Tog'ayev**

Kompyuterda sahifalovchi: **A. Abdiraxmonova**

**Tasdiqnomalar. 5165, \_\_\_\_\_.**

Terishga berildi: \_\_\_\_\_ 2022 y.

Bosishga ruxsat etildi: \_\_\_\_\_ 2022 y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.

“Times UZ”gar. Ofset bosma.

Hisob nashriyot t.: 15,32. Shartli b. t.: 15,40.

Adadi: \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma №

«\_\_\_\_\_» nashriyotida tayyorlandi.

\_\_\_\_\_ bosmaxonasida chop etildi.

100000. Toshkent shahri, Q.Niyoziy, 39 – uy.